

ISSN : 3030-3974

MAKON VA ZAMON

Пространство и время
Space and time

№6
2025

MAKON VA ZAMON

ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy,
siyosiy-sotsiologik, ma'naviy-ma'rifiy jurnal

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi 01-08/3646-son qaroriga muvofiq siyosiy, tarix, falsafa, pedagogika va sotsiologiya fanlari bo'yicha dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

M u a s s i l a r: "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti va O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati

Tahririyat: *t.f.d., professor, akademik O.Salimov, f.f.d., professor*
M.Abdullayeva, s.f.d., professor A.Muminov, f.f.d., professor O'.Abilov, p.f.d., professor
R.Choriyev, p.f.d., professor Z.Ismoilova, f.f.d., professor J.Ramatov,
i.f.d., dotsent X.Pirmatov, s.f.d., dotsent – A.Ravshanov

ISSN 3030-3974

Bosh muharrir – tahririyat rahbari:
Qiyom Nazarov – *f.f.d., professor*

Nashrga tayyorlovchilar:
M.Tursunova, M.Turdiyeva, Q.Kdirbayev

Tahririyat manzili: Qori Niyoziy ko'chasi, 39,
Toshkent shahri, 100000,
Bichimi 60x84 Ofset qog'ozi. "Times" garnituras.
Hajmi 20 b.t. Nashriyot hisob tabog'i 30 b.t. Adadi 100 nusxa

MUNDARIJA:

Бош муҳаррир минбари	Миллий истиқлол ғояси концепцияси тарихига доир баъзи қайдлар.....	5
I.Saifnazarov F.Saifnazarova	Ekologik barqarorlikni ta'minlashda sun'iy intellekt imkoniyatlari.....	10
P. Жуманиёзов	Мирзо Бобурнинг ҳарбий нотиклик маҳорати.....	14
J.Yusubov	Abu Nasr Forobiy merosida musiqa ilmi haqidagi fikrlari.....	18
З.Ёдгоров	Янги Ўзбекистонда баркамол авлодни тарбиялашда жисмоний тарбия ва спортнинг аҳамияти.....	22
Б.Узоков	Янги Ўзбекистон – умуминсоний ва миллий қадриятларга асосланган фуқаролик жамиятини барпо этиш сифатида.....	26
А.Якубов	Диний экстремизм ва терроризмга қарши кураш бўйича халқаро ҳамкорлик асослари.....	29
A.Xudayberdiyev	Uzluksiz ta'lim va axborot sohasidagi islohotlarning o'zaro integratsiyasi.....	33
A.Otokulov	Jamiyatda ma'naviy-axloqiylikni yuksaltirishda tolerantlik fazilatining ro'li.....	37
Z.Xayitmatov	Yoshlarning dunyoqarashida IT sohasini rivojlanishining ahamiyati.....	42
D.Kamilov	Ong sinkretizimiga ratsional va mifologik omillarning ta'siri.....	46
А.Равшанов Ш.Тоҳирова	Глобаллашув шароитида замонавий жамиятда ахлоқий инқирознинг сабаблари ва омиллари.....	51
Z.Botirov	Jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy davlat g'oyasining evolyutsiyasi.....	55
O.Abduvaliyev	Fuqarolarning huquqlari – Konstitutsiyaviy qadriyatdir.....	59
Sh.Ibragimova	Globalashuv sharoitida yoshlar qadriyatlarining o'zgarishi.....	62
D.Ochilova	Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda Sharq mutafakkirlarining ma'naviy merosidan samarali foydalanish.....	65
M.Maxammatova	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkur erkinligini shakllantirish omillari.....	69
I.Axmedov	Ijtimoiy va ma'naviy sohadagi g'oyalar transformatsiyasining asosiy omillari.....	74
Ш.Якубова	Ўзбекистонда истиқлол йилларида фармацевтика фанидаги ишлохотлар	77
В.Шамшиева	Инсон қадрини юксалтиришда маҳалланинг ўрни.....	80
M.Xamrayeva	Geomafkuraviy jarayonlarda millatlararo totuvlik strategiyasining ijtimoiy-falsafiy tahlili.....	83
O.G'aniyev	Bo'lajak o'qituvchilar metametodik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy talqini.....	86

G.Umaraliyeva	Gibrid estetika: plastik xirurgiya va raqamli go‘zallik.....	90
Г.Нишонбоева	Янгиланаётган Ўзбекистонда маданий тараққиёт механизмининг ташкилий - тарбиявий миссияси.....	94
Д.Қорабоева	Многоязычие и философия толерантности в Узбекистане.....	97
U.Azamov	Bo‘lajak pedagoglarda empatiya va kommunikativ kompetensiyani shakllantirish usullari.....	100
Q.Kdirbayev	Axborotlashgan jamiyatda yoshlar qadriyatlarining transformatsiyasi.....	104
A.Bobokulov	Semiokognitiv aprior nomlash orqali sun‘iy intellektning o‘z-o‘zini konseptual qayta qurish jarayonini modellashtirish.....	107
Г.Азаматова	Жиззах вилоятининг ички ва ташқи миграцияси ҳолати (статистик маълумотлар асосида).....	111
N.Kodirov	Axborot madaniyati globallashuvida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unlashuvi.....	115
M.Davletova	O‘zbekistonda ijtimoiy davlat rivojining ijtimoiy-falsafiy jihatlari.....	119
D.Abdimalov	Davlat xizmatlari va fuqarolik mas‘uliyati uyg‘unligi.....	122
A.Ochilov	Kiberfalsafada mas‘uliyat va axloq: klassik va zamonaviy yondashuvlar	126
Sh.Rustamova	Talabalar tadqiqot ishlari va ilmiy loyihalarini tashkil etishning zamonaviy pedagogik-innovatsion texnologiyalari.....	130
O.Maxmudov	Korrupsiya: kelib chiqishi, ma‘nosi, asosiy jihatlari va belgilari.....	134
Z.Xaqiqatbekov	Oliy ta‘lim muassasalarida ijtimoiy muhit va talabalar salomatligi o‘rtasidagi bog‘liqlik.....	138
G.Muminova	Ustrushonada kulollik tarixining o‘rganilishi.....	142
S.Tursunova	Maktab o‘quvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishda tarix fani o‘qituvchisining roli va kasbiy kompetensiyalari.....	146
B.Hakimov	Ekzistensializmda nogironlikning o‘rni: cheklanish va imkoniyat.....	150
J.Rahmonjonov	Korrupsiyaning ijtimoiy oqibatlarini.....	153
H.Xoshimov	Globalizatsiya sharoitida yoshlarning iqtisodiy identikligi va milliy qadriyatlar muvozanati.....	156
J.Nuridinov	Rabindranat Tagorning “Inson dini” asarida ilgari surilgan ilohiylik tushunchasining konseptual tahlili.....	160
Y.Kamalova	Talabalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda axloqiy komponentlarning roli.....	164
R.Abdurahimov	Huquqiy ong va milliy qadriyatlar tushunchalarining falsafiy mazmuni hamda o‘zaro bog‘liqligi.....	168
D.Jo‘rayeva	Filologiya o‘quv dasturlarida tanqidiy fikrlashni integratsiyalash mexanizmlari.....	171

F.Esanov	Milliy qadriyatlar va zamonaviylikning uyg'unlashuvida jadidchilik ta'limotining ijtimoiy falsafiy ahamiyati.....	175
M.Zokirov	Nega ayrim davlatlar rivojlanadi, boshqalari esa ortda qoladi?.....	179
A.Axmedov	Ta'lim jarayonida amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish.....	183
A.Axraxodjayev M.Turdiyev	O'zbekistonning markaziy osiyodagi diplomatik roli va yangi tashqi siyosat yo'nalishlari.....	186
N.Hamroyev	Ilm va tarbiya orqali jamiyatni isloh qilish: Muhammad Abdoning pedagogik va ijtimoiy qarashlari.....	190
B.Xasanov	"Fleshmob" tushunchasi va uning jamiyatga zarari.....	194
A.Xomidjonov	Ta'lim jarayonida innovatsion metodlarni baholash va monitoring qilish tizimi.....	197
Г.Холбоева	Миллий қадриятларимиздан бирининг генезиси ва тақомили ҳақида	201
Н.Хушвақова	Блогосфера: қисқача илмий таҳлил.....	205
A.Meliboev	Kambag'allik tushunchasining mazmun-mohiyati va unga qarshi kurashning ijtimoiy-falsafiy asoslari.....	209
K.Mirjonova	Fuqarolik jamiyati institutlari tizimida diniy tashkilotlarning o'rni va roli	213

Бош муҳаррир минбари

МИЛЛИЙ ИСТИҚЛОЛ ҒОЯСИ КОНЦЕПЦИЯСИ ТАРИХИГА ДОИР БАЪЗИ ҚАЙДЛАР

Ғояларнинг дунёга келиши ва тадрижига доир тадқиқотлар шундан далолат берадики, барқарор жамият қуриш, бахтли ва фаровон ҳаёт кечириш орзуси инсоният тарихининг энг қадимги давралидани бошлаган. Аллома бобомиз Берунийнинг бундан минг йил илгари ёзилган “Ҳиндистон” асарида қадимги юнонлар ва ҳиндларнинг тафаккур тарзи ва унинг асоси бўлган ғоялар тизими қарийб бир хил бўлгани ҳақида бежиз ёзилмаган. Бу билан аллома ватандошимиз Шарқ ва Ғарб тафаккурининг эгизаклиги, бирида пайдо бўлган ғояларнинг иккинчисидан айру эмаслигини, яъни ғоялар соционикасининг умуминсоний характерга эгалигини гениал тарзда исботлаган.

Қадимги Хитой халқининг доно файласуфи Конфуцийнинг “Фаровонлик - мақсад, ислохотлар - унга эришиш йўли, барқарорлик эса унинг кафолатидир” деган стратегемаси бор. Шу элнинг яна бир донишманди Лао Цзининг “Халқни ислохотчига, ҳар бир хонадонни табдиркорга айлантиринг ва ана шулар фаровонликка эришишнинг асосий имкониятидир” деган ҳикмати ҳам бор. Айни шундай ғоялар Хитой халқини қадимги замонлардан бошлаб барқарорликни маҳкам ушлаб, фаровонлик сари интиладиган ислохотчи халққа айлантирган. Натижа эса маълум. Мазкур элда юз йилларга чўзилган ислохот давлари бўлган. Қанчадан қанча йиллар ўтса ҳам халқнинг кўплаб авлодлари шу йўлдан оғишмай бораверган. Ва бу Хитойни улкан давлатга, барқарор мамлакатга ва бутунгидек фаровон ҳаётга етаклаган.

Бизнинг юртимиз ўтмиши ва тадрижида ҳам фаровон яшаш орзуси барча замонларда бирор-бир тарзда намоён бўлиб турган. Боболаримизнинг энг қадимги осори-атикаларидан бири “Авесто”да бу ҳақдаги нидолар ва умидлар жамланган мисралар борлиги, қадимги туркий тош битикларда ҳам ушбу анъананинг ўзига хос излари мавжудлиги асло тасодиф эмас. Узоққа бормаёлик, Соҳибқирон Амир Темурнинг мингта табдирсиз ва ношуд кишилардан кўра, битта табдиркор инсоннинг афзаллиги ҳақидаги фикрлари бежиз ёзилмаган. Алишер Навоийнинг “Дехқонки дона сочар, ўз ризкин ўзи очар” деган мисралари ҳам ана шу фикрларга уйқашлиги кўриниб турибди.

Кейинги йилларда ушбу мавзу ҳақида ижтимоий тармоқларда бир қанча чиқишлар бўлди, турли фикр-мулоҳазалар баён қилинмоқда. Бунда Миллий истиқлол ғояси концепциясини тайёрлаш жараёнида бевосита қатнашганлардан кўра, ундан мутлақо хабари йўқлар кўпроқ чиқишлар қилмоқда. Аксарият ҳолларда эса, айрим муаллифлар томонидан жараён иштирокчиларини турли масалаларда айблаш ҳолатлари устиворлик қилмоқда.

Аввало, бу борадаги ҳақиқатларни аниқлашда бевосита иштирокчи бўлганларнинг фикрларини ҳисобга олиш, уларнинг нима сабабдан бу ишга бош қўшганлари ва ушбу мавзуда 2000 йилда тайёрланиб, “Ўзбекистон” нашриётида чоп этилган “Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллари” китобчасининг қай тарзда яратилгани ҳақидаги гувоҳликлари муҳим аҳамиятга молик, деб ҳисоблайман.

Хусусан, бу соҳада ўша жараёнларнинг бевосита иштирокчиси, ф.ф.д, профессор Бахтиёр Тўраевнинг “Ислом Каримов – миллий ғоя ва мафкура концепцияси асосчиси” мавзусидаги мақоласи (08.01.2018) бу борадаги фаолиятнинг бошланишига доир воқеалар тадрижига муайян ойдинлик киритган манба эканлигини таъкидлаш лозим. Ушбу мақолада жараённинг 1999 йил март ойигача бўлган тадрижига доир маълумотлар ва муаллифнинг ўша йили 2 март куни Президент қабулида бўлгани, давлат раҳбарининг шу ҳақдаги мулоҳазалари мухтасар тарзда баён қилинган. Мақола ниҳоясида муаллиф “Шундан кейин, қисқа вақт ичида “Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва

тамойиллари” китобчасининг асосий андазаси ишлаб чиқилди. Бу китобчани тайёрлаш жараёнида И.А.Каримов ўзларининг қимматли маслаҳатлари билан фаол қатнашдилар. Китобча тайёр бўлгач, унга шахсан ўзлари сўзбоши ёзиб бердилар. Китобча 2000 йили “Ўзбекистон” нашриётида нашрдан чикди” деган сўзлар билан бу борадаги фикрларни яқунлайди.

Ушбу мақола “Миллий истиқлол ғояси концепцияси” деб аталган ҳужжат ва у асосида чоп этилган “Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар” китобчасининг тайёрланиши фаол жараёни бошланишигача бўлган давр ҳақидаги тасаввурларимизни ойдинлаштиради. Бу соҳадаги ишларнинг тасодиф бўлмаганидан далолат беради. Айни пайтда, бу борада муаллиф “Шундан кейин...” деб тавсифлаган ва “...қисқа вақт ичида” дея таърифлаган даврда, яъни 1999 йил март ойидан кейин жараён қандай давом этди? Бу борадаги ишлар қандай ташкил қилинган эди ва жараён тадрижи қай тарзда кечди?

Нафсиламбирини айтганда ўша йил охиригача бу борада бирор бир ҳужжат қабул қилинмади, ишларни мувофиқлаштиришга ҳам етарлича эътибор бўлмади. Аммо ўша йилнинг охирларига келиб Раҳбарият томонидан бу йўналишдаги ишларнинг кўнгилдагидек бормаётгани таъкидланди ва жараёни мувофиқлаштириш вазифаси Давлат маслаҳатчисига ҳамда 1998 йилдан буён Президент девонида бир хонада ишлаб келаётган ф.ф.д., профессорлар Ў.Абилов ва Қ.Назаровларга топширилди.

2000 йилнинг апрелигача, яъни бир йил давомида бу йўналишда қатор тизимли ишлар амалга оширилди, концепцияни тайёрлаш режаси ва ишчи гуруҳ таркиби шакллантирилди, Девон ходими О.Юсупов “Умуммиллий ғоя: шаклланиш омиллари ва тамойиллари” мавзусидаги номзодлик диссертациясини ҳимояга тайёрлади, бир неча нашрлар қилинди (Масалан, Абилов.Ў. “Миллий ғоя: маънавий омиллар”, Қ.Назаров “Тараққиётнинг умуммафкуравий тамойиллари” рисолалари).

2000 йил бошида Файласуфлар миллий жамияти раҳбариятида ўзгаришлар бўлди, Қ.Назаров унинг раиси этиб сайланди. Давлат раҳбари қабулида жамият раисига бу борадаги нуқсон ва камчиликлар борлиги таъкидланиб, уларни бартараф этиш ишларини ташкил этишга доир фикрлар билдирилди. Тез орада Жамият ўзининг иш манзилига ва банкда ҳисоб рақамига эга бўлди, муҳри ва герби тасдиқланди, Низомда белгиланган миллий ғоя бўйича аниқ ишларни амалга оширишга доир фаолият режаси тузилди ва уни белгиланган муддатларда амалга ошириш чоралари кўрилди.

2000 йил 6 апрелда ва 28 апрелда Давлат раҳбари томонидан «Миллий истиқлол ғояси» мавзусига бағишланган мажлислар ўтказилди, концепцияни тайёрлаш бўйича ижодий гуруҳ тузилди, шу йил июнь ойида “Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллари” рисоласи эълон қилинди. Ишчи гуруҳ томонидан тайёрланган ва расмий тилда ёзилган ҳужжатнинг рисолага айланиши ва халқчил тилда баён этилиши жараёни иштирокчиси сафатида гувоҳлик беришим мумкинки, бу борада атоқли ёзувчи ва давлат арбоби Ҳайриддин Султонов, таниқли ва ниҳоятда иқтидорли журналистлар Аҳмадхўжа Тошхўжаев (Аллоҳ раҳмат қилсин) ва Муртазо Қаршибоевларнинг хизмати катта бўлган.

Рисола ниҳоясида унинг Файласуфлар миллий жамияти аъзоларидан иборат ижодий гуруҳ томонидан тайёрлангани алоҳида таъкидлангани бежиз эмас. Ҳақиқатан ҳам ўша йилларда ушбу ташкилот фаол ишлади, халқни бирлаштирадиган умуммиллий ғоя ва жамият мафкурасини яратишга ҳаракат қилди. Бу борада қатор ишлар амалга оширилди, умуммиллий ғояни узлуксиз таълим тизими ва ижтимоий фанлар орқали сингдиришга ҳаракат қилинди. Мактаблар учун «Одобнома», «Ватан туйғуси», «Миллий ғоя ва маънавият асослари», олий ва ўрта таълим учун «Миллий истиқлол ғояси» фанлари ишлаб чиқилди ва амалиётга жорий этилди. Дарсликлар ва қўлланмалар яратилди, кўргазмалар воситалар тўпламлари, шу мавзуда луғат, монографиялар ва рисолалар чоп этилди.

Бу борадаги ишларни мувофиқлаштириш мақсадида Ўзбекистон Президентининг Фармойишига кўра 2021 йил феврилида Махсус методологик комиссия тузилди ва у

тизимли иш олиб борди. Унгача эса ушбу соҳада Концепцияни яратиш учун тузилган ижодий гуруҳ иш олиб борган эди. Нафақат узлуксиз таълим тизими, балки жамиятнинг барча жабҳаларида ушбу йўналишда ғоявий-тарбиявий, таълим ва тарғибот ишлари олиб борилди. Бундай кенг доирадаги ва серқирра фаолиятда нафақат файласуфлар, балки кўплаб атоқли зиёлилар, олимлар ва адиблар, турли даражадаги раҳбар ходимлар иштирок этдилар.

Бу масалада Концепцияни яратиш учун тузилган ижодий гуруҳ ҳамда Махсус методологик комиссия таркиби ушбу жараён умумий иш сифатида ташкил этилганини яққол кўрсатади. Масалан, 2000 йилда Методологик комиссия таркиби қуйидагича тузилган эди: Т.Рисқиев – комиссия раиси, академик, Президент мақслахатчиси; Қиём Назаров – комиссия раиси ўринбосари, профессор, Президент девони масъул ходими; Ғайрат Шоумаров – комиссия масъул котиби, профессор, Президент девони масъул ходими. Комиссия аъзолари: Ҳ.Кароматов – Бош вазир ўринбосари; Ҳ.Султонов – атоқли адиб, Президент маслахатчиси; Р.Жумаев – Президентнинг матбуот котиби; Р.Қосимов – Олий таълим вазири ўринбосари; Р.Аҳлиддинов – Халқ таълими вазири ўринбосари, Р.Жўраев – профессор, Ўрта таълим тизими раҳбари; Б.Тўраев – профессор; Д.Алимова – профессор; А.Умаров – профессор; С.Мамашוקиров – профессор; М.Қуронов – профессор; В.Каримова – профессор; М.Ортиқов – доцент; А.Очилдиев – доцент; Н.Қувватов – доцент.

Ўша йилларда Метод комиссия ниҳоятда режали ва тизимли фаолият юритди, дастлаб ҳар ҳафтада, кейинроқ эса ҳар ойда йиғилишлар ўтказди, тадбирлар режасинига оғишмай амал қилди. Республика маънавият ва маърифат маркази, Президент ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси, Ўзбекистон миллий университети ва Низомий номидаги педагогика университетлари бу борадаги етакчи ташкилотлар сифатида иш олиб бордилар. 17 та олий ўқув юртида ушбу йўналишда бакалаврлар ва магистрлар тайёрлаш йўлга қўйилган эди. 2002 йил охирларида Президент девонида иш бошлаган ф.ф.д, профессор Фахриддин Мусаев кейинги йиллардаги жараёни мувофиқлаштириш ишларида фаол қатнашди.

Бугунги кунга келиб, ўша давр ва Миллий ғоя концепцияси, уни яратишда иштирок этганлар тўғрисида турлича фикрлар бўлмоқда. Давр воқеликларидан яхши хабардор бўлмаган кишиларнинг соҳага хилма-хил ёндашувлари, баъзида «ғоя» ва «мафкура», «миллий ғоя» ва «маънавият» атамаларини қўллаш керак эмаслиги ҳақидаги истехзоли фикр-мулоҳазалари, айрим ҳолларда эса, жараённинг фаол иштирокчиларига нисбатан очикдан-очик айбловлар ҳам йўқ эмас. Бу борада айниқса ушбу жараёнда Миллий истиқлол ғояси концепциясини тузиш ва уни амалга ошириш, мазкур соҳадаги монографиялар, китоблар ва рисоалар, дарсликлар ва ўқув қўлланмалари ҳамда бошқа адабиётларни яратиш ишларининг мувофиқлаштирувчиси бўлганим учун ўзимга ҳам таънаю-дашномлар ҳалигача давом этаётгани ҳам бор гап. Ушбу мақолани тайёрлашга ҳам яқинда ижтимоий тармоқда ана шундай уринишлардан бири рўй бергани сабаб бўлди. Бунинг яна бир сабаби эса, умрнинг ўткинчилиги, воқеалар иштирокчиларидан айримларининг бу дунёни тарқ этиб кетишгани ва қолганларининг ҳам кексайиб бораётгани, турлича талқинларнинг давом этаётгани ва асл ҳақиқатоарни тарих саҳифалари беркитиб кетаётгани билан боғлиқ, эканини англаб турган бўлсангиз керак. .

Аслида, ўшанда бу жабҳада нима ҳодиса рўй берган ва барча ишлардан қандай асосий мақсад кўзланган эди? Нималарга эришилди ва қандай хатоларга йўл қўйилди? Ўтган даврдан қандай хулосалар чиқариш ва қандай сабоқ олмоқ керак? Баъзилар назарида «нотўғри» ва «фойдасиз» бўлган ўша жараёнда тарбияланган ёшларнинг маънавий қиёфаси ва мафкуравий менталитети кейингиларникидан юқорими ёки пастми? Бундан 15 йил илгариги авлод ғоявий мўртроқ ва маънавий кучсизроқми ёки ҳозиргилар улардан кўра мафкуравий мўртроқ ва маънавий заифроқми? Бу саволлар нафақат кеча ва бугун, балки яқин келажакда ҳам муқаррар равишда жавобини кутадиган ва бундан зарур

сабоқлар чиқариш учун асос бўладиган ўткир ҳаётий масалалар билан боғлиқ бўлганидан ўз долзарблигини сақлаб қолавериши шубҳасиз.

Маълумки, концепция яратилган 2000 йилда истиқлолга эришилганига ҳали 10 йил ҳам бўлмаган, жамиятда муайян даражада ғоявий тарқоқлик ҳукм сураб, эски мафкурадан таъсирланганлар ва уни қўмсовчилар оз эмас эди. Ўша шароитда фикрлар хилма-хиллиги ва қарашлар ранг-баранглиги билан боғлиқ демократия тамойилларига дахл қилмасдан, жамиятимизнинг бош ғояларини белгилаш, кишиларнинг онгида ўрнашиб қолган «коммунистик ғоя» тушунчаси ўрнига «миллий ғоя» тушунчасини сингдириш мафкура соҳасидаги асосий мақсад ва устувор вазифа эди. Ҳолбуки, бу вазифани уддалаш муддати 2010 йилгача қилиб белгиланган эди.

Бугунги кун реаллиги нуқтаи назаридан айтиш мумкинки, ўша даврда бу вазифа бажарилди, яъни 2010 йилга келганда «коммунистик ғоя» тушунчаси халқимизнинг сиёсий лексиконидан чиқиб кетган ва унинг ўрнига «миллий ғоя» тушунчаси фуқароларимиз онгига сингиб бўлган эди.

Албатта, бу борада камчиликлар бўлмаган, турли объектив ва субъектив хатоларга йўл қўйилмаган, деган фикрдан мутлақо йироқмиз. Айниқса, бу соҳага жон койитмайдиган ва мутахассис бўлмаган, баъзи ҳолларда эса, фойда олиш ва маблағ орттиришни мақсад қилганларнинг аралашиб қолиши, нафақат аралашуви, балки бундайларнинг турли даражадаги масъуллар орасида ҳам мавжуд бўлгани, 2003 йилдаёқ Махсус методологик комиссиянинг тарқалиб кетиши ва мувофиқлаштириш ишларининг ўз ҳолига ташлаб қўйилиши, соҳада ташкил қилинган мониторинг ишларининг барҳам топгани ҳамда йўл қўйилган хатолар ва камчиликларга ўз вақтида барҳам берилмагани соҳага зиён келтиргани шубҳасиз.

Биргина узлуксиз таълим тизимида дастлабки икки ўқув йилида «Миллий ғоя» тушунчасини ўқувчилар ва талабалар онгига сингдириб олишга мўлжалланган ва табиий равишда бир-бирини такрорлайдиган ўқув дастурларининг 2002–2003 ўқув йилидан сўнг зудлик билан ўзгартирилмагани ва такрорларнинг барҳам топтирилмагани, кимлар томонидандир соҳага ҳуқуқ бўйича талабаларни тайёрлаш тизимининг бир қисми атайлаб ва мутлақо кераксиз тарзда қўшиб қўйилгани ва бу ҳолат кўплаб коррупцион воқеликларга сабаб бўлгани, ушбу ноқисликларнинг ҳатто 2010 йилдан кейин ҳам сақланиб қолгани соҳа учун кечириб бўлмас камчилик, тўғрироғи маънавий-мафкуравий фожа эди. Афсуски бундай ноқисликлар кўп бўлди ва бу мафкура соҳасининг кадрсизланишига, кейинроқ эса, ғоявий тарбия жабҳасининг таназзулига, соҳага доир таълим-тарбия ва ўқув фанларининг ниҳоятда жиддий обрўсизланишига олиб келди.

Тарих фалсафаси шундайки, ҳаётда ҳам, илм-фанда ҳам ҳар қандай жараён изсиз кетмайди. Бирор-бир соҳадаги тажриба эса, яхши ва ёмон натижаларга олиб келганидан қатъи назар, муайян оқибатларга сабаб бўлади ва албатта бундан хулосалар чиқариш ёки сабоқ олиш зарурати сақланиб қолаверади. Хуллас, бугунги кун реаллиги нуқтаи назаридан ўша даврдаги мафкуравий жараёнлар ва уларнинг фаол иштирокчиларига нисбатан турлича қараш, хилма-хил баҳо бериш мумкин ва бу ҳам табиий албатта.

Аммо бу борада ҳеч ким, яъни ғоя ва мафкура тарафдорлари ҳам, унинг муҳолифлари ҳам назардан қочирмаслиги керак бўлган ва ҳеч қачон йўқолиб кетмайдиган объектив қонуниятлар ва тарихда исботланган ҳақиқатлар бор ва улар қуйидагилардан иборат:

–биринчидан, мафкура соҳаси ва бу борадаги амалиёт ҳеч қачон барча учун ёқимли ва кишини аллалайдиган, мисоли болдек ширин ва асалдек мазали амалиёт бўлмаган. Бу соҳа кишини ўзига маҳлиё ва мафтун қиладиган ёқимли куй-қўшиқлар, ашула ва рақслар, назм ва наво, адабиёт ва санъат, ахлоқ ва маданият тамойилларидан мутлақо фарқ қиладиган, объектив зарурат тарзида намоён бўладиган ва муқаррар тарзда амал қилишни тақозо қиладиган, фақатгина ўзига хос аччиқ, яъни мисоли туздек тахир ва нордон

тамойилларга эга мафкуравий майдон ва ғоявий тарбия амалиёти ва шундай бўлиб қолаверади;

–иккинчидан, мафкура соҳаси билан ҳисобланиладими йўқми, унга эътибор бериладими йўқми, бундан қатъи назар, ушбу соҳа амал қолаверади ва муқаррар тарзда жамият ҳаётининг таркибий қисми сифатида сақланиб қолаверади. Ўз навбатида бу, мафкуравий тамойилларни аниқ-тиниқ белгилаб олиш ва ушбу соҳада ғоявий тарбиявий фаолиятини тизимли йўлга қўйиш эҳтиёжнинг сақланиб қолишига сабаб бўлади. Ушбу эҳтиёжнинг англаниши ёки англанмаслиги эса, мутлақо бошқа масала бўлиб ҳисобланади;

–учинчидан, бу борадаги қонуниятларга амал қилмаслик ва эътибор бермаслик «мафкурасизлик», «ғоясизлик» деб аталадиган ҳолатлар пайдо бўлишига олиб келади ва бу жамият учун ниҳоятда аянчли натижаларга сабаб бўлади. Бамисоли овқатга тузни кўп солсангиз тахир ва аччиқ, кам солсангиз ёки мутлақо солмасангиз мазасиз бўлиб қолгани сингари, жамиятда ғоя ва мафкура таъсирининг ҳаддан ортиши уни буғиб қўйади ва ўзига хос «идеологизatsiя»ни шакллантиради, ушбу омиллар таъсирининг барҳам топтирилиши эса, жамиятнинг бемазалашувига олиб келади ва ўзига хос «деидеологизatsiя»ни вужудга келтиради. Ғоясизлик ва мафкурасизлик эса, муқаррар равишда ўз маконида мустаҳкам ғоявий тамойилларга амал қилмаслик, бу борадаги маънавий-маърифий, сиёсий ва ижтимоий тафаккурнинг таназзули ва албатта, ўзгалар ғоясига, бошқаларнинг мафкураси ва андозаларига бош эгишга олиб келади;

–тўртинчидан, буларнинг барчаси эса, ҳар бир мамлакат, давлат ўзининг устувор ғоя ва мафкуравий мақсадларини аниқ-тиниқ белгилаб олиши, ўз сарҳадлари ва чегараларини муттасил мафкуравий ихоталаб туриши, бу йўлдан собитқадамлик билан бориши, ўз ҳудудида яшовчи аҳолининг мафкуравий иммунитетини доимий равишда мустаҳкамлаб бориши, фуқароларини яқбилақ қиладиган ва уларни эзгу идеаллар йўлида бирлаштирадиган, узоқ ва яқин муддатга мўлжалланган концепциялар ва дастурлар, чоратadbирлар режаларини тузиши ва уларни тизимли амалга ошириши шарт эканидан далолат беради.

2000 йиллар бошида мамлакатимизда бу борада «Миллий истиклол ғояси» концепциясини яратиш ва уни амалга оширишга доир фаолият ана шу ҳақиқатлар ва қонуниятларга амал қилиш ниятида воқе бўлган эди. Бу жараённинг қандай амалга ошгани, нималарга эришилгани, қандай хатоларга йўл қўйилгани, натижа нима бўлгани тўғрисида ҳолисона ҳулосаларга келиш учун уни чуқур таҳлил қилиш, бу борада махсус тадқиқотлар ўтказиш фойдадан холи бўлмас эди. Бу нафақат глобаллашиб бораётган бугунги дунёда асрлар давомида сайқалланиб келган миллий ўзликни ва халқ кадриятларини асраб қолиш, балки турли бузғунчи ғоялар ва мафкуралар таъсиридан ҳимояланиш, таҳдидбардош жамиятни барпо этиш эҳтиёжлари нуқтаи назаридан ҳам ниҳоятда зарурлиги шубҳасиз.

Алоҳида таъкидлаш жоизки, бу борадаги бугунги амалиёт учун зарур бўлган ҳулосалар ва кўрсатмалар Президент Ш.Мирзиёевнинг «Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси» китобининг маънавият масалаларига бағишланган бешинчи бўлимида кўплаб мисоллар ва далиллар асосида баён қилинган. Ўз навбатида бу, ушбу соҳада мамлакатимиз зиёлилари, жумладан файласуфлар ва аслида барчамизнинг зиммамиздаги вазифаларни аниқ-тиниқ белгилаб олишимиз зарур эканини англатади.

Мақола Қиём Назаров томонидан тайёрланган

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA SUN'IY INTELLEKT IMKONIYATLARI

Ismoil Saifnazarov,
Falsafa fanlari doktori,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti profrssori.

Farida Saifnazarova,
Falsafa fanlari nomzodi, dosent

Annotatsiya. Ekologik barqarorlik insoniyatning uchuvchi energiyasi bo'lib, u nafaqat hozirgi avlod, balki kelajak avlodlar uchun ham sog'lom hayot muhitini yaratish imkonini beradi. Sun'iy intellekt texnologiyalari esa, so'nggi yillarda ekologiya sohasida muhim vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Bu texnologiyalar orqali tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishda yangi imkoniyatlar ochilmoqda. Sun'iy intellekt tizimlari yordamida ma'lumotlarni tahlil qilish va monitoring qilish jarayonlari sezilarli darajada optimallashtiriladi, natijada ekologik barqarorlikni ta'minlash samaradorligi oshadi.

Kalit so'zlar: ekologik barqarorlik, sun'iy intellekt, iqlim o'zgarishi, havoning ifloslanish, tabiiy resurslar, ekologiya, kimyoviy moddalar, tuproq, tabiiy muhit, ekologik barqarorlik.

Аннотация. Экологическая устойчивость является движущей силой человечества, позволяющей создавать здоровую среду обитания не только для нынешнего, но и для будущих поколений. Технологии искусственного интеллекта в последние годы признаны важным инструментом в области экологии. Эти технологии открывают новые возможности для рационального использования природных ресурсов, охраны окружающей среды и борьбы с изменением климата. С помощью систем искусственного интеллекта значительно оптимизируются процессы анализа данных и мониторинга, что приводит к повышению эффективности обеспечения экологической устойчивости.

Ключевые слова: экологическая устойчивость, искусственный интеллект, изменение климата, загрязнение воздуха, природные ресурсы, экология, химические вещества, почва, природная среда, экологическая устойчивость.

Annotation. Ecological sustainability is the driving force of humanity, which allows us to create a healthy living environment not only for the current generation, but also for future generations. Artificial intelligence technologies have been recognized as an important tool in the field of ecology in recent years. These technologies open up new opportunities for the rational use of natural resources, environmental protection and combating climate change. With the help of artificial intelligence systems, data analysis and monitoring processes are significantly optimized, which results in an increase in the effectiveness of ensuring ecological sustainability.

Keywords: ecological sustainability, artificial intelligence, climate change, air pollution, natural resources, ecology, chemicals, soil, natural environment, ecological sustainability.

Kirish. Bugungi kunda dunyo miqyosida tabiatni asrash va atrof-muhitni saqlash masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Odamlar faoliyati tufayli yuzaga kelayotgan ifloslanish, tabiiy resurslarning kamayishi, iqlim o'zgarishlari kabi muammolar bizning yashash muhitingizning sifatiga va inson salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun barqaror rivojlanishning ajralmas qismi sifatida ekologik barqarorlikni ta'minlash har bir jamiyat va butun insoniyat oldida muhim vazifa sifatida turibdi. Ekologik barqarorlik — bu atrof-muhitni asrash, tabiiy resurslarni oqilona boshqarish va kelajak avlodlar uchun sog'lom atrof-muhitni saqlab qolishni ta'minlash deganidir. U ekologik tizimlarning o'z-o'zini tiklash qobiliyatini

saqlab qolish va inson faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta'sirini minimal darajaga tushirishni nazarda tutadi. Shu maqsadda tabiiy muhit bilan uyg'unlikda yashash hamda resurslarni barqaror va ishlab chiqarish bilan birga boshqarish yo'llari izlanmoqda. Zamonaviy ilm-fan va texnologiyalar, xususan, sun'iy intellektning rivojlanishi ekologik barqarorlikni ta'minlashda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bu jarayonda insoniyat tabiat bilan muvozanatni saqlab qolish uchun aqlli va samarali yechimlarni joriy etib, ekologik muammolarni hal etishda yangi bosqichga o'tadi. Umuman olganda, ekologik barqarorlik nafaqat tabiatni himoya qilish, balki ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va insonlarning farovonligini ta'minlash bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab va xalqaro ahamiyatga ega jarayondir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. XX asrning ikkinchi yarmida inson ta'sirining kuchayishi natijasida atrof-muhitdagi antropogen o'zgarishlarni o'rganish dolzarb masalaga aylandi. Atrof-muhitning zaharlanishi odamlar sog'lig'iga, o'simlik va hayvonlar hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, qo'shni davlatlardan birining O'zbekiston chegarasiga yaqin joydagi alyumin zavodi atmosferaga fitorli birikmalarni chiqarib turadi. Natijada mevalar, o'simlik va hayvonlar zaharlanadi.

Shuning uchun bu borada ekologik normallashtirish masalalarini o'rganish atrof-muhitni muhofaza qilishdagi eng asosiy masalalardan biri bo'lib turibdi. To'g'ri ekologik normallashtirish har qanday ekologik obyektning muhofaza qilishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi, tabiatdagi balans buzilishining, katta sarf-xarajatlarning oldini oladi.

Hozirgi zamonda nazariy ekologiya asosi ekologik sistemalarning mavjudligi to'g'risidagi ta'limotdir. Uning mazmunini energiya oqimi, uning hosil bo'lishi va bog'lanishi tashkil qiladi. Yo'qolib borayotgan va yo'qolish xavfi ostida turgan hayvon va o'simliklar O'zbekiston "Qizil kitobi"ga kiritilgan. Dunyo miqyosida atrof-muhitning ifloslanishi va biologik resurslarning ko'p ekspluatatsiya qilinishi ekosistemalarning buzilishiga olib kelmoqda. Amudaryo vodiysidagi atrof-muhitning ifloslanishi, Orolbo'yi muammolari xalqaro miqyosdagi hamkorlikni talab qilmoqda.

Bu jihatdan hozirgi davrda muayyan muhitning holatini real vaqt rejimida kuzatish sun'iy intellekt asosidagi sensorlar va dronlar yordamida amalga oshiriladi. Bu qurilmalar atrof-muhitdagi o'zgarishlarni, havoning ifloslanish darajasini, suv sifatini aniq o'lchab, yig'ilgan ma'lumotlarni chuqur tahlil qiladi, bu esa ekologik xavf-xatarlarni oldindan aniqlashga imkon yaratadi. Masalan, o'rmonlarning holati monitoring qilinib, noqonuniy o'rmon kesish holatlari darhol aniqlanib, ularga qarshi tezkor choralar ko'riladi.

Shu tariqa, resurslar yuzaga keladigan zarar maksimal darajada kamaytiriladi. Agrar sohada ham sun'iy intellekt texnologiyalari qishloq xo'jaligi resurslaridan foydalanishni yanada samarali qiladi. Tuproqning sifat ko'rsatkichi, namlik darajasi va o'simliklarning holati haqidagi ma'lumotlar avtomatlashtirilgan tizimlar orqali tahlil qilinadi. Natijada sug'orish rejasi, o'g'itlash va zararkunandalarga qarshi kurash tadbirlari aniqroq va oqilona amalga oshiriladi.

Bu nafaqat hosildorlikni oshiradi, balki tabiiy muhitni saqlashga, toksik kimyoviy moddalarning kamayishiga yordam beradi. Iqlim o'zgarishlarini bashorat qilish va unga mos chora-tadbirlarni ishlab chiqish sun'iy intellekt imkoniyatlarining yana bir muhim jihatidir. Katta hajmdagi iqlim ma'lumotlarini tahlil qilgan holda, kelajakdagi iqlim sharoitlari haqida aniq bashoratlar berish mumkin.

Bu esa tabiat hodisalaridan ogoh bo'lib, ularga tayyor turish imkonini yaratadi. Masalan, sun'iy intellekt sistemalari yordamida tabiiy ofatlar – sel, suv toshqinlari, qurg'oqchilik kabi hodisalar yuz berish ehtimoli, ularning chastotasi va ta'sirlari aniqlanadi, shuningdek oldini olish choralari ko'rish mumkin.

Sun'iy intellekt yordamida chiqindilarni boshqarish tizimlari rivojlanmoqda. Chiqindilarni ajratish va qayta ishlash jarayonlarini avtomatlashtirish inson omilini kamaytirib, samaradorlikni oshiradi. Axborot tizimlari chiqindilar tarkibi va hajmini doimiy ravishda kuzatadi, qayta ishlash uchun eng maqbul yo'llarni taklif etadi.

Shuningdek, yangi innovatsion usullarni aniqlash va joriy etishda sun'iy intellekt katta yordam beradi. Shaharsozlik va transport sohalorida ham sun'iy intellekt texnologiyalari ekologik barqarorlikni ta'minlashda ahamiyatlidir. Shaharlar aholisining jon boshiga to'yingan chiqindilar hajmi va havoning ifloslanish darajasi kamaytiriladi. Transport tizimlarida yo'llar va umumiy yo'nalishlar optimallashtiriladi, bu esa mahsulotlarni va odamlarni sarflanadigan energiyani kamaytirishga xizmat qiladi. [1]

Muhokama va natijalar. Sun'iy intellekt dasturlari yordamida ekologik qonun-qoidalarining bajarilishi nazorat qilinadi. Ma'lumotlar bazasi va monitoring tizimlari asosida har qanday ekologik qonunbuzarlik aniqlanadi va tegishli choralar ko'riladi. Bu tizimlar davlat organlari va jamoat nazoratini kuchaytirib, ekologik barqarorlikni ta'minlashda faol yordam beradi. Shuningdek, sun'iy intellekt asosidagi ta'lim dasturlari orqali ekologik ong va mas'uliyatni oshirish mumkin. Axborot texnologiyalari yordamida keng jamoatchilikni ekologik muammolar va ularni hal etish yo'llari bilan tanishtirish, yoshlarni tabiatni asrashga rag'batlantirish muhim o'rin tutadi. Bu esa kelajak avlodning atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi. [2]

Sun'iy intellektning imkoniyatlari yanada kengayib bormoqda va ular ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim instrumentga aylanishi aniq. Bu texnologiyalar nafaqat ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish, balki ekosistemalarni samarali boshqarish, atrof-muhitning holatini yaxshilash, yangi innovatsiyalarni joriy etishda ham qo'llanmoqda. Muvozanatli rivojlanish va tabiatni muhofaza qilish uchun sun'iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarur. Taraqqiyot va texnologiyalar rivojlanayotgan sayin, insoniyatning ekologik mas'uliyati ham ortib bormoqda. Sun'iy intellekt orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash – bu nafaqat ilm-fan va amaliyot, balki global xavfsizlikka ham xizmat qiluvchi asosiy yo'nalishlardan biridir. Uzoq muddatli istiqbolda barqaror taraqqiyot uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan faol va ongli foydalanish, barcha sohalarda hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. [3]

So'nggi yillarda global iqlim o'zgarishlari, atrof-muhit ifloslanishining ortishi va tabiiy resurslarning tez kamayishi ekologik barqarorlik masalalarini yanada dolzarb qildi. Ushbu muammolarni samarali hal qilish uchun zamonaviy texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt keng qo'llanilmoqda. 2022-2024-yillar oralig'ida sun'iy intellekt yordamida ekologik monitoring, chiqindilarni boshqarish, iqlim prognozlari va qishloq xo'jaligida resurslarni tejash sohalorida sezilarli yutuqlarga erishildi. Ushbu davrda sun'iy intellekt tizimlari yordamida ekologik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish samaradorligi 35% ga oshdi. Zamonaviy sensorlar va dronlardan olinadigan katta hajmdagi ma'lumotlar sun'iy intellekt algoritmlari yordamida tez va aniq qayta ishlanib, havo, suv sifati va tuproq holati bo'yicha real vaqt rejimida monitoring imkonini berdi. Masalan, 2023 yilda sun'iy intellekt asosidagi havo ifloslanishini aniqlash tizimlari yordamida shaharlardagi zararli moddalar konsentratsiyasini aniqlik darajasi 30% ga yaxshilandi. Natijada, ifloslanish manbalarini tez aniqlash va yo'qotish bo'yicha chora-tadbirlar samaradorligi oshdi. Iqlim o'zgarishlarining oldini olish va boshqarishdagi eng muhim vositalardan biri - sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan prognozlash modellaridir. 2022-2024-yillarda ushbu modellar yordamida tabiiy ofatlar va iqlim hodisalarini aniqlash aniqligi 40% ga oshdi. Bu esa oldindan ogohlantirish tizimlarini yaxshilash, xavfsizlik choralari ko'rish va insonlar hayotini saqlab qolishda muhim rol o'ynadi. Chiqindilarni ajratish va boshqarish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi chiqindilarni qayta ishlash samaradorligini 25% ga oshirdi. 2023 yilda chiqindilarni avtomatik tasniflash tizimlari noto'g'ri ajratish darajasini 15% ga kamaytirdi, bu esa qayta ishlash jarayonlarini yanada samarali qildi va atrof-muhit ifloslanishini sezilarli darajada kamaytirdi. Qishloq xo'jaligida, ayniqsa sug'orish va o'g'itdan foydalanishda sun'iy intellekt yordamida optimallashtirish natijasida suv sarfi 20% ga, o'g'it va pestitsid sarfi 15% ga kamaydi. Shu orqali mahsulot hosildorligi 12% ga oshdi va tuproq unumdorligi yaxshilandi. Sun'iy intellekt texnologiyalari tuproq eroziyasi va qurg'oqchilik xavfini prognoz qilishda ham muvaffaqiyatli ishlatilmoqda. Sun'iy intellekt

tizimlari yordamida energiya sarfini boshqarish samaradorligi 18% ga oshdi, ayniqsa qayta tiklanadigan energiya manbalari – quyosh va shamol energiyasidan foydalanish samaradorligi yaxshilandi. Yashil iqtisodiyot sohasida mahsulotlar va transport tizimlarini ekologik jihatdan toza qilish 25% ga yaxshilandi.[4]

O'zbekiston 2022-2024-yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarini ekologik monitoring, chiqindilarni boshqarish va qishloq xo'jaligida keng joriy etdi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, shu yillar davomida ekologik monitoring tizimlarida sun'iy intellekt yechimlari qamrovi 30% dan oshib, chiqindilarni qayta ishlash hajmi 22% ga ko'paydi. Qishloq xo'jaligida resurslardan samarali foydalanish esa 15% ga oshdi.

Yuqoridagi fikrlar nihoyasida alohida ta'kidlash lozimki, hozirgi vaqtda tabiat va inson hayotining ekologik xavf ostida qolish jarayoni yanada murakkablashib, mushkullashib bormoqda. Atrof-muhit bilan jamiyat o'rtasidagi aloqalar muvozanatining buzilishi tabiiy holatga putur yetkazmoqda. Bunday vaziyatni tubdan yaxshilash uchun ekologik siyosatga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillar, xususan sun'iy intellektning imkoniyatlaridan ham samarali foydalanish, ekologik vaziyatga to'g'ri baho berish, uni himoya qilish, saqlash va takomillashtirish kabi tushunchalarni har bir fuqaro ongi va qalbiga singdirishda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

Bu boradagi tarbiya oiladan boshlanishi, ota-onalar ekologik savodxon bo'lishlari lozim, albatta. Uzluksiz ta'lim tizimida bunday ekologik ta'limni yo'lga qo'yish quyidagicha bo'lmog'i zarur: 1-bosqich – oilada va maktabgacha ta'lim muassasalarida; 2-bosqich – maktab va ta'lim muassasalarida; 3-bosqich – oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim; 4-bosqich – oliy ta'limdan keyingi bosqich, doktorantura; 5-bosqich – kadrlarni qayta tayyorlash va muntazam ravishda malakasini oshirib borish.

Bu borada alohida fan o'qitilishi zarur va bunda barqaror rivojlanish g'oyasi, raqamlashtirish va sun'iy intellektidan foydalanish imkoniyatlarini o'rgatish kreativ va innovatsion ta'limning asosini tashkil qilishi lozim. XXI asr — ekologiya asri bo'lishi shubhasizdir. Har bir inson ona sayyoramiz tabiatiga ziyon yetkazmasdan o'zgartirishi, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishi va yashash muhitini saqlashdek muqaddas ishga o'zining munosib hissasini qo'shishi lozim.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt ekologik barqarorlikni ta'minlashda keng imkoniyatlarga ega muqarrar vosita bo'lib, uning qo'llanilishi tabiiy resurslarni tejash, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishlariga qarshi samarali kurashishda muhim rol o'ynaydi. Sun'iy intellekt asosidagi monitoring va bashoratlash tizimlari ekologik xavflarni oldindan aniqlash, chiqindilarni boshqarish, qishloq xo'jaligi va sanoat sohalarida resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash kabi vazifalarni muvaffaqiyatli hal qiladi. Shu bois, ekologik barqaror taraqqiyot yo'lida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanish har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi lozim. Bu iqtisodiy rivojlanish bilan birga, tabiatga va inson salomatligiga zarar yetkazmasdan yashashning samarali yo'lidir. O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun esa bu yo'nalish zamonaviy texnologiyalar yordamida milliy ekologik siyosatni mustahkamlash va jahon ekologik harakatida faol ishtirok etish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdullaeva.N., & Tursunov, S. (2019). "Sun'iy intellekt asosida ekologik monitoring tizimini rivojlantirish". Ilmiy Axborot, 5(2), 24-30.
2. Alimov.R. (2020). "Barqaror rivojlanishda zamonaviy texnologiyalar va ekologiya". Texnika va Innovatsiya, 8(1), 45-52.
3. Bakhtiyorov.D. (2018). "Ekologik barqarorlik va raqamli texnologiyalarning ro'li". O'zbekiston Fanlari Akademiyasi Herald, 3, 112-118.
4. Juraev.O., & Rustamova.M. (2021). "Sun'iy intellekt texnologiyalarining atrof-muhitni muhofaza qilishdagi imkoniyatlari". Taraqqiyot Yo'li, 12(4), 78-86.

МИРЗО БОБУРНИНГ ҲАРБИЙ НОТИҚЛИК МАҲОРАТИ

Раҳимбой Жуманиёзов,
Филология фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон Ёзувчилар ва Журналистлар
уюшмалари аъзоси

Аннотация. Ушбу мақолада таълимнинг калити бўлган нутқ маданияти ва нотиқлик санъатининг моҳияти, хусусан, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ҳарбий нотиқлик маҳорати тўғрисида фикр ва мулоҳазалар юритилган.

Калит сўзлар: Воизлик, нутқ маҳорати, таъсирчан механизм, тил тактикаси, теран тафаккур, сиёсий нутқ, ваъз, даъват, жанг санъати, стратегия.

Аннотация. В данной статье рассматриваются культура речи и суть ораторского искусства, которое является ключом к образованию, в частности, мысли и размышления о военном ораторском мастерстве Захириддина Мухаммада Бабура.

Ключевые слова: Проповедь, ораторские навыки, эмоциональный механизм, языковая тактика, вдумчивое мышление, политический дискурс, проповедничество, призвание, боевые искусства, стратегия.

Annotation. This article deals with the culture of speech and the essence of oratory, which is the key to education, in particular, thoughts and reflections on the military oratory skills of Zahiriddin Muhammad Babur.

Key words: Preaching, oratory skills, affective mechanism, language tactics, thoughtful thinking, political discourse, preaching, calling, martial arts, strategy.

Нотиқликнинг бир қанча турлари бор. Булар ижтимоий-сиёсий, академик, диний, суд нотиқлиги, ҳарбий ва ижтимоий-маиший нотиқликдир. Булар ичида алоҳида ажралиб турадигани ҳарбий нотиқликдир. Тинчлик шароитида ҳам, давлат бошқаруви, ҳатто уруш шароитида ҳам қўшинни бошқаришда нотиқлик санъатининг алоҳида ўрни бўлганлигига узоқ асрлик тарих гувоҳ. Чунки кўзланган мақсад бу стратегия бўлса, уни амалга ошириш йўллари бу тактикадир. Демак, ҳар қандай стратегиянинг таъсирчан механизми бу тил тактикасидир. Ҳарбий нотиқлик моҳият эътибори билан жанговарликни, хитоб ва даъватни англатади. Шунинг учун ҳам машҳур Рим нотиғи Марк Туллий Цицерон “Тарихда ё яхши ҳарбий саркарда ёки нотиқ бўлиш керак” – демаган. У кўриб кузатгани ва англаб етганидан сўнг шу фикрга келгани аниқ. Демак, нотиқлик ва ҳарбий соҳадаги фаолият ўзаро узвий боғлиқдир.

Ҳар қандай ғалабани таъминлаш мезони бевосита нотиқлик маҳорати билан боғлиқ. Соҳибқирон Амир Темур ҳам жанг санъатида, бошқарув тизимида нотиқликнинг алоҳида ўрнини эътироф этгани ва амал қилгани бежиз эмас. Жангда ғалабанинг гарови ўзига ишонч билан боғлиқ бўлгани каби сўзга ҳам бевосита боғлиқ. Қўмондон қўшинига ўз нутқи орқали ишонч руҳини берса, у дадил ҳаракат қилади ва зафар кучади, акс ҳолда, мағлубиятга учрайди. Шунинг учун ҳам нотиқликнинг асл моҳияти ишонтириш орқали таъсирлантириш санъатидир. Ҳарбий соҳада душманни қанча қўшини, қанча қурол-яроғи, қанча отлиғ ёки пиёда аскарлари борлигини билиб, ҳужум қуруқликдами, сувдами ёки ҳаво орқалими эканини аниқлаб олингандан кейинги ҳаракатгина муваффақият келтиради. Нотиқлик ҳам шунга монанд. Унда ҳам тингловчиларнинг касби-кори, қизиқиши, дунёқараши, тафаккури, билим даражаси, савияси, жинси, эътиқодини билиб туриб сўз айтиш муваффақият келтиради. Нотиқлик ҳам худди ҳарбий жанговарликка ўхшаб ўзига хос стратегияга, ўзига хос тактикага эгадир.

“Темур тузуклари”ни нутқ санъатининг ноёб намунаси дейиш мумкин. Кейинги авлод темурийзодалардан бўлган Заҳириддин Муҳаммад Бобур соҳибқирон Амир Темурнинг жанг санъати ва бошқарув маҳоратидан ташқари, ўз сўзи, нутқи ва воизлик маҳоратига эга бўлганини ҳам эшитган, билган. «...ҳар ким ўз сўзига эга бўлсин, ишини билиб ўзи қилсин, яъни раият подшоси айтган сўзини, қилган ишини ўзи айтади, ўзи қилади...» деган “Темур тузуклари”даги битиклар ҳам ўша даврда нотиклик санъатининг рутбаси юқори бўлганини билдиради.

Фикримиз яланғоч бўлмаслиги учун Алишер Навоийнинг “Вақфия” асаридан ушбу битикни келтирамиз. Гап йил бўйи қилган меҳнат, чеккан заҳматларига асосан ҳақ тақсимлаш ҳақида кетаяпти.

“Воизга йиллик нақда беш юз олтун, буғдой ўн юк. Имомга, масжиди жомеъда хатиб бўлуб, мактаб дағи тутғай, йиллик нақда икки юз олтун, буғдой ўн юк”. Бу йил охирида қўшимча бериладиган ҳақ. Ўтибор қилган бўлсангиз, воиз учун бериладигани имомга бериладиганидан икки баравар кўп. Тузум ва тизим дин орқали бошқариладиган, шариат фойдаланиш орқали ҳукм чиқариладиган бир даврда имомга нисбатан тўланадиган ҳақнинг икки баравар кўплигининг ўзиёқ, нутқ ирод этувчи воизнинг ижтимоий ҳаётда ўрни баланд эканлигини билдиради.

Чунки, улар ижтимоий жараённинг барометри ва ҳар қандай тартибот ва ислохотларга масъул тарғиботчи инсонлар бўлишган.

“Яхши нутқ эгаси – уқувли, қатъиятли, ўзига ишонган бўлиши даркор, чунки ваъзхонлик – куч. Воиз бўлиш учун, сўзнинг қудрати ва сеҳрини эгаллаш лозим. Амир Темурнинг қудрати, аввало, унинг донишманд фикрларида, маслаҳатли кенгашлардаги сўзланган нутқларида намоёндыр, чунки XIV асрда марказлашган феодал давлатни тузиш, улкан қўшинга саркардалиқ қилиш учун ҳар тарафлама билимдон, қатъиятли, воиз-шахс бўлиш лозим эди”, - деб ёзади А.Арипова ўзининг “Иқтисодий нутқ асослари” ўқув қўлланмасида.

Ушбу сифатларни ҳеч иккиланмасдан Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳақида ҳам айтиш мумкин. Ҳинд халқининг буюк давлат арбобларидан Жавоҳарлал Нерунинг ушбу мулоҳазаси ҳам юқоридаги фикримизга далилдир. “Бобур дилбар шахс, Уйғониш даврининг типик ҳукмдори, мард ва тадбиркор одам бўлган. У санъатни, адабиётни севарди, ҳаётдан ҳузур қилишни яхши кўрарди...”

Мард ва тадбиркор, санъатни севган кишигина қатъий ирода, ўз сўзига, фикрига эга инсон бўлиши тайин. Жонли манзаралар яратувчи, даъваткор кучга эга сўзнинг ўрни катта. Тўп-у замбараклар, беҳисоб қўшин эплай олмаган ишни оддий сўз бажара олганига тарих шохид.

Бобурнинг нутқий маҳорати ҳақида муфассал маълумотни шох ва шоирнинг қизи Гулбаданбегимнинг “Хумоюннома” асаридан олиш мумкин.

1527 йили Бобурнинг Ҳиндистонда Рано Санго билан жанги олдидан қўшинлари орасидаги вазият азиятга сабаб бўлади. Боши қовушмаган жангчилар орасида ихтилоф ва тарқоқлик бошланади. Шунда Бобур лашкарга қарата жонли, таъсирчан нутқ ирод қилади. Гулбаданбегим “бунга мажлисдагиларнинг ҳаммаси рози бўлишиб..., томиримизда бир томчи қонимиз қолгунча курашамиз, деб қасам ичадилар...” деган далилни келтиради: “Ҳар кимки ҳаёт мажлисига кирибтур, оқибат ажал паймонасидин ичкусидир ва ҳар кишиким, тириклик манзилига кирибтур, охир дунё ғамхонасидин кечкусидур, ёмон от билан тирилгандин, яхши от билан ўлган яхшироқ... Тангри таоло бу навъ саодатни бизга насиб қилибтур ва мундоқ давлатни бизга қарийб айлабтур. Ўлган шаҳид ва ўлдурғон ғозий, барча Тангрининг каломи билан онт ичмак керакким, ҳеч ким бу қатолдин юз ёндирур ҳаёл қилмай, то бадандин жони айрилмағунича, бу муҳориба ва муқотиладин айрилмағай...”

Бобурнинг ушбу оташин, жанговар нуткидан сўнг барча аскарлар якдил ҳолда, жам бўлиб, жангга киришган. Жанг олдидан лашкарни руҳлантириш, ғалабага нисбатан ишонч туйғусини уйғотиш тажрибали қўмондонларнинг фаолиятида синашта бўлган.

Кези келганда айтиш керакки, Наполеон Бонапарт жангга киришишга тайёр турган қўшинга қарата шундай дейиши одат бўлган. “Жангга ўлишни ҳамма эплайди. Мард ва жасур жангчиларгина тирик қолади. Менга ўлигингиз эмас, тиригингиз керак. Шундай экан, барчангизга ўлмасликни буюраман, олға!” – дея хитоб қиларкан.

Мазкур ташкилотлар қаторига "Ислом тараққиёти банки", "Халқаро Ислом янгиликлар агентлиги", "Таълим, фан ва маданият масалалари бўйича Ислом ташкилоти", "Ислом адолат суди", "Ислом фикҳи академияси" қабиаларни келтириш мумкин.

Таъкидлаш лозимки, халқаро исломий ташкилотлар томонидан экстремизм ва терроризм, мутаассиблик унга қарши кураш ҳамда бағрикенглик, миллатлараро тотувлик бўйича қатор конференциялар ўтказилиб тегишли тавсия ва ҳулосалар берилмоқда.

Халқаро экстремистлар "Ислом халифатини куриш", ғоясини илгари суриб, буни амалга ошириш мақсадида, мафкуравий, тарғибот-ташвиқот ишлар билан бирга, сиёсий ва иқтисодий курашни авж олиб юборадилар.

1985 йилда БМТ нинг "қаерда ва ким томонидан содир этилишидан қатъий назар терроризмнинг барча амалиёти ва барча жиноий ҳаракатлари сўзсиз жазоланади", деган резолюциясини қабул қилган эди. Дин асосларини бузиб талқин этган ҳолда сиёсий мақсад қувовчи ҳаракат диний экстремизмга боғлиқ бўлмасин, унинг асосий мақсади бундай гуруҳларни шакллантириш орқали ҳокимиятни қўлга киритишдир.

Орадан олти йил ўтиб, БМТ сессияларидан бирида халқаро терроризмни бартараф этиш бўйича чора тадбирлар тўғрисидаги декларацияси қабули, янада тўлиқроқ маънога эга бўлди.

Мазкур декларациядан давлатларнинг террористик фаолиятни ташкиллаштиришдан, унга гиж-гижлаш, кўмаклашиш ва шароитлар яратишга амалий ҳаракатлар қилишдан, моддий-техник жиҳатдан таъминлашдан, уларни бекитишдан ўзини тийиш мажбуриятлари келиб чиқади.

2001 йил июль ойидаги Шанхай Ҳамкорлик Ташкилоти давлат раҳбарлари саммитида (бу учрашувда Ўзбекистон, Россия, Хитой, Қозоғистон ва Тожикистон билан биргаликда мазкур обрўли ташкилотнинг таъсисчиси бўлиб қолди).

ШХТ ни тузиш ҳақидаги декларация, шунингдек, терроризм, айирмачилик ва экстремизм билан кураш тўғрисидаги конвенция қабул қилинди.

Терроризм билан курашиш соҳасидаги ҳамкорлик тўғрисида гап борганда, Ўзбекистон ташаббуси билан тузилган "6+2" гуруҳи деб номланган "6+3" деб тузилган гуруҳларни ҳам эслаш керак. Унинг саъй-ҳаракатлари билан, 2000 йил октябрида, БМТ ва ЕХХТ иштирокидаги, "Марказий Осиёдаги хавфсизлик ва барқарорликни мустаҳкамлаш: Гиёҳванд моддалар, уюшган жиноятчилик ва терроризмга қарши курашишга биргаликда ёндашиш мавзусидаги халқаро Тошкент конференцияси ўтказилди.

Бугунги кунда Ўзбекистон жадал ривожланмоқда. Биз аждодларимизнинг донишмандлик анъаналарига амал қилиб, теран англаган ҳолда, қатъий ислохотларни амалга оширмоқдамиз, мамлакатимизнинг янги қиёфасини шакллантириш йўлида

бормоқдамиз. Стратегия янгиланиш жараёнларининг ҳақиқий ҳаракатлар дастуридир. Бу ҳужжат ҳозирги вақтда ҳаётга изчил жорий этилмоқда.

Бирлашган миллатлар ташкилотининг инсон ҳуқуқлари бўйича олий комиссари Жаноб Ал-Хусайннинг ташрифи якунлари бўйича инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ҳолатларини мустаҳкамлаш юзасидан чора-тадбирлар дастури ишлаб чиқилди.

Экстремизм ғоялари таъсирга тушиб қолган, йўлдан адашган фуқаролар ижтимоий реабилитация қилинмоқда, уларни соғлом ҳаётга қайтариш учун зарур шароитлар яратилмоқда.

Иқтисодиёт тизимини либераллаштириш қулай инвестиция муҳитини яратиш амалга оширилаётган ўзгаришларнинг энг муҳим йўналишлардандир.

Биз оддий бир ҳақиқатдан келиб чиқмоқдамиз: Халқ бой бўлса, давлат ҳам бой ва қудратли бўлади.

Ҳаракатлар стратегиясининг мазмун-моҳияти Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг барқарор ривожланиш мақсадлари билан тўла ҳамоҳанг эканини таъкидлашни истардим.

Тинч-осойишта, иқтисодий жиҳатдан тараққий этган Марказий Осиё биз интиладиган энг муҳим мақсад ва асосий вазифадир.

Ўзбекистон ўзаро мулоқот, амалий ҳамкорлик ва яхши қўшничиликни мустаҳкамлашнинг қатъий тарафдоридир. Сентябрь ойининг бошида Ўзбекистон-Қирғизистон давлат чегаралари тўғрисидаги шартнома имзоланиши том маънода муҳим воқеа бўлди. Бу ўтган 30 йил давомида икки марта ушбу ғоя нозик масала бўйича катта натижага эришилди.

Биз ноябр ойида Самарқандда Бирлашган Миллатлар Ташкилоти шафелигида ўтказиладиган "Марказий Осиё: Ягона тарих ва умумий келажак, барқарор изланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик" мавзусидаги фундаментал муаммоларни муҳокама қилишни режалаштирганмиз.

Ушбу анжуман якунида биз Бирлашган Миллатлар Ташкилоти бош ассамблеясининг Марказий Осиё давлатларнинг хавфсизликни таъминлаш ва минтақа ва ҳамкорликни мустаҳкамлаш борасидаги саъй-ҳаракатларини қўллаб-қувватлашга доир махсус резолюциясини қабул қилиш таклифини киритишни мўлжаллаганмиз.

Афғонистондаги вазиятни барқарорлаштириш нафақат минтақавий, балки глобал хавфсизликни таъминлашнинг муҳим шarti бўлиб қолади.

Аминмизки, Афғонистонда тинчликка эришишнинг ягона йўли-марказий ҳукумат ва мамлакат ичидаги асосий сиёсий кучлар ўртасида олдиндан ҳеч қандай шарт қўймасдан тўғридан-тўғри мулоқот олиб боришиди.

Музокаралар Афғонистонликларнинг ўзлари ҳал қилувчи ўрин тутадиган ҳолда, Афғонистон ҳудудида ва БМТ шафеълигида ўтиши лозим. Донишманд Афғон халқи ўз тақдирини ўзи мустақил ҳал қилишга ҳақлидир.

АҚШ маъмуриятининг Афғонистон билан қўшни мамлакатларни афғон муаммосини тинч йўл билан ҳал қилишга қўмаклашишга оид давлатини қўллаб-қувватлаймиз.

Ўзбекистон Афғонистоннинг иқтисодий тикланишига, унинг транспорт ва энергетика инфратузилмасини ривожлантиришга, миллий кадрларни тайёрлашга катта ҳисса қўшади.

Халқаро ҳамжамиятнинг саъй-ҳаракатлари, биринчи навбатда, Афғонистондаги ўткир ижтимоий-иқтисодий муаммоларни ҳал қилишга қаратилиши керак.

Дунёда терроризм таҳдидлари айниқса, сўнгги йилларда кучайиб бораётгани уларга қарши асосан куч ишлатиш йўли билан курашиш усули оқламаётганидан далолат беради.

Халқаро терроризм ва экстремизмнинг илдизини бошқа олимлар билан бирга, жаҳолат ва мурасизлик ташкил этади, деб ҳисоблайман.

Шу муносабат билан одамлар, биринчи навбатда, ёшларнинг онгу тафаккурини маърифат асосида шакллантириш ва тарбиялаш энг муҳим вазифадир. Экстремистик

фаолият ва зўравонлик билан боғлиқ жиноятларнинг аксарияти 30 ёшга етмаган ёшлар томонидан содир этилмоқда.

Бугунги дунё ёшлари сон жиҳатидан бутун инсоният тарихидаги энг йирик авлоддир, чунки улар 2 миллиард кишини ташкил этмоқда.

Биз бутун жаҳон жамоатчилигига ислом динининг асл инсонпарварлик моҳиятини етказишни энг муҳим, вазифа, деб ҳисоблаймиз.

Биз муқаддас динимизни азалий қадриятларимизни мужассамининг ифодаси сифатида беҳад қадрлаймиз. Биз муқаддас динимизни зўравонлик ва қон тўкиш билан бир қаторда қуйидагиларни қатъий қоралаймиз ва улар билан ҳеч қачон муроса қила олмаймиз.

Бугунги сессия иштирокчиларига БМТ бош Ассамблеясининг "Маърифат ва диний бағрикенглик" деб номланган махсус резолюциясини қабул қилиш таклифи билан мурожаат қилмоқчиман.

Бу ҳужжатнинг асосий мақсади-барчанинг таълим олиш ҳуқуқини таъминлашга, эътиқод қилувчиларнинг ҳуқуқини ҳимоя қилиш, уларнинг камситилишига йўл қўймасликка кўмаклашишга қаратилган.

Минг афсуски, жафокаш Афғонистон заминидаги бу тўқнашув қарийб 40 йилдан буён давом этмоқда. Маълумки, "уруш олови" афғон халқига четдан тикиштирилди, бу - унинг танлови эмас.

Ушбу уруш нафақат Афғонистоннинг муаммоси, балки тобора мураккаблашиб бораётган халқаро муаммога айланди.

Бугунги кунда Ўзбекистон ва Афғонистон ўртасида яқин сиёсий, савдо-иқтисодий ва маданий-гуманитар алоқалар йўлга қўйилган. Афғонистонда миллионлаб ўзбеклар яшайди. Афғонистон Конституциясига мувофиқ ўзбек тили мамлакатнинг расмий тилларидан бири ҳисобланади.

Ўзбекистоннинг ташаббуси билан 1999 йилда Тошкентда Афғонистонга қўшни давлатлар, Россия ва АҚШ ташқи сиёсий маҳкамалари раҳбарлари даражасида "6+2" гуруҳининг учрашуви бўлиб ўтган эди. Бу учрашувда Шимолий иттифоқ ва "Толибон" ҳаракати вакиллари ҳам иштирок этган эди. Тошкент декларацияси қабул қилинди ва у БМТ Бош Ассамблеяси 54-сессияси ва БМТ Хавфсизлик Кенгашининг расмий ҳужжатида айланди.

Бу ўринда Афғонистондаги ҳарбий-сиёсий инқирозни ҳал этиш йўллари топиш мақсадида ташкил этилган қабул жараёни Москва формати, халқаро мулоқат гуруҳи, "Осиё юраги" деб номланган Истанбул жараёни, "ШХТ-Афғонистон" мулоқат гуруҳи ва бошқа кўп томонлама муҳокама жараёнлари алоҳида диққатга сазовордир.

Шундай қилиб, бугунги кунда Афғонистондаги вазиятни бартараф этиш бўйича кўп қиррали ва мураккаб масалалар минтақа ва халқаро миқёсда кенг муҳокама қилинмоқда. Бу борада аниқ ечимлар ва ташкилий ҳаракатлар олиб борилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Шавкат Мирзиёев №-2 жилд БМТ нинг 72-сессиясидаги нутқи 2017 йил 19 сентябр.
2. Шавкат Мирзиёев "Ўзбекистон" 2018 йил № жилд "Тинчлик ва барқарорлик сари ташланган муҳим қадам" халқаро конференциядаги нутқ 2018 март 27 358-373-бетлар.
3. Ж.Каримову "Жаҳолатга қарши маърифат" Ўзбекистон халқаро ислом академияси. Тошкент 2021 йил. 180- 205 бетлар.
4. У.Убайдуллаев. «Халқаро терроризм: Тарихи ва замонавий муаммолари. - Тошкент 2002 йил 103-139 бетлар.

UZLUKSIZ TA'LIM VA AXBOROT SOHASIDAGI ISLOHOTLARNING O'ZARO INTEGRATSIYASI

Asomiddin Xudayberdiyev,
Toshkent davlat tibbiyot universiteti dotsenti,
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada uzluksiz ta'lim tizimidagi yangilanishlar va axborot-kommunikatsiya sohasidagi o'zgarishlarning o'zaro bog'liqligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Uzluksiz ta'lim, raqamli transformatsiya, axborot madaniyati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, yoshlar tarbiyasi, axborot xavfsizligi.

Аннотация. В статье дается научно-теоретический анализ взаимосвязи инноваций в системе непрерывного образования и изменений в информационно-коммуникационной сфере.

Ключевые слова: Непрерывное образование, цифровая трансформация, информационная культура, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), воспитание молодежи, информационная безопасность.

Annotation. The article analyzes from a scientific and theoretical point of view the relationship between updates in the system of continuous education and changes in the field of information and communication.

Key words: Continuing education, digital transformation, information culture, information and communication technologies, youth education, information security.

Kirish. XXI asrda jamiyat taraqqiyotining asosiy omili - bu bilim, axborot va innovatsiya hisoblanadi. Shu boisdan dunyoning ko'plab davlatlari kabi O'zbekistonda ham uzluksiz ta'lim tizimi va axborot sohasini modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Bu ikki yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlarning o'zaro uyg'unlashib borishi esa yangi avlodning raqobatbardoshlik salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda ta'lim sifati va axborot muhitini takomillashtirish jamiyatning barqaror rivojlanishi, iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishda hal qiluvchi omil sifatida qaralmoqda. Shu boisdan, mamlakatimizda ta'lim tizimini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish, raqamli transformatsiya jarayonlarini chuqurlashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Axborotlashuv jarayonining kuchayishi bir tomondan inson faoliyatini soddalashtirish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash imkonini yaratgan bo'lsa, boshqa tomondan - u global miqyosda raqobatbardoshlik, axborot xavfsizligi, axborot madaniyati va raqamli tengsizlik kabi muammolarni ham yuzaga keltirdi. Ayniqsa, yosh avlodning axborot oqimi ostida to'g'ri yo'nalishda rivojlanishi, axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishi va axloqiy-me'yoriy me'zonlarga asoslangan axborot iste'molchisi sifatida kamol topishi dolzarb masalaga aylandi. Shu sababli, mamlakatimizda axborotlashuv jarayonini chuqur o'rganish, uni uzluksiz ta'lim tizimi bilan uyg'unlashtirish, bu jarayonning nazariy, metodologik va amaliy asoslarini ishlab chiqish strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Bugungi globallashtirish va raqamli transformatsiya sharoitida har bir davlat, xususan, O'zbekiston uchun ham, axborot jamiyatining faol subyekti bo'lish, axborot resurslarini mustaqil va samarali boshqara oladigan fuqarolarni tayyorlash - taraqqiyotning ustuvor shartlaridan biri hisoblanadi. Shu ma'noda, axborotlashuv

jarayonining mohiyatini, rivojlanish bosqichlarini, zamonaviy tendensiyalarini va uzluksiz ta'lim bilan uzviy bog'liqligini chuqur o'rganish bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan chuqur islohotlar milliy davlatchilikni mustahkamlash, bozor iqtisodiyoti tamoyillarini joriy etish, demokratik jamiyat qurish yo'lidagi ustuvor vazifalarni hal qilishga qaratildi. Bu jarayonlar, ayniqsa, ta'lim tizimi va axborot sohasida tub o'zgarishlar olib kelgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-texnologik yangilanishlar bilan birga kechdi. Mazkur ikki yo'nalish – uzluksiz ta'lim va axborot sohasi – bir-biridan ajralmas, o'zaro uyg'unlikda rivojlanadigan tizim sifatida shakllandi.

Uzluksiz ta'lim - maktabgacha ta'lim-tarbiyadan boshlanib, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim hamda kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash kabi bosqichlarni o'z ichiga oladigan yaxlit ta'lim tizimidir. Ushbu tizimning asosiy maqsadi - insonning butun umri davomida bilim va ko'nikmalarini yangilab borishini ta'minlash, uning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish va intellektual salohiyatini rivojlantirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi 1991-yilda davlat mustaqilligiga erishgach, jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlar boshlanib, milliy taraqqiyotning yangi asoslari shakllantirildi. Ayniqsa, ta'lim, ma'naviyat va axborot sohalarida yangicha mafkura va qadriyatlar asosida rivojlantirila boshladi. Shu bois 1991–2000 yillar oralig'i O'zbekistonda uzluksiz ta'lim va axborot siyosatining poydevori qo'yilgan tarixiy davr sifatida baholanadi. Bu bosqich o'ziga xos ravishda milliy qadriyatlarni tiklash, jahonda ro'y berayotgan axborotlashuv jarayoniga ehtiyotkorona kirib borish, yangi jamiyat modeliga mos uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish bilan ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikdan keyingi ta'lim va axborot sohasidagi taraqqiyot shartli ravishda bosqichlarga ajratiladi. 2000-2016 yillar oralig'i – raqamli asrga moslashish davri bo'lib, mazkur bosqichda ta'lim tizimini va axborot makonini zamon talablari asosida raqamlashtirish, modernizatsiya qilishga qaratilgan chuqur islohotlar amalga oshirildi. Bu davr axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ning ommalashuvi, internet tarmog'ining kengayishi, raqamli vositalarning ijtimoiy hayotga tobora chuqurroq kirib borishi bilan ajralib turadi. Raqamli infratuzilmaning bosqichma-bosqich rivojlanishi, davlat va jamiyat boshqaruvida elektron platformalarning joriy etilishi, ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanishga yo'naltirilgan huquqiy asoslar yaratilgani – bu bosqichning asosiy jihatlaridan hisoblanadi. Ta'lim tashkilotlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) joriy etish kengaydi, o'quv dasturlariga kompyuter savodxonligi, axborot madaniyati kabi fanlar kiritildi, elektron darsliklar, elektron kutubxonalar va masofaviy ta'lim platformalaridan foydalanish boshlandi.

XXI asr insoniyat taraqqiyotining butunlay yangi bosqichiga – raqamli transformatsiya va innovatsiyalar davriga qadam qo'ydi. Bu davr axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, sun'iy intellekt, raqamli platformalar, internet tarmoqlari va avtomatlashtirish tizimlarining joriy etilishi bilan tavsiflanadi. Ushbu o'zgarishlar jamiyat hayotining barcha jabhalari – ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ayniqsa ta'lim sohasini tubdan o'zgartirdi.

Raqamli transformatsiya bu – jamiyatda raqamli texnologiyalar asosida faoliyat yuritish uslublari, boshqaruv tizimi, axborot oqimlari va aloqa vositalarini sifat jihatdan yangilash, takomillashtirish, ularni ilg'or texnologiyalar asosida raqamlashtirish jarayonidir. Bu jarayon nafaqat texnologik yangilanish, balki tafakkur, ish yuritish, muloqot va ijtimoiy munosabatlarning ham yangicha yo'nalishda rivojlanishiga olib keladi.

Rivojlangan axborot muhitida yoshlar axborotdan to'g'ri foydalanish, tanlash, saralash va tahlil qilish madaniyatiga ega bo'lishi zarur bo'lib qoldi.

Keyingi yillarda bu borada uzluksiz tarbiya tizimini insonparvarlashtirish va chinakam tarbiyaviy tuzilma sifatida shakllantirish maqsadida amaliyotga yangicha mexanizmlar joriy qilindi. Bu jihatdan, Davlatimiz rahbari "Biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan

erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, milliy qadriyatlarga sodiq, vatanparvar va tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur", deya ta'kidlagani aslo bejiz emas.

Ayni shu ma'noda, raqobatli mehnat bozorida samarali ishlay oladigan, vatanga sadoqatli, Yangi O'zbekistonni barpo etuvchi islohotchilar avlodini tarbiyalash borasida oliy ta'lim tizimi quyidagi mas'uliyatli vazifalarni bajarishi zarurligi shubhasiz:

— har bir bilim sohasida bazaviy va amaliy kasbiy tayyorgarlikni ta'minlashga qaratilgan o'quv rejalari va dasturlari, o'quv adabiyotlari hamda zamonaviy mediamateriallar asosida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash;

— nazariy tayyorgarlikning ixtisoslikni qo'llash faoliyati bilan uzviy bog'liqligini ta'minlashga qaratilgan zamonaviy shakl va usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda o'quv jarayonini ta'lim berishning modul tizimi asosida tashkil etish;

— ta'lim oluvchilarning ma'naviy-psixologik tayyorgarligi, tarixiy tafakkuri va siyosiy madaniyatini, kasb mahorati va rahbar sifatidagi odob-axloqini yuksaltirishning samarali tizimini yaratish;

— ta'lim oluvchilarning global va milliy kontentlarni yaxshi anglashi, turli tahdidlar va xatarlarga nisbatan raqobatbardosh bo'lishi, aholi va ommaviy axborot vositalari bilan ishlash va o'zaro hamkorlik qilish ko'nikmalarini takomillashtirish;

— kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni amalga oshiruvchi ta'lim va ilmiy-tadqiqot, shu jumladan, xorijiy mamlakatlardagi muassasalar bilan o'zaro samarali idoralararo hamkorlikni chuqurlashtirish.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O'zbekistonda uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida axborot texnologiyalarining qo'llanilishi tobora kengaymoqda.

Axborot madaniyatiga ega, texnologik tafakkurli, raqamli savodxon yoshlarni tarbiyalash – uzluksiz ta'limning muhim vazifasiga aylangan.

Uzluksiz ta'lim tizimi va axborot sohasidagi islohotlar o'rtasidagi uyg'unlik bu ikki sohaning o'zaro bog'liqligi, bir-birini rivojlantirishdagi muhim o'rni orqali namoyon bo'ladi. Mustaqillik yillarida bu sohalarida olib borilgan islohotlar O'zbekistonning raqamli jamiyat sari dadil qadam tashlashiga zamin yaratdi.

Ta'limdagi islohotlar axborot infratuzilmasining rivojiga, axborotga bo'lgan talabning ortishiga olib keldi. Maktablar, kollejlari, oliy ta'lim tashkilotlari internet tarmog'iga ulandi, elektron kutubxonalar, raqamli darsliklar va masofaviy ta'lim tizimlari vujudga keldi. Ayniqsa, 2000-yillar oxiri va 2010-yillar boshlarida raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi ta'lim tashkilotlarining funksional imkoniyatlarini oshirdi. Bu esa o'z navbatida yoshlarning axborot madaniyati, texnologik tafakkuri va axborotga nisbatan ongli munosabatini shakllantirish zaruratini keltirib chiqardi.

Uzluksiz ta'lim va axborot sohalari o'rtasidagi uyg'unligi quyidagi jihatlar orqali namoyon bo'ladi:

1. Ta'lim tizimi axborot texnologiyalariga ehtiyoj tug'diradi, bu esa AKTni rivojlantirishga turtki beradi.

2. Axborot texnologiyalari esa ta'lim jarayonining mazmunini, shaklini va uslubini o'zgartiradi – masofaviy, onlayn va aralash (gibrid) ta'lim modellari paydo bo'ladi.

3. Axborot texnologiyalarining joriy qilinishi bilan ta'lim mazmuniga axborot madaniyati, raqamli savodxonlik, kiberxavfsizlik kabi yangi fanlar kiritiladi.

4. Har bir bosqichda ta'lim olish jarayonida axborotga ishlov berish, uni tanlash, tahlil qilish, baholash va undan samarali foydalanish bo'yicha kompetensiyalarni rivojlantirish zarurati kuchayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimi, shuningdek, ta'lim tizimini raqamlashtirish keskin jadallashdi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Ushbu strategiyada ta'lim sohasining raqamlashtirilishi, masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, har bir fuqaroga axborot resurslaridan foydalanish huquqini ta'minlash kabi qator masalalar nazarda tutildi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan uzluksiz ta'lim tizimi va axborot sohasidagi islohotlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, birining rivojlanishi ikkinchisining takomillashuviga xizmat qilmoqda. Bu ikki sohaning dialektik aloqasi zamonaviy raqamli jamiyatning shakllanishida hal qiluvchi o'rin tutmoqda. Kelgusida bu sohalar bo'yicha olib boriladigan strategik islohotlar mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hamda jahon maydonida munosib o'rin egallashida muhim omil bo'lib qoladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, uzluksiz ta'lim va axborot sohasining dialektik aloqasi bugungi kunda yanada murakkablashib, ko'p qatlamli ijtimoiy va texnologik omillar bilan boyimoqda. Bu jarayonni tahlil qilishda quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim:

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining uzluksiz ta'limdagi integratsiyasi;
- yoshlar axborot madaniyati va raqamli etikani shakllantirishda uzluksiz ta'limning roli;
- ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasida axborot texnologiyalarining vositachilik roli;
- huquqiy-me'yoriy asoslarning takomillashtirilishi.

Uzluksiz ta'lim va axborot texnologiyalarining o'zaro uyg'un rivojlanishi qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishi zarur. Bugungi kunda quyidagi qonunlar va qarorlar ushbu yo'nalishda muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda: "Ta'lim to'g'risida"gi qonun (yangi tahriri), "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonun, "Elektron hukumat", "Elektron ta'lim" konsepsiyalari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmon va qarorlari.

Biroq AKT vositasida ta'lim olishda bolalar va yoshlarni himoya qilish, shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash, sun'iy intellekt asosidagi texnologiyalarni etika va qonun doirasida qo'llash kabi yangi muammolar yuzaga chiqmoqda. Bu esa mavjud qonunchilikka doimiy ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritishni taqozo etadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Uzluksiz ta'lim tizimi va axborot sohasidagi islohotlarning integratsiyasi ta'lim jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Bu integratsiya quyidagi yo'nalishlarda namoyan bo'ladi:

- ta'lim jarayonida raqamli platformalardan keng foydalanish;
- o'quv materiallarini elektron, kontent shaklda taqdim etish;
- ta'limni individuallashtirish imkoniyatlarini kengaytirish.

Bunday uyg'unlik talimning ochiqligi, shaffofligi va samaradorligini ta'minlaydi hamda axborot resurslaridan foydalanish orqali talaba-yoshlarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalari shakllanishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonuni. 14.09.2016-y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «30 iyun - Yoshlar kuni» munosabati bilan 30.06.2023-yil O'zbekiston yoshlariga bayram tabrigidan.
3. Sholte J. Rethinkind Globalization. London, 2000, r. 14.
4. Абдуллаева М.Н., Покачалов Г. Философские проблемы методологии науки. Т., 2006. – С.37.
5. Роузентал Ф. Торжество знания. –М. 1978. – С. 235.
6. Чирченко О.Н. Информационные аспекты компьютеризации. –М. 1989. – С.8.

JAMIYATDA MA'NAVYI-AXLOQIYLIKNI YUKSALTIRISHDA TOLERANTLIK FAZILATINING RO'LI

Abror Otokulov,
O'zbekiston Respublikasi
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining
Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa institute
katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamiyatda ma'naviy-axloqiylikni yuksaltirish jarayonida tolerantlik (bag'rikenglik) fazilatining o'rni va ahamiyati keng yoritilgan. Unda o'zbek xalqiga xos bo'lgan sabr-toqat, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik va insonparvarlik qadriyatlarining tarixiy ildizlari hamda ularning zamonaviy ijtimoiy hayotdagi namoyon bo'lish shakllari tahlil qilinadi. Shuningdek, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida ma'naviy taraqqiyot, yoshlarning axloqiy kamoloti va jamiyatda tinchlikni mustahkamlashda tolerantlik fazilatining muhim omil ekani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, qadriyat, xavf, fazilat, tarix, tolerantlik, bag'rikenglik, hamjihatlilik, millat, xalq, mehmondo'stlik, jamiyat, tinchlik, ma'naviy axloqiy fazilat, taraqqiyot, millatlararo totuvlik, ijtimoiy soha, do'stlik.

Аннотация. В данной статье всесторонне освещается роль и значение качества толерантности (терпимости) в процессе повышения духовно-нравственного уровня общества. В ней анализируются исторические корни присущих узбекскому народу таких ценностей, как терпение, межнациональное согласие, религиозная толерантность и гуманизм, а также формы их проявления в современной общественной жизни. Кроме того, в рамках Стратегии развития Нового Узбекистана обосновывается важная роль толерантности как одного из ключевых факторов духовного развития, нравственного становления молодежи и укрепления мира в обществе.

Ключевые слова: духовность, ценность, риск, добродетель, история, толерантность, терпимость, солидарность, нация, народ, гостеприимство, общество, мир, духовно-нравственная добродетель, прогресс, межэтническая гармония, социальная сфера, дружба.

Annotation. This article comprehensively examines the role and significance of the virtue of tolerance in the process of enhancing moral and ethical values within society. It analyzes the historical roots of values inherent to the Uzbek people—such as patience, interethnic harmony, religious tolerance, and humanism—as well as the forms of their manifestation in contemporary social life. Furthermore, within the framework of the New Uzbekistan Development Strategy, the article substantiates the importance of tolerance as a key factor in spiritual development, the moral maturity of youth, and the strengthening of peace in society.

Keywords: spirituality, value, danger, virtue, history, tolerance, tolerance, solidarity, nation, people, Hospitality, society, peace, spiritual moral virtue, progress, interethnic harmony, social sphere, friendship.

Bugungi kunda bizning jamiyatimizda erishilgan yutuqlarimizga maxliyo bo'lmazdan, xotirjamlikka berilmazdan, erishayotgan muvaffaqiyatlarga tanqidiy nazar bilan qarash lozim bo'ladi, shunda oldimizda turgan ma'naviyat bo'yicha qilishimiz kerak bo'lgan jamiyatimizning farovon hayotini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan maqsad va bir qator dolzarb vazifalarimiz borligi aniq bilinadi.

Tarixning barcha davrlarida millatning yetuk vakillari tomonidan ma'naviy sohalarni yanada takomillashtirish yo'lida amaliy harakatlar amalga oshirilgan. Ular ajdodlardan-avlodlarga o'tib, avaylab-asrab kelinmoqda. Buyuk ajdodlarimiz asrlar davomida xalqimizni

ezgu g'oyalari bilan millatni turli tahdidlardan himoya qilib, bugungi kunda jamiyatimiz o'ziga xos ma'naviyatiga ega bo'ldi.

O'tmishning og'ir sinov yillarida, O'zbekiston hududiga kelib qolgan ayrim kishilar, oilalar, hatto butun xalqlarni ham qurshab olgan iliq munosabat, samimiyat va g'amxo'rlik, o'zbek xalqiga xos bo'lgan bag'rikenglik, insoniy mehribonlik va o'zgalar qayg'usiga sherik bo'lish, ochiq ko'ngillilik va mehmondo'stlikning yorqin namoyishi bo'ldi. Millatimiz qiyinchilik yillarida o'zlari yemay, bolalariga yedirib-ichirmay, mutlaqo begona, ammo yordamga muhtoj odamlar bilan topganlarini baham ko'rdilar. O'sha og'ir yillarda turli millatlarga mansub bir emas, o'nlab yetim bolalar shundoq ham ko'p bolali o'zbek oilalarida yangi ota-ona orttirdilar, ota va ona mehriga qondilar. Butun bir xalq ana shunday yuksak ma'naviy fazilatlarini namoyish etganligi haqidagi misollar tarixda kam topiladi.

Xalqimizning etnik, madaniy va diniy sabr-bardoshi ma'naviy uyg'onishning yana bir manbai hisoblanadi. Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch-totuv yashagan markaz bo'lib keldi. Etnik sabr-toqat, bag'rikenglik hayot bo'ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy me'yorlarga aylandi.

Davlatimiz nafaqat o'zining buyuk tarixi va boqiy yodgorliklari, ayni paytda o'zining bag'rikeng, mehnatkash va mehmondo'st bag'rida yuzdan ortiq millat va elat vakillarini mujassam etgan, yagona, ahil oila bo'lib yashaydigan xalq bilan butun dunyoga tanilgan.

Ijtimoiy hayotimizni isloh qilish va yangilash boshlanib ketganligi bois ma'naviy madaniyatning qudratli qatlamlari ochildi. Ular xalq ruhiyatini vatanparvarlik, milliy iftixor, butun dunyo uchun bag'rikenglik tomon keskin o'zgartirib yubordi. Bu esa xalq ruhi qudratining birinchi belgisidir. Bu ruh shu qadar yorqin va o'ziga xoski, u integratsiyadan aslo cho'chimaydi, aksincha, jahon hamjamiyatining uzviy bir qismiga aylanishga harakat qilmoqda.

Jamiyat o'zining madaniyati, ijtimoiy muhiti, insoniy fazilatlarida namoyon bo'ladi. Forobiy yozganidek, faqat axloqiy qadriyatlar, adolat, halollik, barqarorlik, xayr-ehson, ezgulik jamiyat ruhini yuksaltiradi. Ijtimoiy muhitdagi taraqqiyot ma'naviy rivojlanishdan boshlanadi. Ma'naviy kamolotning asosi – tarix, Vatan, kelajak avlod oldidagi mas'uliyatimizni his qilishdir.

Agar jamiyatning tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi - ma'naviyatdir. Biz Yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz[1].

Ma'naviyat degan tushunchalar har bir jamiyat a'zosi uchun muhim hisoblanadi, jamiyat, millat va xalq farovonligiga erishish yo'lida alohida o'rin tutadi.

Ayrim yoshlarning ma'naviy-axloqiy jihatdan sust rivojlanganligi va ulardagi o'ziga xos xususiyatlarda (o'zgaruvchanlik, qo'zg'aluvchanlik, beqarorlik, hissiyotga beriluvchanlik, tobelik, jur'atsizlik va boshqalar) jamiyatda qabul qilingan normalar va qoidalarga muvofiq kelmaydigan xulq-atvoriga ega bo'lgan shaxslar jamiyatda vujudga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Yoshlarning ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamolligi esa ijtimoiy turmushda vujudga kelgan turli xil nizoli vaziyatlardan chiqib ketishiga yordam beradi.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish beshinchi ustuvor yo'nalishida, milliy madaniy markazlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish.

Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasining izchil amalga oshirilishini ta'minlash.

Turli millat yoshlari uchun qo'shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish, ularda fuqarolik burchini anglash, vatanparvarlik, bag'rikenglikka asoslangan millatlararo muomala madaniyatini yuksaltirish.

Xorijiy tillarda faoliyat yuritayotgan hamda millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosatini yoritayotgan ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo'shimcha qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish.

Xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirish maqsadida do'stlik jamiyatlari faoliyatini takomillashtirish[2] kabi jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlashga qaratilgan yetmish to'rtinchi maqsad bayon etilgan.

Bugun dunyo siyosiy maydonida yuz berayotgan aksariyat o'tli to'qnashuv va g'alayonlar aynan bag'rikenglik ruhi yetishmasligidan bo'layotganligi bugun ko'pchiligimizga ma'lum, zero, davlatlarning parchalanishi, milliy va etnik nizolarning ortishi, diniy murosasizlik natijasida diniy nizolarning avj olishini bag'rikenglik ruhiyatini yetishmasligidan dalolatdir.

BMT bosh kotibi Antoniu Gutterish Bosh assambleyaning 72- sessiyasidagi bayonotida insoniyat oldida turgan eng jiddiy xavfli ko'rinishlar sifatida quyidagilarni ko'rsatadi:

- yadroviy qurolni qo'llash xavfi;
- xalqaro terrorizm;
- qurolli to'qnashuvlarning ko'payishi;
- iqlimning o'zgarishi;
- jamiyat asosini yemirayotgan, o'sib borayotgan tengsizlik;
- ilmiy taraqqiyotning misli ko'rilmagan asoratlari;
- qochqin va muhojirlar muammosi.

Bu kabi jiddiy xavflarning paydo bo'lishida albatta bag'rikenglik ruhiyatining yetishmasligi desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasida ta'kidlanganidek, "Bag'rikenglik bo'lmasa tinchlik bo'lmaydi, tinchliksiz esa taraqqiyot va demokratiya bo'lmaydi" davlatimizning oldida bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish va targ'ib qilish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Milliy mafkuramizning asosiy g'oyalardan bo'lmish diniy bag'rikenglik, millatlaro totuvlik, ijtimoiy hamkorlik va komil inson g'oyalari ruhida yoshlarni tarbiyalash yurt tinchligi, vatan ravnaqi va xalq farovonligi yo'lida taraqqiyot sari ildamlashimizga xizmat qilishi shubhasiz[3].

Xalqimizning tomiri va qonida bo'lgan tolerantlik, olijanoblik kabi ezgu fazilatlar, xalqimizning e'tiqodi balandligini, ongi yuksakligini bildiradi. Jamiyatimizning siyosiy sohadagi yutug'i shundaki, ijtimoiy uyg'unlanish kuchaydi, fuqarolar va millatlararo totuvlik, tinchlik saqlanmoqda. O'zaro hurmat, bag'rikenglik, do'stlik hayotiy ehtiyoj ekanligini mamlakatimiz fuqarolari tobora o'zlarini ravshan his etmoqda.

Jamiyatda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni yanada shakllantirish, zarur bo'lgan fazilatlarga ega bo'lishini ta'minlash maqsadida tizimli ravishda ma'naviy tadbirlar amalga oshirilmoqda, bu o'z navbatida insonlarning ijtimoiy faolligini oshishiga olib keladi.

Shaxs bilan olib boriladigan ma'naviy tarbiya jarayonida ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. 1-razmda ko'rsatilgan.



1-rasm. Shaxs kamolotini yuksaltiruvchi ma'naviy-axloqiy fazilatlar

Ma'naviy-axloqiy fazilatlarning eng muhimi tolerantlikdir. Jamiyatimizda millatlararo totuvlik va bag'rikenglik muhitini mustahkamlashga qaratilgan ishlarimiz sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Har yili Xalqaro do'stlik kuni sifatida keng nishonlanadigan 30-iyul sanasi O'zbekistonda "Xalqlar do'stligi kuni" deb e'lon qilindi.

YUNESKO Bosh konferensiyasining 1995 yil 16 noyabrda bo'lib o'tgan 28-sessiyasida Bag'rikenglik tamoyillari to'g'risidagi Deklaratsiya qabul qilingan edi. Shundan buyon mazkur sana "Xalqaro bag'rikenglik kuni" sifatida nishonlab kelinadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad dunyo xalqlarini bag'rikenglikka, tinchlikni asrab-avaylashga hamda ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikka erishishga chorlashdir.

Bag'rikenglik o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvatli, g'amxo'r, saxiy, keng-fe'lli bo'lgan, ana shunday ma'naviy fazilatlarga ega kishilarni ifodalovchi tushuncha. Bag'rikenglik o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an'ana-marosimlariga hurmat-ehtiromda bo'lish, muomala munosabatda kamsitish va tahqirlashlarga yo'l qo'ymaslik, insoniylikni hamma narsadan ustun hisoblab, jamoada, ish joylarida, mahalla-ko'yda bunga rioya etishni anglatadi. Tolerantlik turli dindagi, turli millat va elatlarga mansub kishilarning bir mamlakat doirasida, yagona davlat tarkibida bahamjihat, tinch-osoyshta yashashini ifoda etadi. Bag'rikenglik ayrim shaxslarga yoki butun bir xalqqa xos xususiyat bo'lishi mumkin. Bag'rikenglik – o'zbek xalqining eng olijanob fazilatlaridan biridir. Bag'rikenglik milliy va diniy tusda namoyon bo'ladi. *Milliy bag'rikenglik* – millatlararo totuvlikni anglatadi, *diniy bag'rikenglik* – turli diniy konfessiyalarga mansub kishilarning hamjihatlikda yashashini bildiradi. Turli dinlarga e'tiqod qiluvchilar bilan hech bir dinga e'tiqod qilmaydiganlar o'rtasidagi hamjihatlik, hamkorlik va o'zaro hurmat ham bag'rikenglikka kiradi[4].

Bugungi kunda fuqarolarning har bir hodisa va jarayonga ongli munosabatda bo'lishi va o'zbekona o'ylab ko'rishga asoslangan faoliyati tufayli o'z manfaatlarini mustaqillikni mustahkamlash kabi ijtimoiy manfaatlarga bo'ysundirish g'oyasini shakllantirmoqda. Bunga o'zbek xalqining sabr-toqatliligi, barcha muammolarni sharqona bosiqlik bilan hal etishi orqali erishildi. "Millatlararo totuvlik", "bag'rikenglik" tushunchalari har bir farzandning o'z millati vakili sifatida o'zligini anglashiga, odob-axloq, milliy va millatlararo muloqot hamda munosabatlarning madaniy me'yorlarini o'zlashtirib borishiga yordam bermoqda. Farzandlar ongidagi o'zlikni anglash ularning ozod shaxs ekanligidan dalolat beradi va boshqalarni anglash qobiliyatiga aylanib, bir-biriga yaqinlashuv jarayoni sodir bo'ladi. Milliy o'zlikni anglash bag'rikenglikka mos holat bo'lib, u shaxsning boshqa millatlarga munosabatini nafaqat o'z millatining merosiga va madaniy boyliklariga, balki boshqa xalqlarning ham ma'naviy boyliklariga samimiy munosabatini shakllantiradi. O'zbekona milliy qadriyatlar negizini ifodalovchi o'zbek xalqi fazilatlari turkumi bag'rikenglikni ifodalovchi omillardan bo'lib, undagi hayo, ibo, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehmondo'stlik, ota-onani ulug'lash, o'z manfaatini ijtimoiy manfaatlardan ustun qo'ymaslik, boshqalarning xatti-harakatlariga toqat qilish kabi fazilatlar har qanday bag'rikenglik yo'nalishining asosini ta'minlaydi.

Bag'rikenglikka xos o'zlikni anglagan kishi millatning boshqalar tomonidan kamsitilishiga yo'l qo'ymaydi. Bu uning hulq-atvorini, axloqini, siyosiy-ma'naviy pokligini, o'z xalqi va uning muqaddas manbalari, boyligi kabilarga munosabatini belgilab beradi. Bular esa O'zbekistonda yashovchi har bir insonda bag'rikenglik, baynalmilallik, boshqalarga nisbatan xayrixohlik, mehribonlik, kamtarlik, o'zaro hurmat kabi ijobiy fazilatlarni shakllantiradi[5].

O'zligini chuqur anglab, qanday buyuk zotlarning avlodi, qanday aziz va muqaddas Vatanning farzandi ekanidan doimo g'ururlanib yashaydigan bunday bunyodkor va bag'rikeng xalq bilan har qanday yuksak cho'qqilarni zabt etish mumkin, kimki xalqimizning mehribonligi va bag'rikengligimizning namoyishini ko'rsa, ularning chuqur insoniy ma'nosini anglasa, hech shubhasiz, doimo g'ayratda qoladi, yurtimizda hukm surayotgan tinchlikni, millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlashimiz kerak. Xalqimizning eng katga boyligi — bag'rikenglik, mehr-oqibatdir, biz bu bag'rikenglikni, mehr-oqibatni doimo asrab-avaylashimiz zarur.

O'zbekistonimizda turli madaniyat va sivilizatsiyalar vakillarining o'zaro do'stlik va hamjihatlikda yashab kelgani xalqimiz tabiatiga xos bo'lgan mehr-oqibatlik, tinchliksevarlik, ochiqlik va saxovatpeshalik kabi noyob fazilatlarining yanada kuchayishida muhim omil bo'ldi. Hozirgi kunda, hayotimizning barcha sohalarida, bizning demokratik jamiyat qurish yo'lidagi intilishlarimizda bunday bebaho fazilatlar, ayniqsa, bag'rikenglik muhim o'rin tutadi. Bugun ongu tafakkurimizdan yanada chuqur joy olayotgan vatanparvarlik tuyg'usi bizga beqiyos kuch-quvvat baxsh etmoqda, uzoqni ko'ra bilishimizga, o'z kuchimizga ishonchimiz ortishiga ko'maklashmoqda. Bu tuyg'u, ajdodlarimizning hayotida bo'lgani kabi, davrning mashaqqatli sinovlarini birgalikda yengib o'tishda, turli xavf-xatar va tahdidlarga mardona qarshi turishda hozirgi avlodlar uchun ham ruhiy madad bo'ladi. Biz o'zaro totuvligimizni, yagona musaffo osmon ostida yashaydigan barcha millat va elatlar asrlar davomida e'zozlab kelayotgan, barchamizning ruhan boyishimizga xizmat qiladigan ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni doimo yodda tutish, ko'z qorachig'idek asrash lozimligini aslo unutmasligimiz kerak.

Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan har bir xalq va millatning etnik o'ziga xosligi, tili, urf-odati, an'alarini saqlashda muhim ro'l o'ynaydigan milliy-madaniy markazlarning faoliyatini rivojlantirish uchun bugun barcha shart-sharoit va imkoniyatlarimiz mavjud, bu bilan biz jamiyatimizning tinch va osoyishta hayoti, ertangi kunga ishonchining mustahkam poydevorini bunyod etamiz. Turli millat va dinga mansub insonlar o'rtasidagi o'zaro hurmat va do'stligini mustahkamlash, odamlar hayotini yanada boy va mazmunli qilish borasida olib borayotgan xayrli faoliyatimizni bundan buyon ham sobitqadamlik bilan davom ettirishimiz darkor.

Bugungi ijtimoiy sohalarda, xalqimizning donoligi, bag'rikengligi, sabr-bardoshi bizni har qanday balo-qazolardan asrab, idrokimizni, aql-zakovatimizni charxlab, yurtimizda osoyishtalik va millatlararo, fuqarolararo tinchlikni saqlab qolishga xizmat qilmoqda, yorug' kunlarga yetganimizdan g'ururlanib, yangi marralar sari qadam qo'yayotganimiz uchun faxrlanib ishlash va yashashimiz zarur, shu yurtda yashayotgan har qaysi insonning eson-omonligi bizning eng katta yutug'imiz va boyligimiz ekanligini xalqimiz hech qachon unutmasligi kerak, Bu boyligini ko'z qorachig'iday asrab-avaylash, qadriga yetish barchamizning muqaddas burchimiz hisoblanadi.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Mirziyoev.Sh. "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir". – Toshkent: "Tasvir" nashriyot uyi. 2021. 4 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son Farmoni. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. 35 b.
3. Sharq mamlakatlaridagi tarixiy jarayonlar va ularni o'rganishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari // Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. Toshkent, 2020. – 198 b.
4. O.Salimov, X.Sultonov, A.Abduvaxitov, D.Kenjaev, A.A'zamov, M.Hojimatov, M.Quronov, Q.Nazarov (tuzuvchi va mas'ul muharrir) "Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati". "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, Toshkent 2021. 75 b.
5. O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash borasida rahbar kadrlar oldida turgan vazifalar: mavjud holat, muammolar va yechimlar: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi. Toshkent, 2019. – 32 b.

YOSHLARNING DUNYOQARASHIDA IT SOHASINI RIVOJLANISHINING AHAMIYATI

Zohidjon Xayitmatov,
Andijon davlat universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti,
Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborot asri deb atalayotgan XXI asrda Yangi O'zbekistonda IT sohasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni jadallashtirish orqali mamlakatni 2030 yilga borib IT xabiga aylantirish masalasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, IT sohasi, bir million dasturchi, raqamli ijtimoiy ekotizim, intellektual salohiyat, raqamli resurs, ilm-fan.

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос превращения Нового Узбекистана к 2030 году в IT-хаб за счёт ускорения реформ, реализуемых в XXI веке — так называемом информационном веке, — в сфере развития информационных технологий.

Ключевое слово: социально-политический, экономический, духовный, сфера информационных технологий, один миллион программистов, цифровая социальная экосистема, интеллектуальный потенциал, цифровой ресурс, наука.

Annotation. This article examines the issue of transforming New Uzbekistan into an IT hub by 2030 through accelerating the reforms being implemented in the development of the IT sector in the twenty-first century, known as the information age.

Keywords: socio-political, economic, spiritual, IT sector, one million programmers, digital social ecosystem, intellectual potential, digital resource, science and knowledge.

Kirish. Bugun dunyoning siyosiy manzarasidagi o'zgarishlar mustaqil davlatlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotiga har tomonlama ta'sirini ko'rsatmoqda. Bunday ta'sirlarning salbiy oqibatlarini yumshatish va ijtimoiy – ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda esa har bir mamlakatning oltin fondi sanalgan intellektual salohiyatli yoshlar, ertangi farovon kunimizning tayanchi hisoblanadi. Zero, dunyo hamjamiyatida zamonaviy axborot texnologiyasining tobora rivojlanib borishi, sun'iy intellektning rivojlanishiga asos bo'ldi. Binobarin, jahon hamjamiyatining ajralmas qismi bo'lgan, hozirgi kunda aholisining qariyb 60 foizini yoshlar tashkil etayotgan Yangi O'zbekistonda ham IT sohasiga prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi katta e'tibor berib kelinmoqda. Jumladan, 2025 yil 14 – fevral kuni Videoselektor tarzida bo'lib o'tgan yoshlar bilan uchrashuvda yoshlar uchun imkoniyatlarni yanada kengaytirish chora-tadbirlari muhokama etildi. Ushbu uchrashuvda davlatimiz rahbari quyidagi so'zlarni ilgari surdi:

IT sohasida “Bir million dasturchi” loyihasiga qo'shimcha 300 ming yoshlar jalb etiladi. “Raqamli ijtimoiy ekotizim”ni joriy etish bo'yicha uzoq muddatli strategiya ishlab chiqiladi. Kambag'allikdan chiqishning eng samarali yechimi ham – bu ta'lim. Shu bois bunday oilalar farzandi foizsiz ta'lim krediti, qo'shimcha grant, shartnoma to'loviga yordam orqali o'qishga rag'batlantiriladi. Bilimga chanqoq, lekin oilaviy sharoiti og'ir bo'lgan yoshlarni xorijda o'qitish bo'yicha yangi tizim – “Yorqin kelajak” loyihasi joriy etiladi.

Mamlakatimizning ertangi farovonligini belgilab beradigan yoshlarning o'z intellektual salohiyatlarini ro'yobga chiqarishiga xizmat qilayotgan axborot texnologiyalari bo'lsa, boshqa bir tomondan esa, yoshlar ongiga axborot oqimining kirib kelayotganligi, ular ruxiyatiga, ma'naviyatiga o'zining ijobiy va salbiy ta'sirlarni ko'rsatib kelayotganligi, katta avloddan yoshlar ta'limi va tarbiyasiga panja ortidan qaramaslik singari mas'uliyatni yuklaydi.

Chunonchi, bugun shiddat bilan rivojlanib borayotgan intellektual dunyoda qaysiki mamlakat ta'limga e'tibor qaratsa, o'sha davlatning jamiyati har tomonlama kuchli bo'ladi. Binobarin, shaxs kuchli bilim va salohiyatga ega bo'lsa, jamiyati farovon bo'ladi, jamiyatning farovon bo'lishi esa davlatning kuchli bo'lishiga asos bo'ladi. Kuchli davlat esa doimo taraqqiyotga intiladi. Davlatning oltin fondi bo'lgan yoshlarimizni esa ma'nan sog'lom, barkamol va komil inson etib kamol toptirish davlat va jamiyat faoliyatining asosidir.

Binobarin, O'zbekistonda IT sohasi taraqqiyoti yoshlar ma'naviy kamolotiga qanday ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatayotgani, bu boradagi asosiy omillar, imkoniyatlar va tahdidlar maqolada atroflicha tahlil qilindi. Shuningdek, axborot texnologiyalaridan oqilona va samarali foydalanish orqali yoshlar tarbiyasida qanday ijobiy natijalarga erishish mumkinligi ham ko'rib chiqildi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda IT sohasini rivojlanishi: yoshlar ma'naviy kamolotiga ijobiy va salbiy ta'siri bo'yicha olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilib, tadqiqot ishlarida ko'proq axborot texnologiyalarining inson hayotidagi ahamiyati yoritilgan.

Jumladan, O'zbekistonda so'ngi yillarda IT sohasini rivojlantirish borasida ko'plab islohatlar amalga oshirilib, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli farmonida Respublikada raqamli industriyani jadal rivojlantirish, milliy iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish maqsad qilib belgilangan.

Bugungi kunda, mamlakatimizga xorijiy investirlarni jalb etishda, aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatishda rivojlangan davlatlar bilan raqobatlashadigan salohiyatli kadrlarni tayorlashda IT sohasini o'rni alohida ahamiyat berilmoqda.

IT sohasining rivojlanishi, yoshlarning axborot texnologiyalaridan, jumladan, global tarmoq internetdan keng ko'lamda foydalanish imkoniyatini berdi. Binobarin, axborot texnologiyalaridan yoshlar ruhiyati va ma'naviyatiga ijobiy tasiri bilan bir qatorda, salbiy tasirini ham ortib borishi borasida mahalliy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilib, bu borada ko'plab ilmiy maqola va asarlar yozilmoqda. Ushbu tadqiqotchilar qatorida R. Rasulov o'zining "Ommaviy Kommunikatsiyalarning Yoshlar ijtimoiy Siyoslashuviga ta'siri" deb nomlangan ilmiy maqolasida, ommaviy kommunikatsiya texnologiyalarining yoshlarning ijtimoiy siyoslashuvi jarayoniga ta'sirining yoshlar ijtimoiy hayotdagi holatlarning samarali va ijobiy tomonlari tahlil qilingan.

Shuningdek, tahlil jarayonlari Ommaviy axborot vositalari yoshlarning nutqiy afzalliklari, qadriyatlari va siyosiy ongini shakllantirishda, tanqidiy fikrlash va mediasavodxonlikni rivojlantirish o'rnini va ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Ilmiy muammoning tavsifi. O'zbekistonda so'ngi 5 yilda IT sohasida erishilgan yutuqlarimizga to'xtalib o'tgan prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning fikricha, soha uchun 2 mlrd dollar, shundan 700 million dollar to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar yo'naltirilib, alohida soliq rejimi joriy etilgan IT parklari tashkil qilindi. Bu esa IT-parklarda 14 ming nafar yoshlar yuqori daromadli ish o'rinlari bilan ta'minlanishiga asos bo'ldi.

Shuningdek, o'zini o'zi band qilgan IT mutaxassislari soni yil boshidan 2,5 baravarga o'sib, 43 mingtagacha yetdi. Joriy yilning o'zida mamlakatimizda 134 ta yangi, jumladan 50 ta xorijiy IT kompaniyalari tashkil etildi, eksportchi korxonalar soni esa 2 baravarga oshishini o'z fikrida aytib o'tdi.

Shuningdek, mamlakatimizda yoshlarni IT sohasiga ko'proq jalb qilishda yetakchi davlatlardagi xorijiy hamkorlar bilan birga maktab, litsey, kollej, texnikum va oliygohlarda o'quvchi va talabalarni IT ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha "Bir million dasturchi" loyihasini davom ettirish, kelgusi besh yilda IT xizmatlari eksportini 1 mlrd dollarga yetkazish ko'zda tutildi.

Binobarin, IT sohasini jadal rivojlantirish borasida 2024 yil 1 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamlashtirish sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-51-son

qarorining birinchi bandida nodavlat ta'lim tashkilotlariga bitiruvchisi IT-xizmatlarni eksport qiluvchi tashkilotga ishga joylashganda bazaviy hisoblash miqdorining 75 baravarigacha, nogironligi bo'lgan yosh bitiruvchisi bunday tashkilotga ishga joylashgan hollarda esa 105 baravarigacha bir martalik subsidiya ajratish tizimini nazarda tutuvchi dastur; xalqaro IT-sertifikatlarga ega yoshlarning o'qish hamda ushbu sertifikatlarni olish xarajatlarining 60 foizgacha bo'lgan qismini qoplab berish tartibi;

Ingliz tilini bilish bo'yicha B2 va undan yuqori darajadagi sertifikatga ega bo'lgan yoshlarning xalqaro IT-sertifikatlar olish xarajatlarini to'liq qoplab berish tartibi joriy etiladi.

Ushbu qarordan ham ko'rish mumkinki, mamlakatimizda IT sohasini rivojlantirishda nafaqat davlat tashkilotlari, balki nodavlat ta'lim tashkilotlarining ham rolini oshirish nazarda tutilgan.

Hozirgi kunda, zamon bilan hamnafas rivojlanib borayotgan mamlakatimizda yoshlar o'rtasida IT sohasini rivojlantirishga davlatimiz rahbari boshchiligidagi katta e'tibor qaratilib, sohani rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bugun yuksak salohiyatga ega bo'lgan yoshlarni komil inson bo'lib voyaga yetishlarida nafaqat IT sohasida, balki jismonan va ma'nan sog'lom etib tarbiyalash ham oldimizda turgan muhim masaladir.

Zero, hozirgi kunda inson hayotiy faoliyatining ajralmas qismiga aylanib borayotgan IT sohasi yoshlarning ma'naviy kamolotida ijobiy va salbiy ta'sirlari mavjud bo'lib, ushbu ta'sirning ijobiy holatlari quyidagicha namoyon bo'ladi:

Tezkor va qulay ma'lumotlarni olish imkoniyatining mavjudligi;

Yangi bilim va ko'nikmalarni mustaqil o'rganish imkoniyatining mavjudligi;

O'quvchilarga mavzuni tushuntirishda raqamli resurslardan foydalanib borish;

Yoshlarni ilm-fanda yutuqlarga erishishlarida jahon tajribasidan xabardor bo'lib borish imkoniyatining mavjudligi;

Yoshlarni ilmiy-innovatsion izlanishlarni amalga oshirib borishlarida ilmiy va tahlillar bazasiga kirish imkoniyatining mavjud ekanligi IT sohasini yoshlarning kamol topishlarida ijobiy rol o'ynaydi.

Umuman olib qaraganda, bugungi axborot asrida axborot texnologiyalarining yoshlarning hayot mazmuniga aylanib qolganligi, yoshlar orasida ijodiy (kreativ) fikrlash va innovatsion g'oyalarga bo'lgan qiziqishni sezilarli darajada oshirdi. Yoshlarda kreativ fikrlashning ortib borishi ularda yangi g'oyalar yaratish hamda ushbu g'oyalarni amalga oshirish imkoniyatini yaratdi.

Yoshlar ongida ma'naviy tarbiyani shakllantirib borishda, avvalo, ularni axborot oqimida adashmasliklari uchun tanqidiy fikrlashni shakllantirish bilan bir qatorda, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash zarur. Zero, ma'naviy tarbiya — insonni yuksak axloqiy, madaniy, milliy va ma'rifiy qadriyatlar asosida tarbiyalashdagi muhim jarayondir.

Yoshlarda Vatanga sadoqat, oilaga hurmat, insonparvarlik, to'g'rilik, adolat, mehr-oqibat, halollik va boshqa fazilatlarini shakllantiradi. Ma'naviy tarbiyani mustahkamlash – jamiyatning ma'naviy sog'lomligi va barqaror rivojlanishining asosidir.

Binobarin, bugungi axborotlashgan jamiyatda yoshlarda ma'naviy tarbiyani mustahkamlash quyidagicha ijobiy holatlarga olib keladi:

birinchi navbatda jamiyatdagi axloqiy muhitni yaxshilaydi;

ertangi farovon hayotimizning egalari bo'lgan yoshlarimizda milliy o'zlik va faxr tuyg'usini shakllantiradi;

yoshlarda internetdagi ijtimoiy tarmoqlardagi turli yot g'oyalar va salbiy ta'sirlardan himoya qiladi;

ma'naviy tarbiya yoshlarni kamolot sari yetaklaydi, vatanparvar, ma'rifatli shaxs sifatida tarbiyalaydi;

jamiyatning asosi bo'lgan oilalardagi munosabatlarni mustahkamlaydi, hurmat va ahillikni ta'minlaydi.

Metodlar. Yoshlar ma'naviyatiga IT sohasini rivojlanishining ijobiy va salbiy ta'siri mavzusidagi maqolani yozishda qiyosiy tahlil, empirik, sotsiologik metodlardan keng foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Yoshlar ma'naviyatiga IT sohasini rivojlanishining ijobiy va salbiy ta'siri **mavzusidagi** natijalar va muhokasi quyidagilardan iborat.

IT sohasining ijobiy ta'siri: Raqamli texnologiyalar yoshlarning ilm olish, ijodiy fikrlash va axborotga tezkor kirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Onlayn ta'lim, dasturlash, sun'iy intellekt, startaplar orqali intellektual salohiyat oshmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar va platformalar orqali dunyoqarashi kengayib, ma'naviy qadriyatlar haqida keng ma'lumotlar olinmoqda.

ITning salbiy ta'siri: Ko'p vaqtni gadjetlarda o'tkazish natijasida ijtimoiy aloqalar zaiflashmoqda, yolg'izlik va psixologik muammolar ortmoqda.

Yoshlarda g'arbiy madaniyat ta'sirida o'zligiga begonalashish, ma'naviy qadriyatlarga loqaydlik kuzatilmoqda.

Virtual hayot va haqiqiy hayot o'rtasidagi tafovut, axborotning nazoratsiz oqimi yoshlar ruhiyatiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Statistik natijalar: So'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning 65% i IT orqali foydali ma'lumotlarga ega bo'layotganini bildirgan.

Biroq 40% dan ortiq yoshlar ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, ma'naviy bo'shliq yoki vaqtni samarasiz sarflash kabi muammolarni tan olgan.

Binobarin, O'zbekiston yoshlarini tarbiyalash jarayonida IT sohasining o'rni tobora ortib bormoqda. Shubhasiz, axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan oqilona foydalanish – yoshlarning ma'naviy kamolotini ta'minlashda muhim vosita bo'la oladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi kunda aholisining qariyb 60 foizini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etayotgan mamlakatimiz yoshlari orasida ma'naviy, axloqiy tarbiyani rivojlantirish ularning o'zligini anglashlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'z navbatida, o'zligini anglagan jamiyat yoshlari Vatanparvarlik tuyg'usi yuqori bo'lishi bilan bir qatorda, turli-tuman tashqi g'oyaviy ta'sirlarga qarshi tura olish immuniteti ham shakllanadi.

Binobarin, dunyo hamjamiyatining ajralmas qismi bo'lgan O'zbekistonda IT sohasini rivojlantirish salohiyati juda ham yuqori bo'lib, bu borada qat'iy islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'z navbatida, ushbu islohotlarni amalga oshirishda esa, mamlakat yoshlari qiziqishi va global tendensiyalarga muvofiq harakatlar inobatga olinmoqda. Biroq, mamlakatimizda IT sohasini barqaror rivojlanishi uchun esa, sohaga professional mutaxassislarni jalb qilgan holda salohiyatli yoshlarni tayyorlash, sohani rivojlantirishga asos bo'luvchi infratuzilmani barqaror rivojlantirish va ta'lim sifatiga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Bu esa, yoshlarga axborot texnologiyalaridan to'g'ri va samarali foydalanish imkoniyatini beradi. Binobarin, yoshlarga IT sohasini to'g'ri tushuntirilishi uning ijobiy tomonlarining ortishiga olib keladi.

Bu esa, uning salbiy jihatlarini bosib o'tish uchun imkoniyat yaratadi. Buning uchun esa mamlakatimizda IT sohasini tizimli va davomli ravishda rivojlantirib borish darkor bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni. – T.: 2020.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamlashtirish sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-51-son Qarori. – T.: 2024.

ONG SINKRETIZIMIGA RATSIONAL VA MIFOLOGIK OMILLARNING TA'SIRI

Davron Kamilov,
O'zbekiston Respublikasi
Huquqni muhofaza qilish
akademiyasi dotsenti
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada inson ongining shakllanishida ratsional va mifologik omillarning o'zaro ta'siri falsafiy jihatdan tahlil etilgan bo'lib, ongning funksional xususiyatlari, uning falsafa, psixologiya va antropologiyadagi o'rni hamda mifologik va ratsional tafakkurning dialektik bog'liqligi ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: ong, ratsionalizm, irratsionalizm, mifologiya, remifologizatsiya, inert ziddiyat, genetik ziddiyat, sinkret ziddiyat, postmodernizm, sinkretizm, falsafiy tafakkur.

Аннотация. В данной статье анализируется взаимное влияние рациональных и мифологических факторов в формировании человеческого сознания. Рассматриваются функциональные особенности сознания, его место в философии, психологии и антропологии, а также диалектическая взаимосвязь мифологического и рационального мышления.

Ключевые слова: сознание, рационализм, иррационализм, мифология, ремифологизация, инертное противоречие, генетическое противоречие, синкретическое противоречие, постмодернизм, синкретизм, философское мышление.

Annotation. The article provides a philosophical analysis of the mutual influence of rational and mythological factors in the formation of human consciousness. It explores the functional characteristics of consciousness, its role in philosophy, psychology, and anthropology, as well as the dialectical interrelation between mythological and rational modes of thought.

Key words: consciousness, rationalism, irrationalism, mythology, remythologization, inert contradiction, genetic contradiction, syncretic contradiction, postmodernism, syncretism, philosophical thought.

Falsafa va fan tarixida inson ongining mohiyatini tushunish va uning xulq-atvoriga baho berishga oid falsafiy va ilmiy g'oyalar ilgari surilgan bo'lsada, uning funksional xususiyatlari haqida umum e'tirof etilgan yagona nazariya mavjud emas. Shu sababli ong falsafa, psixologiya va antropologik tadqiqotlarda muntazam o'rganib kelinayotgan va hanuzgacha to'liq kashf etilmagan markaziy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Ongni teranroq anglashga qaratilgan tadqiqotlarda ratsional ong va mifologik ongning o'zaro dialektik aloqadorligini o'rganish, ayniqsa hozirgi davrda uning namoyon bo'lishida sinergetik o'zaro muvofiqlashgan jarayonlar namoyon bo'lishini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat inson tafakkurida ratsional bilimlar va irratsional idrok bir vaqtning o'zida namoyon bo'lishi va ularning integratsiyasi ongning funksional xossasi sifatida namoyon bo'lgan. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ongda ratsionallik mutlaq ustuvorlik kasb etmayotgani, insoniyat doim an'anaviy ma'naviy tizimlar, jumladan, qadimiy asotir, rivoyat, ramzlarga takroran murojaat qilayotgani, yangi miflar yaratayotgani, ularning falsafiy asoslari nimalardan iborat ekanini asoslashga harakat qilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, jahon miqyosida mifologiya dunyoni bilishning dastlabki usuli, inson tafakkurining imkoniyatlarini namoyon qilish shakli sifatida paydo bo'lgan. U qadimgi insonning atrof-muhit, tabiat, kosmos, hayot va o'lim kabi murakkab va har doim ham tushunarli bo'lmagan holatlarni anglashga bo'lgan ichki ehtiyoji natijasida shakllangan. Shu nuqtai nazardan miflar asotir tafakkur uslubi mahsuli sifatida qadrlangan, ularda real voqelik

aniq aks ettirilmaganligi sababli aksariyat hollarda ilmiy jamoatchilik ularning mohiyatiga jiddiy e'tibor qaratmagan va bu holat hozirgi kunda ham davom etmoqda. Hozirgi davrda "mif" deb qo'llaniladigan bu atama yunoncha dunyo va insoniyatning tarixidan hikoyalarni ifodalovchi "muthos" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, unda odamlar o'z hayotlaridagi muhim voqea-hodisalarni miflarga tayangan holda nazmiy usulda ifodalaganlar va miloddan avvalgi VII asrda tarix va falsafa (miloddan avvalgi VI va V asrlardagi "peri fuseos" an'anasiga muvofiq) nasriy uslubda ma'lumotlarni bayon qilish urfga aylanguniga qadar ushbu uslub saqlanib qolgan. Yunon falsafasida, xususan Platon ijodida "mif" atamasi faqat an'anaviy rivoyat va nazmiy hikoyalar emas, balki muayyan falsafiy qarashlarini ifodalash uchun qo'llanilgan. Irina Derikning fikricha, "Platon miflarni shunchaki she'r emas, balki gipoteza darajasida baholagan"[1,442].

Bizning fikrimizcha, Platon g'oyalari bir tomondan, o'z davridagi voqealarning tushunarli bo'lishi va ularning dolzarbligini ifodalash uchun, boshqa tomondan, yagona "falsafiy til" mavjud bo'lmagani sababli mifologiyaga murojaat qilgan. Shu jihatdan uning falsafasida mifologik obrazlar va ratsional g'oyalar ziddiyatsiz xususiyatga ega bo'lib, ular bir-biriga chambarchas bog'lanib ketgan.

Mifologiya va ratsionallik o'rtasidagi bog'liqlik asosida o'z g'oyalarini ilgari surish nafaqat Platon, balki boshqa antik davrdan O'rta asrlargacha yashagan aksariyat faylasuflarga xos yondashuv sifatida saqlanib qolgan. Shu nuqtai nazardan qadimgi va O'rta asr dunyoqarashida mifologiya va ratsionallik o'rtasida aniq chegara belgilanmagan va aksariyat hollarda mifologik qarashlar mantiqiy izohlar bilan sinkretlashib, murakkab falsafiy tizimlar yaratish uchun zamin yaratgan. Biroq, XVII–XVIII asrlarda Yevropa ma'rifatparvarlari va klassik ratsionalizm vakillari mifologiyani inkor etib, uni xurofot deb baholaganlar hamda ratsional fikrlashning mutlaq ustunligini tan olishga da'vat etganlar. Aynan shu davrdan boshlab mifologik va ratsional tafakkur uslubi hamda ongning funksional xossalariga oid falsafiy-ilmiy bahslar davom etmoqda.

Bizning fikrimizcha, ushbu murakkab masalani ikki qarama-qarshi pozitsiyani – ya'ni ratsional va mifologik ongni ajratish nuqtai nazaridan emas, balki ziddiyatlar birligi va kurashi, inkor-inkor qonuniga tayangan holda dialektik mantiq nuqtai nazaridan tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Shu nuqtai nazardan, klassik ratsionalizm tarafdorlarining mifologiyani mutlaq rad etishini dialektik tahlilda "inkor" bosqichi sifatida izohlash mumkin. Masalan, "Jahon falsafasi qomusi"da XVIII asr fransuz ma'rifatparvarlari B.Fontenel, Volter, Didro, Monteskye va boshqalar miflarni kishilarning vahshiylik, yovvoyilik bilan bog'liq holda tushuntirganini, Yoxann Gotfrid Gerder esa miflarni ma'naviy taraqqiyot asosi sifatida baholaganini qayd etgan[2,818]. Fikrimizcha, mazkur davr ratsionalistlari miflarni faqatgina jaholat sababli yuzaga kelgan xurofotlar deb baholab, uning ma'naviy, simvolik funksiyasini anglab yetmagan bo'lsalar, romantizm tarafdorlari esa aksariyat hollarda uni haddan tashqari ideallashtirganlar. Biroq Y.Gerderning g'oyalari keyingi davrda mifologiyaga bo'lgan yangi munosabatlarning shakllanishiga xizmat qilgan. U mifni hissiy obraz sifatida talqin etib, uning estetik qiymatiga e'tibor qaratgan. Olimning fikricha, miflar insoniyatning dunyo haqidagi dastlabki tafakkuri mahsuli sifatida ma'naviy-madaniy taraqqiyotning ajralmas qismi sifatida rivojlangan.

Mazkur davrda yashagan romantizm tarafdorlari bilan bir qatorda F. V. Shelling, G. Gegel, F. Nitsshe, Z. Freyd va K. Yung kabi olimlar miflarni tafakkur tarixining zaruriy bosqichi sifatida e'tirof etib, uning bilish jarayonidagi o'rniga yangi mazmunda baho berganlar. Xususan, Sietl universiteti professori Jeyson M. Uird F. Shellingning "Mifologiya falsafasiga tarixiy-tanqidiy kirish" asari mifologik tafakkurning boy ma'nolarini falsafaga singdirishga xizmat qilganini va mifologiyani faqat tarixiy-ma'naviy meros emas, balki fikriy tahlil obyekti sifatida ham tushunishga katta hissa qo'shganini ta'kidlagan. Bu kabi ilmiy yondashuvlarning paydo bo'lishi "inkorni inkor" dialektik mantiq qonunining amal qilganidan dalolat beradi. Zero, mazkur bosqichda miflar xurofot emas, balki inson tafakkurining murakkab va o'ziga xos shakli sifatida qayta baholana boshlangan.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab miflarga oid munozaralar Avstriya, Angliya, AQSh, Germaniya va Frantsiya kabi davlatlarning ilmiy jamoatchiligi o'rtasida yana qayta tiklangan. Shu davrga mansub olim Xans Blyumenberg o'zining "Mif ustida ish" asarida miflar bir martaba yaratilgan "obyekt" emas, balki inson ehtiyojlariga qarab qayta shakllanadigan jarayon ekanini, ular zarurat paydo bo'lgan, muayyan ahamiyat kasb etgan hollarda mavjud bo'lishi va ularga ehtiyojning pasayishi bilan yo'qolishini ta'kidlagan. X.Blyumenbergning fikricha, mif va ratsionalizm bir-birini to'ldiruvchi va o'zaro bog'langan ong metamorfozalari sifatida rivojlangan, bu o'z navbatida remifologizatsiya jarayonida mifning qayta tiklanishi bo'lib, unda inson dunyoqarashidagi yaxlitlik va o'zaro ta'sir nazarda tutiladi.

Bizning fikrimizcha, ratsionalizm va irratsionalizm o'rtasidagi ziddiyatlar masalasi hozirgacha ilmiy muhokamalar va bahslar mavzusi bo'lib qolmoqda. Ratsionalizm – aql va ilmiy metodlarga tayanadigan tafakkur tarzi sifatida qaralsa, irratsionalizm dunyoni ratsional usulda anglab bo'lmaydigan hissiyot, intuitsiya, iroda, shu jumladan e'tiqod va mistitsizm orqali idrok etishni nazarda tutadi. Ilmiy bahslarda irratsionalizmga, xususan mifologiyaga nisbatan shubha bildiruvchilarning aksariyati miflarning inson tafakkuridagi o'rni va bilishdagi ahamiyatini rad etishga intiladilar. Inson tafakkuridagi irratsional bilimlarga shubha bilan yondashuvchi skeptiklarga D.Ch.Fernandes va A.M.Almeyda quyidagicha munosabat bildirganlar: "O'zlarini 'skeptik' deb ataganlar aslida ilmiy ratsionallikka, haqiqatni tafakkur kuchi yordamida ob'ektiv jihatdan teran anglashga, metodologik ehtiyotkorlik va murakkab muammolarni nazariy hamda falsafiy jihatdan atroflicha tushunishga intilishlari lozim. Ammo amalda, aksariyat hollarda ular dogmatik qarashlarga bog'langan holda o'zlarini go'yo diniy mutaassiblar kabi murosasiz tutadilar. Bunday vaziyatda ochiq muloqot, yangicha ilmiy yo'nalishlarni yoki falsafiy qarashlarni qabul qilish imkonsiz bo'lib qoladi. Agar biror tadqiqotchi ular e'tirof etgan tamoyillar doirasidan tashqariga chiqsa, ular darhol "soxta olim", "ilmdan tashqari shaxs" sifatida baholaydilar". Ularning mazkur mulohazalari bir tomondan irratsionalizmni qo'llab-quvvatlovchi guruh tarafdori bo'lib ko'rinsalar, boshqa tomondan esa fikr erkinligining ta'minlanishi va yangi falsafiy metodologiyaning joriy etilishiga alohida e'tibor qaratilganligini anglatadi. Bizning fikrimizcha, nazariy jihatdan ilgari surilgan ushbu g'oya Gegel ta'limotida "antitezis" sifatida ratsionalizmga qarshi muvozanatli bir yondashuv sifatida qabul qilinishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, falsafiy bahslarda yangi nuqtai nazarlarning shakllanishiga va intellektual plyuralizmning kengayishiga zamin yaratgan.

Fikrimizcha, ratsionalizm va mifologiya o'rtasidagi ziddiyat hanuz antitezis bosqichida saqlanib qolmoqda, ya'ni u to'liq hal etilmagan hamda sintez bosqichiga o'tilmagan. Hozir davrda ham ratsionalizm ilmiy va texnik bilimlarning asosiy tamoyili sifatida mustahkam o'rin egallamoqda, biroq u irratsional va simvolik tushunchalarga nisbatan yanada ochiqroq munosabat bildirmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ular o'rtasidagi ziddiyat ko'pincha yopiq va mexanik sinkretizm shaklida namoyon bo'lmoqda va mazmunan to'liq uyg'unlashuvga erishilmagan holatini saqlamoqda.

Bizning fikrimizcha, ratsionalizm va mifologiya o'rtasidagi ziddiyat asosan uch xil shaklda namoyon bo'ladi:

1. *Inert ziddiyat*
2. *Genetik ziddiyat*
3. *Sinkret ziddiyat*

1) Nazarimizda ratsionalizm va mifologiya o'rtasidagi **"inert ziddiyat"** – bu ziddiyatning hal etilmagan, lekin barqaror saqlanayotgan hamda yashirin to'qnashuv shaklidagi holatini anglatadi. Bunday ziddiyat holatida har ikki tushuncha bir vaqtning o'zida mavjud bo'lib, bir-biriga ta'sir o'tkazmasdan bir tizim doirasida mavjud bo'ladi. Mazkur turdagi ziddiyat nafaqat ijtimoiy-madaniy jarayonlarda, balki ilmiy va texnologik g'oya hamda amaliyotlarda ham o'z ifodasini topadi. Ayni holatda ratsionalizm mifologik unsurlarga murojaat qilishi kuzatilsa, mifologiya esa, aksincha, o'zini oqilona va asoslangan muqarrar haqiqat sifatida ko'rsatishga urinadi. Bunday muvozanatsiz, ammo muntazamlik kasb etgan munosabat shakli, axborot, fan,

siyosat, hatto kundalik tafakkur uslubida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Natijada, ratsional ong va mifologik idrok o'rtasidagi ziddiyat yechilmagan holda, ichki inersiya bilan saqlanadi.

2) Bizning fikrimizcha, **genetik ziddiyat** XX asrning birinchi yarmida fan va texnologiyaning yuqori sur'atlardagi rivojlanishi natijasida ratsional tafakkur ilmiy diskursda ustuvor paradigma sifatida shakllanib, bilish jarayonining asosiy mezon sifatida e'tirof etilgan davr bilan bog'liq. Mazkur davrda miflarning mazmunini tanqidiy baholashga qaratilgan demifologizatsiya mavzusi ham faol falsafiy muhokamalar qatoridan o'rin olgan. Mazkur falsafiy bahs-munozaralar mif yakunlanib, ratsionalizm to'liq g'alaba qozonganligi haqida taassurotni shakllantirsa-da, ratsionalizm va mifologiya o'rtasidagi ziddiyat yangi shakl va mazmunda namoyon bo'la boshlagan. Shu nuqtai nazardan, M.Usmonovning "Inson oqilonalik tamoyillarini afzal ko'rib, o'zini miflardan voz kechganligiga ishonirgan, shu bilan yana bir katta mif yaratgan, hozir esa buning oqibatlarini namoyon bo'lmoqda" degan mulohazasi mifologiya va ratsionallik o'rtasidagi aloqani mazkur davrdagi holatni yaqqol ifodalagan.

P.Tychkin esa mazkur mavzuni yanada kengroq tahlil etib, "Zamonaviy madaniyat bizga postnoklassik ilmiy ratsionallik modelini taklif qilmoqda. Bu model aynan turli xil noilmiy bilim shakllari bilan faol o'zaro aloqani nazarda tutadi" [3,94] deb ta'kidlagan. Uning fikriga ko'ra, klassik ilmiy paradigma doirasida tadqiqot olib boruvchi subyekt neytral deb qaralib, u ob'ektni tashqaridan kuzatuvchi va xulosa qiluvchi shaxs sifatida baholangan. Ammo postnoklassik paradigma nuqtai nazaridan qaraganda, tadqiqotchi shunchaki kuzatuvchi emas, balki u ham tadqiqot jarayonining faol ishtirokchisi va talqin etuvchisi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, subyektning dunyoqarashi, tasavvuri, voqelikka munosabati va shaxsiy pozitsiyasi ilmiy tadqiqotga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3) Biz ratsionalizm va mifologiya o'rtasidagi **"sinkret ziddiyat"** deb nom bergan uchinchi shakl esa ikki qarama-qarshi fikrlash usulining o'zaro ta'siri asosida bir-birini qisman boyitish va bir vaqtning o'zida qarama-qarshilikni saqlab qolish holatini ifodalaydi. Agar "inert ziddiyat" passiv qarama-qarshilikni, "genetik ziddiyat" esa tarixiy va metodologik asosdagi qarama-qarshilikni anglatadigan bo'lsa, "sinkret ziddiyat" dinamik integratsiya jarayoni sifatida tavsiflanadi. Unda ratsional va mifologik qarashlar bir-biriga singib, yangi ma'nolar, konseptual modelllar va ma'rifiy tizimlarni yaratadi, biroq ularning ichki ziddiyatlari to'liq bartaraf etilmagan holda saqlanib qoladi.

Ayni paytda ratsional va mifologik bilimlarning sinkretlashuvini fan, texnologiya, adabiyot va san'at kabi sohalarda ko'rish mumkin. Masalan, zamonaviy tibbiyotda buddaviylikning meditatsiya usullari ilmiy asosda o'rganilib, undan ruhiy salomatlikni mustahkamlash, neyrofiziologik va psixoterapevtik yordam vositasi sifatida foydalanilmoqda. Jumladan, 1979-yilda Massachusets universiteti tibbiyot fakulteti professori Jon Kabat-Zinn birinchilardan bo'lib meditatsiya va yoganing tibbiy jihatdan inson ruhiyatiga ijobiy ta'sirini asoslab, "Diqqatni jamlashga asoslangan stressni kamaytirish" nomli ta'lim va amaliyot dasturini joriy etgan. Ushbu dastur yaratilish jarayonida mazkur tizim uch xil jamoaga o'ziga xos shaklda tushuntirilgan. Birinchi jamoaga ushbu dastur mohiyati faqat ilmiy va psixologik nuqtai nazardan, diniy yoki ruhiy elementlardan butunlay uzoqlashgan holda izohlangan. Ikkinchi jamoaga esa uning buddaviy an'analari bilan bog'liq jihatlari tushuntirilgan, uchinchi jamoaga esa sekulyar va ruhiy qarashlar uyg'unlashtirilgan holda, keng qamrovli tarzda taqdim etilgan. Natijada, har uch jamoa ishtirokchilarining ongida mavjud bo'lgan salbiy hissiyotlar va emotsional tangliklar vaqt o'tishi bilan ijobiy tomonga o'zgarib borishi kuzatilgan. Bu esa inson ruhiyati va tafakkuri darajasida ratsional (ilmiy) va mifologik (ruhiy) yondashuvlarning uyg'unlashuvi, ya'ni sinkret tafakkurning amaliy namunasini ko'rsatadi.

Ratsionalizm va mifologiya o'rtasidagi qarama-qarshilik insoniyat tafakkuri tarixida doimiy va uzviy, bir-birini taqozo etuvchi jarayon sifatida rivojlangan. Har ikkala yondashuv inson tafakkurining zaruriy omili bo'lib, ratsional ong borliqni ilmiy va mantiqiy anglashga xizmat qilsa, mifologik ong insonning ma'naviy va ruhiy ehtiyojlarini qondirishda namoyon bo'ladi. Pirovard natijada ularning dialektikasi ongning sinkretlashuvini ifodalaydi.

Demak, xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, ongning sinkretlashuviga ratsional va mifologik omillarning ta'siri quyidagilarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, Yevropada klassik ratsionalizm hukmronligi davrida mifologiyaning mohiyati ilmiy jihatdan inkor etilgan. Bu davrda mifologiya va ratsional tafakkur o'rtasidagi munosabat antagonistik ziddiyat sifatida baholangan hamda formal mantiq qonuniyatlariga tayangan holda fanda mifologik qarashlarni tubdan siqib chiqarishga urinishlar amalga oshirilgan. Ammo XX asrdagi ilmiy paradigmadagi burilishlar va yangilanishlar natijasida mifologiyaga munosabat ma'lum darajada ijobiy tomonga o'zgargan va unga nisbatan yangi, integrativ yondashuvlar shakllangan. Biroq mifologiya va ratsionalizm o'rtasidagi ziddiyat butunlay yo'qolmagan, bu ziddiyat to'liq hal etilib, mukammal sintez shakliga aylanmagan; ularning o'zaro sinkretlashuvi natijasida turli yopiq dialektik zanjirlar ko'rinishida rivojlanishda davom etgan;

ikkinchidan, biz ratsionalizm va mifologiya o'rtasidagi yopiq dialektik ziddiyatning birinchi turini shartli ravishda "inert ziddiyat" deb nomladik. Mavjud fikrimizcha, bu turdagi ziddiyat jamiyat tafakkurida ustuvor ahamiyat kasb etgan falsafiy, siyosiy, diniy hamda ma'naviy-madaniy qadriyatlar ta'sirida shakllanadi. Bunday holatda ratsionallik to'liq dominant bo'la olmaydi va passiv hamda hal etilmagan ziddiyat ko'rinishida turli soha va yo'nalishlarda aks etadi;

uchinchidan, postnklassik davrda ratsionalizm va mifologiya o'rtasidagi ziddiyatni biz "genetik ziddiyat" deb atadik. U tarixiy hamda metodologik jihatdan qarama-qarshilik sifatida namoyon bo'lib, bu qarama-qarshilik demifologizatsiya va remifologizatsiya o'rtasidagi dialektik munosabatlar natijasida ratsional va mifologik tafakkurning yangi mazmundagi uyg'unlashuvi orqali ko'rinadi. Bunda ham mifologik va ratsional qarashlarning ichki ziddiyatlari bartaraf etilib, sintez bosqichiga yetmaganligi aniqlanadi. Ushbu jarayonda miflar ratsional tafakkur imkoniyatlari asosida yangi shakl va mazmunda san'at, adabiyot, ommaviy axborot vositalari, xususan siyosiy diskurslar va madaniyat sohasida qayta tiklanishini asoslashga harakat qildik;

to'rtinchidan, biz taklif etgan "sinkret ziddiyat"da esa ratsionalizm va mifologiya o'rtasidagi qarama-qarshilik to'liq bartaraf etilmagan bo'lsa-da, yangi ma'nolar, konsepsiyalar va madaniy tizimlarni yaratishga xizmat qiluvchi dinamik jarayonni ifodalaydi. Shu o'rinda qayd etish lozimki, ilmiy kashfiyotlar va texnologik yutuqlar ko'pincha soddalashtirilib, mifologik ramzlar orqali tushuntiriladi. Ushbu jarayonda qadimiy urf-odatlar asosida yangi ilmiy yutuqlar shakllanishi barobarida ko'plab soxta kashfiyotlar ham inson hayotiga kirib keladi. Aynan mana shu jarayonda sintez va sinkretlashuv o'rtasidagi farq yaqqol namoyon bo'ladi. Agar sintez ichki ziddiyatning hal etilib, to'liq uyg'unlikka erishilgan bosqichni anglatadigan bo'lsa, sinkret jarayon o'zaro ziddiyat saqlangan holda, muayyan vaqt oralig'idagi birikish nazarda tutiladi.

beshinchidan, ratsionalizm va mifologiya o'rtasidagi ziddiyat hozirgi davrda ham to'liq yechimini topmagan bo'lib, u makon va vaqtning ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy talablari asosida o'ziga xos mazmundagi rivojlanish, yangi moslashuv va sinkretlashuv jarayonlarini namoyon etmoqda. Shu bois, insoniyat real borliq haqidagi barcha savollarga faqat ratsional bilim orqali to'liq va qoniqarli javob topa olmagan sababli, ushbu ziddiyat turli ilmiy, falsafiy va ijtimoiy-madaniy sohalarida qayta namoyon bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Deretic I. Why are myths true: Plato on the veracity of myths // Vestnik of Saint Petersburg University. Philosophy and Conflict Studies. 2020. Vol. 36, No. 3.–P. 442.
2. Қ.Назаров. Жаҳон фалсафаси қомуси. 2-китоб/ муаллиф: Қ.Назаров. – Т.: "Маънавият" нашриёти", 2019. – Б. 818.
3. Тычкин П. Б. Когнитивный потенциал мифа в контексте современной научной картины мира (к критике структуралистской концепции мифа Р. Барта) // 2012. – С. 94.

ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА ЗАМОНАВИЙ ЖАМИЯТДА АХЛОҚИЙ ИНҚИРОЗНИНГ САБАБЛАРИ ВА ОМИЛЛАРИ

Алишер Равшанов
ТИҚХММИ” МТУ

Гуманитар фанлар кафедраси муdiri
с.ф.д (PhD), доцент

Шахзода Тохирова
Тошкент амалий фанлар университети
Педагогика факультети талабаси

Аннотация. Ушбу мақолада глобаллашув шароитида замонавий жамиятда юзага келаётган ахлоқий инқироз муаммоси илмий-таҳлилий жихатдан ўрганилган. Глобаллашув жараёнларининг жамият маънавий ҳаётига, кадриятлар тизимида ҳамда шахс ахлоқий онгига кўрсатаётган таъсири таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: глобаллашув, замонавий жамият, ахлоқий инқироз, маънавий ҳаёт, ахлоқий онг, кадриятлар тизими, оммавий маданият, индивидуализм, ахборот-коммуникация технологиялари, анъанавий ахлоқий меъёрлар.

Аннотация. В данной статье с научно-аналитической точки зрения исследуется проблема морального кризиса, возникающего в современном обществе в условиях глобализации. Проанализировано влияние глобализационных процессов на духовную жизнь общества, систему ценностей и моральное сознание личности.

Ключевые слова: глобализация, современное общество, моральный кризис, духовная жизнь, моральное сознание, система ценностей, массовая культура, индивидуализм, информационно-коммуникационные технологии, традиционные моральные нормы.

Annotation. This article examines, from a scientific and analytical perspective, the problem of moral crisis emerging in contemporary society under the conditions of globalization. The impact of globalization processes on the spiritual life of society, the system of values, and the moral consciousness of the individual is analyzed.

Keywords: globalization, modern society, moral crisis, spiritual life, moral consciousness, value system, mass culture, individualism, information and communication technologies, traditional moral norms.

Бугунги кунда глобаллашув жараёнлари жаҳон миқёсида ижтимоий, иқтисодий ва маданий муносабатларнинг чуқурлашуви билан бир қаторда жамият маънавий ҳаётига ҳам сезиларли таъсир кўрсатмоқда. Айниқса, замонавий жамиятда ахлоқий кадриятлар тизимининг ўзгариши, анъанавий ахлоқий меъёрларнинг заифлашуви ҳамда шахс ахлоқий онгида юзага келаётган мураккаб трансформация жараёнлари ахлоқий инқироз муаммосини долзарб илмий масала сифатида кун тартибига олиб чиқмоқда. Мазкур жараёнлар жамият барқарорлиги, маънавий хавфсизлиги ва ижтимоий тараққиётига бевосита таъсир кўрсатиши билан аҳамиятлидир.

Глобаллашув шароитида ахлоқий инқироз нафақат миллий жамиятлар, балки бутун инсоният учун умумий муаммо сифатида намоён бўлмоқда. Оммавий маданият таъсирининг кенгайиши, ахборот-коммуникация технологияларининг жадал ривожланиши, индивидуал манфаатларнинг устуворлик касб этиши ҳамда маънавий анъаналарнинг сусайиши ахлоқий меъёрларни қайта кўриб чиқиш заруратини юзага

келтирмоқда. Шу боис мазкур муаммони ижтимоий-фалсафий жиҳатдан чуқур таҳлил қилиш замонавий илмий тадқиқотлар учун муҳим аҳамият касб этади.

Шунга қарамасдан, мавжуд илмий адабиётларда ахлоқий инқироз масаласи кўп ҳолларда глобаллашувнинг айрим жиҳатлари билан боғлиқ ҳолда ёритилган бўлиб, унинг сабаблари ва омиллари комплекс ва тизимли тарзда етарлича таҳлил қилинмаган. Айниқса, глобаллашув жараёнларининг шахс ахлоқий онги ва жамият қадриятлар тизимига кўрсатаётган таъсирини илмий асосда очиб бериш зарурати сақланиб қолмоқда. Мазкур ҳолат тадқиқотда ҳал қилиниши лозим бўлган асосий илмий муаммони белгилаб беради.

Шу нуқтаи назардан, ушбу мақоланинг асосий мақсади глобаллашув шароитида замонавий жамиятда юзага келаётган ахлоқий инқирознинг моҳиятини очиб бериш, унинг асосий сабаблари ва омилларини илмий жиҳатдан асослаш ҳамда мавжуд муаммоларни бартараф этишга қаратилган илмий хулосалар ва амалий тавсиялар ишлаб чиқишдан иборат.

Тадқиқот доирасида асосий тушунчаларга қуйидагича таърифлар берилди. Ахлоқий инқироз – жамиятда анъанавий ахлоқий меъёрлар ва қадриятлар аҳамиятининг пасайиши, шахс ва жамоа ўртасидаги маънавий мувозанатнинг бузилиши ҳамда ахлоқий мезонларнинг ноаниқлашуви билан тавсифланувчи ижтимоий-маънавий ҳолатдир. Глобаллашув – иқтисодий, сиёсий, маданий ва ахборот соҳаларидаги ўзаро боғлиқлик ва ўзаро таъсирнинг жаҳон миқёсида кучайиши натижасида жамиятлар ҳаётининг янги сифат босқичига кўтарилиши жараёнидир. Ахлоқий онг эса шахснинг ахлоқий қадриятлар, меъёрлар ва ижтимоий масъулият тўғрисидаги билимлари, муносабатлари ҳамда амалий хулқ-атворини белгиловчи маънавий тафаккур шакли сифатида талкин қилинади.

Шу тарзда, мазкур назарий-методологик асослар глобаллашув шароитида замонавий жамиятда юзага келаётган ахлоқий инқирозни чуқур ва тизимли таҳлил қилиш учун мустаҳкам илмий пойдевор бўлиб хизмат қилади.

Ахлоқий инқирознинг асосий сабаблари ва омилларига келадиган бўлсак, глобаллашув шароитида замонавий жамиятда юзага келаётган ахлоқий инқироз бир қатор ўзаро боғлиқ ижтимоий ва маданий омиллар таъсирида шаклланимоқда. Ушбу жараёни чуқур англаш учун уни келтириб чиқараётган асосий сабабларни тизимли равишда таҳлил қилиш зарур.

Аввало, оммавий маданиятнинг кенг тарқалиши жамият маънавий ҳаётига салбий таъсир кўрсатмоқда. Унда тижорий манфаатлар устувор бўлиб, юксак ахлоқий қадриятлар ўрнини соддалаштирилган ва тез истеъмол қилинадиган маънавий образлар эгалламоқда. Бу ҳолат ахлоқий меъёрларнинг нисбийлашуви ва қадриятлар иерархиясининг бузилишига олиб келмоқда.

Шунингдек, ахборот-коммуникация технологияларининг жадал ривожланиши ахлоқий онг шаклланишига икки томонлама таъсир кўрсатмоқда. Бир томондан, ахборот олиш имкониятлари кенгайса, иккинчи томондан, назоратсиз ахборот оқими, виртуал муҳитдаги масъулиятсизлик ва ахлоққа зид контент ахлоқий жавобгарлик ҳиссининг заифлашувига сабаб бўлмоқда.

Индивидуализм ва шахсий манфаатларни мутлақлаштириш тенденцияси ҳам ахлоқий инқирозни чуқурлаштирувчи муҳим омиллардан бири ҳисобланади. Шахсий эркинликнинг ижтимоий масъулиятдан устун қўйилиши жамоавий қадриятлар, ҳамжиҳатлик ва ахлоқий бурч тушунчаларининг сусайишига олиб келмоқда.

Бундан ташқари, анъанавий қадриятлар ва ахлоқий меъёрларнинг заифлашуви замонавий жамиятда маънавий барқарорликка салбий таъсир кўрсатмоқда. Оила, урф-одат ва маънавий меросга таянган ахлоқий тизимнинг сусайиши, айниқса, ёш авлод тарбиясида ахлоқий бўшлиқнинг юзага келишига замин яратмоқда.

Умуман олганда, глобаллашув шароитида ахлоқий инқироз алоҳида бир омил натижаси эмас, балки бир-бири билан узвий боғлиқ бўлган оммавий маданият, ахборот

технологиялари, индивидуализм ва анъанавий қадриятлар трансформацияси таъсирида вужудга келаётган мураккаб ижтимоий-маънавий жараён сифатида намоён бўлади.

Глобаллашув шароитида ахлоқий инқирозни бартараф этишда миллий ва умуминсоний қадриятлар уйғунлигини таъминлаш муҳим аҳамият касб этади. Чунки ҳар бир жамиятнинг маънавий барқарорлиги, аввало, унинг тарихий анъаналари, маънавий мероси ва миллий қадриятларига таянади. Шу билан бирга, замонавий дунёда умуминсоний ахлоқий тамойиллар – адолат, инсонийлик, масъулият, ўзаро ҳурмат ва бағрикенглик – глобал ижтимоий муносабатларнинг муҳим асосини ташкил этади.

Ўзбекистон жамиятида миллий маънавий қадриятлар асрлар давомида шаклланган бўлиб, улар оила, жамоа ва тарбия институти орқали авлоддан-авлодга ўтиб келмоқда. Айниқса, оила институти шахс ахлоқий онгини шакллантиришда етакчи аҳамиятга эга бўлиб, у орқали меҳр-оқибат, катталарга ҳурмат, жамоавий масъулият каби ахлоқий меъёрлар сингдирилади. Глобаллашув таъсири кучайиб бораётган шароитда оиланинг тарбиявий ролини мустаҳкамлаш ахлоқий инқирознинг олдини олишда муҳим омил ҳисобланади.

Шунингдек, таълим тизими жамият ахлоқий барқарорлигини таъминловчи асосий институтлардан бири сифатида намоён бўлади. Ўзбекистонда амалга оширилаётган таълим ислохотлари доирасида маънавий-ахлоқий тарбия масалаларига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Таълим жараёнида миллий қадриятлар ва умуминсоний ахлоқий тамойилларни уйғун ҳолда ёритиш ёш авлодда танқидий тафаккур, ижтимоий масъулият ва маънавий баркамолликни шакллантиришга хизмат қилади.

Хулоса қилиб айтганда, глобаллашув шароитида ахлоқий инқирозни бартараф этиш фақат глобал жараёнларни чеклаш орқали эмас, балки миллий маънавий қадриятлар ва умуминсоний ахлоқий тамойилларни ўзаро уйғунлаштириш орқали амалга оширилиши мумкин. Ўзбекистон тажрибаси шуни кўрсатадики, тарбия, оила ва таълим тизимида таянган ҳолда ахлоқий барқарор жамиятни шакллантириш имконияти мавжуд.

Ушбу мақоланинг илмий янгилиги глобаллашув шароитида юзага келаётган ахлоқий инқирозни фақат салбий ижтимоий ҳолат сифатида эмас, балки замонавий жамият маънавий ҳаётида кечаётган мураккаб трансформация жараёни сифатида талқин этишда намоён бўлади. Ахлоқий инқироз жамиятдаги мавжуд қадриятлар тизимининг бутунлай инкор этилиши эмас, балки уларнинг қайта кўриб чиқирилиши ва янги ижтимоий шароитларга мос равишда шаклланиш жараёни билан боғлиқдир.

Мақолада глобаллашув жараёнларига бирёклама салбий ёндашувдан воз кечилиб, унинг ахлоқий онг шаклланишига кўрсатаётган таъсири мувозанатли тарзда баҳоланади. Глобаллашувни инкор этиш ёки чеклаш эмас, балки уни миллий маънавий қадриятлар ва ахлоқий тарбия тизими билан уйғунлаштириш зарур. Бундай ёндашув глобал жараёнларнинг ижобий имкониятларидан самарали фойдаланиш билан бирга, уларнинг салбий оқибатларини камайитиришга хизмат қилади.

Шунингдек, ахлоқий инқирознинг олдини олишда таълим, оила ва жамоат институтларининг фаол иштирокини таъминлаш муҳимдир. Ахлоқий тарбиянинг самарадорлиги замонавий ахборот муҳити, оммавий маданият ва ижтимоий муносабатлар билан уйғун ҳолда ташкил этилгандагина юқори натижа беради.

Шу маънода, ушбу тадқиқотда илгари сурилган концептуал ёндашув глобаллашув шароитида ахлоқий инқироз муаммосини бартараф этишга қаратилган янги илмий қараш сифатида баҳоланиши мумкин.

Хулоса ва амалий тавсиялар

1. Глобаллашув шароитида замонавий жамиятда юзага келаётган ахлоқий инқироз оммавий маданият, ахборот-коммуникация технологиялари, индивидуализмнинг кучайиши ва анъанавий қадриятларнинг заифлашуви каби ўзаро боғлиқ омиллар таъсирида шаклланмоқда.

2. Ахлоқий инқирозни фақат салбий ҳолат сифатида эмас, балки жамият маънавий ҳаётида кечаётган ахлоқий қайта шаклланиш жараёни сифатида талқин қилиш илмий жиҳатдан мақсадга мувофиқдир.

3. Глобаллашув жараёнларини инкор этмасдан, уни миллий маънавий қадриятлар ва ахлоқий тарбия тизими билан мувозанатлаш ахлоқий барқарорликни таъминлашнинг муҳим шarti ҳисобланади.

4. Ахлоқий онгни шакллантиришда оила, таълим тизими ва жамоат институтларининг ўзаро ҳамкорлиги ҳал қилувчи аҳамият касб этади.

Амалий тавсиялар

1. Таълим тизимида:

– ўқув жараёнида миллий ва умуминсоний ахлоқий қадриятларни уйғун ҳолда ёритувчи фан ва курслар мазмунини кучайтириш;

– ахлоқий тарбияга қаратилган интерактив методлар ва тарбиявий лойиҳаларни жорий этиш;

– рақамли таълим муҳитида ахлоқий маданиятни шакллантиришга қаратилган дастурларни ишлаб чиқиш.

2. Оммавий ахборот воситаларида:

– ахлоқий қадриятларни тарғиб қилувчи ижтимоий-маърифий контент ҳажмини ошириш;

– оммавий маданият маҳсулотларида маънавий меъёрларга риоя этилишини таъминлаш;

– ахборот маконида танқидий тафаккур ва маънавий масъулиятни шакллантиришга хизмат қилувчи кўрсатув ва лойиҳаларни қўллаб-қувватлаш.

3. Оила ва жамоат институтларида:

– оила институтининг тарбиявий ролини мустаҳкамлашга қаратилган маърифий дастурларни амалга ошириш;

– жамоат ташкилотлари ва маҳалла тизимида ёшлар билан ахлоқий-маънавий ишларни фаоллаштириш;

– миллий анъаналар ва маънавий меросга асосланган тарбия шакллари кенг тарғиб қилиш.

Умуман олганда, глобаллашув шароитида замонавий жамиятдаги ахлоқий инқирозни бартараф этиш комплекс ва тизимли ёндашувни талаб этади. Таълим, оммавий ахборот воситалари ҳамда оила ва жамоат институтлари ўртасидаги ҳамкорлик асосида миллий ва умуминсоний қадриятлар уйғунлигини таъминлаш ахлоқий барқарор жамиятни шакллантиришнинг муҳим шартларидан бири ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттирамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

2. Мусаев.Ф. Ижтимоий фалсафа. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018.

3. Абдуллаев.М. Ахлоқ фалсафаси. – Тошкент: Фан, 2016.

4. Хантингтон.С. Столкновение цивилизаций и преобразование мирового порядка. – М.: АСТ, 2003.

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA IJTIMOIIY DAVLAT G'OYASINING EVOLYUTSIYASI

Zafar Botirov

Al-Fraganus universiteti dotsent v.b.

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy davlat g'oyasining shakllanishi va evolyutsiyasi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy davlat konsepsiyasining tarixiy-falsafiy ildizlari, uning rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy davlat, jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy adolat, farovonlik, davlat siyosati, evolyutsiya.

Аннотация. В статье анализируется эволюция идеи социального государства в контексте общественного развития. Рассматриваются историко-философские истоки концепции социального государства, основные этапы её становления и роль в современных социально-политических процессах.

Ключевые слова: социальное государство, общественное развитие, социальная справедливость, благосостояние, государственная политика, эволюция.

Annotation. The article examines the evolution of the idea of the social state in close connection with the development of society. The study explores the historical and philosophical foundations of the social state concept, its main stages of formation, and its role in contemporary socio-political processes.

Keywords: social state, social development, social justice, welfare, public policy, evolution.

O'zbekiston hududida amalga oshirilayotgan ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy hamda iqtisodiy o'zgarishlar tobora kengayib bormoqda va bu fuqarolar turmush sharoitining yaxshilanishidan dalolat beradi. Mamlakatimizda inson qadr-qimmati eng muhim e'tibor markazida bo'lib, davlat faoliyatining turli yo'nalishlarida namoyon bo'lmoqda. Ijtimoiy davlatning asosiy maqsadi shaxsning eng zarur va muhim talablarini qondirish hisoblanadi. O'zbekistondagi iqtisodiy rivojlanish va barqarorlik ko'rsatkichlari eng avvalo, fuqarolar yashash muhiti va turmush sifati orqali o'lchanadi. Fuqarolar farovonligi ularning asosiy va zaruriy ehtiyojlari qanchalik qondirilishi bilan chambarchas aloqador.

Jamiyat rivojlanishining turli davrlarida inson huquqlari, adolatlilik va tenglik asosidagi boshqaruv usullari tobora katta ahamiyat kasb etib kelgan. Xususan, ijtimoiy farqlar, iqtisodiy muvozanatsizlik va ma'naviy tanglik sharoitlarida davlatning fuqarolar oldidagi majburiyatlari asosiy vazifa sifatida e'tirof etilgan. Shu jihatdan ijtimoiy davlat konsepsiyasi tarixiy rivojlanish natijasida paydo bo'lib, turli mafkuraviy ta'limotlar va siyosiy nazariyalar ta'sirida mukammallashib keldi. Ushbu yondashuvlarda ijtimoiy davlat g'oyasining kelib chiqishi, jamiyatdagi roli va tarixiy ahamiyati o'rganiladi.

Insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanish yo'li turli ijtimoiy-siyosiy qurilmalarning almashinuvi, g'oyaviy to'qnashuvlar va iqtisodiy faktorlar ta'sirida shakllangan. Har bir tarixiy davr o'ziga xos qiyinchiliklar, ijtimoiy talablar va me'yorlar tizimini keltirib chiqargan bo'lsa-da, o'sishning asosiy vazifasi – inson turmushini yaxshilash, adolatli hamda mustahkam jamiyat barpo etish g'oyasi doimiy bo'lib kelgan. Mana shunday izlanishlar samarasi sifatida ijtimoiy davlat konsepsiyasi paydo bo'lib, zamonaviy rivojlangan davlatlar boshqaruv tizimining asosiy ustuniga aylandi.

Ijtimoiy davlat modelida asosiy urg'u fuqarolarning zaruriy talablarini qondirish, ularni ijtimoiy jihatdan muhofaza qilish, qulay sharoitlar yaratish va adolatli taqsimotni ta'minlashga

beriladi. Bu model demokratik me'yorlar asosida shakllanadi va unda inson qadr-qimmati, huquqlari hamda farovonligi davlat faoliyatining asosiy yo'nalishi sifatida tan olinadi. Shu jihatdan ijtimoiy davlat konsepsiyasi nafaqat siyosiy-iqtisodiy ehtiyoj, balki ma'naviy va madaniy o'sish natijasi sifatida baholanadi.

Jamiyat rivojlanishining dastlabki davrlarida davlat funksiyalari asosan tartib-intizomni saqlash, hududiy yaxlitlikni himoya qilish va soliqlar yig'ish bilan chegaralangan edi. Davr o'tishi bilan insonlar ongida adolatlilik, tenglik va ijtimoiy mustahkamlik g'oyalari tobora kuchayib bordi. Xususan, XIX-XX asrlarda G'arb mamlakatlarida sanoat o'zgarishlari, shaharlar o'sishi, jamiyatdagi tabaqalanish kuchayishi, turmush sharoitidagi tafovutlar hamda mehnat harakatining faollashuvi davlatni ijtimoiy masalalar yechimiga faol kirishishga undadi. Natijada ijtimoiy davlat konsepsiyasi tarixiy ehtiyoj sifatida rivojlana boshladi.

Insoniyatning turmush sifati va ijtimoiy farovonligining yaxshilanishi muayyan qonuniy asoslarga tayanadi va bu jarayonlar o'ziga xos belgilar bilan xarakterlanadi. Shaxs mavqeyining yuksak darajaga ko'tarilishi, uning ehtiyojlari hamda manfaatlarining qondirilishi zarurati, ijtimoiy holatining muntazam tahlili va rivojlantirilishi shular jumlasidandir. Ilmiy adabiyotlarda jamiyat qonuniyatlari tarixiy rivojlanishning uzviyligi bilan belgilanuvchi, tarixiy davrlardagi yoki ijtimoiy hayot hodisalarining obyektiv ravishda mavjud, davriy takrorlanuvchi muhim bog'lanishlari tarzida ta'riflanadi.

Shunday qilib, jamiyatda inson mavqeyini mustahkamlash kabi murakkab va istiqbolli vazifalarning amalga oshirilishi maxsus qonuniyatlar doirasida kechadi. Bu qonuniyatlar jamiyatdagi mustahkam ijtimoiy aloqalar bilan uzviy bog'langan. O'zaro munosabatlarning samarali sharoitlarini aks ettiruvchi qonuniyatlar falsafiy tamoyillarni qamrab oladi va rivojlanish dinamikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jumladan:

Vorisiylik tamoyili – ijtimoiy-ma'naviy tizimda shaxsni e'zozlash an'analari avloddan-avlodga uzatilishini ta'minlaydi. Insoniyat rivojlanishining har bir davrida shaxsiy qadr-qimmatni yuksaltirish jarayoni davom etadi. Merosxo'rlik orqali shakllangan ijtimoiy me'yorlar zamonaviy jamiyatda yanada takomillashgan ko'rinishda namoyon bo'ladi.

O'zgaruvchanlik tamoyili – jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tizimi almashganda, inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining sifati ham o'zgarishini bildiradi. Jamiyat yangi taraqqiyot bosqichiga erishganda, shaxsni hurmat qilish an'analari va o'z-o'zini anglash darajasi ham oshib, sifat jihatidan yuqoriroq pog'onaga ko'tariladi. Natijada fuqarolar turmush madaniyati zamonaviylashadi va ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi.

Notekislik tamoyili – jamiyat rivojlanish jarayonlari doimo bir xil tezlikda kechmaydi, turli davrlarda har xil sur'atlarda amalga oshadi. Dialektik falsafaning ziddiyatlar qonuniga ko'ra, jamiyatda turli beqarorliklar va tizimga qarshi tahdidlar vujudga kelishi mumkin. Shaxsning jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlash jarayonida ham turli nomutanositliklar kuzatiladi.

O'zaro aloqadorlik tamoyili – jamiyatda shaxsning aniq manfaatlari va talablarini ta'minlash jamiyatning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan faoliyat bilan chambarchas bog'liqligini ifodalaydi. Bu sohalaridagi barcha sa'y-harakatlar oxir-oqibat inson qadr-qimmatini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, tegishli ijtimoiy munosabatlar tizimi orqali amalga oshiriladi.

Bu jarayonlar kelajakka yo'naltirilgan strategik qarorlar va loyihalarni ishlab chiqish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan doimiy faoliyatdir. Shaxs mavqeyini yuksaltirish bilan bog'liq tadbirlar jamiyatdagi mavjud resurslardan samarali foydalanish – dam olish, unumli mehnat faoliyati va sog'lomlikni saqlash masalalari bilan ham aloqadordir. Ekspertlarning ta'kidlashicha, shaxsni rivojlantirish – bu fuqarolarning uzoq umr ko'rish, sog'lom va munosib hayot kechirish, bilimli bo'lish uchun kerakli resurslardan foydalanish imkoniyatlarini oshirishdir. Biroq bu imkoniyatlarni tanlov qilish fuqarolarning o'zlariga bog'liq. Rivojlanish jarayoni shaxsga uning talablari va manfaatlariga mos ravishda o'zini takomillashtirish uchun qulay muhit yaratishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Shaxsning hayotdagi mavqeyini aniqlash, davlat tomonidan qo'llaniladigan strategik yo'nalishlar va uning mavqeyini oshirishda farovon

turmushga asoslangan asosiy ehtiyojlarni ta'minlash mexanizmlarini yaratish zarur. Shaxsning ijtimoiy muhitda o'z mavqeyini topishi, uning qadr-qimmati barcha jarayonlardan ustun turishi insonparvar jamiyat barpo etish va uni rivojlantirishning asosiy mezonlaridan biridir. Fuqarolarning manfaatlari va sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining asosiy yo'nalishiga aylanib bormoqda. Davlat va jamiyat tomonidan shaxslarga beriladigan imtiyozlar, imkoniyatlar va huquqlar ularning har tomonlama taraqqiyotini ta'minlaydi.

Inson va uning jamiyatdagi roli, ijtimoiy aloqalardagi o'ziga xos xususiyatlari, ehtiyojlari va manfaatlari haqidagi g'oyalar Ibn Sino merosida ham aks etgan. U o'z asarlarida insonning jamiyatda muayyan mavqega ega bo'lishi va tegishli vazifalarni bajarishi haqida fikr yuritgan. Alloma "Al-ishorat vaat-tanbihot" asarida inson mavjudligining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini haqida quyidagilarni yozgan: "Inson o'z shaxsiy ehtiyojlari nuqtayi nazaridan boshqalardan ajralib yashay olmaydi, negaki u faqat insoniyatning boshqa vakillari bilan aloqada bo'lish orqaligina o'z ehtiyojlarini qondira oladi".

Inson qadr-qimmatini shakllantirish jarayonlari ijtimoiy xarakter kasb etadi. Fuqarolar uchun yashash imkoniyatlarini kengaytirish, turmush tarzini o'zgartirish yo'nalishlarini aniqlash asosiy vazifalardan biridir. Tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, inson mavqeyi har bir jamiyatda o'ziga xos usullar bilan yuksaltirilgan. Q.Nazarov bu haqda quyidagicha fikr bildiradi: "Shaxs mavqeyi u yashayotgan davr, undagi o'zgarishlar, ijtimoiy-tarixiy sharoitlar bilan dialektik bog'liqlikda shakllanadi. Muhit va zamon talablari shaxs qadr-qimmatini rivojlantiradi, sayqallaydi, shaxs esa o'z mavqeyining shaxsiy talablar, ehtiyojlar va maqsadlar bilan qanchalik bog'liqligini chuqurroq idrok etish tomon harakat qiladi".

Shaxs mavqeyini oshirish va rivojlantirish jamiyatda demokratik tamoyillarning qanchalik mustahkamlanishi bilan bevosita aloqador. A.Saidov ta'kidlaganidek: "Umume'tirof etilgan inson huquqlari tushunchasi xalqaro hujjatlardagi ahamiyatini xalqaro standartlar atamasidan kam bo'lmagan darajada ifodalaydi. Ular davlatlararo hamkorlik doirasida ishlab chiqiladi, davlatlararo munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladi, o'z hududida inson huquqlarini ta'minlay olmagan, o'z fuqarolari va xalqaro hamjamiyat oldida inson huquqlariga rioya etish bo'yicha mas'uliyat yuklangan davlatlarga nisbatan qo'llaniladi".

Zamonaviy jamiyatda barcha sohalaridagi keng ko'lamli islohotlar natijasida o'zgarish va rivojlanish jarayonlari kuzatilmoqda. Hozirgi davrni o'rganishning maqsadi tarixiy jarayonlarning umumiy qonuniyatlari hamda jamiyat hayoti sohalarining o'ziga xos xususiyatlarini turli bosqichlar orqali taqqoslash va baholashdan iborat. Jamiyat oldidagi vazifalar o'zgargan, fuqarolar manfaatlari yangilangan, institutsional o'zgarishlar oddiy mexanik jarayon emas, balki uzoq muddatli ijtimoiy-obyektiv rivojlanish natijasi sifatida amalga oshgan.

Mazkur sohaga xos bo'lgan asosiy tarixiy evolyutsiya jarayonlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Insoniyat birlashuvining vujudga kelishi, uzoq muddatli va bosqichma-bosqich kechgan evolyutsiya, xususan, turli davlatlarning paydo bo'lishi, nizom-intizom hamda rahbariyat tizimiga bo'lgan zaruratning tartibsizlikdan tartibga o'tish davrini boshdan kechirishi.

2. Jamoat rahbariyati borasidagi dastlabki tafakkur, konsepsiya va idroklarning zaruriyati tug'ilishi, dastlab oddiy falsafiy tasvirlar va soddalashtirilgan nazariyalar orqali aks ettirilgan bo'lsa, keyinroq jamoat evolyutsiyasi xususidagi falsafiy, siyosiy-huquqiy hamda sotsiologik dunyoqarashlar yuzaga kelganligi.

Insoniyat evolyutsiyasining har xil davrlarida davlat rahbariyati tizimlarining transformatsiyasi ma'lum davr, ma'lum jarayon va vaqt oralig'ini talab qilishi tabiiy qonuniyatdir. Mazkur transformatsiyalar ijtimoiy davlat konsepsiyasining vujudga kelishi va rivojlanish jarayonida konstitutsiyaviy poydevorlarning zamonaviylashuvi bilan uzviy bog'langandir. Evolyutsiya davomida jamoalar eskirgan tizim chegaralaridan chiqib, yangi ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy poydevor asosida shakllanayotgan ijtimoiy davlat modeliga yo'naltiriladi. Bu holat boshqaruv metodologiyasi, hokimiyat faoliyati usullari, milliy-ma'naviy

boylıklar, an'analar va qadriyatlarning rang-barangligi bilan farqlanuvchi turli jamoalar bilan o'zaro hamkorlikka kirishishni talab qiladi.

Ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashlar jamiyatda oddiydan murakkabga tomon evolyutsiya qiladi. Ular oldidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy maqsadlarni ro'yobga chiqarishda:

- avvalo, jamoat evolyutsiyasining bir holatdan ikkinchisiga o'tishi;
- ikkinchi o'rinda, har bir o'tish davrining ijtimoiy hayot rivojlanishi, yo'nalishlari, maqsad-niyatlari, jamoat hayotining barcha tomonlariga samarali ta'sir etishi;
- uchinchi navbatda, jamiyatning barcha tarmog'ida ro'y beradigan transformatsiyalarning mazmun-mohiyati;
- to'rtinchi jihat, jamiyatdagi transformatsiyalarning zamonaviylashuvini davr talablari asosida ro'yobga chiqarishni zarur qiladigan ijtimoiy aloqalarning barcha qatlamlarda ko'rinishi;
- nihoyat, evolyutsiya jarayonida jamoalar o'z an'analari va yo'nalishlarini saqlash yoki uning ayrim tomonlarini yangilash singari fundamental islohotlarni ro'yobga chiqarish zaruriyati paydo bo'ladi. Shubhasiz, mazkur jarayonlar bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi.

Sh.Paxrutdinov fikricha: "Zamonni to'liq idrok etish, u bilan birgalikda mavjud bo'lish bilan bog'liq davr zaruriyati jarayonlari o'zaro dialektik munosabatda bo'lib, rivojlanish uchun asos yaratadi". Haqiqatan ham, zamonaviy o'zgarishlar nuqtayi nazaridan baholanganda, ijtimoiy aloqalarning tubdan yangilanishi barcha tarmoqlarning fundamental isloh qilinishi bilan bog'liq jarayondir.

Ilm-fan rivojlanishida keyingi yangilanish, integratsiyalashuv jarayonlarini qo'llab-quvvatlab, jamiyat ijtimoiy-tarixiy evolyutsiyasining zamonaviy bosqichida transformatsiya atamasi keng qo'llanilmoqda.

Tarixiy evolyutsiya nazariyasida "Transformatsiyalash davri" atamasi keng qo'llaniladi. Bu tushuncha zamonaviy bosqichga nisbatan tatbiq etilganda ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy tarmoqlardagi tubdan yangilanish hamda modernizatsiya jarayonlarini ifodalaydi. Jamiyatdagi o'zgarishlarning turli davrlarda yuz berishi, ularning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari jihatidan farqlanishi e'tiborga olinishi zarur. Insoniyat taraqqiyoti davomida ma'lum tizim shakllanib, u izchil ravishda takomillashib va zamonaviylashib kelgan. Rivojlangan jamoalarga xos ijtimoiy-siyosiy tartib va munosabatlar, ularni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ma'naviy boylıklar milliy-madaniy meros sifatida shakllangan.

Yangi jamiyatga o'tish davri mustaqillikka erishgan har bir mamlakat uchun universal qonuniyat hisoblanadi. Suverenitetga ega bo'lgan davlat avvalo institutsional shakllanib, ma'lum tarixiy evolyutsiya bosqichlarini bosib o'tadi. Har bir mamlakatning shakllanishi, rivojlanishi va yuksalish traektoriyasi o'ziga xos xarakterga ega. Rivojlangan yoki rivojlanayotgan mamlakatlarning bir tizimdan boshqasiga transformatsiyasi betakror jarayon bo'lsada, oldingi davr davlatlari uchun xos bo'lgan universal qonuniyatlar va umumbashariy qadriyatlar mavjud. Bu qonuniyatlar siyosiy elitani almashtirish orqali fundamental siyosiy reformalarni amalga oshirish, iqtisodiy bazisni tubdan modernizatsiya qilish, ma'naviy qadriyatlarni tiklab, yangicha tafakkur va hayot tarzini shakllantirish jarayonlarida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мамадалиев.Ш.О. Халқ ҳокимияти: назария ва амалиёт. — Т.: ИИВ Академия, 2003. Б. 25-26
2. Раянов.Ф.М. Проблемы теории и практики правового государства. – Уфа: Гилем, 2013. – С.112-114
3. Мусаев.Ф. Демократик давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий асослари. -Т.: O'zbekiston, 2007. – В. 60.
4. Чориев С. Ренессанс даври. Европа фалсафаси. Дарслик. – Т.: Тафаккур қаноти, 2015. – Б. 70.

FUQAROLARNING HUQUQLARI – KONSTITUTSIYAVIY QADRIYATDIR

Ortiq Abduvaliyev,
Jizzax politexnika instituti dots.v.b.si,
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada inson huquqlari – eng oliy konstitutsiyaviy qadriyat sifatida o'rganildi. Shuningdek, bu qarash inson va fuqarolarning konstitutsiyamizda mustahkamlangan asosiy huquq va erkinliklarida ham aks etganligi ko'rsatib berildi.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, oliy qadriyat, shaxsiy huquq va erkinliklar, siyosiy huquqlar, iqtisodiy va ijtimoiy huquq va erkinliklar, davlat, Konstitutsiya, deklaratsiya.

Аннотация. В статье рассматриваются права человека как высшая конституционная ценность. Также показано, как эта точка зрения находит отражение в основных правах и свободах человека и гражданина, закреплённых в нашей Конституции.

Ключевые слова: права человека, высшая ценность, личные права и свободы, политические права, экономические и социальные права и свободы, государство, Конституция, декларация.

Annotation. This article examines human rights as the highest constitutional value. It also shows that this view is reflected in the fundamental rights and freedoms of man and citizens enshrined in our constitution.

Keywords: human rights, supreme value, personal rights and freedoms, political rights, economic and social rights and freedoms, state, Constitution, declaration.

Demokratik davlatning eng asosiy vazifalaridan biri inson huquq va erkinliklarini ta'minlanish, har bir shaxsning qadr-qimmatini himoyalashdir. Buni biz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddimasidanoq 1992- yil 8-dekabrda o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan edik. Buni asosiy qonunimiz muqaddimasida "O'zbekiston xalqi inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib" [1] degan so'zlardan boshlanishida ko'rishimiz mumkin. Bu davlatimizning demokratik davlat qurish yo'lida inson huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish, ularning huquq va erkinlarini oliy qadriyat darajasiga ko'tarishni aynan konstitutsiyaviy norma bilan mustahkamlaganligini ifoda etadi.

Inson huquqlari oliy qadriyat ekanligi 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida ham bayon qilingan bo'lib, unda "Hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar" [2] -deb, bayon qilingan. Hamda mana shu Deklaratsiyaning 30 ta moddasi ham insonlarning huquq va erkinliklari oliy qadriyat ekanligini e'tirof etadi va xalqlarni, millatlarni, umuman olganda, butun dunyo insonlarini birodarlik ruhida yashashga chorlaydi.

Konstitutsiyamizning ham bosh yo'nalishi inson va uning hayotini ulug'lashga qaratilgan. Asosiy qomusimizda "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi," - deb mustahkamlangan [3]. Bu davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar faoliyatining asosiy maqsadi va yo'nalishlarini o'zida yaqqol ifoda etadi. Ya'ni, mamlakatimizda inson manfaatlari uchun davlat xizmat qilishi tamoyili mavjudligidan dalolat beradi. Bu haqda konstitutsiyamizning 2-moddasida "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar"-deb, bayon qilingan.

Bugungi kunda davlatimiz rahbari mamlakatimizda kuchli himoyalangan ijtimoiy siyosatni olib bormoqda. Buni biz mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq birinchi prezidentimiz Islom Karimov faoliyatida ham ko‘rishimiz mumkin. Istiqlolning ilk kunlaridanoq “Davlat - davlat uchun emas, xalq, har bir inson manfaatlari uchun xizmat qilsin!” prinsipi asosida inson manfaatlari mos keluvchi siyosatning yuritilganligi jahon hamjamiyatiga ham ma’lumdir. Ayrim MDH mamlakatlaridan farq qilgan holda, mamlakatimiz bozor munosabatlariga keskin yo‘l bilan emas, balki bosqichma-bosqich o‘tib borishi va shu tariqa aholining moddiy ahvolini keskin yomonlashuvini oldi olinganligiga tarix guvohdir.

Bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi kambaxallikning oldini olish bo‘yicha yoki yoshlar, asosan xotin-qizlarning jamiyatda o‘ziga xos va mos bo‘lgan pozitsiyasini egallashga ko‘maklashish borasida bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuni bevosita aynan inson huquqlari va erkinliklarini ro‘yobga chiqarishga, ularni shaxs sifatida qadr-qimmatini ta‘minlash orqali ularga farovon turmush kechirish uchun shart-sharoitlarni yaratish hamda har bir inson sihat-salomatligini ta‘minlashga qaratilgan. Bu borada prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev inson huquqlarini ta‘minlashda jahon hamjamiyatini hamkorlikka chorlab “... maqsadimiz – har bir insonning asosiy huquq va erkinliklarini, salomatligi va farovonligini ta‘minlaydigan adolatli global tizimni birgalikda yaratishdir”, — deya ta’kidlagan edi [4].

Umuman olganda, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar mezonining bosh g‘oyasi inson omili hisoblanadi. Bu omilning o‘ziga xosligi asosiy qomusimizda ham o‘z aksini topgan. Konstitutsiyamiz 155 moddadan iborat bo‘lgani holda uning 30 dan ortiq moddalari bevosita inson huquqlari va erkinliklariga bag‘ishlangandir.

Konstitutsiyamiz Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining deyarli barcha prinsipial qoidalarini o‘zida mujassamlantirgan bo‘lib, davlatimiz inson huquqlari bo‘yicha bir qator majburiyatlar olgan. Ularga xususan davlat o‘z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshirishi, davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’ul ekanliklari, O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlashi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratishi, O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko‘rsatishni kafolatlashi kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Davlatimiz inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekanligidan kelib chiqib, so‘nggi yillarda inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirishga doir tizimli ishlar olib bormoqda.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo‘yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkilotining 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qo‘shilgan bo‘lib, ularning amalga oshirilishi yuzasidan BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi va shartnomaviy qo‘mitalariga muntazam ravishda milliy ma’ruzalarni taqdim etib kelmoqda.

Shuningdek, inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini ta‘minlash maqsadida bir qator ishlarni amalga oshirdi. Xususan, 2020 yil 22 iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 6012-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmon asosida tasdiqlangan Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasida inson huquq va erkinliklarini ta‘minlashga qaratilgan bir qancha vazifalar belgilab berildi. Aholining imkoniyati cheklangan, kam ta‘minlangan guruhlarini huquqlarini BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarining «hech kimni orqada qoldirmaslik» tamoyiliga muvofiq himoya qilishni ta‘minlash, davlat va

jamiyatning alohida himoyasiga muhtoj bo'lgan shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda ularga xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirish; Din, so'z va fikr erkinligi, ma'lumot olish, kamsitishga yo'l qo'ymaslik, gender tenglikni ta'minlash, barchaning sifatli ta'lim va tibbiy xizmatlardan teng foydalanishi, keksa odamlarning ijtimoiy integratsiyasi, bolalar, yoshlar, ayollar, nogironligi bo'lgan shaxslar va migrantlar huquqlarini himoya qilish sohalarida huquqni qo'llash amaliyotini yanada takomillashtirish masalalarini hal etish vazifalari ilgari surildi.

Shuningdek, inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash va ularni himoya qilish maqsadida bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bularga shaxsiy huquqlarni ta'minlash va himoya qilishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslari, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligi to'g'risida", "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida", "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida", "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida", "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi kabi qabul qilingan qonunlarni keltirishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etishdek siyosiy huquqlarini ta'minlash maqsadida ham huquqiy asoslar takomillashtirildi. "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida", "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida" "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida", "Siyosiy partiyalar to'g'risida", "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi kabi qonunlar esa O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish, davlat organlari bilan hamkorlik qilish huquqlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qilmoqda.

"Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonun esa har bir shaxsning bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilishdek konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga xizmat qilib, ayniqsa murojaatni berish shakli sifatida elektron murojaatni nazarda tutganligi fuqarolar og'irini engil qilishga jiddiy hissa qo'shdi.

Eng e'tiborlisi, 2020-yil 23-sentyabrda yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi zamon talablari asosida inson va fuqarolarning ta'lim olish imkoniyatlarini kafolatlab berdi.

Shunday qilib hozirgi kunda inson huquqlari shunday bir qadriyatki, unga barcha xalqlar va davlatlar nurga, ziyoga intilgandek intilishadi. Inson huquqlari – shunday o'lchov va andozaki, u davlatga, uning mavjud huquq tizimiga, qonunchiligiga, huquq tartibotiga berilgan baho, ularning rivojlanish va demokratiyaviylik darajasi, sifat ko'rsatkichi rolini o'tamoqda.

O'zbekistonning Konstitutsiyasi o'zida xalqaro inson huquqlari borasidagi to'plangan ijobiy tajriba tamoyillarini muhrlangan. Davlatimizda esa inson huquqlari oliy qadriyat hisoblanib, ularni hurmat qilish, himoya etish va ularga rioya etish borasidagi majburiyatini amalga oshirishga qaratilgan amaliy faoliyatlar kuchaytirilmoqda.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.T.: "O'ZBEKISTON"-2023
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.T.:1998, 1-modda.
3. <https://lex.uz/> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 13-modda
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMTning bosh assambleyasi 75-sessiyasida so'zlagan nutqi. 2020.09.23.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR QADRIYATLARINING O'ZGARISHI

Shaxlo Ibragimova,
Farmasevtika ta'lim va tadqiqot instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarning zamonaviy jamiyatda tutgan o'rni tahlil qilinadi hamda oila, ta'lim muassasalari, mahalla va diniy institutlar kabi ijtimoiy institutlarning bu jarayondagi roli yoritiladi.

Kalit so'zlar: milliy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, oila, jamiyat, globallashuv, qadriyatlar to'qnashuvi, ma'naviy meros.

Аннотация. В данной статье анализируется значение национальных ценностей в воспитании молодёжи в условиях современного общества, а также рассматривается роль таких социальных институтов, как семья, образовательные учреждения, махалля и религиозные организации.

Ключевые слова: национальные ценности, воспитание молодежи, семья, общество, глобализация, конфликт ценностей, духовное наследие.

Abstract. This article analyzes the role of national values in the upbringing of the younger generation in modern society and highlights the role of social institutions such as the family, educational institutions, neighborhoods and religious institutions in this process.

Key words: national values, youth education, family, society, globalization, clash of values, spiritual heritage.

Kirish. O'zbek jamiyati tarixan o'zining boy ma'naviy merosi, qadimiy urf-odatlar va milliy qadriyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu qadriyatlar avlod-dan-avlodga o'tib, yoshlarning tarbiyasida asosiy tayanch bo'lib xizmat qilib kelgan. Ayniqsa, oiladagi tarbiya, mahalladagi ijtimoiy muhit, diniy va madaniy omillar bu qadriyatlarning shakllanishiga xizmat qilgan. Biroq bugungi globallashuv, tez o'zgarayotgan axborot makoni va texnologiyalar yosh avlod ongida an'anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy qarashlar o'rtasida ma'naviy ziddiyatlarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois, hozirgi kunda yoshlarni tarbiyalashda milliy qadriyatlarning tutgan o'rni nafaqat saqlanib qolish, balki uni yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashtirish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, oila milliy qadriyatlarni yosh ongiga singdirishda asosiy muhit hisoblanadi. Aynan oilada inson dastlabki ijtimoiy tajribasini oladi, axloqiy me'yor va normalarni o'rganadi. Ko'pchilik yoshlar hanuzgacha oila institutini hayotdagi asosiy qadriyat deb biladi, biroq zamonaviy hayot tarzi, ijtimoiy tarmoqlar, individualistik qarashlar bu tushunchalarga yangicha yondashuvlarni keltirib chiqarmoqda. Shu bilan birga, ota-onaning namunali xulqi, doimiy muloqoti va qo'llab-quvvatlovi yosh avlodni to'g'ri yo'lga yo'naltirishda hal qiluvchi omil sifatida qaraladi.

Milliy qadriyatlar faqat oila doirasida emas, balki kengroq ijtimoiy kontekstda — mahalla, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari orqali ham shakllanadi. Mahalla institutining yoshlar tarbiyasida tutgan o'rni, mahalliy urf-odatlar, diniy bayramlar, ijtimoiy birdamlik muhitining tarbiyaviy funksiyalari ko'rsatilgan. Shu bilan birga, zamonaviy jamiyatda mahalla institutining ta'siri kamayib borayotganligi, ba'zan esa yoshlar bu muhitni "konservativ" deb qabul qilayotgani haqida ham tahliliy fikrlar mavjud. Bu esa, an'anaviy qadriyatlarni zamonaviy kontekstda yangicha yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Yoshlar orasida qadriyatlar to'qnashuvi — an'anaviy urf-odatlar bilan global madaniyat, axborot jamiyati va zamonaviy hayot talablari o'rtasidagi tafovutlar asosida yuzaga keladi. Islom axloqi doirasida shakllangan sabr, halollik, mehr-oqibat, jamiyat oldidagi mas'uliyat kabi qadriyatlar yosh avlodni tarbiyalashda muhim omillardan biri sifatida qayd etilgan. Shu bilan

birga, bu qadriyatlar axborot makonidagi yengil-yelpi, ko'ngilochar kontent, ma'naviyatsizlik tahdidiga qarshi mustahkam qalqon bo'la oladi. Biroq yoshlar har doim ham bu qadriyatlarni o'z hayotida tatbiq eta olmaydi, ba'zida ularni eskirgan deb hisoblaydi. Shu sababli, bu qadriyatlarning mazmuni yangicha tilda va zamonaviy pedagogik yondashuvlarda tushuntirilishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekistonda olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, yoshlarning katta qismi o'zini "an'anaviy qadriyatlar tarafdori" deb hisoblaydi. Yoshlar oilada to'g'ri tarbiya ko'rsa, bu ularning ijtimoiy muhitda faol, madaniyatli va ma'naviy barqaror shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, ota-onalarning bolalar bilan doimiy muloqotda bo'lishi, birgalikda qadriyatlar haqida suhbatlar o'tkazilishi yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda ijobiy samara beradi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni, ijtimoiy tarmoqlarni ma'naviy-ma'rifiy tarbiya vositasi sifatida ishlatish zarurligi ham alohida ta'kidlanadi.

Pedagogik tadqiqotlarda esa milliy qadriyatlarni ta'lim tizimi orqali yosh ongiga singdirishning dolzarbligi ko'rsatib o'tiladi. Xususan, ta'lim jarayonida xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish, darslarda milliy bayramlar, urf-odatlar haqida suhbatlar o'tkazish, o'quvchilarning ijtimoiy loyihalarda ishtirok etishini tashkil etish kabilar bu qadriyatlarning samarali o'zlashtirilishiga zamin yaratadi. Bunday yondashuvlar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, vatanparvarlik, ijtimoiy faollik, madaniy merosga hurmat tuyg'ularini shakllantiradi.

O'zbekona an'analar tarbiya sohasida o'zgarmas va barqaror asos sifatida saqlanib qolgan. O'zbek xalqining an'anaviy qadriyatlari va undagi tarbiyaviy yondashuvlar o'tmishdan keyingi zamonlarda ham o'zining ahamiyatini yo'qotmagan. Biroq, zamon o'zgargani sayin, bu qadriyatlarni zamonaviy hayotga moslashtirish zarurati ham yuzaga kelmoqda. Mahalla tizimida qadriyatlarning o'zgarishi zamonaviy yoshlar tomonidan qanday qabul qilinishini va qanday ravishda ularning ruhiy, ma'naviy o'sishiga ta'sir etishini aniqlash muhimdir.

O'zbekona an'analarda oilaning o'рни beqiyosdir. Oila a'zolarining bir-biriga hurmati, yordam berish va mas'uliyatni bo'lishish kabi qadriyatlar zamonaviy jamiyatda ham amaliy ahamiyatga ega. Biroq, bugungi kunda yoshlar orasida oilaviy qadriyatlar va an'analar haqida tushunchalar o'zgarishi mumkin. Oila a'zolarining bir-biriga yordam berishi, mas'uliyatni bo'lishish kabi qadriyatlar zamonaviy hayotda yuqori darajada saqlanishi va rivojlanishi kerak. Zamonaviy an'anaviy tarbiyani zamon bilan moslashtirish, masalan, axborot texnologiyalarining o'рни, yoshlarni raqamli muhitda tarbiyalash masalalari ham dolzarbdir. Mahallaning tarbiyaviy kuchi o'zining yangi shakllarini topishi kerak. Masalan, mahalla yoshlar bilan onlayn tarzda suhbatlar, ijtimoiy tarmoqlarda madaniy tadbirlarni tashkil etish, ma'naviy tarbiyani rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zarur.

Zamonaviy dunyoda yoshlarning ma'naviy tarbiyasi va axloqiy qiyofasi turli omillar, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar, internet va boshqa raqamli texnologiyalar orqali shakllanmoqda. Bu omillar mahallaning tarbiyaviy funksiyalariga yangicha yondashuvni talab etadi. O'zbekona an'analar zamonaviy sharoitda qanday qilib yoshlarni tarbiyalashda o'zining ahamiyatini saqlab qolishini tushunish, jamiyatning ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Bugungi globallashuv sharoitida esa milliy qadriyatlar bilan global madaniyatning o'zaro ta'siri yanada keskinlashmoqda. Global axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va ko'ngilochar madaniyat yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatib, ko'pincha g'arbona dunyoqarashlarni targ'ib etadi. Bu esa, o'z navbatida, yoshlar ongida qadriyatlar to'qnashuviga sabab bo'ladi. Masalan, ota-onaning fikrini tinglash, jamiyatdagi odob-axloq qoidalariga rioya qilish singari qadriyatlar zamonaviy mustaqillik, erkin fikrlash va individual erkinlik talablariga qarama-qarshi qo'yilishi mumkin. Bu qarama-qarshilikni yengish uchun an'anaviy qadriyatlar zamon talablari asosida yangicha talqin qilinishi lozim.

Oila muhitida shakllanadigan qadriyatlar yoshlar uchun birinchi va eng asosiy ijtimoiy me'yorlar maktabi hisoblanadi. Ota-onaning farzandlar bilan muloqoti, oiladagi munosabatlar sifati, qadriyatlarni kundalik hayotda namoyon etish holatlari bolalarda bu me'yorlarni tabiiy

tarzda qabul qilishga sabab bo'ladi. Agar ota-ona o'z hayotida mehr-oqibat, hurmat, mehnatsevarlik kabi qadriyatlarni faol namoyon etsa, bu yoshda aynan shunday xatti-harakatlarni shakllantiradi. Ammo ayrim oilalarda an'anaviy qadriyatlar sust namoyon bo'layotganligi yoki butunlay e'tiborsiz qoldirilayotgani yoshlar orasida qadriyatlar vakuumi — bo'shliqligini yuzaga keltirmoqda. Bu esa, yoshlarning boshqarilmagan tashqi ta'sirlarga nisbatan zaif bo'lishiga olib kelmoqda.

Mahalla, ta'lim muassasalari va diniy institutlar ham tarbiyaviy muhitning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Mahalla orqali jamiyatdagi hamjihatlik, birdamlik, o'zaro yordam kabi qadriyatlar shakllanadi. Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim muassasalari ham yoshlarni nafaqat bilim bilan, balki ma'naviy qadriyatlar bilan ham boyitishi lozim. Pedagogik yondashuvlar orqali o'quvchilarda o'z madaniyatiga hurmat, vatanparvarlik, ijtimoiy mas'uliyat hissi rivojlantiriladi. Masjid va diniy markazlar esa odob-axloq, sabr, halollik, shukronalik kabi qadriyatlarni targ'ib etadi. Ammo bu institutlar o'z faoliyatini zamonaviy til va vositalar bilan olib borishda qanchalik faol bo'lsa, yoshlar bilan bog'lanish shunchalik samarali bo'ladi.

Shuni ham unutmaslik kerakki, har bir yosh individual ravishda turlicha tajriba orttiradi va qadriyatlarni o'z hayotiy yo'liga qarab qayta talqin qiladi. Masalan, qishloq hududida yashovchi yoshlar ko'proq an'anaviy qadriyatlarga tayanadi, shahar yoshlari esa ko'pincha global omillarga ochiqroq bo'ladi. Bundan tashqari, ijtimoiy sinf, ta'lim darajasi, gender va oilaviy tarbiya uslubi ham qadriyatlar tizimiga ta'sir qiladi. Shu sabab, tarbiya jarayonida har bir yoshga individual yondashuv lozim bo'ladi. Ommaviy yondashuvlar, shablon ma'ruzalar yoki faqat nazariy bilimlar bu muammoga yechim bo'la olmaydi — aksincha, amaliy, hayotga yaqin, zamonaviy til va formatlarda beriladigan qadriyatlar targ'iboti samaraliroq bo'ladi.

Oxir-oqibat, milliy qadriyatlar faqat o'tmishni eslatuvchi, muzey eksponati bo'lib qolmasligi kerak. Ular hayotga tatbiq etiladigan, yoshlar tomonidan anglanadigan va shaxsiy tajriba orqali boyitiladigan ijtimoiy hodisa sifatida qaralishi lozim. Bu borada ommaviy axborot vositalari, kinofilmlar, mobil ilovalar, bloglar, yoshlar tashkilotlari va boshqa zamonaviy platformalardan keng foydalanish talab etiladi. Chunki bugungi avlod ko'proq ko'rishga, eshitishga va his qilishga tayyor — nazorat qilishga emas. Milliy qadriyatlarni yangi shakl va usullarda yoshlar ongiga singdirish — bu nafaqat ma'naviy ehtiyoj, balki jamiyatning barqarorligi va kelajagi uchun zaruriy strategik vazifadir.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlar yosh avlod tarbiyasida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Biroq ularni oddiygina "eski qadriyatlar" sifatida emas, balki bugungi jamiyat ehtiyojlariga mos, zamonaviy pedagogika va kommunikatsiya vositalari orqali targ'ib etiladigan, dinamik va yashovchan tizim sifatida ko'rish lozim. Oila, mahalla, maktab va jamiyat institutlari bu qadriyatlarni uyg'unlashtirishda uzviy hamkorlikda ishlashi zarur. Aks holda, qadriyatlar to'qnashuvi ijtimoiy ajralish, ruhiy beqarorlik, madaniy identitet yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, milliy qadriyatlar yoshlar ongida mustahkam qaror topishi uchun har bir ijtimoiy institut o'z mas'uliyatini chuqur anglab yetishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Karimov, "Madaniyatshunoslikda milliy qadriyatlar" - Toshkent, 2018.
2. Sh.Sodiqov. Pedagogika va tarbiya masalalari. "O'qituvchining pedagogik yondashuvlari" - Samarqand, 2019.
3. R.Tursunov. Jamoaviy mas'uliyat va yoshlar tarbiyasi. "Jamiyatda axloqiy tarbiyaning o'rni" - Buxoro, 2021.

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNI O'QITISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MA'NAVIY MEROSIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Dilobar Ochilova

Alfraganus universiteti dotsenti v.b., PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy-gumanitar fanlarni rivojlantirishda Sharq mutafakkirlarining boy ma'naviy merosini o'rganishning ahamiyati yoritilgan. Imom Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Ibn Sino, Beruniy va boshqa allomalarning axloqiy va falsafiy qarashlari yoshlarning ma'naviy-axloqiy hamda g'oyaviy tarbiyasida muhim manba ekani ko'rsatib berilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonida adolat, bilim, bag'rikenglik va ma'rifat kabi sharqona qadriyatlardan foydalanish o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi asoslangan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, uzluksiz ta'lim, ijtimoiy-gumanitar fanlar, Sharq Renessansi, ma'naviy meros, Forobiy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, pedagogik integratsiya.

Аннотация. В данной статье подчеркивается важность изучения богатого духовного наследия восточных мыслителей для развития социальных и гуманитарных наук. Показано, что морально-философские взгляды имама Бухари, Абу Насра аль-Фараби, Алишера Навои, Ибн Сины, аль-Бируни и других ученых являются важным источником духовного, нравственного и идеологического воспитания молодежи. Также обосновывается тот факт, что использование таких восточных ценностей, как справедливость, знание, терпимость и просвещение, в образовательном процессе способствует повышению эффективности обучения.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, непрерывное образование, социально-гуманитарные науки, Восточное Возрождение, духовное наследие, Аль-Фараби, Ибн Сина, Имам Бухари, Алишер Навои, педагогическая интеграция.

Annotation. This article highlights the importance of studying the rich spiritual heritage of Eastern thinkers in the development of social and humanitarian sciences. It is shown that the moral and philosophical views of Imam Bukhari, Abu Nasr Al-Farabi, Alisher Navoi, Ibn Sina, Al-Biruni and other scholars are an important source in the spiritual, moral and ideological education of young people. It is also emphasized that such oriental values as justice, knowledge, tolerance and enlightenment should be used in the educational process.

Keywords: New Uzbekistan, continuing education, social and humanities, Eastern Renaissance, spiritual heritage, Al-Farabi, Ibn Sina, Imam Bukhari, Alisher Navoi, pedagogical integration.

Kirish. Bugungi kunda ijtimoiy-gumanitar fanlarni rivojlantirishda Sharq allomalarining ma'naviy meros bo'lib kelgan asarlarini ilmiy jihatdan o'rganish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu ma'noda Prezident Sh. Mirziyoyev "Fundamental tadqiqotlarni yanada rivojlantirish masalasi biroz e'tiborimizdan chetda qolgani bugun yaqqol namoyon bo'lmoqda. Chunki fundamental tadqiqotlar jadal rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyot bo'yicha boshqa davlatlardan sezilarli ravishda ilgari lab borayotganini ko'rib turibmiz. Dunyoda ilm-fan sohasidagi yutuqlar aynan fundamental tadqiqotlar yo'nalishida qo'lga kiritilgani tasodifiy emas. Shuning uchun endilikda fundamental fanlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, sohani iqtidorli yosh kadrlar bilan ta'minlash davlatimizning muhim vazifalaridan biri sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda" [1] deb ta'kidlaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqotchi U. Muxtarovning ilmiy maqolalarida Yangi O'zbekiston taraqqiyotida falsafiy ta'limni rivojlantirishda Sharq renessansi davri allomalarining ilmiy-falsafiy merosini o'rganish uchun xorij, xususan, G'arb olimlari tomonidan bu yo'nalishda erishilgan yutuqlar, boy tajriba bilan tanishmasdan turib, ma'lum bir natijaga erishib bo'lmastligiga urg'u beriladi [8]. Hozirgi davr sivilizatsiyasi insoniyat tarixiy taraqqiyoti darajasini va islom dinida ilmiy bilimlar rivojini aniqlash mezonlarini qayta baholashni taqozo qilib, shu talabga asosan, Tomas P. Flint, Maykl K. Rey, Ali Akbar Vilayati, Ardakani Rizo Dovari, Berns, Birindjkar Rida, Vundt V., Oldenberg G., Gold, Limen Oliver, A. Korben, Seyyid Xuseyn Nasr, M. Mutaxxari, A.R. Ubudiyyat, Chittik Uilyam va boshqa shu kabi olimlarning asarlarida bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbek xalqining tarixan shakllangan insonparvarlik an'analari va ijtimoiy-falsafiy merosining ta'siri har doim kuchli bo'lib kelgan. Ba'zi o'zbek faylasuflari esa rasmiy mafkura doirasidan cheklanib qoladi [7]. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng respublikada B.R. Karimov, R.X. Murtazayeva, Q.N. Nazarov [6] va shu kabi boshqa olimlar o'zbek xalqining gumanistik an'analari va qator jihatlarini, ma'naviy qadriyatlar rivojlanishining dialektikasini o'rgandilar, ular bilan bog'liq bo'lgan tolerantlik muammosining muayyan jihatlariga ham to'xtalib o'tadilar.

Natijalar va ularning tahlili. Bugun dunyoda sodir bo'layotgan nizolar, beqarorliklarning kelib chiqishiga asosiy sabablardan biri sifatida ma'naviy sohaga yetarli e'tibor qaratilmaganligi, ijtimoiy-gumanitar fanlarning hayotdan orqada qolayotganligi kabi omillar bo'lishi mumkin. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan Yangi O'zbekiston strategiyasining adolatli ijtimoiy siyosat hamda ma'naviy taraqqiyot sohasida belgilab berilgan dolzarb vazifalari qatorida ijtimoiy-gumanitar fanlarga e'tibor qaratilganligi ham ushbu sohadagi muammoning dolzarbligidan dalolat beradi.

Yangi O'zbekiston strategiyasida "qonunning ishlab chiqilishi va uni amaliyotga joriy etish ehtiyojining mavjudligi va "2022–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim va tarbiya sohasini gumanitarlashtirish strategiyasi" yaratilishi va amalga oshirilishining maqsadga muvofiqligi ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda ham yangicha yondoshuvni taqozo etadi. Uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya asoslarini kuchaytirish lozim va bunda o'sib kelayotgan avlodning yosh xususiyatlari va intilishlarini hisobga olish zarurligiga, Milliy ma'naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimining ahamiyati katta [2], ekanligiga asosiy diqqat e'tiborini qaratadi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Shubha yo'qki, har bir davlat o'zining tarixi, madaniyati, ijtimoiy-siyosiy hayotini yosh avlodiga tushuntirishda shuningdek, boy madaniy, ma'naviy merosini asrab-avaylashga o'rgatishda, yurtining taqdirini o'z taqdiri deb bilish tuyg'usini shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning yutuqlariga tayanadi. Shuning uchun O'zbekistonning uzluksiz ta'lim tizimida o'qitilayotgan bir qator ijtimoiy-gumanitar fanlarning mazmunini o'quvchi-talabalarga yetkazishda Sharq mutafakkirlarining boy ma'naviy merosidan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tarbiya, tarix, adabiyot, falsafa, etika, tilshunoslik, huquq kabi ijtimoiy-gumanitar fanlarning mos mavzularidan kelib chiqqan holda faylasuf, olim, mutafakkir va allomalarimizning asarlaridan unumli foydalanish o'quvchilar qalbida mutafakkirlarimiz ijodiga hurmat, milliy g'urur va iftixor, o'ziga bo'lgan ishonch kabi tuyg'ularning kamol topishi va yuksak ma'naviyat sohibi bo'lishida muhim rol o'ynaydi.

Tarixga nazar solsak, har bir tarixiy davr mobaynida davlat rahbarlari ta'lim makonini shakllantirish va uning taraqqiy etishi uchun alohida ishlar olib borganligini kuzatish mumkin. Bu davlatning ta'lim-tarbiya sohasidagi siyosati deb yuritiladi. Xususan, Mirzo Ulug'bekning ma'rifiy faoliyati – ilmiy maktab yaratgani, Samarqandda turli fan sohalarining vakillarini jamlab, ularga homiylik qilgani bunga misol va namuna bo'la oladi [4].

Shuningdek, hadislarning mazmunida halollik, iymon-e'tiqodli bo'lish, ota-onani hurmat qilish, sahiy bo'lish kabi insoniy fazilatlar sahiy hadislar misolida keltiriladi. Ulardan

etika, tarbiya, ma'naviyatshunoslik kabi fanlarni o'qitishda keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarga mustaqil topshiriq sifatida Buxoriy hadislaridan yod oldirish, ularning ijtimoiy-ma'naviy hayotimizdagi ahamiyatini yoritish kabi vazifalarni bajarishga o'rgatish o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liqdir. Xususan, IX asrda yashab o'tgan, hadis ilmining sultoni bo'lgan, buyuk hadisshunos olim Imom Buxoriyning boy va qimmatli ilmiy merosi bizgacha yetib kelgan. Uning "al-Jomi' as-sahih", "al-Adab al-Mufrad", "at-Tarix as-sag'ir", "at-Tarix al-avsot", "at-Tarix al-kabir", "Kitob al-Ilal", "Barr-ul volidayn" kabi ko'plab asarlaridan bugungi kunda etika, tarbiya, ma'naviyatshunoslik kabi fanlarni o'qitishda keng foydalanish mumkin.

Tadqiqotchi olim U.Uvvatov o'zining "Muhaddislar sultoni" nomli katta maqolasida IX asrda Nishopurda ilm-fan, ayniqsa, hadis ilmi nihoyatda taraqqiy qilib, unda Imom Buxoriy, Imom Muslim ibn al-Hajjo, Imom Termiziy va boshqa bir qator kuchli muhaddislar yig'ilganligini ta'kidlab o'tadi. Ular joylarda faoliyat ko'rsatadigan madrasalarda yoshlarga hadis ilmidan dars berib, bu buyuk muhaddislar orasida ilmiy munozara va bahslar juda ko'p bo'lganligini tahlil qiladi. Shuningdek, tadqiqotchi olim Imom Buxoriy hadis sohasidagi o'z ilmi va salohiyati, ayniqsa, illatli hadislarini aniqlash mahorati bilan barchani qoyil qoldirgani, muhaddislarning hammasi unga bir ovozdan tan berganini ilmiy tahlil qiladi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, tabiiy ravishda, O'rta Osiyo allomalarining axloq-odob, ma'naviyat va ma'rifat borasidagi fikrlari, g'oyaviy tarbiyani shakllantirish yo'llari bugungi kungi taraqqiyotimiz uchun ham, yosh avlod tarbiyasi va kelajagi uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas, deya olamiz. Ularning hayotiy tajribalari, jamiyatda insonning tutgan o'rni, g'oyalar haqidagi purma'no fikrlari har bir o'sib kelayotgan yosh avlod g'oyaviy-siyosiy madaniyatining shakllanishida muhim o'rin egallaydi. Shuning uchun biz Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur (tarag'ay Baxodir), Mirzo Ulug'bek (tarag'ay), Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulug' mutafakkirlarning g'oyaviy qarashlari va qadriyatlaridan mustaqil yurtimiz istiqlolini mustahkamlashda, yoshlar g'oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirishda, ta'lim-tarbiya jarayonida keng foydalanishimiz mumkin [5].

Shuningdek, sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy ham O'rta Osiyodan chiqqan buyuk fan arboblardan sanaladi. Forobiyning katta xizmatlaridan biri uning ideal jamiyat haqidagi o'ylari va bu haqida yozgan asarlaridir. Forobiy insonning g'oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirishda bunyodkorlik kuchini yuksak baholaydi. Uning ta'kidlashicha, aql-idrok, mehnat, bilim, qonun ustuvorligi, adolatlilik insonni ijtimoiy jihatdan faollashtiradi. Inson bilimi orqaligina o'z maqsadiga erisha oladi. "U ikki xil davlat boshqaruvi mavjud ekanligi haqida gapirib, bir xilida odamlar ustidan hokimlar turadilar, boshqasida qonunlar hokimlarga ham taaluqli... Forobiy boshqa bir foydali g'oya – hokimiyat haqida eslatib o'tadi. Ilohiy qonunni idrok etishga tayyorgarlik ko'rish va quyidagi yana ikki g'oyani amalga oshirish uchun hokimiyatga muhtojlik paydo bo'ladi. Bu g'oyalardan biri – sa'y-harakati, hunari va maqsadlari (adolatli) hokimlarga qarshi bo'lgan yovuz niyatli odamlardan shaharni tozalashdir. Boshqa bir g'oya – pand-nasihat yo'li bilan farovonlikka intilish va odamlarni ilohiy qonunni osonlikcha va quvonch bilan qabul qilishlarini ta'minlashdir" [3]. Ta'kidlash joizki, Forobiy e'tirof etgan xislat-fazilatlar bugungi kunda yoshlar g'oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirishda, inson haq-huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda, o'zligimizni anglash, har bir xonadonda tinchlik, osoyishtalik, barqarorlikni saqlashda muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, o'zbek adabiyoti va madaniyati tarixidagi eng katta durdona asarlardan biri – bu buyuk mutafakkir, shoir Alisher Navoiyning "Xamsa" asarida ham insonni ulug'lash, xalq baxt-saodati uchun kurashish g'oyasi yetakchilik qiladi. Xamsaning birinchi dostoni "Hayratul-abror" falsafiy-diniy xarakterga ega bo'lib, unda yetuk shaxsning yaxshilik, saxovat, soflik, hayo, muruvvat, adab, kamsuqumlilik, sabr, rostgo'ylik, insof-diyonat, bag'rikenglik, adolat kabi fazilatlarini ta'riflanib, ruhiy kamolot yo'llari tahlil etilgan. Yoki Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni ham aql va adolat, baxt-saodat, farovonlik haqida gapirib, do'stlik, halollik,

rostgo'ylik, kamtarlik, odillik kabi insoniy xislatlarning shaxs kamolotida muhim o'rin egallashi uqtirilgan. Unda ham inson hayoti va faoliyatining birlamchi asosi ta'lim-tarbiya va bilim egallash deb eslatiladi. U g'oyaviy tarbiyani (fikir tarbiyasini) faqatgina ilm-fan va ma'rifat bilan sog'lomlashtirish mumkinligini ta'kidlaydi. Yusuf Xos Hojib bilimni zulmat ichidagi nurafshon mash'alaga o'xshatadi. Uning fikricha, nutq madaniyati shaxsning bilimdonlik va ma'naviy komillik darajasini belgilab beradi, insonni ulug'laydi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish, ma'naviy sog'lom muhitni yaratish, yosh avlod ta'lim-tarbiyasini rivojlantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlar asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Sharq mutafakkirlarining boy ilmiy-ma'naviy merosidan unumli foydalangan holda darslarni tashkil etish, o'quvchi va talabalarga buyuk allomalarimiz, faylasuf-mutafakkirlarimizning asarlarini ilmiy tahlil qilishni o'rgatish va ularning ijodiga bo'lgan qiziqishni orttirish ijtimoiy-gumanitar fanlarga yangicha yondoshishni taqozo etadi. O'tmish mutafakkirlarining barkamol, komil inson haqidagi fikrlari, insonparvarlik, bunyodkorlik g'oyalari bugun ham g'oyaviy siyosiy madaniyatimizni shakllantirishda qimmatli noyob hazinadir. Shunday ekan, ulardan oiladan boshlab ta'lim-tarbiyani takomillashtirishda, farzandlarimizning g'oyaviy-siyosiy madaniyatlarini shakllantirishda samarali foydalanish ayni muddaodir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 171.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси. – Тошкент: O'zbekiston, 2021. – Б. 270.
3. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – Б. 37.
4. Байдов Н.Э. Мирзо Улуғбек даврида ҳукукий маданият ва ҳукукий тарбия // «Буюк ипак йўлида умуминсоний ва миллий кадриятлар: тил, таълим ва маданият» номли халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2016. – 309 б.
5. Давронова Д. Ўрта Осиё мутафаккирлари ижодида ғоявий-сиёсий маданият талқини / Таълим-тарбия концепциялари тарихи. 2017. – №1. – Б.6.
6. Каримов Б.Р. Ёшлар толерантлиги ва фаоллигининг ижтимоий-фалсафий таҳлили //«Ижтимоий фикр», 2007. – №3.
7. Мардонова Ф. Ўзбек халқининг ҳозирги замон ижтимоий-маънавий ҳаётида миллатлараро толерантлик (ижтимоий-фалсафий таҳлил). Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.автореферати. – Самарқанд, 2020. – 40 б.
8. Мухтаров У. Янги Ўзбекистон тараққиётида Шарқ Ренессанси даври алломаларининг илмий-фалсафий меросининг ўрни / “Yangi O'zbekiston: barqaror rivojlanishning ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy-siyosiy va huquqiy masalalari”. VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 23 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7. – Б. 185.

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING TAFAKKUR
ERKINLIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI**

**Ma'muraxon Maxammatova,
Andijon davlat pedagogika instituti,
Pedagogika va psixologiya kafedrası v.b. dotsenti, (PhD)**

Annotasiya. Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida tafakkur erkinligini shakllantirish jarayoniga ta'sir etuvchi psixologik va pedagogik determinantlarning mohiyati, ularning o'zaro bog'liqligi, shuningdek, amaliy qo'llash mexanizmlari chuqur tahlil etilgan. Tadqiqotning nazariy bazasini xorijiy olimlar, hamda o'zbek pedagoglarining qarashlari tashkil qilgan.

Kalit so'zlar: tafakkur erkinligi, psixologik determinantlar, pedagogik usullar, boshlang'ich ta'lim, ijodiy rivojlanish.

Аннотация. В данной статье глубоко проанализированы сущность психологических и педагогических детерминант, влияющих на процесс формирования свободы мышления у учащихся начального образования, их взаимная связь, а также механизмы практического применения. Теоретическую базу исследования составили взгляды зарубежных ученых и узбекских педагогов.

Ключевые слова: свобода мышления, психологические детерминанты, педагогические методы, начальное образование, творческое развитие.

Annotation. This article provides an in-depth analysis of the psychological and pedagogical determinants influencing the development of freedom of thinking among primary school students, their interrelationship, and the mechanisms of their practical application. The theoretical basis of the research is formed by the views of foreign scholars as well as Uzbek educators.

Keywords: freedom of thinking, psychological determinants, pedagogical methods, primary education, creative development.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi inson tafakkurining erkinligi, ijodkorligi va tanqidiy fikrlash darajasini yuksaltirishni o'zining ustuvor strategik maqsadlaridan biri sifatida belgilamoqda. Chunki tafakkur erkinligi — shaxsning mustaqil fikrlay olishi, mavjud bilim va axborotlarni mustaqil tahlil qilib, ularga yangicha yondashuvi hamda asosli qarorlar qabul qila olish qobiliyatini ifodalaydi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi esa aynan shu sifatlarning shakllanishida eng muhim, ta'sirchan va poydevor davr hisoblanadi. Bu jarayonda o'quvchining idrok, xotira, mantiqiy tafakkur, muammoli vaziyatni hal qilish va ijodiy yondashuv kabi psixik jarayonlari tez rivojlanadi. Shuning uchun boshlang'ich maktabda tafakkur erkinligini rivojlantirish jarayoniga ta'sir etuvchi psixologik-pedagogik determinantlarni aniqlash, ularni ilmiy asosda izohlash va amaliyotga tatbiq etish bugungi kunda dolzarb ilmiy-tadqiqot muammolaridan biri sanaladi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida, xususan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Yangi O'zbekiston – taraqqiyot strategiyasi" hamda "Inson kapitalini rivojlantirish konsepsiyasi"da o'quvchilarda mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur hujjatlar shaxsning faqat bilim egallashi emas, balki o'z fikrini asoslay olishi, qaror qabul qilishi, innovatsion g'oyalarni ilgari surishi ham ta'limning ustuvor vazifasi ekanini belgilab bermoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim mazmuni o'qituvchi faoliyatida tafakkur erkinligini shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni yaratish va amaliyotga joriy etishni talab etmoqda. Bu esa pedagogdan an'anaviy bilim berish modelidan voz kechib, o'quvchining

fikrlash jarayonini faollashtiruvchi, tahlil va ijodiy izlanishga undovchi ta'lim texnologiyalarini qo'llashni taqozo etadi. Tafakkur erkinligi — nafaqat bilish jarayonining mahsuli, balki shaxsning psixologik holati, motivatsiyasi va ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlarining natijasidir. Shu sababli uni shakllantirish psixologik (motivatsion, kognitiv, refleksiv) hamda pedagogik (ta'lim muhiti, interfaol metodlar, o'qituvchi shaxsiy pozitsiyasi) determinantlar orqali tahlil etilishi lozim.

Mazkur tadqiqotda ana shu determinantlarning o'zaro ta'siri, ularning boshlang'ich sinf o'quvchilari tafakkurini shakllantirishdagi roli va mexanizmlarini ochib berish maqsad qilingan. Tadqiqot natijalari nafaqat boshlang'ich ta'lim metodikasini takomillashtirish, balki o'quvchilarda ijodiy, tanqidiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirishning ilmiy asoslarini yaratishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang'ich ta'limda tafakkur erkinligini shakllantirish masalasi psixologiya va pedagogika fanlarining kesishgan nuqtasida joylashgan murakkab ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Shu bois mazkur yo'nalishga oid ilmiy adabiyotlar tahlili, avvalo, inson tafakkurining psixologik mexanizmlari, kognitiv rivojlanish jarayoni, ijodiy fikrlash mexanizmlari hamda ta'limdagi pedagogik determinantlar tizimini o'rganishga tayanadi.

Tafakkur erkinligi tushunchasi dastlab psixologik nuqtai nazardan talqin qilinib, L.S.Vygotskiy, J.Piaget, A.Bruner, E.Torrens kabi olimlarning tadqiqotlarida shaxsning bilish faoliyatidagi mustaqillik, refleksiv fikrlash, o'z qarashlarini asoslay olish hamda yangicha g'oyalar yaratish qobiliyati sifatida izohlangan. Xususan, J.Piaget bolalar tafakkurining bosqichma-bosqich rivojlanishiga e'tibor qaratib, tafakkur erkinligi kognitiv tajriba, mantiqiy operatsiyalar va atrof-muhit bilan faol o'zaro ta'sir orqali shakllanishini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlariga ko'ra, 6–11 yosh oralig'ida bolalarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, muammoli vaziyatni mustaqil hal etish va qaror qabul qilish jarayoni sezilarli sur'atda rivojlanadi.

E.Torrens esa ijodiy tafakkurni o'qish jarayonida muammoning noodatiy yechimini topa olish, yangi g'oya yaratish va original fikr ishlab chiqish qobiliyati bilan bog'laydi. U ijodiy tafakkurni “muammoni yangi, noodatiy va samarali yo'l bilan hal qila olish” sifatida ta'riflab, buni o'quv jarayonida maxsus metodik mashqlar, motivatsion muhit va kognitiv faollikni rag'batlantirish orqali shakllanishini asoslab bergan. Mazkur yondashuvlar boshlang'ich ta'limda tafakkur erkinligini baholashning psixometrik mezonlarini ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo'lgan.

Pedagogik nuqtayi nazardan esa tafakkur erkinligi ta'lim muhiti, o'qituvchi shaxsiy pozitsiyasi va interfaol metodlardan foydalanish darajasi bilan uzviy bog'liqdir. B.Bloom taklif etgan “kognitiv darajalar taksonomiyasi”da mustaqil va ijodiy fikrlash — ta'limning eng yuqori bosqichi sifatida belgilanadi. Olim taksonomiyasi o'quvchilarning fikrlash darajalarini aniqlaydi. Uning yuqori pog'onalari — “tahlil, sintez, baholash” — tafakkur erkinligini shakllantirishning kognitiv determinantlari sifatida qaraladi. Shuningdek, D.Dewey va K.Rogerslarning gumanistik pedagogika konsepsiyalarida o'quvchini erkin fikrlovchi, tanlov qila oladigan subyekt sifatida shakllantirish zarurligi ta'kidlanadi. Dewey ta'limni tajriba asosida o'rganish jarayoni sifatida ko'rib, o'quvchini faol ishtirokchi sifatida baholaydi. Unga ko'ra, “tafakkur erkinligi” demokratik ta'limning markaziy qadriyatidir. Rogersning fikricha gumanistik pedagogika konsepsiyasida “erkin o'rganish” shaxsiy rivojlanishning asosi sifatida qaraladi. O'quvchi o'z tanlovi va tajribasiga tayangan holda o'rganishi kerak - deb ta'kidlaydi.

O'zbekistonlik olimlar ham mazkur masalaga alohida e'tibor qaratganlar. Jumladan, A. Azizxo'jayeva o'qituvchining shaxsiy pedagogik pozitsiyasi o'quvchilarda erkin fikrlashni rag'batlantiruvchi eng muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. O'qituvchining shaxsiy pozitsiyasi va o'quvchiga bo'lgan individual munosabati tafakkur erkinligining shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. R.Qurbonov ta'lim jarayonida kreativ tafakkur va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirish o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanligini oshiradi, deya qayd etadi. A.Jo'rayev esa tafakkur erkinligi ta'limning innovasion modelini shakllantiruvchi asosiy psixologik indikator ekanini ilmiy isbotlab bergan.

Shuningdek, xorijiy tadqiqotlarda “determinant” atamasi ko‘pincha ta’lim natijasiga ta’sir etuvchi sababiy omillar tizimi sifatida izohlanadi (Bandura, 1986; Krathwohl, 2002). Psixologik determinantlar — bu shaxsning kognitiv faolligini, motivatsiyasini va refleksiv qobiliyatini belgilovchi ichki omillar; pedagogik determinantlar esa o‘qitish metodlari, o‘quv muhitining ochiqqligi, interfaollik darajasi kabi tashqi omillarni o‘z ichiga oladi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tafakkur erkinligini shakllantirish ko‘p komponentli tizim bo‘lib, u psixologik motivatsiya, kognitiv tajriba, refleksiya hamda pedagogik muhit determinantlari o‘zaro uyg‘unlashgan holdagina samarali natija beradi. Bu esa tadqiqotning keyingi bosqichlarida mazkur determinantlar tizimini empirik jihatdan o‘rganish zarurligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarida tafakkur erkinligini shakllantirish jarayoniga ta’sir etuvchi psixologik va pedagogik determinantlarni aniqlash hamda ularning o‘zaro bog‘liqligini ilmiy asosda tahlil qilish maqsad qilingan. Tadqiqotning metodologik asosini L.S.Vygotskiyning sotsiokultural nazariyasi, J.Piagetning kognitiv rivojlanish bosqichlari konsepsiyasi, J.Brunerning konstruktivistik ta’lim g‘oyalari, shuningdek, A.Azizxo‘jayeva va R.Qurbonovlarning o‘zbek pedagogikasiga oid ilmiy qarashlari tashkil etdi. Ushbu nazariy asoslar tafakkur erkinligini o‘quvchi shaxsining ichki faolligi, refleksiv qobiliyati va ijtimoiy o‘quv muhiti bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida talqin etish imkonini berdi.

Tadqiqotda kompleks yondashuv qo‘llanildi. Avvalo, nazariy-tahliliy bosqichda mavzuga oid xorijiy va mahalliy adabiyotlar, psixologik-pedagogik tadqiqotlar hamda amaldagi ta’lim me‘yoriy hujjatlari o‘rganildi. Bu bosqichda “tafakkur erkinligi” va “determinant” tushunchalarining mazmuni aniqlanib, ularning o‘zaro bog‘lanishi uchun konseptual model ishlab chiqildi.

Keyingi bosqichda empirik tadqiqot olib borildi. Tadqiqot Andijon viloyatidagi to‘rtta umumta’lim maktabida (№12, №21, №34, №47) o‘tkazilib, jami 128 nafar 3–4-sinf o‘quvchilari va 12 nafar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ishtirok etdi. Tadqiqot davomida kuzatuv, suhbat, so‘rovnoma va eksperiment metodlaridan foydalanildi. So‘rovnomalar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, noodatiy yechim topish, o‘z fikrini asoslay olish va refleksiv tahlil qobiliyatlari o‘lchandi. Kuzatuv jarayonida o‘qituvchi faoliyatining o‘quvchilarda tafakkur erkinligini qo‘llab-quvvatlash darajasi baholandi.

Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarida tafakkur erkinligini shakllantirish jarayonida psixologik va pedagogik determinantlarning o‘zaro ta’siri muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Eksperimentning boshlang‘ich bosqichida o‘tkazilgan diagnostika natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarning 45 foizi past, 42 foizi o‘rta va atigi 13 foizi yuqori darajadagi tafakkur erkinligiga ega bo‘lgan. Ushbu holat o‘quvchilarning fikrlash jarayoni asosan reproduktiv xarakterda ekanligini, mustaqil va ijodiy yondashuv esa yetarli darajada rivojlanmaganini ko‘rsatdi.

Eksperiment davomida joriy etilgan “Erkin fikr soati”, “Muammo va yechim”, “Men boshqacha o‘ylayman” kabi interfaol mashg‘ulotlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rag‘batlantirdi, o‘z fikrini himoya qilish, dalillash va boshqalarning fikrini baholash ko‘nikmalarini shakllantirdi. Bu mashg‘ulotlar jarayonida o‘qituvchilarning pedagogik pozitsiyasi va darsdagi kommunikativ muhit hal qiluvchi determinant sifatida namoyon bo‘ldi. Natijalarning chuqur tahlili shuni ko‘rsatdiki, tafakkur erkinligi rivojlanishida quyidagi determinantlar kompleks ta’sir ko‘rsatadi:

Tahlillar va natijalar: Psixologik determinantlar: o‘quvchilarning kognitiv faolligi, ichki motivatsiyasi, refleksiya va o‘z fikriga nisbatan ishonch hissi. Bu omillar tafakkurning ichki manbai sifatida o‘quvchi shaxsini faol subyektaga aylantiradi.

Masalan, J.Piaget ta’kidlaganidek, tafakkur erkinligi bolaning kognitiv tajribasi orqali shakllanadi, bu esa ularning mustaqil fikr yuritish ehtiyojini kuchaytiradi.

Pedagogik determinantlar: ta'lim muhiti, o'qituvchi shaxsiy pozitsiyasi, metodik yondashuvlar va darsdagi interfaollik darajasi.

Ijtimoiy determinantlar: sinfdagi o'zaro muloqot, guruhiiy ishlash, fikrlar almashinuvi, emotsional qo'llab-quvvatlash muhiti. D.Dewey ta'limni ijtimoiy jarayon sifatida talqin qilib, aynan bunday muhitda inson tafakkuri eng yuqori darajada faollashishini ta'kidlagan.

Tadqiqot natijalari shuni isbotladiki, tafakkur erkinligi o'quvchilarda faqat o'quv materialini egallash natijasida emas, balki erkin muloqot, refleksiv fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va o'z pozitsiyasini asoslay olish ko'nikmalari orqali shakllanadi. Bu esa o'quvchi shaxsini faollashtiruvchi, tanqidiy va ijodiy tafakkurga yo'naltirilgan ta'lim modelini joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar xalqaro ilmiy manbalarda ilgari surilgan qarashlar bilan uyg'unlikda bo'lib, Brunerning "kashf etish orqali o'rganish", Banduraning "ijtimoiy kognitiv nazariya" haqidagi g'oyalari bilan mos keladi. Ushbu natijalar o'zbek ta'lim tizimida o'quvchi markazli, interfaol, refleksiv muhitni keng joriy etish zarurligini yana bir bor ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Shunday qilib, o'tkazilgan tadqiqot tafakkur erkinligini shakllantirishda psixologik-pedagogik determinantlar kompleks tizimini aniqlashga, ularning o'zaro aloqasini empirik isbotlashga va o'quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtiruvchi modelni ishlab chiqishga xizmat qildi. Bu natijalar boshlang'ich ta'limda o'qituvchi faoliyatining yangi yo'nalishini belgilab, o'quvchilarning tafakkur salohiyatini yuksaltirish uchun ilmiy-amaliy asos yaratdi.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida tafakkur erkinligini shakllantirish jarayoni faqat nazariy tayanch bilan chegaralanmay, balki u amaliy-pedagogik tizim orqali amalga oshiriladi. Ushbu tizimning muvaffaqiyati o'qituvchining psixologik yondashuvi, darsda yaratilgan kommunikativ muhit va o'quv faoliyatini tashkil etish texnologiyalariga bevosita bog'liqdir.

Tadqiqot davomida aniqlangan psixologik-pedagogik determinantlar asosida quyidagi amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqildi:

Motivatsion-faollashtiruvchi mexanizm. O'quvchilarda erkin fikrlashga ijobiy motivatsiya yaratish uchun dars jarayonida "mening fikrim", "bir necha yechim top", "menga qarshi dalil keltir" kabi topshiriqlar qo'llaniladi. Bu usul bolada o'z fikrining qadrini his qilishni va tafakkurning mustaqil yo'nalishini rivojlantiradi.

Interfaol muloqot mexanizmi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik, savol-javob, munozara elementlari asosida fikr almashish amalga oshiriladi. "Aqliy hujum", "Debat", "Besh daqiqa tahlil" metodlari o'quvchilarning ijtimoiy tafakkurini faollashtiradi.

Refleksiv tahlil mexanizmi. Har bir dars oxirida o'quvchilar "Bugun men nimani boshqacha tushundim?", "Qaysi fikrni o'zgartirdim?" kabi refleksiv savollarga javob beradilar. Bu jarayon tafakkur erkinligini ongli boshqarish (metakognitiv daraja)ni kuchaytiradi.

Pedagogik muhitni insonparvarlashtirish mexanizmi. O'qituvchining ijobiy emotsional munosabati, o'quvchining fikrini qadrlash, tanqidiy fikrni qo'llab-quvvatlash, xato fikr uchun jazolamaslik kabi tamoyillar asosida dars muhitini yaratish.

Kreativ topshiriqlar tizimi. Tafakkur erkinligini mustahkamlash uchun "bir fikr – uch yechim", "mantiqsiz vaziyatni to'g'ri", "ertakdagi voqeani o'zgartir" kabi ijodiy topshiriqlar qo'llaniladi.

O'qituvchining refleksiv faoliyati. O'qituvchi o'quvchilarning tafakkur jarayonlarini muntazam tahlil qiladi, o'z metodikasini qayta ko'rib chiqadi, fikr bildirish uchun qulay sharoit yaratadi. Bu determinant o'qituvchining professional o'sishida ham muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida keltirilgan mazkur mexanizmlar birgalikda "Tafakkur erkinligini rivojlantirish modeli"ni tashkil etadi. Modelning markazida shaxs faoliyati, ta'lim muhiti, interfaol muloqot va refleksiya elementlari joylashadi. Amaliy natijalar shuni ko'rsatdiki, bu yondashuv o'quvchilarning tafakkur faolligini oshirib, ularni mustaqil va ijodiy qaror qabul qilishga tayyorlaydi.

Demak, tafakkur erkinligini rivojlantirish — bu shunchaki ta'lim natijasi emas, balki insonni fikrlovchi, tahlil qiluvchi va yangilik yaratuvchi shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat

qiluvchi jarayondir. Shu bois, boshlang'ich ta'limda tafakkur erkinligini shakllantirishga yo'naltirilgan psixologik-pedagogik tizimni joriy etish nafaqat o'quvchilarning intellektual salohiyatini, balki jamiyatning innovatsion taraqqiyot salohiyatini ham oshiradi.

Xulosa o'rinda shuni aytish joizki, boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida tafakkur erkinligini shakllantirish jarayoni ko'p komponentli, psixologik va pedagogik determinantlarning o'zaro uyg'unligiga tayanadigan murakkab tizimdir. Erkin tafakkur — shaxsning mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish, ijodiy qaror qabul qilish va o'z fikrini asoslab bera olish qobiliyatidir. Bu sifatlar bolalik davrida, ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichida shakllanishi sababli, o'qituvchi faoliyati bu jarayonning bosh determinantlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot davomida aniqlangan psixologik determinantlar (motivatsiya, kognitiv faollik, refleksiya) o'quvchining ichki fikrlash manbaini belgilasa, pedagogik determinantlar (ta'lim muhiti, interfaol metodlar, o'qituvchi shaxsiy pozitsiyasi) bu jarayonni tashqi muhit orqali faollashtiradi. Ushbu omillar uyg'unlashgan taqdirdagina o'quvchilarda tafakkur erkinligi yuqori darajada rivojlanadi.

Amaliy bosqich natijalari ko'rsatdiki, "Erkin fikr soati", "Muammo va yechim", "Men boshqacha o'ylayman" kabi interfaol mashg'ulotlar o'quvchilarda tafakkur mustaqilligini, noodatiy fikrlashni va refleksiv tahlil ko'nikmalarini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa o'qituvchining faqat bilim yetkazuvchi emas, balki fikrlashni yo'naltiruvchi va ijodiy muhit yaratuvchi shaxs sifatidagi rolini yanada kuchaytiradi.

Natijada, boshlang'ich ta'limda tafakkur erkinligini shakllantirishga qaratilgan tizimli yondashuv o'quvchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirish va zamonaviy ta'limning insonparvarlik tamoyillarini amaliyotda ro'yobga chiqarishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Piaget, J. Psychology of the Child. — New York: Basic Books. 1969. P.87
2. Torrance, E. P. Torrance Tests of Creative Thinking. — Lexington, MA: Personnel Press. 1974, p. 34
3. Bloom, B. S. Human Characteristics and School Learning. — New York: McGraw-Hill. 1976. p. 92
4. Dewey, J. Experience and Education. — New York: Macmillan. 1938, p. 54
5. Rogers, C. Freedom to Learn for the 80's. — Columbus: Charles E. Merrill. 1983, p. 67
6. Azizxo'jayeva, N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat asoslari. — Toshkent: TDPU nashriyoti. 2019, 64-bet
7. Qurbonov, R. Ta'limda kreativ fikrlashni rivojlantirish mexanizmlari. — Toshkent: Innovatsiya nashriyoti. 2022, 77-bet
8. Jo'rayev, A. Innovatsion ta'lim va pedagogik tafakkur transformatsiyasi. — Toshkent: Fan va texnologiya. 2021, 52-bet

IJTIMOIIY VA MA'NAVIY SOHADAGI G'OYALAR TRANSFARMATSIYASINING ASOSIY OMILLARI

Ijod Axmedov,
Jizzax pedagogik mahorat markazi direktori, dotsent

Annatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy va ma'naviy sohadagi g'oyalar transformatsiyasining asosiy omillarining falsafiy talqini atroflicha yoritilgan bo'lib, hozirgi zamon talablarining, zamonaviy yechimlari, siyosiy va falsafiy jihatdan tahlil etilgan, rivojlanish strategiyasining ijtimoiy falsafiy tahlillari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: taraqqiyot, ijtimoiy-falsafiy, g'oyalar transformatsiyasi, strategiya, hamjamiyat, yangicha qarash, glaballashuv, harakatlar strategiyasi.

Аннотация. В статье комплексно освещается философское осмысление основных факторов трансформации идей в социальной и духовной сферах, рассматривается социально-философский анализ современных потребностей, современных решений, политико-философский анализ стратегий развития.

Ключевые слова: развитие, социально-философский, трансформация идей, стратегия, сообщество, новое видение, глобализация, стратегия действий.

Annotation. This article comprehensively covers the philosophical interpretation of the main factors of the transformation of ideas in the social and spiritual spheres, examines the socio-philosophical analysis of the current demands, modern solutions, political and philosophical analysis of development strategies.

Keywords: development, socio-philosophical, transformation of ideas, strategy, community, new vision, globalization, strategy of actions.

Glaballashuv ijtimoiy jamiyatda mas'uliyatlilik hissini shakllantirish va yangicha milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muammolari bugungi kunning eng katta dolzarb masalasidir. Shu nuqtai nazardan ularning ma'naviy bo'shliqlarini to'ldiruvchi o'rindosh vositalar, yangicha yondashuvlar asosida milliy qadriyatlar ruhidagi tarbiyaviy uslublar ishlab chiqish lozim bo'ladi. Bugungi murakkab, axborotlashuv jarayoni juda tez kechayotgan davrda ijtimoiy jamiyatning yangicha milliylikka asoslangan holatlarini e'tiborda tutib, ulardagi mas'uliyatlilik hissini oshirish, qiziqish doiralariga mos vositalar orqali ta'sir qilish talab etiladi. Mamlakat siyosatida mana shu omillarni hisobga olib qaror farmonlar, ilmiy ishlar, ma'naviy ma'rifiy tadbirlar ilmiy tadqiqot markazlarida metodik qo'llanma yaratish ko'zda tutiladi. Ijtimoiy jamiyatni yangicha nuqtayi nazarga asoslangan milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ulkan ijtimoiy jarayonni qamrab oluvchi ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy islohotdir. Ayniqsa ularda ijtimoiy voqeliklarga tez kirishib ketuvchi, barcha narsa va hodisalarga mas'uliyatli etib shakllantirish vositalari o'rganiladi.

Shuningdek, mamlakatning milliy manfaatlari va taraqqiyotining strategik istiqbollariga javob beradigan dasturni Konstitutsiya tamoyillariga suyanib, boshqa siyosiy partiya va harakatlar bilan hamkorlikda ishlab chiqish va amalga oshirish uchun partiyaning kuch va imkoniyatlarini safarbar etish, O'zbekiston tanlagan ochiq, bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik, huquqiy davlat qurish, fuqarolik jamiyati institutlarining rivojiga keng yo'l ochib berish va demokratik qadriyatlarni xalq, avvalo yoshlar ongi va hayotiga singdirish ham uning ustuvor maqsadlaridan hisoblanadi. Partiyaning siyosiy platformasi - Liberal-demokratik g'oya

va qadriyatlarni keng omma ongiga singdirish, bu borada har tomonlama chuqur o'ylangan tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borish, o'z safini kengaytirish.

Prezidentimizning Ommaviy xaborot vositalariga bergan 2021 yil 16 avgustda intervyusida shunday g'oyalar ilgari surilgan Ma'lumki, keyingi besh yil davomida mamlakatimizda keng miqyosdagi demokratik o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. "Yangi O'zbekiston" degan tushuncha real voqelikka aylanmoqda. Siz davlat boshlig'i, ana shu ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning tashabbuskori va ularning markazida turgan islohotchi rahbar sifatida bu yangilanishlarning mazmun-mohiyatini birinchi navbatda nimalarda ko'rasiz?

Javob. Avvalo shuni aytish kerakki, o'z yurtida ozod va erkin hayot, adolatli jamiyat barpo etishdek ulkan maqsadni o'z oldiga qo'yan har qanday xalq, har qanday millat og'ir, mashaqqatli va murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tadi.

Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, har qaysi xalq hayotidagi ma'naviy uyg'onish jarayonlari milliy o'zlikni anglashga olib keladi hamda mamlakatning iqtisodiy, madaniy taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradi. Bunday ijtimoiy noyob hodisa "Renisans"— uyg'onish, qayta tiklanish, yuksalish deb atalishi barchamizga ayon.

Biz yangi O'zbekistonni xalqimiz bilan birgalikda barpo etamiz, degan ulug'vor maqsadni o'z oldimizga qo'yanmiz. Bu borada "Jamiyat – islohotlar tashabbuskori" degan yangi g'oya kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib bormoqda. Islohotlarning amaliy natijadorligini oshirishda, joylarda yangi tashabbuslarni ilgari surishda aholimizning yanada faolroq, yanada tashabbuskor bo'lishiga erishmog'imiz lozim.

Ma'lumki huquqiy demokratik davlatda har bir insonning huquq va majburiyatlari qonun bilan belgilanadi. Bu esa, jamiyatda qabul qilinayotgan qonun hujjatlarini avvalo fuqarolarning faolligini oshirishga, ularni mas'uliyatli bo'lishi va islohotlarga nisbatan dahldorlik tuyg'usini kuchatirishga xizmat qilishini taqazo etadi. Zero, bugunning talabi bo'lgan yuksak mas'uliyat va optimistik ruhdagi kayfiyat fuqarolik jamiyati tartib- tamoyillarining qaror topishi bilan uzviy bog'liqlikdagi jarayondir.

Insoniyat taraqqiyotining barcha davrlarida fuqarolik jamiyatini qurish eng ezgu g'oya sifatida amal qilgan. Unga erishish uchun turli darajadagi nazariy qarashlar ilgari surilgan. Bir guruh olimlar fuqarolik jamiyatini qurish g'oyasi G'arb tamadduni mahsuli sifatida amaliyotga tadbiiq etilmoqda, deb hisoblamoqdalar. Aslida Sharq mamlakatalari mutafakkirlari ijodida bu masalaga oqilona yondashuv uch ming yil ilgari shakllangan. Ijtimoiy taraqqiyotning ma'lum davrlarida Sharq mamlakatlari yetakchi mavqeini egallagan. Umuman, dunyo xalqlari katta-kichikligidan qat'iy nazar, fuqarolik jamiyati g'oyalarini rivojiga u yoki bu darajada o'zining hissalarini qo'shgan. Shu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish to'g'risidagi g'oyalar, bilimlarni bir yoqlama bo'rttirish yoki kamsitish noto'g'ri yondashuvdir.

Yangi O'zbekiston-yangicha dunyoqarash" xalqimizning bunyodkorlik salohiyatini ochib beradi. Iqtisodiy globallashtirish mahsuli bo'lgan bozor iqtisodiyoti sharoitida mustaqil dunyoqarashni rovojlantirish, o'zlikni saqlash va ma'naviyatni yuksaltirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Binobarin globallashtirish jarayonida iqtisodiy va ma'naviy omillarni o'zaro uyg'unligini ta'minlanish bir qator muammolarni bartaraf etishda muhim ahamiyatga egadir.

Agar jamiyatda iqtisodiy omil ustuvor bo'lib, ma'naviy omil ikkinchi darajali bo'lsa quyidagi holat yuzaga keladi:

- insonning ma'naviy-ruhiy dunyosini qashshoqlashadi;
- jamiyatda ijtimoiy muhit muvozanati buziladi;
- davlatning byurokratik roli oshadi;
- xalq ongida bir yoqlama fikrlar, qarashlar va tushunchalar shakllanadi;
- istiqbolli rivojlanish shubha ostida qoladi va hokazo.

Shuningdek, agar jamiyatda ma'naviy omil ustuvor bo'lib, iqtisodiy omil ikkinchi darajada bo'lsa;

- insonning turmush farovonligi, kutilgan darajada bo'lmaydi;
- jamiyatda iqtisodiy-moddiy manfaatdorlik susayadi;
- davlatning qudratiga bo'lgan ishonch yo'qoladi;
- xalqning ertangi kunga bo'lgan ishonchi va orzusi bir yoqlama tus oladi;
- tadbirkorlik, tashabbuskorlik va optimistik rux yo'qolib boradi va hokazo.

Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, jamiyat islohotlar tashabbuskori bo'lishida yuksak ma'naviy va moddiy farovon hayot uyg'unligini ta'minlash davlat organlari orqali emas, balki fuqarolarning o'z sayi-harakatlari bilan amalga oshishi lozim. Moddiy va ma'naviy hayotimizda amalga oshirilayotgan islohotlar raqamlarda emas, balki haqiqiy hayotimizda, har bir inson taqdirida o'z aksini topishi kerak. Insoniyat tamadduniga o'zining salmoqli hissasini qo'shib kelgan bu millatning ulug' ajdodlari kabi bugungi avlodi ham Yangi O'zbekistonning Uchinchi Renesansiga o'zining munosib hissasini qo'shib, baxtli yashashga haqli. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev "Yangi O'zbekiston" gazetasiga bergan intervyusida quyidagilarni ta'kidlab o'tdi: "Bugun odamlar uyg'onmoqda, jamiyat uyg'onmoqda. Ma'naviy uyg'oq jamiyat – bu, hech shubhasiz, qudratli kuchdir.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonning g'oyalar transformatsiyasining asosiy omillari va ularning ijtimoiy falsafiy talqin etishda ijtimoiy-falsafiy mulohazalarning, ijtimoiy va madaniy turmush tarzining yuksak cho'qqilarni zabt etish endilikda faqat davlat tushunchasi bilan emas, balki jamiyat, ya'ni fuqarolar sayi-harakatlari bilan amalga oshiriladi. Aslini olib qaraganda, davlat va jamiyat bir-birini to'ldiruvchi tushunchalardir. Shuning uchun ham har doim hamkorlikda faoliyat yuritish, ya'ni integratsion amaliyot zamonaviy taraqqiyotning eng muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Turmush tarzning farovon va barqarorligi bu ijtimoiy islohatlarning davlat hamkorlik asosida tashkil etilishi va yangicha tafakkurni shakillantirish orqali mavjud muammolarning yechimini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etishdadur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni.
2. Haydarov. O. "Fuqarolik jamiyati" fanidan uslubiy qo'llanma, Samarqand-2019.- B. 15.
3. <https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekiston-demokratik-ozgarishlar-keng-imkoniyatlar-va-amaliy-ishlar-mamlakatiga-aylanmoqda>.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИСТИҚЛОЛ ЙИЛЛАРИДА ФАРМАЦЕВТИКА ФАНИДАГИ ИСЛОҲОТЛАР

Шахноза Якубова,
“ТИҚХММИ” МТУ доценти

Аннотация. Ушбу мақолада мустақиллик йилларида Ўзбекистон Республикасининг фармацевтика фанидаги ислохотларни тақдим этади. Бунда фармацевтика фанидаги муаммолар ва ушбу соҳадаги ютуқлар ушбу мақолада келтирилган.

Калит сўзлар: Фармацевтика, фармация, агробиотехнология, провизор, Биотехнология, Агроэкология, “Ўзхимфарм”, Ўз ФА Ботаника боғи, фармацевт кадрлар, Тошкент фармацевтика институти, стандартлаш

Аннотация. В данной статье представлены изменения в фармацевтической науке Республики Узбекистан за годы независимости. Первоначально в данной статье представлены проблемы фармацевтической науки, их решения и достижения в этой области.

Ключевые слова: Фармацевтика, фармация, агробиотехнология, провизия, биотехнология, «Узхимфарм», Ботанический сад УзФА, провизорские кадры, Ташкентский фармацевтический институт

Annotation. This article presents the changes in the pharmaceutical science of the Republic of Uzbekistan during the years of independence. Initially, problems in pharmaceutical science, their solutions and achievements in this field are presented in this article.

Key words: Pharmaceuticals, pharmacy, agrobiotechnology, provisional, Biotechnology, Agroecology, “Uzkhimfarm”, Botanic garden of UzFA, pharmacist personnel, Tashkent Pharmaceutical Institute, standardization, pharmacognosy.

Ўзбекистонда истиқлол давридан бошлаб, талабаларни ижтимоий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш бўйича ҳам қатор чора-тадбирлар олиб борилди. Масалан, Тошкент фармацевтика институтида 1991 йилдан бошлаб 1726 та талаба Тошкент шаҳар 33 дўконига беркитилиб, талабалар ойда бир марта озиқ-овқат олиб турди. Талабаларни озиқовқат билан таъминоти касаба уюшмаси томонидан назорат қилиб борилди. Моддий ёрдам юзасидан институт фондидан ҳар бир талаба овқатланиши учун 1 сўм 50 тийин (яъни бир ойда 37 сўм) тўланди. Бундан ташқари талабалар касаба уюшмаси томонидан 1065 сўм ёрдам кўрсатилди. Жамоа ишларини яхши бажарганликлари учун 700 сўм мукофот ажратилди[1].

Талабаларнинг маданий дам олиш учун қатор чора-тадбирлар олиб борилди. 1991-1992 йиллари 300 га яқин талаба ёзда Чимён зонасида дам олди, талабалардан 6 нафари Ботаника боғи, Чинобот ва Луначарский санаторияларида дам олди[2].

Шу билан бирга институтда турли соҳаларда муаммо ва камчилликлар ҳам кўп эди. Ётоқхоналарда ўқув хоналари ва қизлар учун гигиена ва душ хоналарини йўқлиги, талабалар ётоқхонасининг етишмаслиги, ётоқхоналарнинг иситиш тизимининг эскириб, таъмир талаб ҳолатдалиги, ўқув хоналарини етишмаслиги туфайли ўқув машғулоти икки-уч сменада бўлиши, институт базасида бирорта ҳам машинанинг йўқлиги каби муаммолар мавжуд эди[3].

Тошкент фармацевтика институти 1993-1994 ўқув йили касаба уюшмаси томонидан талабаларни турмуш маданияти, яшаш шароитини яхшилаш борасида режа бўйича тадбирлар олиб борди. Тошкент вилоят касаба уюшмаси қарорига кўра талабаларга стипендия ўз вақтида етказиб берилди. Бундан ташқари Республика аҳолисига бериладиган 150 сўмлик компенсация пулини ҳам талабаларга мунтазам равишда ҳар ой

Ўз вақтида етказиб берилди. Институти спорт зали моддий-техника базаси жуда ночор аҳволда эди. Шунга қарамасдан, жисмоний тарбия кафедраси ўқитувчилари оммавий спорт ўйинларини ривожлантиришга ҳаракат қилиб, спортнинг 10 та тури бўйича секциялар ташкил этилди. 1993-1994 ўқув йили Тошкент шаҳар олий ўқув юртлири спартакаидасида фармацевтика институтидан енгил атлетика бўйича 4 нафар, баскетболдан бўйича 7 нафар талаба иштирок этди[4].

Тошкент фармацевтика институти кутубхонасида абонемент бўлими, илмий ва талабалар учун қироатхоналар фаолият кўрсатди. Кутубхона фондида 1994 йил 1 декабрда 354698 дона китоб бор эди. Йил давомида 122867 та китоб берилди, 10793 кишига хизмат кўрсатилди[5].

Кутубхонада ўзбек тилидаги адабиётлар етишмади. “Агроэкология” ва “Биотехнология” мутахассисликлари очилиши билан булар учун дарслик масаласи долзарб масалалар қаторидан жой олди. Айримлари фақат ягона нусхада ва фақат ўқув залида ўқиш учун берилди. Айрим масалалар бўйича талабалар учун ахборот кунлари жорий этилди. Бу кунларда кутубхона ходимлари газеталардан ахборот тайёрлаб талабаларга етказиб берди. Кутубхонада 11 мавзулар бўйича билиографик картотека тузиб чиқилди. “Доривор ўсимликлар”, “Ўлкамиз ҳақида”, “Табобат ва соғлиқни сақлаш” мавзулари китобхонлар томонидан кенг фойдаланилди[6].

1993-1994 ўқув йилида институт Услубий кенгаш йиғилишларида асосий эътибор янги ташкил этилган мутахассисликларга қаратилди. “Агроэкология” ва “Биотехнология” мутахассисликлари учун ўқув – услубий қўлланмаларни тайёрлаш, ўқув режалар, дарс машғулотлари сифати бир неча марта муҳокама қилинди[7].

“Фармация”, “Агроэкология” ва “Биотехнология” мутахассисликларини тайёрлашда дори-дармонларни синтез қилиш, сифатини аниқлаш, дориларни сақлаш сингари долзарб масалалар бўйича билимларини ўзига мужассам қилган бўлиши талаб этилди. Буни амалга ошириш учун ўқитишни фаол усуллари бўлган семинаралар, олимпиадалар, ишчи-ўйинлардан фойдаланилди[8].

Талабалар илмий жамиятига 1993-1994 ўқув йили 183 нафар талаба аъзо эди. Шулардан 83 нафари Мирзо Улуғбек тавлудининг 600 йиллигига бағишлаб ўтказилган талабалар илмий анжуманида иштирок этиб, анжуман натижасида ғолиб деб топилган талабалардан 4 таси қимматбаҳо совға ва 14 таси эсдалик совғалари ва фахрий ёрлик билан мукофотланди. 1993- 1994 ўқув йилида 1 нафар талаба хўжалик шартномаси бўйича лойиҳада иштирок этди. 8 нафар талаба ҳаммуаллифликда мақола чоп этди[9].

Тошкент фармацевтика институтида Сурия, Иордан, Ливан ва Марокаш мамлакатларидан талабалар таълим олди. Қабул қилингандан сўнг уларнинг ҳужжатлари шаҳар ва вилоят ички ишлар органларидан расмийлаштириб, тиббий кўригдан ўтказилди[10].

Ўзбекистонда дори воситалари таъминоти ишларида мустақилликка эришиш ва аҳолига кўрсатиладиган фармацевтика ёрдам хизматини халқаро андозаларга мос амалга оширилган кадрлар тайёрлаш мақсадида янги йўналиш “Саноат формацияси” ташкил этилди. Институтда 2001-2002 ўқув йилидан бошлаб “Касб таълими” фармацевтика соҳа йўналиши бўйича педагог кадрларни тайёрлаш амалга оширилди. Ўзбекистонда валюта захираси салмоғининг катта қисми косметик воситалар харид қилиш учун сарф қилинаётганлиги, бу препаратларнинг кўпгина ҳолларда қалбаки намуналари билан таъминланиб келинаётганлиги ҳамда, юртимизда бой табиий ўсимликлар захираси мавжудлиги, бу соҳада малакали педагог кадрлар ва олиб борилаётган илмий изланишларни инобатга олган ҳолда парфюмер ва косметик воситалар тайёрлаш йўналишида косметевт-технолог кадрлар тайёрлаш 2006-2007 ўқув йилидан бошланди. Ўзбекистон Республикасида Соғлиқни сақлаш вазирлигининг 2006 йил 30 майдаги 125 сон буйруғи билан фармация соҳасидаги қуйидаги касб фаолиятлари дориларини

белгиловчи квалификацион тавсифномалар ва 2006 йил 17 апрелдаги 160 сон буйрук билан лавозим номенклатуралари тасдиқланди:

- “клиник фармация” йўналиши асосида – клиник фармацевт
- “космецевтика” йўналиши асосида космецевтика бўйича фармацевт-технолог.

Бу даврда институт кутубхона фондини тўлдириш бўйича ҳам ҳаракатлар олиб борилди. Масалан, 2002-2007 йиллар давомида институт кутубхонасига жами 2000 номдан ортиқ 15000 нусхада ўқув адабиётлар келтирилди. Бунинг учун 37376,8 млн. сўм маблағ сарфланди. Умумқасбий ва мутахассислик фанлардан ўқув адабиётларини кўпайтириш мақсадида 1000 дан ортиқ адабиётлар чет эллардан келтирилди. Тошкент фармацевтика институти профессорўқитувчилари томонидан ҳам бир нечта ўқув адабиётлари яратилди. Масалан, институт профессор-ўқитувчилари томонидан 2002 йилдан 3 та, 2003 йилда 4 та, 2004 йилда 2 та ва 2005 йилда 8 та, 2006 йилда 4 та ва 2007 йилда 9 дарслик ва ўқув қўлланма нашр этилди. Шулардан 20 та дарслик ва ўқув қўлланмалар лотин ёзувида чоп этилди.

Тошкент фармацевтика институти профессор-ўқитувчилар томонидан яратилган дарслик ва қўлланмалар мунтазам равишда Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги томонидан ташкил қилинган “Йилнинг энг яхши дарслиги” танловида қатнашиб фахрли ўринларни эгаллади. Жумладан, профессор У.Аҳмедов ва Х.Холматовлар томонидан яратилган “Фармакогнозия” дарслиги 1-ўринни, профессор С.Н.Аминов ва бошқалар “Анорганик кимёдан амалий машғулотлар” қўлланмаси 1-ўринни, Л.Бозорова, Н.Суюндиқов ва Х.Холматовлар томонидан яратилган “Лотин тили” дарслиги 2-ўринни эгаллаган ва махсус дипломлари ҳамда пул мукофотлари билан тақдирланди. Йилдан йилга Тошкент фармацевтика институтида ўқиш истагини билдирган абитуриентлар сони кўпайиб борди. Масалан, 2000 йили абитуриентлардан Тошкент фармацевтика институти кундузги бўлимида ўқиш истагини билдириб 1232 нафар, сиртки бўлимга 142 нафар, жами 1373 та ариза тушди.

Фармацевтика тизимининг ривожини кўп жиҳатдан соҳа кадрларини тайёрлаш жараёнига боғлиқ бўлиб, бу борада Ўзбекистонда мустақиллик йиллари муайян ишлар амалга оширилди. Тошкент фармацевтика институти минтақада фармацевт кадрлар тайёрлаш бўйича етакчилик қилишда давом этди. Институтда фармацевтика соҳасининг янги йўналишлари очилиб, агробιοтехнология, биотехнология, агроэкология, фармация менежменти ва иқтисодиёт каби йўналишларда мутахассислар тайёрлаш йўлга қўйилди. Институтда фармацевтика фанининг қатор долзарб мавзулари бўйича тадқиқотлар олиб борилди ва ижобий натижалар қўлга киритилди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўз ИТТХ МА, М-380-фонд, 1-рўйхат, 12-иш, 130-варақ.
2. Ўз ИТТХ МА, М-380-фонд, 1-рўйхат, 12-иш, 130-варақ.
3. Ўз ИТТХ МА, М-380-фонд, 1-рўйхат, 12-иш, 131-варақ.
4. Ўз ИТТХ МА, М-380-фонд, 1-рўйхат, 26-иш, 17-варақ.
5. Ўз ИТТХ МА, М-380-фонд, 1-рўйхат, 26-иш, 23-варақ.
6. Ўз ИТТХ МА, М-380-фонд, 1-рўйхат, 26-иш, 25-варақ.
7. Ўз ИТТХ МА, М-380-фонд, 1-рўйхат, 26-иш, 25-варақ.
8. Ўз ИТТХ МА, М-380-фонд, 1-рўйхат, 26-иш, 36-варақ.
9. Ўз ИТТХ МА, М-380-фонд, 1-рўйхат, 26-иш, 43-варақ.
10. Ўз ИТТХ МА, М-380-фонд, 1-рўйхат, 26-иш, 45-варақ.

ИНСОН ҚАДРИНИ ЮКСАЛТИРИШДА МАҲАЛЛАНИНГ ЎРНИ

Вазира Шамшиева,
Жиззах Давлат Педагогика университети,
Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация. Мақолада инсон қадрини юксалтириш жараёнида маҳалла институтининг ўрни кўрсатиб берилган бўлиб, унда малакатимизда инсон қадрини юксалтириш ҳамда маҳаллани ривожлантиришга доир ислохотлар ҳақида фикр юритилган.

Калит сўзлар: Инсон қадри, фуқаролик жамияти ва унинг институтлари, маҳалла, маҳаллабай ишлаш тизими, ўзини ўзи бошқариш органлари.

Аннотация. В статье показана роль института махалли в процессе укрепления человеческого достоинства, а также рассмотрены реформы, направленные на укрепление человеческого достоинства и развитие махалли в нашей стране.

Ключевые слова: Человеческое достоинство, гражданское общество и его институты, махалля, махаллябайская система работы, органы самоуправления граждан.

Annotation. The article shows the role of the mahalla institution in the process of enhancing human dignity, and discusses reforms aimed at enhancing human dignity and developing the mahalla in our country.

Keywords: Human dignity, civil society and its institutions, mahalla, mahallabay system of work, self-government bodies.

Аҳолининг кенг қатламлари манфаатларини ифодалайдиган фуқаролик жамияти институтлари ўртасида ўзини ўзи бошқариш тизимининг халқимизга хос ва мос ноёб тузилмаси ҳисобланган маҳалла алоҳида ўринга эга. Маҳалла неча асрлик тарихга эга бўлса ҳам, кейинги йилларда жамият ҳаётида ўзининг муносиб нуфузи ва ўрнига эга бўлди. Давлатчилигимиз тарихида биринчи марта —маҳалла тушунчаси мамлакатимизнинг Бош қомусига киритилиб, конституциявий мақоми мустаҳкамланди. Жумладан, Конституциямизнинг 69-моддасида: “Фуқаролик жамияти институтлари, жамоат бирлашмалари ва бошқа нодавлат нотижорат ташкилотлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, оммавий ахборот воситалари фуқаролик жамиятининг асосини ташкил этади”, деб белгилаб қўйилган[1].

Бу ҳақда тўхталиб, Мухтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёев Наврўз умумхалқ байрамига бағишланган тантанали маросимдаги табрик нутқида қуйидагиларни таъкидладилар: “Биз мамлакатимизда бошлаган улкан ислохотларимизни давом эттириш мақсадида Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси ҳамда “Инсон қадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили” дастурини қабул қилдик. Меҳнаткаш ва олижаноб халқимиз миллий ривожланишнинг янги даврига улугвор мақсад ва амалий ишлар билан кириб бормоқда.Бунинг тасдиғини биз бугун ҳар бир оила, ҳар бир маҳалла, қишлоқ ва овуллар, шаҳарларимиз мисолида яққол кўришимиз мумкин”[2].

Демак, инсон қадрини юксалтиришда маҳаллалар муҳим аҳамият касб этади. Тарихдан бизга маълумки барча даврларда инсон қадри, инсон қадрини юксалтириш, жамиятда инсон кадр-қимматини ошириш каби тушунчалар мавжуд бўлган ва даврлар оша инсон қадрини юксалтиришга бўлган ёндашувлар турлича бўлсада, фақат инсон учун қаратилганлигини гувоҳи бўламиз.

Дастлабки инсонпарварлик, инсон кадр-қиммати ғоялари зардуштийлик динининг муқаддас китоби бўлмиш —Авестодан ўрин олган. Унда тўртта асосий масалалар, яъни инсонларнинг жамиятдаги ижтимоий фаоллиги, инсон ҳуқуқларининг устуворлиги,

хусусий мулк ҳамда инсонларнинг жамият ва давлат бошқарувидаги фаол иштирок этиши алоҳида ажратиб кўрсатилади.

Айнан —Авестода илк жамоавийликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши, инсонларнинг жамоа бўлиб яшаш тарзи, улар ўртасидаги муносабатлар, жамоа ҳаётига боғлиқ масалаларни биргаликда ҳал этиш, давлат ва жамият ўртасидаги муносабатлар ва бошқа шу каби масалалар тартибга солинган.

Амир Темур давлат бошқарувининг демократик асосларини яратишда мамлакат ишларини доимо кенгаш, машварат, маслаҳат, хушёрлигу мулоҳазакорлик, эҳтиёткорлик билан амалга оширишга ҳаракат қилади”[3].

Алишер Навоийнинг адолатли жамият тўғрисидаги қарашлари ўз асарларида акс этиб, у ҳамиша “юксак жамият” ташкил этишни орзу қилади, “одил шох”ни улуғлайди, жамиятда юз бераётган ноҳақликлар, адолатсизликларни эса қаттиқ қоралайди. Ҳақиқий инсоний фазилатлар — адолат, меҳру мурувват, меҳнатсеварлик, тўғрисиўзлик, ватанпарварлик, ҳалоллик, инсонпарварлик, қаҳрамонлик каби фазилатларнинг ижобий жиҳатларини кенг ва чуқур очиб беради.

А.Навоийнинг фикрича, адолатли жамиятни юксак фазилатли, маънавиятли инсонларгина барпо этишлари мумкин. Шунинг учун ҳам мутафаккир инсон маънавиятини юксалтириш асосида “юксак жамият” қуриш ғояларини илгари суради. У инсониятни иккига — “аҳли маъни” ва “аҳли суврат”га бўлиб, уларнинг ҳар бирини чуқур таърифлаб беради”[4].

Мамлакатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев раҳбарлигида амалга оширилган аниқ мақсадли, инсон манфаатларига ҳар жиҳатдан мос бўлган тараққиёт стратегияси ва ислохотларнинг янги йўналиши, эл-юрт билан бамаслаҳат иш тутиш, одамларни тинглаш, уларнинг ҳаётий муаммоларини ҳал қилиш тажрибаси дунё ҳамжамяти олдида Ўзбекистоннинг янги мақомини, мамлакат раҳбарияти олиб бораётган сиёсатнинг янгича маъно-мазмунини намоён этмоқда. Президентимиз ташаббуслари билан мамлакатимизда 2021 йил маҳаллабай ишлаш тизими жорий этилди, 3 номдаги дафтарлар “Темир дафтари”, “Ёшлар дафтари” ва “Аёллар дафтари” шакллантирилди. Ушбу ислохотларни самарали амалга оширишда маҳалланинг роли муҳим ҳисобланади ва маҳаллабай ўрганишлар давомида кўплаб эҳтиёжманд юртдошларимиз мазкур рўйхатларга киритилиб, уларни ушбу рўйхатдан чиқариш, яшаш шароитларини яхшилаш борасида тизимли ишлар амалга оширилди.

Маҳалла ўзини-ўзи бошқариш органларининг энг ёрқин кўриниши, айти пайтда фуқаролик жамиятининг асоси ва таянчи деб тан олинганлиги билан ҳам ўзининг юксак мавқеига эга. Бугунги кунда аҳолининг кундалик ҳаёти, атроф-муҳит билан боғлиқ бўлган кўпгина йўналишлар фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари орқали ҳал этилмоқда. Улар аҳолининг ижтимоий ночор қатламларини қўллаб-қувватлаш, тегишли ҳудудда қонун ҳужжатларининг ижро этилиши устидан жамоатчилик назоратини ўрнатиш, тўйлар ва бошқа маросимлар ўтказиш бўйича тавсиялар беради, атроф-муҳитни муҳофаза этади, ободонлаштириш ва кўкаламзорлаштириш тадбирларини ўтказди, тадбиркорлик фаолияти субъектларини ташкил этади, қайта ташкил этади ва тугатади, ижтимоий инфратузилмани ривожлантиради, гузарлар барпо этади, коммунал тўловларнинг тўланишига кўмаклашади, кам таъминланган ёшларнинг никоҳ тузишида ва тўй тадбирларини ўтказишида моддий ёрдам кўрсатади, оилавий тадбиркорлик субъектларининг банкдан кредит олишига кафил бўлади”[5].

Дарҳақиқат, олиб борилган ислохотлар натижасида фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари фаолият қамрови кенгайди. Буни фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларида фуқаролар йиғини фаолиятининг асосий йўналишлари бўйича комиссиялар мисolidан ҳам кўриш мумкин. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маҳалла институтини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги

фармонида куйидаги устувор йўналишларда амалга оширилиши керак бўлган вазифалар белгилаб берилди:

– фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органлари фаолияти самарадорлигини ошириш, маҳалла институтини аҳолига энг яқин ва халқчил тузилмага айлантириш, фуқаролар йиғинларининг муштарак манфаатларини ифода этадиган уюшмага бирлашиш ҳуқуқларини рўёбга чиқариш, уларнинг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш ҳамда давлат органлари ва фуқаролик жамияти институтлари билан ўзаро ҳамкорлигини янада ривожлантириш;

– фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг жамиятдаги ўрни ва ролини кучайтириш, уларни жойларда халқнинг чинакам маслакдоши ва кўмакдошига айлантириш;

– жамиятимизда ўзаро ҳурмат, меҳр-оқибат ва ҳамжиҳатлик муҳитини шакллантиришда, миллий ва умуминсоний қадриятларни асраб-авайлаш ҳамда ривожлантиришда маҳаллаларнинг аҳамияти ва нуфузини янада ошириш;

– ёшларни маънавий бой ва жисмонан соғлом этиб тарбиялаш, уларнинг бандлигини таъминлаш, ёш авлодни мафкуравий таҳдидлардан ҳимоя қилиш, аҳолининг эҳтиёжманд қатламларини, кекса авлод вакиллари ижтимоий қўллаб -қувватлаш борасида фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг давлат ва нодавлат ташкилотлари билан ўзаро ҳамкорлигини мустаҳкамлаш;

–жамоат тартиби ва хавфсизлигини таъминлашда, ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олишда, фуқароларда қонунга ҳурмат ҳиссини кучайтиришда маҳаллаларнинг бевосита иштирокини кенгайтириш;

- фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишнинг ҳамда улар фаолиятини мувофиқлаштиришнинг самарали механизмларини жорий этиш, маҳалла тизимида ягона ҳуқуқни қўллаш амалиётини таъминлаш”[6].

Хулоса сифатида шуни таъкидлаш мумкинки, Янги Ўзбекистонда инсон кадрини юксалтиришда маҳалла институтининг ўрни алоҳида аҳамиятга эга.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон республикаси Конституцияси, Тошкент, “Ўзбекистон”нашриёти.41 - бет.
2. 2022 йил 21 март куни Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Наврўз умумхалқ байрамига бағишланган тантанали маросимдаги табриқ нутқи.
3. Қулдошев А. Фуқаролик жамияти тараққиётида Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси. Ўқув қўлланма. –Т.: Ўзбекистон, 2020. –160 б.
4. Навоий А. Ҳайратул-аброр. (Яхшилар ҳайрати). – Т.:Адабиёт ва санъат нашриёти.,1974.
5. Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси қонуни // Ўзбекистон қонун ҳужжатлари тўплами.2013.
6. <https://lex.uz/docs/3106223>

GEOMAFKURAVIY JARAYONLARDA MILLATLARARO TOTUVLIK STRATEGIYASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI

Muslima Xamrayeva,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institute,
milliy g'oya va falsafa kafedrası assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada geomafkuraviy jarayonlar sharoitida millatlararo totuvlik strategiyasining ijtimoiy-falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Globallashuv natijasida shakllanayotgan yangi g'oyaviy oqimlar, axborot ta'sirlari va madaniyatlararo muloqot tizimi milliy qadriyatlar va ijtimoiy ongga ta'sir ko'rsatayotgani ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: geomafkuraviy jarayonlar, millatlararo totuvlik, falsafiy tahlil, globallashuv, ijtimoiy barqarorlik, bag'rikenglik, milliy g'oya.

Аннотация. В данной статье рассматривается социально-философский анализ стратегии межнационального согласия в условиях геоидеологических процессов. Показано, что глобализация и современные информационные потоки оказывают значительное влияние на национальные ценности, общественное сознание и культурную идентичность.

Ключевые слова: геоидеологические процессы, межнациональное согласие, философский анализ, глобализация, социальная стабильность, толерантность, национальная идея.

Annotation. This article analyzes the socio-philosophical essence of the strategy of interethnic harmony within the framework of geo-ideological processes. It emphasizes how globalization and transnational information flows affect national values, public consciousness, and cultural identity.

Keywords: geo-ideological processes, interethnic harmony, philosophical analysis, globalization, social stability, tolerance, national idea.

Globallashuv sharoitida millatlararo totuvlik va madaniyatlararo muloqot masalalari insoniyat taraqqiyotining muhim omillaridan biriga aylandi. Bugungi kunda dunyoda kechayotgan geomafkuraviy jarayonlar — ya'ni mafkuraviy, axborotiy va g'oyaviy ta'sirlarning transmilliy darajada o'zaro aralashuvi — ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda. Ushbu jarayonlar milliy mafkura, qadriyatlar tizimi va millatlararo munosabatlarning barqarorligiga sezilarli darajada ta'sir etmoqda. O'zbekiston prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning asarlarida millatlararo totuvlik va bag'rikenglik masalalari davlat mafkurasining ajralmas qismi sifatida yoritilgan. "Yangi O'zbekiston strategiyasi"da inson qadri, diniy va milliy bag'rikenglik, ijtimoiy hamjihatlik g'oyalari jamiyat taraqqiyotining asosiy omillari sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, axborot oqimlari va global kommunikatsiya tarmoqlarining kengayishi millatlar o'rtasidagi o'zaro tushunish, bag'rikenglik va tinchlikni saqlash masalalariga yangi falsafiy yondashuvni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, geomafkuraviy bosimlar va mafkuraviy raqobat sharoitida millatlararo totuvlik strategiyasining ijtimoiy-falsafiy asoslarini tahlil qilish zamonaviy ijtimoiy fanlarning dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi. Millatlararo totuvlik nafaqat siyosiy barqarorlikni ta'minlovchi omil, balki insoniyatning madaniy va ma'naviy birligiga erishish vositasi sifatida ham qaraladi. Har bir jamiyatda millatlararo totuvlik ijtimoiy garmoniya, madaniyatlararo muloqot va o'zaro hurmat tamoyillariga tayanadi. O'zbekiston misolida bu jarayon milliy g'oya, insonparvarlik, diniy bag'rikenglik va fuqarolik birdamligi tamoyillariga asoslanadi. Shu bilan birga, global mafkuraviy ta'sirlar sharoitida millatlararo munosabatlarning barqarorligini saqlash uchun yangi strategik yondashuvlar zarur. Bu esa falsafiy fikrlash, ijtimoiy tahlil va mafkuraviy ong darajasida chuqur o'zgarishlarni talab etadi.

Shunday qilib, geomafkuraviy jarayonlarda millatlararo totuvlik strategiyasini falsafiy jihatdan anglash, uni ijtimoiy barqarorlikning asosi sifatida baholash hamda milliy va global qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash ushbu tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Geomafkuraviy jarayonlarda millatlararo totuvlik strategiyasining ijtimoiy-falsafiy tahlili bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur mavzu turli ilmiy yo'nalishlar — falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan keng o'rganilgan. Xususan, zamonaviy g'oyaviy jarayonlarni falsafiy tushinishda G'arb olimlari, jumladan, E.Said, J.Habermas, A.Giddens va S.Xantingtonning ilmiy ishlari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. E. Saidning "Culture and Imperialism" asarida madaniy ekspansiya va g'oyaviy hukmronlik jarayonlari tahlil qilinadi. U madaniyat va mafkura o'rtasidagi o'zaro aloqani ko'rsatib, global miqyosda axborot oqimlari orqali ong va tafakkurga ta'sir etish mexanizmlarini ochib beradi. Bu yondashuv geomafkuraviy jarayonlarning mohiyatini tushinishda nazariy asos sifatida alohida ahamiyatga ega.

J.Habermasning "Kommunikativ harakat nazariyasi"da esa ijtimoiy barqarorlik va totuvlikning asosiy manbai sifatida muloqot madaniyati ilgari suriladi. Unga ko'ra, ijtimoiy birlikni saqlashda insonlar o'rtasidagi ochiq, o'zaro tushunishga asoslangan muloqot hal qiluvchi omildir. Ushbu g'oya millatlararo totuvlik strategiyasini falsafiy asoslashda muhim metodologik o'ringa ega. A. Giddens o'zining "Modernity and Self-Identity" asarida globallashuv jarayonida shaxs va jamiyat o'rtasidagi identiklik muammosini ko'taradi. U geomafkuraviy ta'sirlar shaxs ongida yangi, ko'p qirrali identifikatsiya shakllarini yuzaga keltirishini ta'kidlaydi. Bu esa millatlararo totuvlikni saqlashda ijtimoiy-falsafiy tahlilning murakkabligini ko'rsatadi.

S.Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" konsepsiyasi geomafkuraviy qarama-qarshiliklarning global miqyosini ochib beradi. Unga ko'ra, XXI asrda asosiy ziddiyatlar mafkuraviy yoki iqtisodiy emas, balki madaniy-sivilizatsion tabiatga ega bo'ladi. Shu sababli, millatlararo totuvlik strategiyasi sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqotni mustahkamlovchi falsafiy mexanizmlar orqali shakllanishi lozim.

M.Quronov, A.Niyozov, B.To'laganov kabi mahalliy tadqiqotchilar esa o'z asarlarida millatlararo totuvlikni falsafiy, ijtimoiy va mafkuraviy birlik nuqtai nazaridan tahlil qilib, bu jarayonni milliy g'oya bilan uzviy bog'liq holda ko'rsatadilar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ilmiy manbalar geomafkuraviy jarayonlarning jamiyat hayotiga kirib borishi bilan millatlararo totuvlik strategiyasi yangi shakl va mazmun kasb etayotganini ko'rsatadi. Falsafiy jihatdan bu jarayon ijtimoiy ongda "global identiklik" va "milliy o'zlik" o'rtasidagi muvozanatni topishga qaratilgan. Shunday qilib, mavjud adabiyotlar asosida geomafkuraviy ta'sirlar sharoitida totuvlik strategiyasining muvaffaqiyati milliy qadriyatlar, madaniy meros va global muloqot tamoyillarining uyg'unligiga bog'liqligi ilmiy asoslangan xulosa sifatida shakllanadi.

Geomafkuraviy jarayonlarning ijtimoiy-falsafiy tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi davrda global mafkuralar va g'oyalar inson tafakkuri, ijtimoiy ong hamda millatlararo munosabatlarga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Internet, ommaviy axborot vositalari, raqamli platformalar va global madaniyat vositalari orqali shakllanayotgan yangi mafkuraviy oqimlar milliy qadriyatlar va millatlararo hamjihatlik tizimiga yangi sinovlarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, geomafkuraviy ta'sirlar ko'p millatli jamiyatlarda bag'rikenglik, madaniy o'zaro hurmat va ijtimoiy birdamlik tizimini mustahkamlash yoki zaiflashtirishga xizmat qiluvchi omilga aylanmoqda. Shu sababli, millatlararo totuvlik strategiyasini falsafiy tahlil qilish jarayonida uning nafaqat siyosiy, balki axloqiy va ma'naviy mohiyatini ham chuqur ochib berish muhimdir. O'zbekiston misolida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, millatlararo totuvlik mamlakat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida shakllangan. Yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari birgalikda tinch-totuv yashab, yagona fuqarolik identifikatsiyasi asosida jamiyat barqarorligiga hissa qo'shmoqda. Bu jarayonning muvaffaqiyatli kechishida "Millatlararo totuvlik va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi", "Do'stlik uylari" faoliyati, shuningdek, Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Inson qadri uchun" g'oyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu siyosiy-falsafiy konsepsiya jamiyatda milliy o'zlikni

saqlagan holda, boshqa millat vakillarining qadri va huquqlarini hurmat qilishga asoslangan yangi ijtimoiy ong modelini shakllantiradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, geomafkuraviy jarayonlarda millatlararo totuvlik strategiyasi uch asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, axborot mafkurasi barqarorligini ta'minlash orqali milliy qadriyatlarni global axborot makonida to'g'ri targ'ib etish zarur. Bu yo'nalish yoshlar ongida axborot immunitetini shakllantirish, soxta mafkuraviy ta'sirlarga qarshi tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni talab etadi. Ikkinchidan, madaniyatlararo muloqot va ta'lim tizimi orqali totuvlik g'oyalarini barqaror ijtimoiy qadriyatlarga aylantirish muhim. Bu borada ta'lim, san'at va OAV orqali bag'rikenglik, insonparvarlik va birgalikda yashash madaniyatini shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega. Uchinchidan, milliy identiklik va global ong uyg'unligini ta'minlash orqali jamiyatda ochiqlik va o'zaro ishonch muhitini yaratish zarur. Falsafiy nuqtai nazardan, millatlararo totuvlik strategiyasi jamiyatning ma'naviy integratsiyasi, g'oyaviy uyg'unligi va ijtimoiy barqarorligining asosiy manbai hisoblanadi. U faqat siyosiy mexanizm sifatida emas, balki inson ongini shakllantiruvchi, ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlovchi jarayon sifatida qaraladi. Shu bois geomafkuraviy bosimlar kuchaygan davrda totuvlik strategiyasi milliy mafkura bilan uyg'unlashgan falsafiy konsepsiya sifatida shakllanishi lozim.

Geomafkuraviy jarayonlar sharoitida millatlararo totuvlik strategiyasining ijtimoiy-falsafiy tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy dunyoda millatlararo munosabatlar faqat siyosiy mexanizmlar orqali emas, balki chuqur falsafiy, ma'naviy va axloqiy tamoyillar asosida boshqarilishi lozim. Mafkuraviy globallashuv inson tafakkurini o'zgartirar ekan, milliy qadriyatlar va madaniyatlararo muloqot o'rtasida yangi muvozanat shakllanmoqda. Shu nuqtai nazardan, totuvlik strategiyasi jamiyatning ichki uyg'unligi va barqarorligini ta'minlovchi asosiy falsafiy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, millatlararo totuvlikni ta'minlash faqat tolerantlik siyosati bilan emas, balki inson qadri, madaniy merosni e'zozlash va g'oyaviy mustaqillik tamoyillari bilan uyg'unlashgandagina samara beradi. "Inson qadri uchun" g'oyasi, bag'rikenglik va millatlararo do'stlik siyosati bu jarayonning falsafiy mohiyatini ifodalaydi. Totuvlikni saqlash, bir tomondan, milliy o'zlikni himoya qilsa, boshqa tomondan, xalqaro miqyosda ochiqlik va hamkorlikni rivojlantiradi.

Shunday qilib, geomafkuraviy jarayonlarda millatlararo totuvlik strategiyasi quyidagi ilmiy xulosalarga asoslanadi:

birinchidan, u global mafkuraviy bosimlarga qarshi ma'naviy immunitetni shakllantiruvchi mexanizm sifatida qaraladi;

ikkinchidan, totuvlik strategiyasi jamiyatdagi madaniy xilma-xillikni saqlagan holda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi;

uchinchidan, falsafiy yondashuv asosida shakllangan totuvlik modeli insonparvarlik, muloqot madaniyati va g'oyaviy barqarorlikni ta'minlaydi.

Natijada, geomafkuraviy bosimlar kuchaygan davrda millatlararo totuvlik strategiyasini chuqur falsafiy asoslash jamiyatda tinchlik, barqarorlik va g'oyaviy mustahkamlikni ta'minlashning muhim sharti sifatida e'tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – 464 б.
2. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций и переустройство мирового порядка. – Москва: АСТ, 2003. – 603 с.
3. Саид Э. Культура и империализм. – Санкт-Петербург: Symposium, 2006. – 512 с.
4. Хабермас Ю. Теория коммуникативного действия. В 2 т. – Москва: Практикс, 2000. – Т.1. – 376 с.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR METAMETODIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY TALQINI

Orif G‘aniyev,
Jizzax Davlat Pedagogika universiteti,
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning metametodik kompetensiyasini rivojlantirish masalasi nazariy jihatdan tahlil qilinib, uning mazmuni, tuzilmasi va pedagogik ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, metametodik kompetensiyani shakllantirishda metakognitiv yondashuv, refleksiya va kompetensiyaviy yondashuvning o‘rni asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak o‘qituvchi, metametodik kompetensiya, metakognitiv yondashuv, refleksiya, kasbiy rivojlanish, pedagogik faoliyat, ochiqlik, yaxlitlik.

Аннотация. В статье представлен теоретический анализ проблемы развития метаметодической компетенции будущих учителей. Раскрываются её сущность, структура и педагогическое значение. Обоснована роль метакогнитивного подхода, рефлексии и компетентностного подхода в процессе формирования метаметодической компетенции педагогов.

Ключевые слова: будущий учитель, метаметодическая компетенция, метакогнитивный подход, рефлексия, профессиональное развитие, педагогическая деятельность, открытость, целостность.

Annotation. This article provides a theoretical analysis of the issue of developing the metamethodical competence of future teachers, revealing its content, structure, and pedagogical significance. In addition, the role of the metacognitive approach, reflection, and the competence-based approach in the formation of metamethodical competence is substantiated.

Keywords: future teacher, metamethodical competence, metacognitive approach, reflection, professional development, pedagogical activity, openness, integrity.

Dunyoda yuz berayotgan global jarayonlar ta‘lim va tarbiya makonini jadal takomillashtirish, davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlari va manfaatlarini hisobga oladigan ta‘lim maqsadlarini aniqlashni talab qilmoqda. Shu munosabat bilan oliy ta‘lim muassasalarida ta‘limning asosiy natijalariga qaratilgan va talabalar o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan universal o‘quv faoliyatini loyihalash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ta‘lim tizimida ta‘lim oluvchilarni rivojlantirish, birinchi navbatda, ta‘lim va tarbiya jarayonining invariant asosini tashkil qiluvchi universal (metametodik) o‘quv harakatlarini shakllantirish orqali ta‘minlanadi. O‘quvchilar tomonidan umumrivojlantiruvchi o‘quv faoliyatini, ya‘ni yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni mustaqil muvaffaqiyatli o‘zlashtirish ushbu jarayonni samarali tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, hamda “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlarida, “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti asosiy qoidalar, oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”da o‘quvchilarda universal bilimlarni shakllantirish orqali dunyoni yaxlit tasavvur etish, ijodiy va tanqidiy fikrlashga o‘rgatish, o‘quvchi shaxsini o‘zini o‘zi rivojlantirish, o‘z imkoniyatlarini namoyon etish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan [1; 2].

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta‘lim siyosatiga ko‘ra pedagogik ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish hamda kadrlarni xalqaro standartlar talablariga monand kasbiy shakllantirishga qaratilgan izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Pedagog hodimlarning

majburiyatlari bilan bir qatorda pedagogik faoliyatni amalga oshiruvchi xodimlarning maqomi va faoliyatining kafolati ham ijtimoiy ham qonuniy qo'llab-quvvatlanishi belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida "Pedagog hodimlarning maqomi jamiyat va davlat tomonidan tan olinadi. Pedagog hodimlar ijtimoiy qo'llab-quvvatlanadi, o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi, ularning ijtimoiy maqomi va obro'sini oshirish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi, shuningdek o'z huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun kafolatlar beriladi..." deb belgilab qo'yilgan. Bundan ko'rinadiki, Respublikamizda ta'limni sifatli tashkil etish, o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni yuqori darajada shakllantirish hamda amaliy faoliyatda qo'llay olishga o'rgatish uchun soha mutaxassislariga ijtimoiy-huquqiy imkoniyatlar berilgan.

Hozirgi texnika va texnologiya rivojlangan davrda ta'lim tarbiya berish, pedagogik faoliyatni amalga oshirishda o'qituvchidan nafaqat kommunikativ kompetentlik va bilimdonlikni balki ta'limga psixologik yondashuv bilan bir qatorda fanlar integratsiyasini amalga oshirish talab etilmoqda. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashda talabalarning fanni o'qitishda metodik tayyorgarligi yuzasidan amaliy faoliyatga tayyorlash kabi maqsadga qaratilgan qobiliyatlar shakllantiriladi. Albatta bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi pedagogik faoliyatni amalga oshirishda yetakchi omil hisoblanadi.

Metod - umumiy ma'noda maqsadga erishish, ma'lum bir vazifaning bajarilish usulidir: borliqni nazariy yoki amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisidir [3]. Tushunishimizcha, metodik tayyorgarlik mavzu doirasidagi tushunchalarni o'rgatishga, mavzu yuzasidan qo'yilgan ta'limiy, tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu degani bir darsga mo'ljallangan materialni o'quvchilarga tushunarli yetkazib bera olishda qo'llaniladigan bir qancha usullar yig'indisini anglatadi.

Metodika esa ana shunday usullar, metodlar va vositalar haqidagi fan hisoblanadi. Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik yuzasidan fanlar bo'yicha metodikalarni o'qitish yo'lga qo'yilgan. Uning negizida pedagogik faoliyatni amalga oshirishda metodik kompetentlik shakllantiriladi. Metodik kompetentlik - pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash qobiliyatining shakllanganligidir.

Metametodika - sifat jihatidan yangi ta'lim natijasini olishga qaratilgan bo'lib, umuminsoniy bilim va ko'nikmalarning ichki variantlarini ajratib ko'rsatish orqali ta'lim mazmunini optimallashtirish uchun imkoniyatlar va vositalarni taqdim etadi, ta'lim faoliyatining davomiyligida yangi ma'lumotlarni qayta ishlash va yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun samarali qo'llaniladi.

Ta'lim-tarbiyada o'quv jarayoniga metametodik yondashish shaxsning rivojlanishi jarayonida har bir o'quv fanining vazifalarini aniq taqsimlashga asoslangan, ta'limda yaxlit rivojlanish muhitini yaratishni o'z ichiga oladi. Bundan kelib chiqadiki, metametodika har bir tushunchaning o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlash uchun mavzuni o'qitish usullarini integratsiyalash asosida birlashtirishga asoslangan. A.I.Gersen nomli RDPU qoshidagi umumiy ta'lim ilmiy tadqiqot instituti direktori, pedagogika fanlari doktori, professor I.M.Titovanning nazariy yondashuviga ko'ra, metametodika quyidagi asosiy prinsiplarni o'z ichiga oladi:

-Yaxlitlik - butun ta'lim jarayonini nazariy-amaliy bilimlar beradigan o'quv akademik fanlar tarkibini o'zaro bog'lash orqali turli mavzular bo'yicha ma'lumotlarni o'zlashtirish va qayta ishlash usullarini birlashtirish, o'quv dasturlarining uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash, g'oyalar va tushunchalarni shakllantirishda yaxlit yondashuvni o'z ichiga olgan uslubiy tizim doirasida ko'rish demakdir;

- Gumanistik yo'naltirilganlik - o'quv jarayonida ta'limning asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan ta'limning tabiat bilan uyg'unligi prinsipini sub'yektiv munosabatlarning amalga oshirilishini, bo'lajak o'qituvchini jismoniy, ijtimoiy va ma'naviy fazilatlarini o'zida

mujassamlashtiradigan mutaxassis sifatida tushunish, unga nafaqat ishtirokchi, balki ta'lim jarayonining harakatlantiruvchi kuchi sifatida qarash;

- Bilimga qadriyat sifatida qarash – bolaning psixofizik, ma'naviy-ijodiy kuchlarining faol va maqsadli rivojlanishi tizimi sifatida badiiy va estetik siklning tarkibi va mazmuni yuzasidan bilimlarni o'zaro birlashtirib, o'quv fanlari materiallarini tanlash va qiymatini aniqlash;

- Ochiqlik va o'z-o'zini rivojlantirish – ma'lumotlarning doimiy yangilanishi, innovatsion usullardan foydalanish, ta'lim-tarbiya maskanini madaniyat, fan markazlari bilan doimiy bog'lash, ta'lim muassasasi jamoasining imkoniyatlari va xususiyatlariga mos keladigan maqsadlarni belgilash va ularga erishish, o'quvchilarning o'quv va ijodiy ehtiyojlarini oshirish jarayonlari.

Maktab ta'limi maqsadlariga erishish uchun har bir o'quv predmetining o'ziga xos imkoniyatlarini yagona tarzda amalga oshirish, har bir bolaning to'liq rivojlanishi va o'rganishini ta'minlaydigan aniq o'qitish metodikalari yetarli emas. Ushbu muammoni hal qilish o'quv jarayoniga metametodik yondashuvni joriy etishni talab qiladi, bu ta'limda yaxlit rivojlanish muhitini yaratishni o'z ichiga oladi. Metametodik yondashuv barcha asosiy fanlarni o'qitishda o'quvchi uchun yagona tashkiliy strategiya va rivojlanish dasturini asoslash va yaratish, shuningdek, maktab fanlarining mazmunini integratsiyalashi zarur deb hisoblaydi. Shunday qilib, pedagogik faoliyatni amalga oshirish, ta'lim - tarbiya jarayonida o'quvchilarga bilimlarni o'zlashtirishida eng qulay va to'g'ri bo'lgan yondashuvlarni amalga oshirish uchun bo'lajak o'qituvchining metametodik kompetensiyasini shakllantirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Olimlarning ta'kidlashicha, metametodika - didaktikaning bir qismidir, chunki metametodikani amalga oshirish jarayonida biz pedagogika va didaktikaning umumiy qonuniyatlaridan foydalanamiz va uni "ko'p fanli o'quv dasturining shaxsiy rivojlanishi", deb ta'riflanadi. Ushbu ta'rif faqat ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish jarayonini aks ettiradi va predmetni o'qitish, uni ta'riflashga o'rgatish jarayoni aks ettira olmaydi. Amaliy jarayonda, metametodikani fan metodlarini integratsiya va differensiya sifatida tavsiflash taklif etiladi. "Metametodika" tushunchasining ikkinchi izohi turli xil fanlarni o'qitishning metametodik yondashuvini tavsiflash bilan bog'liq. Metametodik yondoshish - bu ta'limga integratsiya g'oyalari amalga oshirish va boshqa tomondan "har bir o'quv fanining rivojlanayotgan potensialini ro'yobga chiqarish" degan xulosaga kelishdi. Ammo, metametodikani o'rganish uchun metametodik yondashuv sifatida ko'rib chiqish, fikrimizcha asosli emas. Agar biz "metametodika" so'zidan "meta"- ni olib tashlasak, unda "biror narsani o'qitishga metodik yondoshish" ni tushinamiz. Bundan tashqari, "o'qitishga yondoshish" atamasi nazariy o'rganish strategiyasini, ya'ni metodologiyaga oid fanning qaysi g'oyalari hisobga olinishiga qarab ishlab chiqiladigan va shakllantiriladigan eng umumiy metodologik bazani belgilaydigan didaktik kategoriya sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

Bugungi kunga qadar, olimlar pedagogik kompetensiyaga asoslangan o'nlab tadqiqotlarni amalga oshirib kelmoqda, bu quyidagilarga xizmat qiladi:

- O'quv faoliyatining tizimli amalga oshirilishini ta'minlaydi;
- O'quv faoliyatining zamon talablariga mos tarzda amalga oshirilishiga xizmat qiladi;
- O'quvchilarda kreativlik va ijodiy faoliyatni amalga oshirishga o'rgatadi;
- O'quv jarayonining voqeliklarini har tomonlama aks ettirishni ta'minlaydi;
- Aniq fanlarni o'qitishda o'quvchilarning shaxsiga sezilarli rivojlanishiga erishish imkonini beradi.

Ushbu fikrlardan kelib chiqib, olimlar faqat bir tomonlama yondashuvni amalga oshirishganligini ko'rishimiz mumkin. Fan usullarini zamonaviy rivojlantirish yutuqlarini (boshqa sabablar qatori) samarali amalga oshirish ko'p jihatdan ularning izchilligi, va turli xil akademik fanlarni o'rganish jarayonida yuzaga keladigan o'quvchiga ta'lim, rivojlanish ta'sirining o'ziga xos xususiyatlarini yetarlicha chuqur ko'rib chiqilishiga to'sqinlik qiladi. Maktab ta'limi maqsadlariga erishish uchun o'qitishning o'ziga xos uslublari, har bir fanning o'ziga xos imkoniyatlarini hisobga olgan holda, har bir bolaning to'liq rivojlanishi va o'qishini

ta'minlaydigan umumiy usullar mavjud emas. Ushbu muammoni hal qilish o'quv jarayoniga yangicha yondashuvni talab qiladi. Bu o'qitish yaxlit rivojlanish muhitini yaratishni o'z ichiga oladi - barcha asosiy fanlarni o'qitishda o'quvchining rivojlanishi uchun yagona tashkiliy-faoliyat strategiyasi va dasturini asoslash va qurish, shuningdek, maktab fanlari tarkibiga qo'shilish, lekin tashqi emas (ilgari qabul qilinganidek). Biz ushbu yondashuvni *metametodik kompetensiya* deb nomladik. Metametodik yondashuvning dolzarbligi - bir tomondan, bolani atrofdagi jamiyatga yo'naltirish (faoliyat darajasida), ikkinchi tomondan, bolani va o'z-o'zini bilishni rivojlantirish zarurati bilan bog'liq.

Shu o'rinda:

Ta'limda metametodik (meta-fan) yondashuvining istiqbollari, imkoniyatlari va mohiyatini tushunish uchun biz uni uning asosini tashkil etuvchi komponentlar orqali ko'rib chiqamiz. Ko'pgina tushunchalarning terminologik xususiyati (meta-bilim, meta-ko'nikma, meta-qobiliyat) boshqa so'zlarga yunoncha "meta"- prefiksini qo'shishdan hosil bo'lgan.

Katta Sovet ensiklopediyasida quyidagilarni o'qiyamiz:

1. "Meta" (yunoncha meta - o'rtasida, keyin, orqali), biror narsaga ergashish, boshqa narsaga o'tish, holatni o'zgartirish, o'zgarishni bildiruvchi qo'shma so'zlarning bir qismi.

2. "Meta" biror-bir narsaning chegarasidan tashqariga chiqish (metagalaktika, metafizika) degan ma'noni anglatadi.

Metametodika o'zining rivojlanishining dastlabki bosqichida uning mohiyatini ochib beruvchi quyidagi ta'rifni oldi: Metametodika - bu didaktikaning o'rnini egallaydigan yangi ta'limiy tartib-qoida emas, balki funksional maqsad va tashkiliy tarzda integratsiya uchun asoslarni aniqlash va samarali foydalanishga yo'naltirilgan fan usullarining o'zaro aloqasidir. Metametodika har birining o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlash uchun mavzu usullarini birlashtirishga asoslangan. Uning qurilishi muayyan fanlarning metodlari tarkibiga (bir xil atamada berilgan konsepsiyalar ma'nolari o'rtasida bog'liqlikni o'rnatish orqali) va faoliyat sohalarida "falsafiy darajaga" chiqishni o'z ichiga oladi. Pedagogika fanida ushbu tushuncha metodologik va nazariy hodisa sifatida endi shakllanayotgan kategoriyalardan biridir. Pedagogikada metametodik yondashuv, metametodik kompetensiya to'g'risida fikr yuritish mumkin. Ta'lim-tarbiya nazariyasida, tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra, metamavzu ilgari hech qachon bo'lmagan tubdan yangi narsa emas, turli davrlarda ko'plab buyuk allomalar ushbu yondashuvni an'anaviy ta'lim tizimiga kiritish zarurligi va ahamiyati haqida gapirishgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ta'limda sinf-dars tizimi davom etayotgan sharoitda o'quvchi shaxsini rivojlantirishning yagona, tashkiliy va faoliyat strategiyasini yaratish murakkab vazifa bo'lib, keng doiradagi mutaxassislarini jalb qilishni talab qiladi. Metametodik kompetensiyani shakllantirish, oliy ta'lim muassasalarida innovatsion ta'lim muhiti sharoitida talabalarda metametodik kompetensiyani rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishning amaliy-texnologik tizimi va didaktik ta'minoti, metametodik kompetensiyasini takomillashtirish tamoyillarini ishlab chiqish bo'lajak o'qituvchilar pedagogik faoliyatining samaradorligi ortishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. 08.10.2019.

2. "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019.

3. Нурманов А.Т., С.Б. Королева, Д.С. Саъдуллаев Й.В. Тураходжаева. // Методика преподавания русского языка: Текст: Учебник. - Т.: Издательство «ЗЕБО ПРИНТ», 2022. - 256 с.

GIBRID ESTETIKA: PLASTIK XIRURGIYA VA RAQAMLI GO'ZALLIK

Gulchehra Umaraliyeva,
O'zDSMI katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy go'zallik va uning evolyusiyasi, plastik xirurgiya va uning insonga estetik ta'siri, raqamli texnologiya ta'sirida paydo bo'layotgan "gibrid estetika" tushunchasi, tabiiy go'zallikni o'rnini egallayotgan sun'iylik standartlari, individuallikni yo'qolishi va ularning inson salomatligiga va psixologiyasiga ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar: Bioestetika, xarakat shakllari, go'zallik, estetik faoliyat, gibrid estetika, plastik xirurgiya, genetik morfotip.

Аннотация. В статье рассматриваются современная красота и её эволюция, пластическая хирургия и её влияние на эстетику человека, концепция «гибридной эстетики», возникшая под влиянием технологий борьбы с раком, искусственные стандарты, заменяющие естественную красоту, индивидуальные потери и их влияние на здоровье и психологию человека.

Ключевые слова: Биоэстетика, формы движения, красота, эстетическая деятельность, гибридная эстетика, пластическая хирургия, генетический морфотип.

Annotaton. The article examines modern beauty and its evolution, the influence of plastic surgery on human aesthetics, and the concept of "hybrid aesthetics," shaped under the impact of technological progress. It also discusses how artistic and digital standards replace natural aesthetic beauty, as well as the loss of individual features and their effects on human health and psychology.

Key words: bioaesthetics, movement forms, beauty, aesthetic activity, hybrid aesthetics, plastic surgery, genetic morphotype.

Bugungi zamonaviy go'zallik tushunchalari ma'lum bir sabablarga ko'ra sun'iy standartlar bilan bog'liq xolda rivojlanib, avj olib bomoqda. Shu kungacha inson go'zalligi va tabiiyligi chiroyli simmetriya bilan bog'liq holda edi, inson go'zalligii uning boshqalarga o'xshamagan belgilari, terining toza teksturasi va proporsiyalarga qarab baholasa, hozirgi zamonaviy go'zallik sun'iy texnologiyalar asosida va turli raqamli muxitlar asosida tashkil topmoqda.

Instagram filtrlari, TikTok lenzalari va AI-generated avatarlar insonning vizual qabulini qayta programmalashga kirishdi. Mana shunday sabablar oqibatida ghzallikka munosabat bilan estetikada yangi fenomen paydo bo'ldi: uni "gibrid estetika" deb atash mumkin — plastik xirurgiya va raqamli go'zallikning birlashuvi natijasida yaratilgan yangi, sun'iy-tabiat go'zalligi.

"Go'zallikning asosiy, hal qiluvchi xususiyatini nomlashning iloji yo'q. Bu hamma joyda uchraydigan go'zallikning universalligi bilan bog'liq. Ammo go'zallikda umumiy va xususiy o'rtasida o'ziga xos bog'liqlik mavjud; Biz "go'zal" degan yagona tushuncha bilan mutlaqo boshqa hodisalar va obektlarni ta'riflaymiz, ularning har biri o'ziga xos xususiyatga va ularni go'zal deb atashga imkon beradigan yagona umumiy xususiyatga ega. Nihoyat, go'zallik ko'plab estetik bo'lmagan ma'nolar bilan bog'liq: yoqimli, foydali va boshqalar. Go'zallikni estetikaning boshqa shakllari - fojiali, kulgili - bilan taqqoslash go'zallikning ichki izchilligini, uning bir o'lchovlilikini ochib beradi. Shuning uchun, boshqa toifalar bilan bunday taqqoslash bizga go'zallikning mohiyatini aniqroq tushunishga imkon beradi."

Antik davr faylasuflari go'zallikni dunyoning o'zida, yulduzli osmonda, kosmosda izlashgan. Aynan shu tushuncha koinotni, dunyoni va bir vaqtning o'zida go'zallik va uyg'unlikni anglatardi. Moddiy dunyoning go'zal tuzilishi, uni o'rganish usullarini kashf etish, uning qonunlarini tushunish, samoviy jismlarning harakatlarini bashorat qilish qobiliyati – bular go'zallikni belgilovchi narsalardir. Yer yuzida esa inson mehnat va ishlab chiqarish asboblari

yasadi va asbob qanchalik yaxshi loyihalashtirilgan bo'lsa, uning shakli va vazifasi, maqsadi o'rtasidagi bog'liqlik shunchalik uyg'unroq, shunchalik go'zalroq ko'rinishini kashf etdi. Asboblarning dunyoni estetik o'rganishning birinchi ob'ektlariga aylandi. Russ faylasufi Y. Borevning fikriga ko'ra, "qabila yoki urug' uchun foydali, muhim, orzu qilingan narsa, kuch va boylik ramzi go'zal deb qadrlangan. Shunday qilib, dastlab go'zallik haqiqatan ham inson hayotida va dunyo bilan to'qnashuvda foydali, zarur va zarur bo'lgan narsa bilan bog'liq edi. Go'zallik inson tomonidan ob'ektning tabiiy xususiyatlari va insonning ijtimoiy ehtiyojlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida yaratilgan. Mana Y. Borev (1981) tomonidan taqdim etilgan go'zallikning birinchi ta'rif: hodisaning eng keng ijobiy ijtimoiy ahamiyati, uning insoniyat uchun, ijtimoiy rivojlanish maqsadlari uchun qiymati go'zal deb hisoblanadi. Go'zallikni bunday tushunish bizga muqaddas savolga javob berishga imkon beradi: go'zallik dunyoni qutqaradimi? Bu savol nafaqat F.M. Dostoevskiy qahramonlari tomonidan berilgan; F. Shiller ham unga aniq va ijobiy javob bergan. Dunyoni go'zallik saltanatiga aylantirish degani uni insoniylashtirish, eng yuqori insoniy ideallarning g'alabasiga erishish demakdir".

Bugungi kunda go'zallikning boshqa ta'riflari ham mavjud bo'lib, ular nafaqat turli mualliflarning asosiy birligini ularning tushunchalarini insoniy ideallar bilan bog'lashlarini, balki yuqorida aytib o'tilgan haqiqiy qiyinchiliklarga ishora qiluvchi muhim farqlarni ham ochib beradi. A.A. Radugina (1988) tomonidan tahrirlangan "Estetika" darsligida quyidagi ta'rif berilgan: go'zallik - bu hodisani mukammallik nuqtai nazaridan, yuqori estetik qiymatga ega sifatida tavsiflovchi estetik kategoriya. I. I. Malyshev go'zallik ta'rifini mukammal yaxshilik bilan bog'laydi. E. Yakovlev (Estetika) go'zallikni "mukammallik" tushunchasi bilan ham bog'laydi: go'zallik to'liq, uyg'un deb ta'riflanishi kerak. U ijobiy mukammallikni, tabiat, jamiyat va ma'naviy hayotdagi rivojlanish tendentsiyasini eng to'liq ifodalaydi.

O. Krivtsun "Estetika" asarini o'qib, muallif estetika va badiiylikni belgilovchi nuqtai nazarga ega degan xulosaga keladi: go'zallik estetik jihatdan ifodali ko'rindigan va badiiylik tushunchasining sinonimi bo'lib xizmat qiladigan hamma narsaga o'xshaydi. Bunday g'oyalar ko'plab tadqiqotchilarni go'zallik yagona chinakam estetik kategoriya va qolganlarning barchasi gibrid kategoriyalar degan fikrga undaydi. Bu yerda muallif estetika va badiiylik o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishini muvaffaqiyatli qilmaydi, lekin keyingi butun bayon uning estetika va badiiylikni va shunga mos ravishda go'zallik ta'rifini aniqlaganidan dalolat beradi.

M. Kagan o'zining "Estetika falsafiy fan sifatida" (1997) asarida barcha kategoriyalarning ta'rifini real va ideal o'rtasidagi munosabatlarga bog'laydi: real va ideal o'rtasidagi bu umumiy turdagi munosabatlar ularning o'zaro bog'liqligi yoki aksincha, nomuvofiqlik, qarama-qarshilikdir. Voqelikka bo'lgan o'z estetik munosabatimizni, shuningdek, ajdodlarimizning estetik tushunchalarini o'zida mujassam etgan butun global badiiy merosni tahlil qilsak, inson o'zi idrok etgan ob'ektning tashqi ko'rinishi, tuzilishi va shaklining o'z idealiga mos kelishini sezganda, ob'ekt go'zal bo'lib qolishini ko'rishimiz mumkin. Biroq, inson ob'ektda o'z idealiga zid bo'lgan narsani ko'rganda, ob'ekt xunuk va deformatsiyalangan ko'rinadi. Bundan tashqari faylasuf insonning kelib chiqishi ham go'zallik tushunchasining nisbiy ekanligini ko'rsatishini ta'kidlaydi. Quyidagi fikrlari orqali har bir irqning, millatning, xalqning g'zallik haqidagi qarashlari o'rtasida farq borligini izohlaydi, "Shuning uchun insoniyat tarixida yagona, izchil estetik norma yo'q - bir irqda go'zallikning ajralmas qismi bo'lgan xususiyatlar boshqa irqda xunuklik namunalari aylanadi. Masalan, teri rangi: xristian mifologiyasida farishtalar oqargan yuzli, shaytonlar esa qora rangda edi, ammo Afrikada shaytonlar tasvirlanganida, ular... oq bo'lib chiqdi. Xuddi shunday, tubjoy amerikaliklar uchun "oqargan yuzli" tushunchasi "xunuk" bilan sinonim edi, yevropaliklar esa sariq terini yoqimsiz deb bilishadi - bu kasallik bilan bog'liq. Shunga ko'ra, yuz tuzilishining barcha xususiyatlari - yonoq suyaklarining kengligi, ko'zlarning shakli, lablarning qalinligi, burun shakli - har bir irq odamlari tomonidan estetik jihatdan har xil baholanadi va inson go'zalligining yagona standarti yo'q. Faqat irqchilar o'z irqidagi go'zallik xususiyatlarini mutlaq deb biladilar, boshqa irqning yuz va tana shakllari va ranglarini "obyektiv ravishda xunuk" deb e'lon qiladilar, ammo bunday pozitsiya haqiqiy ilmiy

obektivlikdan qanchalik uzoq ekanligi aniq”. Xuddi shu sababga ko’ra, inson go’zalligi ham milliy miqyosda o’zgaruvchan bo’lib chiqadi: D. Ushinskiy haqli ravishda ta’kidlaganidek, "har bir millatning o’z inson ideali bor”. Bu idealga muvofiqlik gruzinlar va estonlar, ispanlar va shvedlarning o’ziga xos go’zalligini belgilaydi. Bir millat ichidagi turli sinflarning ideallari turlicha bo’lgani uchun, inson go’zalligi ham sinfiy farqlovchi xususiyatlarga ega, buni N.Chernishevskiy ishonchli tarzda ko’rsatib bergan: dehqonlar, yuqori jamiyat va savdogarlar orasida turli xil “yaxshi hayot tushunchalari” (ya’ni ideallar) rivojlangan va ularning har birida ayolda go’zal deb hisoblangan narsa bu idealga mos keladi va unga zid bo’lgan narsa xunuk deb hisoblanadi. Fransuz estetikasi Jan-Maksim Guyau ham biroz keyinroq shunga o’xshash xulosaga kelgan.

Inson go’zalligining ijtimoiy ideallarga bog’liqligi, ayniqsa, uning tarixiy o’zgaruvchanligini tahlil qilish orqali aniq namoyon bo’ladi. Har bir davrda inson go’zalligining badiiy modellarini yaratgan san’at bu naqshni tushunish uchun boy material beradi. “Qadimgi dunyo feodalizm bosqini ostida qolib ketgach, inson go’zalligi xristianlikning mistik ideali ta’sirida tubdan qayta tasavvur qilindi. Qadimgi yunonlar insonning jismoniy go’zalligiga va uning qalbining xotirjam ulug’vorligi qanday qilib uyg’un va xotirjam jismoniy ko’rinishda ifodalanganiga qoyil qolishdi. Biroq, xristian astsetizmi barcha jismoniy narsalarni gunohkor va pastkash deb tan olishga olib keldi. Natijada, inson go’zalligi ruhning o’zini o’lik qobiqdan ozod qilish va undan tashqariga chiqish qobiliyati bilan belgilana boshladi. Endi inson go’zalligi haqidagi butparast tushunchalar yolg’on deb e’lon qilindi va ularning inkor etilishi hatto qadimgi san’at yodgorliklarining butunlay yo’q qilinishiga olib keldi. Biroq, bir necha asrlar o’tdi va Uyg’onish davrida shakllangan yangi estetik qarashlar endi vahshiy va vahshiy deb hisoblangan o’rta asr qarashlari bilan taqqoslandi (shuning uchun, aytmoqchi, o’rta asr san’ati uslubining nomi – “Gotika”, ya’ni gotlar, vahshiylar, vahshiylar san’ati), chunki Uyg’onish davri odamlari printsipial jihatdan o’rta asrlardagi ajdodlari kabi fikr yuritishgan: ular soddalik bilan o’z didlarini, estetik g’oyalarini yagona haqiqiy deb hisoblashgan va boshqa qarashlar va didlarni yolg’on deb hisoblashgan”.

Zamonaviy go’zallikning yana bir tomoni shundagi, inson yuz tuzilishini o’zgartirish orqali bunday operatsiyalar insonga o’zini qoniqtirish, o’z-o’zini qadrlash hissini ham taqdim qiladi. Inson o’zini yaxshilash, ideal yuzga erishish orqali psixologik qoniqishga ega bo’ladi. raqamli go’zallik ushbu jarayonni yanada qiyinlashtiradi, sababi filtrlar, AI-generated beauty va VR/AR avatarlar inson yuzini virtual standartga moslashtiradi. Ko’pchilik insonlar o’zlarini shu “yaxshilangan” versiyada ko’rib, real yuzini qoniqarsiz deb hisoblay boshlaydi. Bu esa insonda individuallikka bo’lgan intilishni yo’qotadi. Inson yuzi texnika taraqqiyoti taklif qilgan “ideal” formalarga moslashtiriladi. Shu tariqa tabiiylik estetik meyor sifatida sun’iy standartlar bilan almashmoqda. Hozirgi zamonda inson uchun “tabiiy yuz” emas, balki filtrlar, operatsiya qilingan yoki avatar standartlariga mos yuz “ideal” hisoblanadi.

Plastik xirurgiyaning amaliyoti va raqamli texnologiyalar insonning chiroy va yuz proporsiyalarini qayta yaratadi. Tabiiylik exozirgi kunda sun’iylik bilan almashmoqda, va bu jarayonda inson o’z estetik qadriyatlarini sun’iy standartlarga bog’laydi. Lekin gibrid estetika ijobiy imkoniyatlarni ham taqdim etadi. Personallashtirilgan plastik operatsiyalar, avatarda sinov va individual yuz dizayni insonga o’zini yangilash va baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, sun’iy go’zallik orqali insonning psixologik holati va o’zini qabul qilish qobiliyati ham o’zgaradi.

Gibrid estetikaning bir qancha salbiy tomonlari bo’lib, “bir xil yuzlar” sindromi — barcha yuzlar sun’iy standartlarga moslashganda individuallik yo’qoladi. Raqamli filtrlar va AI-generated yuzlar insonning real yuzini kam baholashga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, tanani qabul qilish qobiliyati pasayadi, mimika kamayadi va inson o’zini sun’iy ideallar asosida baholashga odatlanadi. Plastik xirurgiya va raqamli go’zallikning bu ta’siri ijtimoiy va psixologik oqibatlariga ham olib keladi: inson o’z tabiiy go’zalligi va individuallig’ini qadrlamay qo’yadi, sun’iy standartlar orqali o’z qimmatini baholay boshlaydi. Shu bilan birga, gibrid

estetika kelajakda yangi imkoniyatlar ham ochadi. “Digital twin” operatsiya sinovlari, VR/AR kosmetologiya va AI estetik dizaynerlar insonga o‘z yuzini ideallashtirish va optimal estetik natijaga erishish imkonini beradi. Bu jarayonda inson o‘z tabiiylik va sun‘iylik orasida muvozanatni topib, individuallikni saqlab qolishi mumkin. Bu esa ma’lum ma’noda insondagi axloqiy me’rlarga bog‘liq bo‘lgan xolda tanlanadi.

Xulosa qilib aytganda, gibrid estetika — bu zamonaviy insonning chiroy va estetika haqidagi tushunchasining yangi shakli. Plastik xirurgiya va raqamli go‘zallikning birlashuvi tabiiylik va sun‘iylikning sintezini yaratadi. Tabiiy yuz ko‘pincha sun‘iy standartlar bilan almashtiriladi, ammo inson uchun yangi estetik qimmat va individuallik imkoniyatini ham taqdim etadi. Bugungi estetika — bu reallik va virtuallik orasidagi doimiy muvozanat, va uning evolyusiyasi hali davom etadi. Shu tariqa gibrid estetika insonning chiroy, individuallik va zamonaviy texnologiyalar bilan munosabatini ilmiy va falsafiy jihatdan qayta ta’riflaydi.

Bioestetik nuqtai nazardan, inson chiroyini his qilish qobiliyati — tabiiy simmetriya, garmoniya va genetik morfotip orqali shakllanadi. Tabiiy yuzlarda arziyas kamchiliklar ham insonga haqiqiy va samimiy go‘zallik hissini beradi. Lekin plastik operatsiyalar va raqamli go‘zallik orqali yuz standartlashtirilganda, inson biologik “ideal”dan tashqari chiroyini his qilish qobiliyatini yo‘qotadi. Yuzdagi noto‘g‘ri proporsiyalar, kichkina nuqsonlar va individuallik signallari tabiiylikka xos bo‘lsa, ularning yo‘qolishi insonning estetik sezgiriligini sun‘iylikka moslashtiradi.

Raqamli go‘zallik va plastik xirurgiya inson tanasidagi genetik morfotipni o‘zgartirishi va individuallikni yo‘qotishga asosiy sabablardan biridir. Genetik morfotip-insonni irsiy, biologik va etnik xususiyatlari, yuz anatomiyasida belgi beruvchi tabiiy shakl va konturlar jamlanmasi hisoblanadi. Bu morfotip inson yuzidagi takrorlanmas belgilarni: burun shakli, lab konturi, ko‘zlarning joylashuvi, shakli, teri tuzilishi, rangi, qosh va ko‘z, lab va burun, qosh va peshona o‘rtasida masofani -hammasini individual genetik kodga bog‘laydi. Misol uchun, ijtimoiy tarmoqlarda insonlarga standartlashtirilgan yuz tuzilishini ko‘rsatib turadigan filtrlar borki, insonni yuz tuzilishini simmetrik va proporsiyaga moslashtirishni talab qiladi. Natijada programmalar taklif qilgan sun‘iy yuz tuzili ommaga yoqib, individuallik — insonni boshqalardan farq qiladigan xususiyat — pasayib ketmoqda. Bu jarayonda insonning biologik unikalligi sun‘iy standartlarga almashtiriladi. Hatto mimika va emotsiyalar ham standartlashtirilgan yuzlarda aniq namoyon bo‘lmaydi, chunki botoks va fillerlar natijasida teri va mushak harakatlari cheklanadi. Ma’lum vaqt o‘tgandan keyin yuz tuzilishini o‘zgartirish uchun qilingan amliyyot yana takrorlanmasa ayanchli oqibatlariga olib kelishini ayon bo‘lmoqda. Bu o‘zgarishlar turli holatlarga olib keladi: “Body dysmorphia”: inson o‘z yuzini reallikda qoniqarsiz deb hisoblaydi. “Filter dependency”: inson doimiy ravishda filtrlar yoki raqamli versiyalarga qarab o‘zini baholaydi. “Self-comparison syndrome”: virtual “ideal” yuzlar bilan solishtirib, o‘zini past baholash. Inson o‘zini o‘zi qabul qilish qobiliyati pasayishi: inson tabiiy yuzini qabul qilmay, sun‘iy standartlarga intiladi. Shuningdek, yuz mimikasi ham cheklanadi. Botoks va fillerlar natijasida yuz emotsional signallarni kam chiqaradi, bu insonning ijtimoiy munosabatlarida ham ta’sir qiladi. Natijada, sun‘iy go‘zallik insonning nafaqat vizual, balki psixologik va ijtimoiy hayotiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. О.В.Хотеева. Гармония как константа культуры. Диссертация выполнена в ГОУ ВПО «Саратовский государственный технический университет» 2006.
2. В.П.Шестаков. “Гармония как эстетическая категория”. Учение о гармонии в истории эстетической мысли. Издательство “Наука. Москва 1973.
3. Ницше.Ф Рождение трагедии, или эллинизм и пессимизм // Ницше Ф Соч .1 пер с нем /сост,ред и авт примеч К А Свасьян -М Мысль, 1990 - С 59.
4. Э.В.Бурмакин. Эстетика в жизни. Учебное пособие.Томск. 2013.

ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА МАДАНИЙ ТАРАҚҚИЁТ МЕХАНИЗМИНИНГ ТАШКИЛИЙ - ТАРБИЯВИЙ МИССИЯСИ

Гуларо Нишонбоева
фалсафа доктори PhD

Аннотация. Мазкур мақолада маданият соҳасидаги тарбиявий самарадорликка қаратилган муҳим механизмлари ўрганилган.

Калит сўзлар: маданий тараққиёт механизми, маданий тарбия, маданият соҳаси, миллий маданият, тарбиявий самарадорлик, янги маданий макон.

Аннотация. В данной статье исследуются важные механизмы, направленные на повышение воспитательной эффективности в сфере культуры.

Ключевые слова: механизм культурного развития, культурное образование, культурная сфера, национальная культура, эффективность образования, новое культурное пространство.

Annotation. This article examines important mechanisms aimed at enhancing educational effectiveness in the field of culture.

Keywords: cultural development mechanism, cultural education, cultural sector, national culture, educational effectiveness, new cultural space.

“Миссия” тушунчасининг луғавий маъноларидан бири латинчадан *“missio”*, яъни *“юксак бурч”*, *“ниҳоятда масъулиятли вазифа”* каби ижтимоий мазмун-моҳиятни англатади. Маданиятни ривожлантириш механизмининг миссияси эса, унинг функциялари, амалий фаолият натижалари орқали намоён бўлади.

Маданиятни ривожлантириш механизмининг мураккаб ва кўп босқичли тузилиши унинг жамият соҳалари ва шахслар ҳаётидаги вазифаларининг хилма-хиллигини белгилайди. Бу борадаги тадқиқотлар файласуфлар ва маданиятшунослар ўртасида ушбу вазифалар сони масаласида тўлиқ яқдиллик йўқлигидан далолат беради.

Шунга қарамай, барча муаллифлар маданият ривожини белгилайдиган амалиёт механизмининг кўп функционалиги ғоясига қўшиладилар, унинг ҳар бир таркибий қисми турли хилдаги функцияларни бажариши мумкин, деб ҳисоблайдилар. Ушбу масала бўйича турли нуқтаи назарларни таққослаш бизга мазкур механизмнинг тарбиявий, ташкилий-бошқарувчилик, асосий вазифаларига мослашувчи, когнитив, ахборот, коммуникатив, интегратив, тартибга солувчи, аксиологик каби қатор функциялари борлигини кўрсатади.

Янгиланаётган Ўзбекистонда кейинги йилларда шаклланган маданий тараққиёт механизмининг функциялари орасида унинг ташкилий-бошқарувчилик миссияси алоҳида ўринни эгаллайди. Бу функция ушбу механизмнинг ҳаётнинг барча соҳалари, жумладан, маданий омилларнинг ёшлар таълим-тарбияси жабҳасига таъсири жиҳатидан ҳам ниҳоятда муҳим ҳисобланади.

Негаки бугунги кунда замонавий ривожланиш йўлидан бораётган Ўзбекистон давлати учун ҳам ҳаётнинг барча соҳалари қатори, маданий жараёнларни бошқариш ва ушбу жабҳадаги ишларни ташкиллаштириш масаласи тараққиётнинг муҳим омилига айланиб бормоқда.

Бизнинг мамлакатимиз маданий тараққиёти механизмининг тарбиявий тамойиллари нуқтаи назаридан мазкур йўналишдаги фаолият Шарқ мутафаккирларининг ташкилотчилик ва бошқарувчилик фаолиятига оид ижтимоий-культурологик қарашларига таянади. Бу борада Форобийнинг “Фозил одамлар шаҳри”, Берунийнинг “Ҳиндистон”, Юсуф Хос Хожибнинг “Қутадғу билиг” асарларидаги қарашлари, Амир

Темур, Мирзо Улуғбек, Навоий, Дониш, Авлонийларнинг фикр-мулоҳазалари муҳим аҳамиятга эга, албатта.

Бу борада ташкилий ҳужжатларни ишлаб чиқиш ва уларнинг амалга ошишини таъминлаш нихоятда муҳим аҳамият касб этади. Кейинги йилларда ушбу масалага катта эътибор берилмоқда ва бу ушбу жабҳадаги қуйидаги ҳужжатлар ижодкорлигида ўзининг яққол ифодасини топомқда. Президентимизнинг Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ва “Янги Ўзбекистон – 2030 стратегияси тўғрисида”ги Фармонлари мазкур йўналишдаги ислохотлар ва янгиланишлар жараёнини янада жадаллаштирди.

Маданият соҳасида ҳам туб ўзгаришлар ва янгиланишлар, инсонларнинг маданий тафаккур тарзи ҳам сезиларли даражада ўзгарди. Маданият ва санъат соҳасида янги ислохотларнинг бўй кўрсатишида ушбу соҳага доир қабул қилинаётган қарору фармонлар амалиётда ўзининг самарасини кўрсатяпти. Буни айни пайтда, Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 20 январда қабул қилинган ЎРҚ - 668-сон “Маданий фаолият ва маданият ташкилотлари тўғрисида”ги Қонуни, Президентимизнинг “Маданият ва санъат ташкилотлари, ижодий уюшмалар ва оммавий ахборот воситалари фаолиятини янада ривожлантириш, соҳа ходимлари меҳнатини рағбатлантириш бўйича қўшимча шароитлар яратишга доир чора-тадбирлар тўғрисида” 2019-йил 3-майдаги ПҚ-4307-сон, 2023-йил 25-декабрдаги ПҚ-405-сон “Номоддий маданий меросни муҳофаза қилиш, илмий ўрганиш ва тарғиб қилишни ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарорлари, Республика Маънавият ва маърифат Кенгашининг 2023-йил 22-декабрдаги 50-сон Баёни, Президентимизнинг “Умумий ўрта таълим мактабларида мусиқа маданияти фани ўқитилишини тубдан такомиллаштириш ҳамда ушбу фан ўқитувчиларининг касбий фаолиятини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”, “Театрларнинг жамият маданий ҳаётидаги аҳамиятини ошириш ва улар фаолиятини янада қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2024-йил 22-ноябрдаги ПҚ-399-сон, “Маданият ва санъат, ахборот-кутубхона ва музейлар соҳасида фаолият олиб бораётган ходимлар иш ҳақи микдорларини ошириш тўғрисида”ги 2024-йил 22-ноябрдаги ПҚ-400 қарорлари ҳамда мавзуга оид меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар бунинг далилидир.

Ушбу ҳужжатлар кейинги йилларда маданий тарбия ва комил инсонни вояга етказиш масаласига узлуксиз эътибор бериб келинаётганидан далолат беради. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 20 январда қабул қилинган ЎРҚ - 668-сон “Маданий фаолият ва маданият ташкилотлари тўғрисида”ги Қонуни мазкур йўналишдаги ислохотлар ва янгиланишлар жараёнини янада жадаллаштирди. Шу оқилона сиёсат туфайли халқимиз ўзлигини таниб, ўзбек миллий қадриятларига содиқ ҳолда, ўз маданияти ва тарих олдидаги вазифасини англаб олмақда.

Президент Шавкат Мирзиёев 2025 йил 30 июнь кун - Ёшлар куни муносабати билан бир гуруҳ ёшларга давлат мукофотларини топширади ҳамда ёшлар сиёсати соҳасида амалга оширилган ишлар сарҳисоби, ёшларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари юзасидан видеоселектор йиғилиши ўтказди. Давлатимиз раҳбари раислигида ёшлар сиёсатида бағишланган видеоселектор йиғилиши ҳамда ёшлар билан мулоқот бошланди. Президентимиз мамлакатимизда сўнгги етти йил ёшларни қўллаб-қувватлаш, уларни истеъдод ва салоҳиятини рўёбга чиқаришда “катта сакраш даври” бўлганини таъкидлади.

Шу етти йил ичида ёшларга оид 100 дан зиёд қонун ва қарор қабул қилиниб, 200 дан ортиқ имтиёз берилди. Биргина таълим кредитидан 151 минг ёшлар фойдаланди. Эҳтиёжманд оиладан бўлган яна 110 минг талабанинг контрактини тўлашга 332 миллиард сўм ажратилди. Натижада олий таълимда қамров 9 фоиздан 42 фоизга, олийгоҳлар сони эса 77 тадан 212 тага етди. Бугунги кунда 110 минг ўғил-қизларимиз хорижда таҳсил олмақда. “Эл-юрт умиди” жамғармаси орқали етти йилда АҚШнинг “Печак лигаси”га

кирувчи Гарвард, Йель, Колумбия, Стенфорд каби топ-8 та, Буюк Британиянинг “Расселл гуруҳи”даги Оксфорд, Кэмбридж, Бирмингем каби 24 та олийгоҳни 50 нафар ёшларимиз битирди. Бу нуфузли олийгоҳларда ўқиётган ёшларимиз сони эса 200 дан ошди.

Президент мактаби баҳолаш тизими 500 та мактабда жорий қилиниши ҳисобига бир йилни ўзида билимларни ўзлаштириш 53 фоиздан 60 фоизга ошди. Бу йил мактабларни 14 мингдан зиёд ўқувчи олтин ва кумуш медаллар билан битирди. “Катта бешлик” фан олимпиадаларида қўлга киритилган медаллар охириги тўрт йилда 2 карра кўпайди. Президент фарзандларимизни тарбиялаб, ўқитиб, мана шундай ютуқларга эришишига сабабчи бўлган ота-оналар, устоз ва мураббийларга чуқур миннатдорлик билдирди.

Ёшларни тадбиркорликка жалб қилиш доирасида ўтган тўрт йилда:

- “Оилавий тадбиркорлик” дастурлари доирасида 13,5 триллион сўм кредит ажратилиб, 1 миллион ёш банд бўлди;

- “Ёшлар дафтари”дан 107 минг ўғил-қизларимизга 338 миллиард сўм субсидия берилди;

- 205 та “Ёшлар саноат зонаси”да 2,5 триллион сўмлик 1,2 минг лойиҳа ишга тушди.

Яратилган шароитлар ҳисобига, бизнесини “ноль”дан бошлаб, ҳозирда айланмасини миллион доллардан оширган 1,5 минг нафар ёшларимиз бор.

Ёшларимиз хорижий олийгоҳларда ўқиш учун математика, инглиз тили ва илмий фикрлаш бўйича “SAT” имтиҳонини топширмоқда. Бу тестларда 75 фоиздан юқори натижа кўрсатган ўқувчилар чет элни энг нуфузли олийгоҳларига грант ютаёпти. Энди бундай ёшларни ўзимизни олийгоҳларга ҳам грантга қабул қиламиз, - деди Президент.

Юртимиз таълим ташкилотларида маънавий-маърифий ишларни тизимли ташкил этиш, ёшларнинг интеллектуал салоҳияти ва дунёқарабини юксалтириш, уларда ватанпарварлик ва садоқат туйғуларини шакллантириш мақсадида сўнгги йилларда қатор ишлар амалга ошириб келинмоқда. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 3 октябрдаги 558-сон қарори асосида тасдиқланган “Таълим муассасаларида маънавий-маърифий ҳамда тарбиявий ишлар самарадорлигини ошириш концепцияси”да бу борада муҳим вазифалар белгиланган.

Мазкур Концепцияда белгиланган устувор вазифалар мамлакатимизда таълим-тарбияни умуммиллий ҳаракатга айлантириш борасида амалга оширилаётган ташкилий ишларни мазмунан янги босқичга кўтаришда муҳим аҳамият касб этади.

Маданий тараққиёт механизмнинг функциялари орасида унинг таълим-тарбиявий йўналишига доир масалалар таҳлили ниҳоятда муҳим аҳамият касб этади. Негаки, башарият яралибдики, таълим-тарбия масаласининг долзарблиги ҳеч қачон кун тартибидан тушмаган. Чунки бу борадаги асосий масала инсон маънавияти ва унинг маданий камолоти даражаси билан боғлиқ бўлгани учун ҳам ўз долзарблигини йўқотмаган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Янги Ўзбекистоннинг 2022-2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2021 й, 4 сон). www.lex.uz.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маданият ва санъат соҳасини янада ривожлантириш ва такомиллаштиришга доир чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-3022-сон қарори. www.lex.uz.

3. Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлигининг Маданият ва санъат соҳасини янада ривожлантириш, унинг жамият ҳаётидаги ўрни ва таъсирини ошириш юзасидан олиб борилаётган ишлар тўғрисида маълумоти. - Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлигининг жорий ҳужжатлари. –Т. 2022 йил.

МНОГОЯЗЫЧИЕ И ФИЛОСОФИЯ ТОЛЕРАНТНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Дилдора Қорабоева,
к.ф.н., старший преподаватель
Ташкентского международного университета,
финансового управления и технологий

Аннотация. Мақолада замонавий Ўзбекистон шароитида кўп тиллилик толерантлик фалсафасини шакллантириш ва маданиятлараро мулоқотни ривожлантиришнинг муҳим омили сифатида кўриб чиқилади. Тил хилма-хиллигининг тарихий ва ижтимоий-маданий асослари, шунингдек, халқлар ўртасидаги ўзаро тушуниш ва тинч ҳамжиҳатлик маданиятига таъсири таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: кўп тиллилик, толерантлик, ўзаро тушуниш, маданият, фалсафа, Ўзбекистон, мулоқот, ўзлик.

Аннотация. В статье рассматривается многоязычие как важный фактор формирования философии толерантности и межкультурного диалога в современном Узбекистане. Анализируются исторические и социокультурные предпосылки языкового многообразия, его влияние на развитие культуры взаимопонимания и мирного сосуществования народов.

Ключевые слова: многоязычие, толерантность, взаимопонимание, культура, философия, Узбекистан, диалог, идентичность.

Annotation. The article examines multilingualism as an essential factor in shaping the philosophy of tolerance and intercultural dialogue in modern Uzbekistan. The historical and socio-cultural foundations of linguistic diversity and its impact on the development of mutual understanding and peaceful coexistence among nations analyzed.

Key words: multilingualism, tolerance, understanding, culture, philosophy, Uzbekistan, dialogue, identity.

Введение. Современный Узбекистан является уникальным примером общества, где многоязычие воспринимается не как барьер, а как естественная форма культурного богатства. В условиях глобализации и межкультурного взаимодействия язык становится не только средством коммуникации, но и философской категорией, отражающей глубинные основы мировосприятия, идентичности и толерантности. Многоязычие в Узбекистане — это не просто лингвистический феномен, а проявление исторически сложившейся философии взаимного уважения, диалога и мирного сосуществования.

1. Исторические предпосылки многоязычия в Узбекистане

На протяжении веков территория современного Узбекистана была перекрёстком культур и цивилизаций. Великий Шёлковый путь стал не только торговым маршрутом, но и каналом обмена идеями, языками, духовными традициями. Персидский, арабский, тюркские языки, а позднее и русский — формировали уникальную языковую мозаику региона.

Уже в средние века мыслители Востока — Аль-Фараби, Ибн Сина, Аль-Беруни — подчеркивали важность понимания «иных языков» как пути к истине. В их трудах прослеживается идея универсальности человеческого разума, независимо от этнических и языковых различий.

2. Многоязычие как основа философии толерантности

Толерантность — это не просто терпимость, а глубокое понимание и признание ценности культурного разнообразия. В философском смысле толерантность основывается на признании равенства всех форм выражения человеческого духа.

Многоязычие в этом контексте выступает как практическое выражение философии толерантности. Когда человек говорит на нескольких языках, он открывает для себя разные способы мышления, мироощущения и общения. В этом заключается гуманистическая сила языка — он соединяет, а не разделяет.

В Узбекистане сосуществование узбекского, русского, таджикского, каракалпакского и других языков стало не только социокультурной нормой, но и важным элементом гражданской гармонии. Взаимное уважение к языкам — это проявление внутренней культуры и философского мировоззрения, основанного на идеях мира и сотрудничества.

3. Русский язык как инструмент межкультурного диалога

Русский язык играет особую роль в формировании философии толерантности в Узбекистане. Он выступает связующим звеном между различными этносами, научными и культурными сообществами. Будучи языком межнационального общения, русский язык сохраняет своё значение в сфере образования, медицины, науки, искусства и дипломатии.

Философия общения на русском языке в Узбекистане основана на принципах равенства и уважения. Это не язык доминирования, а язык сотрудничества, обмена знаниями и культурного обогащения.

4. Узбекский язык как символ национального единства и духовного развития

Узбекский язык — это не только государственный язык, но и духовная основа национального самосознания. Он объединяет представителей разных этнических групп, формируя общее культурное пространство.

Философия узбекского языка пронизана идеями мира, справедливости и взаимопомощи. В поэзии Навои, философии Бобура и современных авторах отражается идея единства в многообразии. Использование узбекского языка во всех сферах общественной жизни укрепляет национальную идентичность и способствует сохранению культурного наследия.

5. Философский смысл многоязычия как диалога культур

С философской точки зрения, многоязычие — это форма диалога культур, в котором рождается истина. Диалог предполагает не спор, а стремление понять.

В этом смысле язык становится не только инструментом коммуникации, но и способом духовного взаимодействия. Каждый язык несёт в себе уникальный способ восприятия мира. Когда они взаимодействуют, рождается новая культура мышления — культура диалога. Такой подход отражает философию Узбекистана: «Разные языки — одно человечество».

Многоязычие можно рассматривать как воплощение принципа единства в многообразии. Через язык человек прикасается к иным системам мышления, и тем самым расширяет границы своего сознания.

Каждый новый язык, которым овладевает личность, открывает перед ней не просто слова, а целую вселенную смыслов и образов.

Владение несколькими языками развивает эмпатию, способность к сопереживанию и к постижению иных форм бытия.

С этой точки зрения, многоязычие — это не только лингвистическая компетенция, но и философская добродетель, выражающая открытость ума и уважение к иному.

В контексте узбекской культуры язык всегда был мостом между народами и эпохами. Историческое взаимодействие узбекского, персидского, арабского, тюркских и русского языков создало пространство, где слово стало носителем духовной гармонии.

Такой синтез языков и смыслов породил феномен восточной мудрости, в центре которой находится идея согласия и взаимопонимания.

Философы и поэты Востока — Навои, Фирдоуси, Бируни, Руми — видели в языке отражение души народа и путь к Божественной истине. Современная философия диалога (М. Бубер, Х.-Г. Гадамер, В. Библер) утверждает, что истина рождается не в монологе, а

во встрече двух сознаний. Именно многоязычие делает такую встречу возможной. Когда человек слышит и понимает иной язык, он тем самым признаёт существование другой истины, другого взгляда на реальность. Это признание — акт высшей духовной зрелости, проявление подлинной толерантности. В узбекском обществе философия многоязычия помогает строить мосты между поколениями, регионами и культурами. Она формирует общенациональное сознание, основанное не на различиях, а на ценности общения и доверия.

Таким образом, многоязычие можно назвать духовным кодом современного Узбекистана, где язык — это не только средство выражения мысли, но и пространство философского единения, где разные культуры находят общее дыхание и ритм понимания.

6. Многоязычие и современное образование

Система образования в Узбекистане основана на принципах открытости и доступности. Изучение нескольких языков (узбекского, русского, английского и др.) способствует не только интеллектуальному развитию, но и воспитанию уважения к иным культурам. Языковая политика государства направлена на гармоничное развитие многоязычия, где каждый язык воспринимается как ценность, а не угроза.

Такое отношение формирует у молодёжи культуру толерантности, открытость к миру и готовность к международному сотрудничеству.

7. Философские основы мирного сосуществования

Мирное сосуществование невозможно без доверия, диалога и уважения. Эти ценности лежат в основе восточной философии, где гармония между людьми и природой считается высшей целью бытия. Многоязычие в этом контексте становится практическим выражением философии гармонии.

Каждый язык — это «мост», соединяющий сознания. Уничтожение языка — это утрата части мировой мудрости. Поэтому сохранение языкового многообразия — это не только культурная, но и этическая обязанность современного общества.

Заключение. Многоязычие в Узбекистане — это философия жизни, основанная на уважении, взаимопонимании и гуманизме. Оно соединяет прошлое и будущее, национальное и универсальное, индивидуальное и коллективное. Благодаря языковому разнообразию в стране формируется уникальная культура диалога, которая служит прочным фундаментом для мира, духовного развития и прогресса. Таким образом, философия толерантности в Узбекистане неразрывно связана с многоязычием как проявлением культурной мудрости и духовной зрелости народа.

Библиография:

1. Абдуллаев.А.Р. Языковая политика и многоязычие в современном Узбекистане // Вестник Ташкентского государственного университета. — 2021. — №3. — С. 45–52.
2. Ходжаева.М.М. Толерантность как философская категория в культуре Узбекистана // Философия и общество. — 2020. — №2. — С. 61–68.
3. Алимов.А.Р. Культура диалога и многоязычие в Центральной Азии // Социально-гуманитарные исследования. — 2019. — №4. — С. 77–83.
4. Safarova.D. Ko‘p tillilik va tolerantlik g‘oyalari O‘zbekiston ta’lim tizimida // Oliy ta’lim va jamiyat. — 2022. — №1. — В. 54–59.
5. Saidov.A.X. Философия межкультурного взаимодействия и толерантности в Узбекистане // Вестник Академии наук Узбекистана. — 2018. — №5. — С. 23–31.

**BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA EMPATIYA VA KOMMUNIKATIV
KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH USULLARI**

Umarxon Azamov,
Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Anotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak pedagog shaxsida empatiya va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning nazariy-metodik asoslari, ularning o‘zaro integrativ bog‘liqligi hamda pedagogik ta’sir mexanizmlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Empatiya, kommunikativ kompetensiya, pedagogik refleksiya, ijtimoiy intellekt, muloqot madaniyati, emotsional idrok, didaktik interaktsiya, empatik metodlar.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретико-методические основы формирования эмпатии и коммуникативной компетенции у будущего педагога, их взаимная интегративная связь и механизмы педагогического воздействия.

Ключевые слова: эмпатия, коммуникативная компетенция, педагогическая рефлексия, социальный интеллект, культура общения, эмоциональное восприятие, дидактическое взаимодействие, эмпатические методы.

Annotation. This article analyzes the theoretical and methodological foundations for developing empathy and communicative competence in future educators, their mutual integrative connection, and the mechanisms of pedagogical influence.

Keywords: empathy, communicative competence, pedagogical reflection, social intelligence, communication culture, emotional perception, didactic interaction, empathic methods.

Kirish. Zamonaviy ta’lim paradigmasi inson kapitalini rivojlantirish, shaxsning ma’naviy, intellektual va axloqiy yetukligini ta’minlashga yo’naltirilgan jarayon sifatida talqin qilinmoqda. Ushbu jarayonning markazida pedagog shaxsining kasbiy kompetensiyalari, ayniqsa, empatiya va kommunikativ kompetensiyaning yuksak darajada shakllanganligi turadi. Bo‘lajak pedagog uchun empatiya – bu shunchaki o‘quvchining his-tuyg‘ularini tushunish emas, balki ta’lim jarayonida ularning individual ehtiyojlarini, psixologik holatini, shaxsiy qiziqish va o‘ziga xosligini inobatga olgan holda ta’sirchan muloqot o‘rnatish qobiliyatidir. Shu boisdan empatik yondashuv pedagogik faoliyatning insonparvarlik mohiyatini yorituvchi asosiy mezonlardan biri sifatida qaraladi.

Empatiya va kommunikativ kompetensiya o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ular o‘qituvchi shaxsining kasbiy madaniyati, ijtimoiy ong va psixologik barqarorligini ifodalaydi. Kommunikativ kompetensiya pedagog faoliyatining barcha bosqichlarida — dars jarayonini tashkil etishda, sinf muhitini boshqarishda, ota-onalar bilan hamkorlikda hamda ta’lim muhitidagi ijtimoiy o‘zaro ta’sirda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bo‘lajak o‘qituvchining muloqotga kirishish, o‘quvchining hissiy reaksiyalarini anglash, konstruktiv tahlil yuritish va ijobiy kayfiyatni shakllantirish qobiliyatlari aynan empatik kompetensiyalar orqali mustahkamlanadi. Bugungi globallashuv davrida insonlararo kommunikatsiya tizimi murakkablashib, madaniy, milliy va axloqiy tafovutlar ta’lim jarayonida yangi psixopedagogik yondashuvlarni talab qilmoqda. Shu sababli, bo‘lajak pedagoglar empatik va kommunikativ jihatdan yetuk bo‘lmas ekan, ular ta’lim tizimining asosiy ishtirokchilari – o‘quvchilar, ota-onalar, hamkasblar bilan samarali ijtimoiy aloqalar o‘rnatish qobiliyatidan mahrum bo‘lishadi. Bu esa ta’lim sifatiga, o‘quvchi shaxsining rivojlanish dinamikasiga va ta’lim muhitining psixologik barqarorligiga bevosita ta’sir etadi. Empatiya tushunchasining ilmiy manbalarida u “boshqalar his-tuyg‘ularini idrok etish va ular bilan hamnafas bo‘lish qobiliyati” sifatida ta’riflanadi. Ushbu jarayonning asosi sifatida kognitiv, affektiv va konativ komponentlar e’tirof etiladi.

Kognitiv komponent — o'qituvchining boshqalar his-tuyg'ularini tushunish qobiliyati; affektiv komponent — ularga hamdard bo'lish; konativ komponent esa — shu tushunish va his etish asosida mos xulq-atvor namoyon etishdir. Bu uch komponent birgalikda empatik refleksiyani tashkil etadi. Kommunikativ kompetensiya esa ko'p komponentli tizim sifatida qaraladi. U nafaqat til bilimini, balki nutq madaniyati, muloqot etikasini, ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlikni, o'z fikrini aniqlik bilan ifoda etish, eshitish va anglash qobiliyatlarini ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, kommunikativ kompetensiya o'qituvchining pedagogik texnologiyalarni to'g'ri tanlash, o'quvchilarning shaxsiy fazilatlariga mos metodlarni qo'llash, muloqotda psixologik barqarorlikni saqlash mahoratini ham shakllantiradi. Zamonaviy pedagogika nazariyalarida empatiya va kommunikativ kompetensiyaning shakllanishi insonparvar yondashuv, kooperativ ta'lim, refleksiv pedagogika, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi bilan bevosita bog'liqdir.

Ayniqsa, D.Goleman, K.Rogers, R.Boyatzis kabi olimlarning asarlarida empatiya insonning emotsional intellekti bilan uzviy bog'liqligi asoslab berilgan[1]. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, yuqori empatiyaga ega bo'lgan pedagog o'z o'quvchilari bilan konstruktiv, muvozanatli va ijobiy muloqot o'rnatadi, bu esa o'z navbatida o'quvchilar shaxsiy rivojlanishiga kuchli psixologik turtki beradi. Shuningdek, kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi zamonaviy pedagogning professional refleksivligini oshiradi. Ya'ni o'qituvchi o'zining nutqiy faoliyati, muloqot jarayoni va pedagogik ta'sir usullarini doimiy tahlil qilish orqali ta'lim sifatini oshiradi.

Shu nuqtai nazardan, empatiya va kommunikativ kompetensiyaning o'zida mujassamlashtirgan bo'lajak pedagog — bu zamonaviy ta'lim tizimining innovatsion, kreativ va insonparvar vakilidir. Bo'lajak pedagoglarda empatiya va kommunikativ kompetensiyaning shakllantirishda amaliy metodlarning roli ham katta. Jumladan, treninglar, rolli o'yinlar, empatik refleksiya mashg'ulotlari, kommunikativ vaziyatli topshiriqlar, interfaol muhitda dialogik mashqlar, emotsional tahlil usullari kabi metodlar pedagogik ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi[2]. Ayniqsa, talabalarning pedagogik amaliyoti davomida empatiya va kommunikativ kompetensiyaning shakllantirish uchun tahliliy fikrlash, hissiy barqarorlik, o'zini o'quvchi o'rniga qo'yib ko'rish kabi mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Empatiya va kommunikativ kompetensiya o'zaro uyg'un holda bo'lajak o'qituvchining kasbiy madaniyatini shakllantiradi. Chunki empatiyasiz kommunikatsiya rasmiy tus oladi, hissiy aloqa yo'qoladi; kommunikativ kompetensiyasiz esa empatiya amaliy ifodaga ega bo'lmaydi. Shuning uchun ularni bir butun psixopedagogik tizim sifatida o'rganish pedagogik ta'limning strategik vazifasidir. Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, u bo'lajak pedagoglarda empatik idrok, emotsional sezgirlik va kommunikativ malakalarni kompleks rivojlantirish orqali ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida insonparvarlik, ijtimoiy adolat va kasbiy kompetensiyalar uyg'unligini ta'minlash strategiyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shuning uchun empatiya va kommunikativ kompetensiyaning shakllantirish masalasi nafaqat psixologik, balki ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida ham alohida o'ringa ega. Yuqoridagilardan kelib chiqib, maqolaning asosiy maqsadi — bo'lajak pedagoglarda empatiya va kommunikativ kompetensiyaning shakllantirish jarayonining nazariy, metodik va amaliy asoslarini aniqlash, ularning o'zaro uzviy bog'liqligini ilmiy tahlil qilish hamda samarali shakllantirish usullarini taklif etishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili. Empatiya va kommunikativ kompetensiya masalalari bo'yicha olib borilgan zamonaviy ilmiy tadqiqotlar pedagogik psixologiya, ijtimoiy kommunikatsiya va shaxsning emotsional intellekti nazariyalariga tayangan holda yoritilgan. Xususan, bu yo'nalishda xorijiy olimlar tomonidan yaratilgan konseptual ishlanmalar pedagog shaxsining empatik qobiliyatlari hamda kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu borada ikki mashhur olim — Daniel Goleman va Carl Rogerslarning tadqiqotlari alohida e'tiborga loyiqdir. Daniel Goleman o'zining **“Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ”** asarida emotsional intellekt tushunchasini

inson faoliyatining markaziy psixologik mexanizmi sifatida izohlaydi[3]. Unga ko'ra, empatiya emotsional intellektning tarkibiy qismi bo'lib, pedagogik faoliyatda insonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va hissiy muvozanatni ta'minlaydi.

Goleman empatiyani faqat psixologik sezgirlik emas, balki pedagogik yetuklikning intellektual ko'rsatkichi sifatida talqin qiladi. U o'qituvchilarda empatiya rivojlanmaganda kommunikativ uzilishlar yuzaga kelishini, natijada ta'lim jarayonida hissiy va muloqotli muhitning buzilishini ilmiy asosda ko'rsatib beradi. Olimning fikricha, ta'limda muvaffaqiyatga erishish o'qituvchining o'z emotsiyalarini boshqarish, o'quvchilar kayfiyatini anglash va ularga mos muloqot usullarini tanlash qobiliyatiga bevosita bog'liqdir.

Shuningdek, Carl Rogersning "A Way of Being" asarida empatiya va kommunikativ kompetensiya o'qituvchi shaxsining insonparvarlik tabiatini ifodalaydigan asosiy psixologik fazilatlar sifatida talqin qilinadi. Rogers o'zining "inson markazidagi ta'lim" (person-centered education) konsepsiyasi orqali o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro muloqotda ishonch, samimiyat va hissiy aloqaning ustuvorligini asoslaydi. Uning ta'lim nazariyasida empatiya o'qituvchi tomonidan o'quvchi dunyoqarashini ichki his etish, uning shaxsiy tajribasini qabul qilish va konstruktiv tarzda aks ettirish qobiliyati sifatida qaraladi. Rogersga ko'ra, haqiqiy pedagogik kommunikatsiya — bu ikki tomonlama emotsional hamkorlik jarayonidir, unda o'qituvchi nafaqat bilim uzatuvchi, balki o'quvchi his-tuyg'ularining tinglovchisi va tahlilchisi sifatida ishtirok etadi.

Metodologik qism. Mazkur tadqiqotda bo'lajak pedagoglarda empatiya va kommunikativ kompetensiyani shakllantirish jarayonini o'rganish hamda takomillashtirish uchun kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi sifatida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi, insonparvar pedagogika, emotsional intellekt nazariyasi, kommunikativ faoliyat psixologiyasi hamda refleksiv o'qituvchilik modeli tanlandi. Shu bilan birga, tadqiqotda interdisiplinar yondashuv, ya'ni pedagogik psixologiya, ijtimoiy kommunikatsiya va kasbiy etika fanlari kesishmasidagi ilmiy asoslar uyg'unlashtirildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak pedagoglarda empatiya va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning samaradorligi, avvalo, ta'lim jarayonida emotsional idrokni faollashtirish, muloqot madaniyatini rivojlantirish va refleksiv fikrlashni rag'batlantirish darajasiga bevosita bog'liqdir; empatik treninglar, rolli o'yinlar va interaktiv muloqot mashg'ulotlari orqali talabalarda o'zaro tushunish, hissiy muvozanatni saqlash, o'quvchi shaxsining psixologik holatini to'g'ri anglash hamda ta'limiy vaziyatlarda mos kommunikativ strategiyalarni tanlash qobiliyatlari sezilarli darajada oshganligi kuzatildi, natijada bo'lajak o'qituvchilar o'z faoliyatida emotsional sezgirlik, ijtimoiy moslashuvchanlik va muloqotdagi ishonchli o'zaro ta'sirni amalga oshirish kompetensiyalariga ega bo'lishdi, bu esa ularning kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi.

Muxokama. Empatiya va kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalalari bo'yicha ilmiy polemikalar Goleman va Rogers tadqiqotlarida o'z aksini topadi. Daniel Goleman emotsional intellekt konsepsiyasi asosida pedagogik faoliyatda empatiya kognitiv va affektiv komponentlarning uyg'unlashuvi orqali ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, deya ta'kidlaydi[4]. Unga ko'ra, o'qituvchi hissiy sezgirlikni faollashtirib, o'quvchining his-tuyg'ularini tushunishi va ularni pedagogik muloqotga integratsiya qilishi orqali ta'lim jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratadi. Shu bilan birga, Goleman empatiyani o'qituvchining professional intellektual malakasining tarkibiy qismi sifatida baholaydi, chunki u samarali kommunikatsiya va ijtimoiy moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Carl Rogers esa empatiyani pedagogik hamkorlikning insonparvar asoslari orqali talqin qiladi. Rogersga ko'ra, empatiya faqat emotsional sezgirlik yoki kognitiv idrok emas, balki o'quvchining ichki dunyosini tushunish va unga samimiy hamdardlik bilan yondashish orqali o'zaro ishonchli muloqotni shakllantirishdir. U pedagogik jarayonda o'qituvchining kommunikativ kompetensiyasini empatiya bilan bog'lab, o'zaro hamkorlikning asosiy mezonini sifatida qaraydi. Rogers ta'kidlaydiki, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'qituvchi nafaqat bilim uzatuvchi, balki

o'quvchining psixologik holatini anglovchi, uning fikr va his-tuyg'ularini qadrlaydigan muloqot subyekti sifatida ishtirok etishi lozim. Ushbu ikki olimning qarashlari o'zaro to'qnashuvdan ko'ra, bir-birini to'ldiruvchi tavsiyalar beradi. Goleman empatiyani emotsional intellekt nuqtai nazaridan tahlil qilsa, Rogers uni pedagogik hamkorlik va shaxsga yo'naltirilgan muloqot kontekstida yoritadi. Bu ilmiy diskurs pedagogik ta'limda empatiya va kommunikativ kompetensiyani shakllantirish strategiyasini ishlab chiqishda ikki yo'nalishni uyg'unlashtirishga imkon yaratadi: kognitiv-emotsional aspektlar va insonparvar pedagogik yondashuv. Shuningdek, Goleman va Rogersning tadqiqotlarida empatiya va kommunikativ kompetensiyaning shakllanishi pedagogik amaliyotning turli shakllari, jumladan, treninglar, interaktiv mashg'ulotlar, refleksiv tahlil va rolli o'yinlar orqali amalga oshirilishi zarurligi ta'kidlanadi. Ularning polemikasi shundan iboratki, Goleman hissiy intellektni samarali pedagogik vosita sifatida ko'proq strukturaviy va psixologik jihatdan tahlil qilsa, Rogers pedagogik jarayonni insonparvar muloqot va shaxsiy o'sish kontekstida sharhlaydi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy pedagogik amaliyotda empatiya va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish strategiyasi ularni integrativ yondashuv asosida birlashtirishni talab qiladi. Natijada, bo'lajak pedagoglarda empatiya va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda ushbu ikki olimning ilmiy pozitsiyalari bir-birini to'ldiruvchi xulosalarni beradi: pedagog kognitiv va affektiv komponentlarni uyg'unlashtirib, o'quvchi his-tuyg'ularini tushunishi, shaxsga yo'naltirilgan muloqot orqali samarali kommunikatsiyani ta'minlashi, bu orqali ta'lim jarayonining ijtimoiy va emotsional barqarorligini mustahkamlashi mumkin.

Xulosa. Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarda empatiya va kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalalari nazariy, metodik va amaliy jihatlar bilan kompleks tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, empatiya va kommunikativ kompetensiya pedagogik faoliyatning ajralmas psixologik mexanizmlari sifatida bir-birini to'ldiradi va ularni birgalikda rivojlantirish bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Adabiyotlar tahlili Goleman va Rogersning ilmiy qarashlariga tayangan holda empatiya va kommunikativ kompetensiyaning kognitiv-emotsional va insonparvar pedagogik asoslarini aniqladi, shuningdek, ular pedagogik jarayonda o'quvchi shaxsining psixologik holatini anglash va konstruktiv muloqot o'rnatishdagi strategik ahamiyatini yoritdi. Metodologik qismda tadqiqotda qo'llangan nazariy tahlil, diagnostik, eksperimental, refleksiv va kontent-tahlil metodlari empatiya va kommunikativ kompetensiyani samarali shakllantirish imkonini berdi. Natijalar esa ushbu metodlarning yuqori samaradorligini tasdiqladi: bo'lajak pedagoglar hissiy sezgirlik, ijtimoiy moslashuvchanlik va muloqotdagi ishonchli o'zaro ta'sirni amalga oshirish kompetensiyalariga ega bo'ldi. Muxokama qismida esa Goleman va Rogersning ilmiy polemikalari orqali empatiya va kommunikativ kompetensiyaning pedagogik hamkorlik, emotsional intellekt va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv kontekstida uyg'unligini ko'rsatdi. Shu asosda xulosa qilish mumkinki, zamonaviy ta'lim jarayonida bo'lajak pedagoglarda empatiya va kommunikativ kompetensiyani shakllantirish strategiyasi integrativ, interdisiplinar yondashuvni talab qiladi va ularni kompleks rivojlantirish orqali pedagogik faoliyatning ijtimoiy, emotsional va kognitiv samaradorligi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergashbayev.S. Philosophical foundations of the integration of education and upbringing in the development of youth's spiritual outlook. shokh library. 2025, 1(10).
2. Ismoilov.T.I. "Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida sog'lom turmush tarzini shakllantirish". Global Science Review, 2025, 4(1), 337-344.
3. Daniel Goleman "Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ" (Bantam Books, New York, 384 p., 2020)
4. John D. Mayerning "Emotional Intelligence: Theory, Findings, and Implications" (Psychological Inquiry, Vol. 15, No. 3, 2004, pp. 197-215)

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA YOSHLAR QADRIYATLARINING
TRANSFORMATSIYASI

Qonisbay Kdirbayev,
“TIQXMMI” MTU katta o‘qituvchisi
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlar qadriyatlarining transformatsiyasi ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar va media makonning yoshlar ongiga ta’siri, qadriyatlar tizimidagi asosiy o‘zgarish yo‘nalishlari hamda ularning ijtimoiy oqibatlari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: axborotlashgan jamiyat, qadriyatlar, transformatsiya, raqamli muhit, media makon, ijtimoiy ong, ma’naviy tarbiya.

Аннотация. В данной статье с социально-философской точки зрения анализируется трансформация ценностей молодежи в условиях информационного общества. Раскрывается влияние цифровых технологий и медиапространства на сознание молодежи, основные направления изменений в системе ценностей, а также их социальные последствия.

Ключевые слова: информационное общество, ценности, трансформация, цифровая среда, медиапространство, социальное сознание, духовно-нравственное воспитание.

Annotatsiya. This article analyzes the transformation of youth values in the context of an information society from a socio-philosophical perspective. It examines the impact of digital technologies and the media environment on the consciousness of young people, the main directions of change in the value system, as well as their social consequences.

Keywords: information society, values, transformation, digital environment, media space, social consciousness, moral and spiritual education.

Bugungi globallashtirish va raqamlashtirish jarayonlari jadallashgan sharoitda jamiyat hayotining barcha sohalarida chuqur va tizimli o‘zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi natijasida shakllanayotgan axborotlashgan jamiyat inson tafakkuri, ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlar tizimiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu jarayonda yoshlar jamiyatning eng faol va ta’sirchan ijtimoiy guruhi sifatida raqamli muhit va media makon bilan doimiy aloqada bo‘lib, ularning dunyoqarashi, hayotiy maqsadlari va qadriyat yo‘nalishlarida sezilarli transformatsion jarayonlar kuzatilmoqda. Shu bois yoshlar qadriyatlarining axborotlashgan jamiyat sharoitidagi o‘zgarishini ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Axborot oqimlarining keskin ortishi, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalarning kundalik hayotga chuqur kirib borishi natijasida yoshlar an’anaviy ijtimoiylashuv institutlari bilan bir qatorda virtual makon ta’siri ostida shakllanmoqda. Bu holat bir tomondan erkin fikrlash, kreativlik, ochiqlik va global tafakkurning rivojlanishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan qadriyatlar tizimida beqarorlik, normativ noaniqlikni yuzaga keltirmoqda. Natijada yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘zaro munosabati, ularning ustuvorligi va mazmuniy talqini yangi ijtimoiy sharoitda qayta ko‘rib chiqilmoqda.

Alohida ta’kidlash joizki, axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlar qadriyatlarining shakllanish omillari bugungi kunda ijtimoiy-falsafiy tahlilning muhim obyektlaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar, internet va ommaviy axborot vositalarining jadal rivojlanishi yoshlarning dunyoqarashi, hayotiy maqsadlari hamda ijtimoiy xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot oqimlarining tezkorligi va ko‘lamdorligi natijasida yoshlar an’anaviy qadriyatlar bilan bir qatorda global va transmilliy qadriyatlar tizimi bilan ham yuzma-

yuz kelmoqda. Bu holat yoshlar ongida qadriyatlar pluralizmini kuchaytirib, ularning tanlov erkinligini kengaytirsada, ayrim hollarda milliy qadriyatlarning yemirilishi va bu bilan bog'liq normativ noaniqlikni ham yuzaga keltiradi.

Shuningdek, yoshlar qadriyatlarining shakllanishida axborot muhitining sifati va mazmuniy yo'nalishi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqlar, blogosfera, raqamli platformalar orqali tarqalayotgan g'oyalar yoshlarning identifikatsiya jarayoniga kuchli ta'sir etib, muvaffaqiyat, erkinlik, individualizm, iste'molchilik kabi qadriyatlarni yuksaltirishi mumkin. Shu bilan birga, axborotlashgan jamiyatda bilimga ochiqlik, kreativlik, tanqidiy fikrlash, tolerantlik kabi ijobiy qadriyatlarning shakllanishi uchun ham keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Biroq bu jarayonlarda yoshlarning axborotni tanlash, tahlil qilish va baholash madaniyati yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, manipulyativ axborotlar ularning qadriyatlar tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli ortadi.

Qayd etish lozimki, yoshlar qadriyatlarining shakllanishida oila, ta'lim muassasalari va ijtimoiy institutlarning roli axborotlashgan jamiyat sharoitida yangi mazmun kasb etmoqda. An'anaviy tarbiya institutlari raqamli muhit bilan uyg'unlashmagan taqdirda, yoshlar qadriyatlari asosan virtual makon ta'siri ostida shakllanib qolishi mumkin. Shu bois ta'lim-tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni zamonaviy axborot texnologiyalari orqali yetkazish, yoshlarning axborot madaniyatini oshirish va ularni ongli tanlovga yo'naltirish muhim vazifa hisoblanadi. Natijada axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlar qadriyatlarining shakllanishi murakkab, ko'p omilli va dinamik jarayon sifatida namoyon bo'lib, u izchil ijtimoiy-falsafiy yondashuvni talab etadi.

Raqamli muhit va media makon ta'sirida yoshlar qadriyatlaridagi transformatsion jarayonlar zamonaviy jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lib, u yoshlar ongida kechayotgan ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarning muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar yoshlarning axborot olish, muloqot qilish hamda o'zini namoyon etish shakllarini tubdan o'zgartirdi. Natijada yoshlar orasida tezkorlik, ochiqlik, individual muvaffaqiyatga intilish, vizual madaniyat va qisqa axborotga moslashuv kabi yangi qadriyat yo'nalishlari shakllanmoqda. Shu bilan birga, an'anaviy jamoaviylik, sabr-toqat va chuqur tafakkurga asoslangan qadriyatlar ayrim hollarda ikkilamchi o'ringa tushib qolmoqda.

Media makon yoshlar qadriyatlarining transformatsiyasida me'yoriy va ideal modellarning qayta shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalayotgan "muvaffaqiyatli hayot" obrazlari, mashhurlik va ommaviy e'tirofga intilish yoshlar ongida qadriyatlar ierarxiasini o'zgartirib, tashqi ko'rinish, tez natija va ijtimoiy maqomni ustuvorlashtirishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli muhit ijtimoiy faollik, o'z fikrini erkin bildirish, fuqarolik pozitsiyasini namoyon etish kabi ijobiy qadriyatlarning rivojlanishiga ham zamin yaratadi. Biroq media kontentning tijoratlashuvi va algoritmik boshqaruvi yoshlarning qadriyat tanloviga bilvosita ta'sir ko'rsatib, ularni ma'lum yo'nalishlarga yo'naltirish xavfini ham kuchaytiradi.

Mazkur transformatsion jarayonlar shuni ko'rsatadiki, raqamli muhit va media makon yoshlar qadriyatlarini nafaqat boyituvchi, balki murakkablashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Agar yoshlar media savodxonlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lmasa, qadriyatlar tizimi yuzaki va beqaror tus olishi mumkin. Shu sababli raqamli madaniyatni shakllantirish, media makondan ongli va mas'uliyatli foydalanishni targ'ib etish yoshlar qadriyatlarining sog'lom va barqaror transformatsiyasini ta'minlashda muhim ijtimoiy vazifa hisoblanadi.

Yoshlar qadriyatlarining transformatsiyasi va uning ijtimoiy oqibatlari zamonaviy jamiyat rivojlanishining muhim ijtimoiy-falsafiy masalalaridan biri bo'lib, u globalizatsiya, axborotlashuv va ijtimoiy munosabatlarning tezkor o'zgarishi bilan chambarchas bog'liqdir. Jamiyatda kechayotgan iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar yoshlar ongida qadriyatlar tizimining qayta shakllanishiga olib kelmoqda. An'anaviy qadriyatlar — jamoaviylik, ma'naviy mas'uliyat, mehnatsevarlik va ijtimoiy birdamlik bilan bir qatorda individual erkinlik, shaxsiy muvaffaqiyat va o'zini namoyon etish kabi zamonaviy qadriyatlar ustuvor ahamiyat kasb

etmoqda. Bu holat yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini murakkablashtirib, qadriyatlar ierarxiyasida muvozanat masalasini kun tartibiga olib chiqmoqda.

Yoshlar qadriyatlaridagi mazkur transformatsiya jamiyat hayotining turli sohalarida muayyan ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Ijobiy jihatdan qaralganda, yoshlarning tashabbuskorligi, innovatsion fikrlashi, ijtimoiy faolligi va fuqarolik ongining kuchayishi jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ayrim hollarda utilitar yondashuvning kuchayishi, iste'molchilik kayfiyatining ortishi va ijtimoiy mas'uliyatning susayishi kabi salbiy tendensiyalar ham kuzatilmoqda. Qadriyatlar tizimidagi beqarorlik yoshlar orasida ijtimoiy befarqlik, identitet inqirozi yoki me'yoriy noaniqlik holatlarini kuchaytirishi mumkin.

Mazkur jarayonlarning ijtimoiy oqibatlari shuni ko'rsatadiki, yoshlar qadriyatlarining transformatsiyasi o'z-o'zidan ijobiy yoki salbiy hodisa sifatida baholanmaydi, balki u boshqariladigan va yo'naltiriladigan jarayon bo'lishi lozim. Shu bois davlat siyosati, ta'lim-tarbiya tizimi va fuqarolik jamiyati institutlari global makonda yoshlarda shakllanayotgan yangi qadriyatlarni sog'lom yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish va ularni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga undash orqali yoshlar qadriyatlaridagi transformatsiyaning ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiluvchi ijobiy oqibatlarini kuchaytirish mumkin.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlar qadriyatlarining transformatsiyasi zamonaviy ijtimoiy taraqqiyotning murakkab va ko'p qirrali jarayonlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli texnologiyalar, media makon va global axborot oqimlarining kuchayishi yoshlarning dunyoqarashi, ijtimoiy xulq-atvori hamda hayotiy ustuvorliklariga bevosita ta'sir ko'rsatib, ularning qadriyatlar tizimida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlar ongida an'anaviy qadriyatlar bilan bir qatorda individual erkinlik, o'zini namoyon etish, tezkorlik va innovatsion fikrlash kabi zamonaviy qadriyatlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur transformatsiya jarayoni ijobiy imkoniyatlar bilan birga muayyan ijtimoiy xatarlarni ham keltirib chiqarmoqda. Bir tomondan, yoshlarning ijtimoiy faolligi, kreativ salohiyati va fuqarolik ongining rivojlanishi jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan qadriyatlar tizimidagi beqarorlik, iste'molchilik kayfiyatining kuchayishi va ma'naviy me'yorlarning nisbiylashuvi kabi holatlar ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois yoshlar qadriyatlarining transformatsiyasini o'z holiga tashlab qo'yish emas, balki uni ilmiy asoslangan va maqsadli ravishda boshqarish zarurati vujudga keladi.

Xulosa qilib aytganda, axborotlashgan jamiyatda yoshlar qadriyatlarining transformatsiyasi jamiyatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi bilan uzviy bog'liqdir. Ta'lim-tarbiya tizimi, oila va fuqarolik jamiyati institutlari o'zaro hamkorlikda yoshlarning milliy qadriyatlarga munosabatini to'g'ri yo'naltirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni ishlab chiqishi lozim. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni zamonaviy axborot muhitiga mos tarzda integratsiya qilish orqali yoshlar qadriyatlaridagi transformatsiyani ijtimoiy barqarorlik, ma'naviy yuksalish va innovatsion taraqqiyot manbaiga aylantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev.Sh.M. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi". To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. 124 bet
2. Mirziyoyev.Sh.M. "Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston". To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2024. 513 bet
3. Castells.M. "The Rise of the Network Society". — Oxford: Blackwell Publishing, 2010.
4. Inglehart.R., Welzel.C. "Modernization, Cultural Change, and Democracy". — Cambridge: Cambridge University Press, 2005.

SEMIOKOGNITIV APRIOR NOMLASH ORQALI SUN'IY INTELLEKTNING O'Z-O'ZINI KONSEPTUAL QAYTA QURISH JARAYONINI MODELLASHTIRISH

**Abror Bobokulov,
TDIU, "Falsafa" kafedrası katta o'qituvchisi,
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellekt tizimlarining hozirgi bosqichda matnlarni birlashtirish, statistik bog'lash va kontekst yaratish orqali bilimga o'xshash konstruksiyalar hosil qilishi, biroq ularning ontologik darajadagi bilimni qayta qurish qobiliyatiga ega emasligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt; ontologik modellashirish; semantik tarmoqlar; semiotika; kognitologiya; konseptual rekonstruktsiya; ma'no dinamikasi.

Аннотация. В данной статье анализируется, что современные системы искусственного интеллекта способны создавать конструкции, напоминающие знание, путём объединения текстов, статистического связывания и формирования контекста, однако не обладают возможностью онтологической реконструкции знания.

Ключевые слова: искусственный интеллект; онтологическое моделирование; семантические сети; семиотика; когнитология; концептуальная реконструкция; динамика значения.

Annotation. This article analyzes how contemporary artificial intelligence systems generate knowledge-like constructions by merging texts, establishing statistical links, and forming contextual structures, yet lack the capability to reconstruct knowledge at the ontological level.

Keywords: Artificial Intelligence; Ontological Modeling; Semantic Networks; Semiotics; Cognition; Conceptual Reconstruction; Meaning Dynamics

Hozirgi davrda sun'iy intellekt(SI) tizimlari matnlarni birlashtirish orqali bilim xosil qilishda va ularni mantiqiy bog'lashdagi yutuqlari beqiyos va bu borada "inson" fenomenidan ancha samarali. Ammo jamiyat dinamik jarayon ekanligini va shuning ta'sirida amalga oshishi mumkin bo'lgan ma'nolarning semantik siljishini (evolyutsiya, o'zgarish va yo'qolish) xisobga olganda ular bilimlarni ontologik darajada qayta qurish qobiliyatiga ega emas. Shu sababli ular(SI tizimlari) statistik matnlarni tahlil qiluvchi generatorlar sifatida kontekstual siljishlar, yangi tushunchalarning paydo bo'lishi va prototiplarning yo'qolishiga qarshi himoya sohalarida katta muammolarni tug'diradi. Insonning dastlabki hissiyotlari(kvaliya) orqali ma'no ahamiyat kasb etishi, semantik manipulyatsiyalar shuningdek tabiiy ravishda shakllanadigan semantik evolyutsiyadagi siljishlar ham shular jumlasidandir.

Bugungi kundagi sun'iy intellekt tizimlari deya ataladigan dasturlar, intellektual tizimlarga matnlarni kuzatishlar va u asosida matnlarni birlashtirish orqali erishgan, ya'ni ushbu effektlari orqali ular intellektual tizim deya nomlangan. Muammoning eng dastlabkisi matnning bilim sifatida talqin qilinishidir. Aslini olganda prototipik ma'noda "bilim" bu inson tomonidan obyektiv borliqni eksperimental va mantiqiy tushunish demakdir. Eksperiment va undan olingan qonuniyat umumiy mantiq va semiotikani shakllantiradi. Ya'ni borliqni inson tomonidan matnlarga aylantirilishi bilim effektini xosil qiladi. Ushbu matn konvensional, pragmatik va simvolik tarzda borliq elementlarini chegaralaydi. Ushbu chegara bir narsaning eng muhim va umumiy xususiyatiga ko'ra boshqalaridan ajratish demakdir. Shu tarzda har bir element kodlanadi lekin ushbu kod borliqning elementlarini belgilaydi xolos.

J.Derridaning fikrlariga qarshi o'laroq shuni aytish mumkinki, bir narsani belgilamaslik, unga nom bermaslik uning mavjud emasligini anglatmaydi. Insoniyat kashf qilgan va pragmatik

jihatdan belgilangan borliqning umumiy qonuniyatlari (gravitatsiya, energiya saqlanish va b.) ular nomlanmasidan va kashf qilinmasligidan oldin ham bor edi. Ular tafakkur evolyutsiyasiga ko'ra kognitiv va semantik strukturadan o'rin oldi, inson uchun ochildi, kodlandi va belgilandi. Bu yerda reallikning inson tomonidan anglangan qismi semiotik belgilandi xolos. Shunga ko'ra matnni intellekt emas balki intellektual kod deyishimiz mumkin. Matnlarni shunchaki birlashtirish bu intellekt emas, ratsional ehtimolga ko'ra yangilik bo'lishi mumkin, ammo eksperimental emas.

Intellektning matn bilan bog'liqligi bu periferik ma'no, prototipik emas. Ya'ni nomlash, kodlash va xisoblash intellektning bir qismi xolos, uning prototipida mavhumlikni tushunish yotibdi. Ya'ni intellekt avval o'ziga noma'lum jihatlarni tushunchaga aylantira oladi, ushbu anglangan mantiqqa ko'ra xattoki obyektiv olamda referentga ega bo'lmagan tizimlarni ham shakllantiradi. Bu yerda prototipik mazmun, birinchidan har qanday obyektning tushunish, ikkinchidan hattoki mavhumlikni ham.

Matnlar har doim ontologik markaz y'ani prototipdan va variativ chekka periferiyadan iborat. Matnning ontologik markazi pragmatik jihatdan haqiqat va reallikka moslik sifatida yuritiladi. Matnlarning reallikka mosligi haqidagi klassik korespondent nazariya, keyinchalik post – klassik semantik nazariya orqali semiotik konsensusga o'zgardi. Ya'ni unga ko'ra ontologik realizmning semantik konstruksiya orqali xosil bo'lishi nisbiydir. Bu yerdagi "nisbiy" berilgan sifat har bir semantik konstruksiya nisbiyligi haqida emas, balki ularning reallikni anglatgan pozitsiyasi keyinchalik yangi tushunchalar bilan to'ldirilishi haqida gap ketmoqda. Masalan borliqdagi o'zgarishlarni kauzal deterministik talqinini rad qiluvchi xotik yoki dissipativ harakatlar nazariyasi ularni to'liq inkor qilmay balki olamni tuzilishini yangi tushuncha, ya'ni xaos bilan boyitdi. Bu bilan determinizmni inkor qilmay, semantik qator boyitildi. Jarayonlar uzatmoqchi bo'lgan birinchi sifat tartib, ikkinchisi tartibning kamligidir. Ushbu mantiqdan kelib chiqib shuni belgilash mumkinki agar matnlar borliqning ma'lum bir anglangan qismini anglangan tamoilga ko'ra kesib olingan shakli bo'lsa, ushbu qism undan oldin va keyingi qismlarni anglash uchun ham markaz vazifasini bajaradi. Bunday markazlarni Artur Kestler va Ken Uilber kabi olimlar "holonlar" deb atashgan.

"Holon" tushunchasi yunon tilidan butun element degan ma'noni bildiradi. Holonlar o'zidan kichik qismlar uchun butunlikni, o'zidan katta butunliklar uchun qismlikni tashkil qiladi. Masalan organizm inson uchun qismni, undagi elementlar ya'ni hujayra, qon va boshqalar uchun butunni tashkil qiladi.

"Har bir holon o'zini yarim-avtonom butun sifatida saqlash va tasdiqlashga, shu bilan birga kattaroq butunning integratsiyalashgan qismi sifatida faoliyat ko'rsatishga intiladi"[1,48]. "Haqiqat narsalar yoki jarayonlardan emas, balki holonlardan — cheksiz darajada boshqa butunlarning qismlari bo'lgan butunlardan iborat" [2,23].

Matnlarning yana bir paradoksal tomoni shundaki u bir tomondan haqiqiy reallikning bir qismini izohlasa, boshqa tomondan ushbu izoh orqali reallikni bo'g'ib qo'yadi va to'xtatib qoladi. Masalan obyektiv reallikni dastlab barqaror tizim sifatida tavsiflovchi qarashlar, go'yoki olam bu turg'unlik deya nom bergan (metafizika). Ushbu davrda, bu matn atrofida katta bir stoiklar maktabi shakllandi. Davrlar o'tib ushbu matn kuchli tanqidlarga uchradi endi olam bu o'zgaruvchan (dialektika). Keyingi matn ham birinchi belgilanishning ichida, unga nisbatan binar oppozitsiyada shakllandi. Ya'ni birinchi matn barqaror, ikkinchisi esa shunchaki barqaror emas. Olamning barqaror emasligi va o'zgaruvchanligi umuman olganda barqarorlikning negatsiyasida, uning zamirida shakllandi. Undan keyingi g'oyalar ham masalan, sinergiyani olaylik, yoki kollektiv, dissipativ xarakterlarni olaylik barchasi barqarorlik va beqarorlik, xolizm va reduksionizm, o'zgaruvchan va o'zgarmaslik kabi binar oppozitsion modellar zamirida shakllangan. Ushbu fikrlar evolyutsiyasi matndan tashqariga chiqmagan xolatda, xattoki inkor qilsa ham buni matn ichida bajargan xolatda amalga oshganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu integratsiyada ossilyatsion jiddiy ta'sir mavjud, matn ongni o'ziga tortadi, kerak bo'lsa shakllantiradi. Ong esa ushbu matndan chiqib doim yangi belgilarni yaratishi kerak.

Ong matnlarga bog'lanib qolmasligi va undan chiqib boshqa ma'nolarni xosil qilishi uchun uchun uch bosqichli tartib zarur:

Birinchidan, har qanday matn yoki so'zda prototipik yadroni aniqlashtirish va uni keyinchalik umuman o'zgarmaydigan, doimiy barqaror belgi sifatida qayd etish lozim; chunki metafora, semantik kengayish prototipni so'ndiradi;

ikkinchidan, perimetral ma'nolarni (periferiyalarni) ochiq, lekin prototipga izchil bog'langan kontekstual zonalar sifatida belgilash zarur; barcha periferik ma'nolar xosil qilinish nisbatlari, gradial o'zgarishlarning aniq jadvalini shakllantirishi muhimdir.

uchinchidan, binar oppozitsiyalarni konstruktiv transpozitsiya qilish kerak; ulardan nafaqat qarama-qarshilik, balki o'lchovli parametr (masalan, barqarorlik darajasi) sifatida foydalanish zarur.

Tahlilga ko'ra real olamdagi umumiy jarayon, tizim yoki tamoillarning eng umumiy anglangan qismining uzib olingan qismi holonlar, holonlar shunday bir tekislikda yotadiki undan oldin uning o'tmishdoshlari anglangan qismlari, undan keyingilari ham shunday shakllanadi. Ushbu qarashga ko'ra ham, asosiy obyektlar o'zidan oldingilari orqali shakllanadi va o'zidan keyingilarini shakllantirishda xizmat qiladi. Ushbu holonlarning eng muhim belgilarini prototiplar deb nomlaymiz. Xohlaymiz-mi yo'qmi holonlarni o'zidan oldin va keyingilari orasidalgini anglatuvchi umumiy belgilari bor. Aynan ushbu belgilar orqali biz holonlarning umumiy semantik qatorga kiritamiz. Odatda tur, sinf va oilaga kiruvchi elementlar ushbu tur, sinf va oilaga tegishli umumiy belgiga va ulardan alohida belgilanuvchi xususiy belgiga ega. Demak holonlarning alohida belgisi bu prototip, qo'shimcha belgi periferiya xisoblanadi. Periferiya prototipni turli holonlar kontekstida ko'rib chiqish imkonini beradi.

Masalan: "Qush" prototipi — pat, uchish qobiliyati, tuxum qo'yishlardan tashkil topgan.

Periferiya bo'lsa yuqorida keltirilganidek kontekstga qarab o'zgaradi: burgut uchun yirtqichlik, tovuq uchun parvarishlanuvchanlik, tuyaqush uchun ucholmaslik kabi. Ushbu mantiqdan shuni belgilash mumkin-ki, prototip – invariant belgi (hech qachon o'zgarmaydigan, barqaror), periferiya esa – variativ belgilarning majmui xisoblanadi.

Ontologik koordinatalarni shakllantirishda prototiplarning kognitiv barqarorligini aynan holonlar taminlaydi. Bu yerda prototip markazga yo'l oladi, holonlar esa ularni kontekstual qiladi, ya'ni ushbu markazning o'rnini aniqlaydi, topadi, belgilaydi. Ya'ni markazlar shunchaki mustaqil yoki hamma joyda mavjud bo'la olmaydi (zanjir ichida joylashgan), qaysidir elementlarga nisbatan markaz, qaysidir markazga esa elemen, uning markaziyligi boshqa markazlar orqali belgilanadi. Masalan: "katta", "o'rta", "kichik" prototiplari o'chovlar holonlarida yotadi. Lekin ushbu prototiplarning periferiyaga ko'chishi ularni holonistik zanjirdan uzadi.

Periferik manolardan zanjir yasash semantik moslashuvchanlik, batfsil mohiya bersada, prototiplarni asl manoda emas turlicha talqin qilinishga olib keladi. Uardagi asosiy ma'nolar siljiydi, keyinchalik ushbu ma'nolarni, kontekstual, zanjiriy yoki evolyutsion tahlil qilish imkonsiz bo'lib qoladi.

Aytaylik, o'lchovlar holonida, dastlab "kichik" kabi prototipik matn yoki so'z yaratildi, xuddi shu o'lchov holonida nisbiy ravishda boshqa, tushunchalar "o'rta" va "katta" kabi matn va so'zlar yaratildi. Bu yerda **katta** — "kichikka nisbatan" va "o'rta nisbatan" markaziylikka ega. Ya'ni uning mazmuni **nisbiylikka asoslangan semantik koordinatada** shakllanadi. Nisbiylik bu yerda, bir – biriga nisbatan balki oddiy variatsiyaga nisbatan emas.

Lekin **katta** so'zidan semantik periferiya hosil bo'lishi mumkin, masalan: **bahaybat**, haybatli – jismoniy va ma'naviy belgi (inson yoki tabiatga nisbatan); **ulug'** — "ijtimoiy-madaniy belgi, obro', sharaf" (inson yoki qadriyatga nisbatan);

Bu holatda semantik maydon kengayadi, lekin u endi o'lchovlar holonidagi koordinataga bog'liq bo'lmay qoladi va boshqa ma'no qatlamiga siljiydi. Katta so'zi "kichik" va "o'rta" bilan umumiy kontrastda prototipik mazmunga ega bo'lgan xolatida, haybatli, ulug' kabi periferiya shakllari endi "kichik" yoki "o'rta" bilan bog'lanmaydi, balki alohida semantik sohada

(ulug'lash, ijtimoiy sharaf) ishlatiladi. Natijada, ularning holonistik zanjirga ulanadigan markaziyliigi yo'qoladi, ular faqatgina periferik metaforik yoki kontekstual qiymat sifatida mavjud bo'la oladi.

Shu tarzda "katta"ning protopik mazmuni o'lchov koordinatasidan chiqib, periferik metaforaga ko'chishi —holonistik zanjirdan uzilishiga olib keladi.

Ikkinchi bir asosiy bo'lgan va murakkablik tug'dirgan masala bu belgilarning kollektiv ahamiyatga egaligidir. Semiosferik tizim faqat ijtimoiy munosabat uchun mo'ljallangan bo'lib, u faqat shaxsiylashsa birinchidan jamoa uchun begona, ikkinchidan qutblangan shaxs ham jamoadan tashqarida qoladi. Kollektiv belgilar o'zaro murosaa va kelishuv asosida belgilanadi va obyektiv tamoilga ega bo'lishi shart emas. Ya'ni belgilar ma'lum bir jamoadagi elita orqali tashabbus bilan qolganlar uchun ham joriy qilinadigan, dastlab ixtiyoriy keyinchalik majburiy amal qilinadigan tizim xisoblanadi. Har qanday shaxsiy belgi jamoa tomonidan tan olinmas ekan, u ahamiyatsizdir. Belgilarning kollektiv ya'ni ular jamoaviy ong bilan belgilangani bois, har doim ham obyektiv referentlar bilan mos kelavermaydi.

Umuman olganda semantik entropiya tabiiy yoki sun'iy yo'l bilan amalga oshishi mumkin. Tabiiy holatlarga diaxronik til o'zgarishi, ya'ni vaqt davomida lingvistik modellarning evolyutsiyasi orqali sodir bo'ladi; semantik polisemiyaning ko'payishi ya'ni aynan semantik yadro periferiya orqali boshqa bir prototipni xosil qiladi: o'simlik ildizi, kvadrat ildiz, muammoning ildizi va b.;

Semantik siljish umumiy tahlilda va jiddiy farqlar orqali namoyon bo'ladi va uni aniqlash kontekstual, davriy va qatlamli solishtirilganda yuzaga chiqadi. Jiddiy farqlanishni bir qaraganda sezmaslik mumkin chunki davrlardagi oddiy konseptning siljishi bir necha davrlarda yig'ilib jiddiy semantik yadroning yo'qolishiga, prototipdan periferiyaga o'tishiga olib keladi.

Tabiiy holatda semantik siljishni tahlil qilish uchun, modellashtirish jarayonini tashkil qilishda bizga tadqiq qilinadigan tushunchaga oid barcha ma'lumotlar yig'iladi. Ular: yozma manbalar, gazeta, jurnal, qonunlar, matbuot matnlari, asarlar, sherlar va b. Vaqtni aniqlash uchun qatlamlar tashkil qilamiz, ular davriy xisoblanib chiqiladi. Vaqt ya'ni davr qatlamidagi tahlil bizga "qatlamning muhiti"ni aniqlashga yordam beradi. Har bir davrda tahlil qilinayotgan tushunchaning ma'no xaritasi tuziladi. Ma'no xaritasida birinchi o'rinda prototip ya'ni markaziy ma'no so'ngra markaziy ma'no bilan ishlatiladigan ibora, birikma yoki odatiy kontekslar yoziladi. Masalan adolat so'zi atrofida turli davrlarda qo'shib ishlatiladigan so'zlarni olamiz: "ilohiy tartib", "podsho adolati", "me'yor", "javobgarlik", "tenglik", "ijtimoiy", "sinfy", "huquqiy", "protsessual". Adolat so'zi bilan ishlatiladigan ushbu tayanch birikmalar qanchalik tez va qaysi ohangda qo'llangani qatlamdan qatlamga solishtiriladi. Masalan qatlamlardagi yaqinlik va uzoqlik, evolyutsiya va spontanlik, ma'no xaritalaridagi o'xshashliklarning bir – biriga mosligi, ushbu qatlamlardagi o'tishlarning bosqichma bosqich amalga oshishi, yangi ma'noning davriy paydo bo'lishi va eskisining ham davriy so'nishi bizga manipulyatsiyalar ehtimoli kamligini va prototipik deformatsiyalarning tabiiy ekanligini va qaysi omillarga ko'ra siljiganini ochiq beradi. Ma'no qatlamlarining ushbu davriy tahlili vaqt davomida qatlamlarning yaqinligini va sakrashlarni aniqlab, uzilishlar paydo bo'lganini va ushbu siniqlar yangidan boshqa qatlamlar paydo bo'lganini ko'rsatadi.

Bosqichma – bosqich va sekin siljishlar "gradual siljish"ga, mavsumiy va davriy siljishlar esa qaytuvchi qatlamga mos keladi. Ushbu model orqali "konsept siljishi"ning statistik belgisi falsafiy tilda "ma'no qatlamining surilishi" sifatida aniq dalillar — indikator iboralar, kontekst o'zgarishi, yangi ta'riflar kirishi — bilan isbotlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Koestler, A. The Ghost in the Machine. London: Hutchinson, 1967, p. 48
2. Wilber, K. Sex, Ecology, Spirituality: The Spirit of Evolution. Boston: Shambhala, 1995, p. 23

ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТИНИНГ ИЧКИ ВА ТАШҚИ МИГРАЦИЯСИ ҲОЛАТИ
(статистик маълумотлар асосида)

Гулмира Азаматова,
Жиззах давлат педагогика университети,
Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б

Аннотация. Мазкур мақолада бугунги глобаллашув шароитида долзарб аҳамият касб этган аҳоли миграцияси жараёнлари, миграциянинг ҳудудий хусусиятлари ёритилган. Аҳолининг миграция ҳаракатлари, миграциянинг тенденциялари, ички ва ташқи миграция масалалари Жиззах вилояти мисолида таҳлил этилган.

Калит сўзлар: миграция, аҳоли миграцияси, ички миграция, ташқи миграция, кўчиб келганлар, кўчиб кетганлар.

Аннотация. В данной статье рассматриваются процессы миграции населения, ставшие актуальными в условиях современной глобализации, а также территориальные особенности миграции. На примере Джизакского региона анализируются миграционные потоки населения, миграционные тенденции и вопросы внутренней и внешней миграции.

Ключевые слова: миграция, миграция населения, внутренняя миграция, внешняя миграция, иммигранты, эмигранты.

Annotation. This article discusses the processes of population migration, which have become relevant in today's globalization environment, and the territorial characteristics of migration. Population migration movements, migration trends, and issues of internal and external migration are analyzed using the example of the Jizzakh region.

Keywords: migration, population migration, internal migration, external migration, immigrants, emigrants.

Дунё мамлакатлари аҳолисининг маълум бир қисми бугунги глобаллашув шароитида ер шари бўйлаб турли таъсир ва жараёнлар сабаб таълим олиш, меҳнат қилиш, яшаш жойини ўзгартириши табиий ҳолатга айланди. Шакл ва мазмун жиҳатидан бу жараён миграция деб аталиб, бир пайтнинг ўзида иқтисодий, ижтимоий, сиёсий, диний ва экологик каби характерга эга. Аҳоли миграцияси – аҳолининг яшаш жойини ўзгартириши билан боғлиқ кўчиши бўлиб, глобаллашув жараёнида долзарблик касб этган ҳолда ҳозирда аҳолининг асосий муаммоларидан бири бўлганлиги учун, унга инсонларнинг мураккаб ижтимоий жараёни сифатида қаралади. Ўзбекистон Республикаси ҳудудида аҳолининг миграция ҳаракати унинг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий ҳолати таъсирида жуда қадимдан мавжуд бўлган жараёндир.

Аҳоли миграцияси – аҳолининг жойлашиши, ерни хўжалик жиҳатдан ўзлаштириш, ишлаб чиқарувчи кучларни ривожлантириш, ирқлар, тиллар ва халқларнинг пайдо бўлиши ва аралашиб кетиш жараёнлари билан боғлиқлиги сабаб инсоният тараққиётида муҳим аҳамиятга эга бўлган жараёндир.

Мустақиллик йиллари миграция жараёнлари, хусусиятлари ва миграциянинг ҳудудларга таъсири ҳақида Л.П.Максакова, Р.А.Убайдуллаева, Қ.Х.Абдурахмонов, З.Н.Тожиева, З.А.Толаметова ва бошқа олимлар томонидан тадқиқот ишлари олиб борилган.

Аҳоли миграциясининг ҳудудий хусусиятларидан ички миграция ўзига хос муҳим жараён бўлиб, аҳолининг бир мамлакат ичидаги ҳаракатланиши бўлиб, бунда қишлоқ (қишлоқ-шаҳар), шаҳар (шаҳар-қишлоқ), қишлоқлараро (қишлоқ-қишлоқ), шаҳарлараро (шаҳар-шаҳар) миграцияси назарда тутилади [1].

Ўзбекистон Республикаси ҳудудларида аҳоли миграцияси ҳолати турлича бўлиб, бу уларнинг демографик ҳолатига, “миграция ресурсларига”, хўжалигининг тармоқлар таркиби ва ривожланганлик даражасига, аҳолисининг ёш-жинс ва миллий таркибига таъсир этиши натижасида қишлоқ аҳолиси ишсизлик, моддий қийинчилик сабаб республиканинг марказий шаҳарларига, шунингдек хорижий мамлакатларга ҳам миграция қилмоқдалар. Республика ҳудудларида ички кўчишининг асосий йўналишларидан бири аҳолининг қишлоқ жойлардан шаҳарларга ўтиб жойлашишидир [2]. Статистик маълумотлар таҳлилларига кўра, ҳозирда Ўзбекистон қишлоқ жойлари миграция туфайли ўз аҳолисининг маълум бир қисмини “йўқотиб” бормоқда. Қишлоқ-шаҳар миграцияси – аҳолининг маълумотларни оширишлари, янги касбни эгаллашлари, малакаларини оширишлари шунингдек касбий ҳаракатчанликларида қудратли омилдир [3].

Жиззах вилояти — Ўзбекистон Республикаси таркибидаги вилоят. Республиканинг марказий қисмида жойлашган. 1973 йил 28 декабрда вилоят сифатида ташкил этилган. Шимолий-шарқда Қозоғистон Республикаси ва Сирдарё вилояти, жануби-ғарбда Самарқанд ва Навоий вилоятлари, жануби-шарқда Тожикистон Республикаси билан чегарадош. Майдони — 21,2 минг км². Аҳолиси — 1 млн 521 минг киши (2024 йил). Жиззах вилоятида 12 та туман мавжуд: Арнасой, Бахмал, Дўстлик, Шароф Рашидов, Зарбдор, Зафаробод, Зомин, Мирзачўл, Пахтакор, Янгиобод, Фориш ва Ғаллаорол. Вилоятда 20 та шаҳар ва шаҳарчалар (Ғагарин, Даштобод, Дўстлик, Жиззах, Маржонбулок, Пахтакор, Ғаллаорол, Зарбдор, Зомин, Бўстон, Зафаробод, Ўснат, Учкулоч, Богдон, Пишагар, Қўйтош, Шарқ юлдузи, Арнасой) ҳамда 400 та қишлоқ фуқаролари йиғини мавжуд (2022 йил). Вилоят маркази — Жиззах шаҳри. Вилоятнинг рельефи тоғлик, қир ва текисликлардан иборат. Жанубий қисмини Туркистон тизмасининг тармоқлари — Морғузар тизмаси, ғарбий қисмини эса Нурота тизмасининг шарқий қисми эгаллаган. Шимолий, шимоли-ғарб ва шарқий қисмлари (Мирзачўл ва Қизилқум чўлининг жануби-шарқий ҳудудлари) асосан текисликлардан иборат.

Жиззах вилоятининг миграция жараёнлари ўзига хос анъанавий хусусиятга эга бўлиб, XX асрнинг 60–70 йилларида Мирзачўл даштини ўзлаштириш муносабати билан бу ерга республиканинг бошқа вилоятларидан, айниқса, кўшни Самарқанд вилоятининг Жомбой, Пайарик, Булунғур, Пастдарғом, Навоий вилоятининг Нурота туманларидан кўплаб аҳоли кўчиб келган [4]. Жиззах вилояти ва унинг ҳудудида ташкил этилган янги қишлоқ туманлари аҳолиси, асосан, миграция натижасида шаклланган.

Мустақиллик йилларида республика аҳолисининг миграция ҳаракатлари фуқароларнинг ўз ихтиёрлари ва танловларига асосан рўй бера бошлади [5].

Ўзбекистон Республикаси истиқлолга эришган йили Жиззах вилоятига кўчиб келганларнинг сони 12 минг 749 кишини, кўчиб кетганлар 16 минг 006 кишини ташкил этди. 1991 йил Жиззах вилоятига жами кўчиб келган 12 минг 749 кишидан 1718 нафари Мирзачўл, 1482 киши Дўстлик ва 1425 киши Арнасой туманлари ҳудудига тўғри келади.

Миграция жараёни ўзининг ўсиш ва пасайиш тенденциясига эга, шу сабаб, Жиззах вилоятига кўчиб келувчилар сонида 1995 йилгача ўсиш, ушбу йилдан эса пасайиш тенденциясини кўриш мумкин. Статистик маълумотлар таҳлили 1991 йилдан бошлаб Жиззах вилоятига кўчиб келганлар сони 1998 йилгача пасайиб борганлигини, 1999 йилдан 2005 йилгача кўчиб келганлар сони ўсиб борганлигидан далолат беради. Шунингдек, 1999 йили вилоятдан кўчиб кетган аҳоли 9 минг 630 киши бўлган, 2005 йилда бу кўрсаткич 18 минг 911 кишини ташкил этган. Шунингдек, 1991 йил хориждан Жиззах вилоятига 3 минг 280 киши кўчиб келган, 5 минг 522 киши эса кўчиб кетган бўлиб, миграция сальдоси 2242 ни ташкил этган. Жиззах вилоятига нафақат республика ҳудудлари аҳолиси, балки хорижий давлатлардан ҳам аҳоли кўчиб келган. 2001 йилда хорижий давлатлардан Жиззах вилоятига 85 киши кўчиб келган, 3 минг 035 киши эса вилоятдан хорижий давлатларга кўчиб кетган, миграция сальдоси 2950 бўлган.

Ўзбекистон Республикасида аҳоли турмуш даражаси ва сифатининг сезиларли даражада яхшиланиши, иш ҳақи ва даромадларнинг муттасил ортиб бораётганлиги ўз навбатида аҳолининг ташқи миграциясига ўз таъсирини кўрсатмоқда. 2012 йилда Ўзбекистонда ташқи миграция сальдоси 2005 йилдагига нисбатан 50,7 минг кишига камайди. 1991 йилдан 2020 йилгача бўлган даврда Жиззах вилоятидан 2005 йилда хорижга энг кўп аҳоли кўчиб кетган, яъни 10 минг 281 киши. 2006 йилда Тошкент вилояти ва Қорақалпоғистон Республикасида энг кўп миграцион йўқотиш кузатилган бўлиб, бу ҳолат Жиззах ва Навоий вилоятларида ҳам миграция қолдиғи анча катта бўлган.

Миграция жараёнлари у ёки бу минтақа аҳоли сонига таъсир этиши билан биргаликда унинг миллати, жинси, ёши, маълумоти, даражаси ва касби таркибини ҳам ўзгартиради. 2009 йилда Ўзбекистон Республикасига хориждан кўчиб келган 3 минг 528 нафар аёллардан 77 таси Жиззах вилоятига кўчиб келган. Мазкур йилда республика ҳудудидан хорижга кўчиб кетган 27 минг 899 нафар аёллардан 1548 таси Жиззах вилояти хотин-қизлари ҳиссасига тўғри келади. 2012 йилда Жиззах вилоятига кўчиб келганлар 7748 киши, кўчиб кетганлар 10 минг 16 киши бўлиб, 2013 йилда вилоятининг барча қишлоқ туманлари ва Жиззах шаҳрида миграция интенсивлиги юқори бўлган ҳолда унинг натижаси манфий бўлган. Ушбу йилда Мирзачўл туманида ҳар минг кишига 21,6 киши келган, 14,6 киши кетган, миграция қолдиғи мусбат 7,0 га тенг бўлган. Шунингдек, Жиззах ва Зарбдор туманларида ҳам аҳоли алмашинувининг натижаси ижобий, энг катта йўқотиш Янгиобод ва Арнасой туманларида кузатилади.

Инсонлар меҳнат қилиш, таълим олиш, яшаш, турмуш шароитини яхшилаш мақсадида ҳамиша ҳудудлар бўйлаб турли муддатларга миграция ҳаракатини амалга оширадилар. Айни вақтда бозор муносабатларининг зарурий шартларидан бири меҳнат миграцияси ҳисобланади. Ўзбекистон фуқароларининг хорижий мамлакатларга бориб меҳнат қилишининг асосий сабаблари сифатида доимий яшаш манзилида иқтисодий ўсишнинг пастлиги, ишсизлик муаммосининг мавжудлиги, фаровон ҳаёт кечириш учун оилавий даромадларининг етишмаётганлигини таъкидлаш мумкин. Жиззах вилоятида меҳнат миграцияси оқими юқори бўлган ҳудудлар Ғаллаорол (“Кўкғумбаз”, “Қашқабулоқ”, “Самарқанд”, “Ғафур Ғулом” маҳаллалари), Ш.Рашидов, Дўстлик, Пахтакор туманларидир. Бугунги кунда Жиззах вилоятида хорижда меҳнат қилаётган меҳнат мигрантлари сони 35 минг 676 нафарни ташкил этади, қайтиб келган меҳнат мигрантлари эса 86 минг 233 нафарни ташкил этади.

Ўзбекистон Республикасида аҳоли бандлигини таъминлаш ижтимоий-иқтисодий тараққиётнинг устувор йўналишларидан бири, халқ турмуш даражаси ва сифатини юксалтиришнинг муҳим шарти сифатида белгиланган [6]. 2016 йил Жиззах вилояти бўйича 5624 киши бандликка кўмаклашиш марказларига иш сўраб мурожаат этган. Шундан, 5044 нафари ишга жойлаштирилган.

Миграция жараёни ўз навбатида мамлакат демографиясига ҳам таъсир этади. 2016 йилда Жиззах вилоятининг доимий аҳолиси сони 1 301,0 киши бўлиб, шундан аёллар 15 999,5 киши, ушбу йилда Жиззах вилоятида ишсизлик даражаси 5,4 фоизни ташкил қилган [7].

2018 йилда Жиззах вилоятига 11 055 киши кўчиб келган, шундан 3580 киши республика ҳудудларидан, 7 416 нафари вилоят ҳудуди ичидан, 59 киши эса хорижий давлатлардан кўчиб келган, 236 киши хорижий давлатларга кўчиб кетган.

Аҳоли миграциясида 2019 йилнинг декабрь ойи ҳолатига Жиззах вилояти бўйича кўчиб келганлар сони 10,3 минг кишини, кўчиб кетганлар сони эса 11,6 минг кишини ташкил этиб, миграция сальдоси минус 1,3 минг киши бўлиб, 2018 йилнинг мос даврида минус 0,8 минг киши бўлган. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг маълумотиغا кўра, 2010-2020 йилларда Ўзбекистон Республикасига кўчиб келганлар ичида эркаклардан кўра аёлларнинг улуши кўпайган.

Жиззах вилояти статистика бошқармаси маълумотига кўра, 2021 йилда вилоятда энг кўп аҳоли Шароф Рашидов туманига – 1252 нафар, Жиззах шаҳрига 1107 нафар фуқаро кўчиб келган бўлса, энг кам аҳоли Янгиобод туманига кўчиб келган. Жиззах вилоятида аҳолининг миграцион ҳаракатлари вақт, сабаб, ҳудудий жиҳатдан турли даражада намоён бўлади. Аҳоли миграцияси ҳамма вақт барча давлатларда зарурий, объектив жараён бўлиб, мамлакат ижтимоий-иқтисодий, сиёсий барқарор ривожланишига таъсир кўрсатган. Жиззах вилоятидаги ички ва ташқи миграциянинг асосий сабаби иш ўринлари ва иқтисодий имкониятлар билан боғлиқ. Таълим, тиббиёт, инфратузилма ва ижтимоий хизматларга бўлган эҳтиёж эса жараёни кучайтирувчи омил ҳисобланади.

2022-йил январь-декабр ойларида Жиззах вилояти бўйича доимий яшаш мақсадида кўчиб келганлар жами сони 6 минг 631 кишини ташкил этиб, кўчиб кетганлар сони жами 8 минг 417 кишини, миграция сальдоси -1786 кишини ташкил этди. 2021 йилнинг мос даврида 8 минг 993 киши бўлган.

Ўзбекистонда ички миграцияни кузатиш тизимлари асосан мамлакат ичида доимий яшаш жойларини ўзгартириш бўйича маълумотларгатаянишда давом этмоқда. Бу аҳолининг мобиллигини ўлчаш учун фойдали кўрсаткич бўлсада, кўплаб аҳоли доимий яшаш жойини расмий равишда ўзгартирмасдан вақтинча ёки қисқа муддатли мақсадларда кўчиб юриши мумкинлиги сабабли бу услуб ички миграция жараёнини тўлиқ акс эттирмаслиги мумкин. Ички миграция мамлакатдаги демографик ўзгаришлар билан биргаликда мобилликни ҳам ўзида намоён этади.

Иқтисодий глобаллашув кучайиб бораётган ҳозирги кунда миграция оқимининг ўсиб бориши вилоятда ички ва ташқи миграция жараёнларини кузатиш, бошқариш, мониторинг қилиш, шунингдек аҳолининг ҳудудий ҳаракатланишини тартиблаш жараёнларига ўз таъсирини кўрсатади. Жиззах вилоятида аҳолининг ички ва ташқи миграция ҳаракатларининг вужудга келиши турли омиллар билан боғлиқ бўлиб, аҳолининг ижтимоий-иқтисодий имкониятлари вилоятнинг ижтимоий-иқтисодий барқарор ривожланишида муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар:

- 1.Абдурахмонов Қ. Х ва бошқалар. Демография: дарслик. – Тошкент: Iqtisodiyot, 2014. – 288 б.
- 2.Асанов Г, Набихонов М, Сафаров И. Ўзбекистоннинг иқтисодий ва ижтимоий жўғрофияси: ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
- 3.Максакова Л.П. Узбекистан в системе международных миграций //Постсоветские трансформации: отражение в миграциях. – Москва: ИТ «Адамант», 2009. – 331 с.
- 4.Солиев А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. – Тошкент: Университет, 2014. – 143 б.
- 5.Ҳайдаров С.А. Жиззах вилоятида аҳоли миграция ҳаракатларининг вужудга келиш масалалари //Ўзбекистон География Жамияти Ахборотномаси 2012. – Б. 89.
- 6.Abdullayev S.A., Xajiyev B.D., Mambetjanov Q.Q. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi: darslik. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. – 302 б.
- 7.O‘zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi. Statistik to‘plam. Toshkent-2019, B 99.

AXBOROT MADANIYATI GLOBALLASHUVIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR UYG'UNLASHUVI

Nodirbek Kodirov,
NamDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada axborot madaniyati globallashuvida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unlashuvi sharoitida yoshlar o'rtasida axborot-media madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy omillari, g'oyaviy-nazariy asoslar hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga aloqadorligi tahlil tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: axborot madaniyati, media savodxonlik, yoshlar siyosati, ijtimoiy omillar, milliy mafkura, qadriyat, medimadaniyat, tanqidiy fikr.

Аннотация. В данной статье анализируются социально-политические факторы и идейно-теоретические основы формирования и развития информационно-медийной культуры среди молодёжи в условиях гармонизации национальных и общечеловеческих ценностей в процессе глобализации информационной культуры, а также её взаимосвязь с национальными и универсальными ценностями.

Ключевые слова: информационная культура, медиаграмотность, молодёжная политика, социальные факторы, национальная идеология, ценность, медиакультура, критическое мышление.

Annotation. This article analyzes the socio-political factors and ideological-theoretical foundations of forming and developing information-media culture among youth in the context of the harmonization of national and universal human values during the globalization of information culture. It also examines the relationship of this process to both national and universal values.

Keywords: information culture, media literacy, youth policy, social factors, national ideology, value, media culture, critical thinking.

Kirish (Introduction) Hozirgi globallashuv jarayoni axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiya vositalarining tez suratlarda rivojlanishi bilan yaqindan bog'liqdir. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarga, balki manaviy-marifiy hayotga ham jiddiy tasir ko'rsatmoqda. Axborot madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi natijasida insoniyatning umumiy axloqiy mezonlari, inson huquqlari, erkinlik, bag'rikenglik kabi umuminsoniy qadriyatlar yanada keng tarqalmoqda. Biroq, bu holat ayrim hollarda milliy qadriyatlarga tasir ko'rsatishi, hatto ularning yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Axborot madaniyati tushunchasi zamonaviy jamiyat taraqqiyotida muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Globallashuv jarayonida axborot almashinuvining tezkorlik bilan o'sib borishi, har bir jamiyatda axborot madaniyatini mustahkamlash, milliy qadriyatlar bilan umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish zaruratini vujudga keltiradi. Chunki bugungi axborot maydoni nafaqat bir mamlakat yoki mintaqa ichida cheklanib qoldi, balki butun dunyo bo'ylab jarayonlarning bir-biri bilan bog'liq holda kechishi, internet imkoniyatlarining cheksiz darajada kengayishi sababli turli madaniyatlar, turli qarashlar va turli tarixiy meroslarning bir nuqtada uchrashuviga olib keldi. Shu bois milliy qadriyatlarimizni yoddan chiqarmagan holda, umuminsoniy qadriyatlar asosida butun dunyo bilan hamnafas yashash imkoniyatini shakllantiruvchi axborot madaniyatini ravnaq toptirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kun sharoitida jamiyat a'zolari axborotni topish, saralash va undan samarali foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim. Xususan, axborot madaniyati munosabatlari axborotni oldindan tanlab, maqsadli tarzda tahlil etish, kerakli ma'lumotdan foydalana olish kabi texnik ko'nikmalar bilan bir qatorda axborotni axloqiy,

huquqiy va estetik jihatdan baholay olishni ham o'z ichiga oladi. Shu ma'noda axborot madaniyati insoniyat tarixida ilk bor ana shuncha keng ko'lamda targ'ib etilayotgan turli g'oyalar, turli manbalar o'z hissi bilan umuminsoniy qadriyatlarning ko'plab sahifalarida namoyon bo'lish imkoniyatini beradi. Lekin axborot oqimi ko'paygani sayin, unda tanlab olish, saralab ishlash, axborotdan to'g'ri maqsadlarda foydalanish muammolari ham dolzarblashadi. Bu ahvol milliy qadriyatlarni anglash, ularni zamonaviy ilm-fan yutuqlari bilan boyitish hamda dunyoviy taraqqiyot manzarasida universal qadriyatlar bilan uyg'unlashuv jarayonini samarali tashkil etish uchun ayni muddao sanaladi. Chunki globallashuv – bu biror bir milliy madaniyatni yiltiraqsiz so'ndirib yubormaydi, balki yanada boyitish va chuqurlashtirish uchun maydon yaratadi, agar unga puxta tayyorgarlik bilan yondashilsa.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Axborot madaniyati — insonning axborotni yaratish, qabul qilish, tahlil qilish, qayta ishlash va to'g'ri qo'llash madaniyatidir. XXI asrda axborot madaniyati faqatgina shaxsiy malakalar majmuasi emas, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlarning tashuvchisi hamdir.

Globallashuv esa turli millatlar, davlatlar va madaniyatlarning bir-biri bilan chambarchas bog'lanishi, umumiy axborot makonining yaratilishi jarayonidir. Bu jarayon internet, televideniye, ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshmoqda. Natijada inson dunyoqarashida o'zgarishlar sodir bo'ladi, yangi g'oya va qadriyatlar paydo bo'ladi.

Milliy qadriyatlar — bu har bir millatning tarixiy xotirasi, tili, urf-odati, manaviy merosi va madaniyatidir. Ularni asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga yetkazish har bir millatning milliy o'zligini saqlab qolishida muhim ahamiyatga ega. Ammo global axborot makonida yurtimiz yoshlari ko'pincha chet el madaniyati tasirida qolmoqda, bu esa ayrim hollarda milliy qadriyatlardan uzoqlashishga olib kelmoqda.

Umuminsoniy qadriyatlar — bu insoniyatning barcha qatlamlariga xos bo'lgan qadriyatlar bo'lib, ularga insoniylik, mehr-oqibat, haqiqatparvarlik, adolat va tenglik kabilar kiradi. Milliy qadriyatlar aynan shu umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda rivojlansa, jamiyatda sog'lom manaviy muhit yuzaga keladi.

Milliy qadriyatlar va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unlashuvi, eng avvalo, axborot madaniyatini boyitishga xizmat qiladi. Masalan, millatlarning o'ziga xos urf-odatlar, an'analar, bayramlari, me'moriy yodgorliklari bugun internet tarmog'i orqali butun dunyo hamjamiyatiga tanitilishi mumkin. Bu yo'l bilan milliy merosni keng auditoriyaga ko'rsatish, uning jozibasi orqali turizm, iqtisodiy hamkorlik yoki madaniy almashinuvni rivojlantirish imkoni yaratadi. Shu bilan birga, umuminsoniy qadriyatlar global ravishda keng tarqalishi ortidan fuqarolarda axborot, fikr, e'tiqod erkinligi, bag'rikenglik, inson huquqlari kamolot topadi. Ushbu jarayonda yoshlar o'ziga xos rakurstan bo'lgan axborot muhitida tarbiyalanadi: ular bir vaqtning o'zida ham milliy xususiyatlar, ham umumbashariy printsiplarni qabul qilishi, shu asosda axborot bilan ishlash madaniyatini takomillashtirishi kerak bo'ladi [1,67]. Ijtimoiy-falsafiy tahlil shuni ko'rsatadiki, globallashuv jarayonida milliy xususiyatlar bilan umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi munosabat har doim ham bir xil bo'lmaydi. Ayrim holatlarda milliy qadriyatlar asosida yot g'oyalarga qarshi immunitet shakllanadi, yoshlar turli axborot xurujlaridan, madaniy ekspansiyadan muhofaza etiladi. Masalan, xato ideologiya, aqidaparastlik, zo'ravonlikni targ'ib etuvchi mazmunlar internet orqali kirib kelishda davom etadi, shu bois milliy qadriyatlar asosiga qurilgan axborot madaniyati yoshlarning ongli ravishda fil'tr vazifasini bajarishiga turtki bo'ladi. Biroq boshqa bir holatlarda milliy qadriyatlar turli geosiyosiy yoki iqtisodiy manfaatlar bilan to'qnashganda yoshlar ongida asl mohiyat buzilishi mumkin, ular turli vujudga kelgan axborot muammolarini to'g'ri anglay olmay qoladi. Shu bois axborot madaniyatida milliy qadriyatlar bilan umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish oson jarayon emas. Unga keng ko'lamdagi tarbiya, ta'lim, ma'rifat, qonuniy asoslar, siyosiy iroda zarur [2,120].

Shu nuqtai nazardan, axborot madaniyatini rivojlantirish orqali yosh avlodni nafaqat ilg'or texnologiyalarga oshno qilish, balki ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq etib tarbiyalash ham muhim vazifa hisoblanadi.

Globallashuv ko'plab davlatlarda milliy o'zlikni saqlash muammosini kuchaytirdi. Ayniqsa, yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda ko'proq vaqt o'tkazgani sababli, ular global madaniyatning bevosita iste'molchisi bo'lib bormoqda.

Shu nuqtai nazardan, milliy qadriyatlar quyidagi mexanizmlar orqali moslashadi:

Integratsiya – milliy qadriyatlar global qadriyatlar bilan uyg'unlashib, mazmunan boyiydi.

Adaptatsiya – milliy qarashlar global axborot oqimlariga mos shaklga kiradi.

Innovatsion transformatsiya – yangi, zamonaviy milliy madaniy model paydo bo'ladi.

Masalan, o'zbek xalqining mehmondo'stlik, kattaga hurmat, oilaparvarlik, halollik kabi qadriyatlari bugungi axborot makonida ham yoshlar ongida mustahkam turishi uchun ularni raqamli madaniyat bilan uyg'unlashtirish lozim.

Har bir xalqning milliy qadriyatlari — uning tarixiy xotirasi, urf-odatlar, axloqiy tamoyillari, ma'naviy olami va madaniy merosiga asoslanadi. Axborot globallashuvi mazkur qadriyatlarga ikki yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi:

a) Ijobiy ta'sirlar:

milliy merosni dunyo jamoatchiligiga tanitish imkoniyati kengaydi;

raqamli texnologiyalar orqali milliy san'at, adabiyot, til va urf-odatlarni targ'ib qilish osonlashdi;

yoshlar milliy identitetni zamonaviy formatda qabul qilmoqda.

b) Salbiy ta'sirlar:

global madaniyatning ayrim elementlari yoshlarni mahalliy qadriyatlardan uzoqlashtirishi mumkin;

ijtimoiy tarmoqlardagi noo'rin kontent milliy qadriyatlar bilan zid bo'lishi ehtimoli yuqori; ommaviy madaniyatning haddan tashqari bosimi milliy o'zlikni susaytirishi mumkin.

Shunday bo'lsa-da, milliy qadriyatlarni raqamli makonda qayta talqin qilish va yangicha ko'rinishda targ'ib qilish, ularning saqlanishiga xizmat qilmoqda.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, internet tarmoqlarining kengayishi va global kommunikatsiya vositalarining kuchayishi natijasida bugungi kunda axborot madaniyati har bir shaxsning asosiy kompetensiyalaridan biriga aylandi. Globallashuv sharoitida insonlarning dunyoqarashi, qadriyat tizimi, madaniy o'zligi va ijtimoiy faoliyati bevosita raqamli makonda shakllanmoqda. Bu jarayonda milliy qadriyatlar va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash, ularning bir-birini boyituvchi jihatlarini izlash zamonaviy jamiyat oldida turgan eng muhim vazifalardan sanaladi.

Axborot madaniyati — bu insonning axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, qayta ishlash va undan mas'uliyat bilan foydalanish malakalarini o'z ichiga olgan ijtimoiy-madaniy ko'nikmalar majmuasidir. Globallashuv axborot almashinuvi tezligini keskin oshirdi, natijada turli madaniyatlarning bir-biriga ta'siri kuchayib, milliy va umuminsoniy qadriyatlar minglab axborot kanallari orqali o'zaro aralashib borayotgani kuzatiladi. Mazkur jarayonning ijobiy jihati shundaki, insoniyatning umumiy ma'naviy merosi, tinchlik, bag'rikenglik, adolat, inson huquqlariga hurmat kabi umuminsoniy qadriyatlar yanada keng ommalashmoqda. Biroq globallashuvning ayrim salbiy oqibatlari — madaniy standartlashuv, ommaviy madaniyatning bosimi, yoshlarning milliy o'zligidan begonalashuvi kabi holatlar ehtiyotkorlikni talab qiladi.

Milliy qadriyatlar — xalqning tarixiy xotirasi, an'analari, urf-odatlar va ma'naviy merosi bo'lib, har qanday jamiyatning o'ziga xosligini belgilaydi. Raqamli makonda mazkur qadriyatlar yangi ko'rinishda talqin etilmoqda: milliy madaniyatni targ'ib qiluvchi internet loyihalari, tarixiy merosni raqamlashtirish, milliy dizayn, milliy kontentga ega platformalarning paydo bo'lishi milliy qadriyatlarning saqlanishiga va takomillashuviga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, global madaniyatning kuchli bosimi ba'zan yoshlar ongiga begona g'oyalar, turmush tarzi va yengil-kulgili kontentni singdirishi bilan xavf tug'diradi. Bu holat milliy identitetning zaiflashuviga olib kelmasligi uchun raqamli axborot maydonida ongli tanlov, media savodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish zarur.

Umuminsoniy qadriyatlar esa barcha insonlar uchun umumiy bo'lgan tamoyillar majmuasidir. Inson huquqlari, erkinlik, bag'rikenglik, tinchlik, ekologik mas'uliyat, adolat va halollik XXI asrda global ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillardir. Axborot madaniyati ushbu qadriyatlarning keng tarqalishiga katta imkon yaratadi. Masalan, internet orqali xalqaro ilmiy tajriba almashinuvi, tolerantlik g'oyalarining ommalashuvi, inson huquqlarini himoya qiluvchi jamoatchilik harakatlarining shakllanishi aynan raqamli maydon yordamida ro'y bermoqda.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashuvi — bu birining ikkinchisini inkor etishi emas, balki bir-birini to'ldirishi va boyitishi jarayonidir. Bu uyg'unlik yoshlar ongida barqaror ma'naviy asoslar shakllanishiga xizmat qiladi. O'z xalqining madaniy ildizlarini anglagan, shu bilan birga global madaniyatning ijobiy tomonlarini qabul qilgan shaxs komil inson sifatida kamol topadi.

Uyg'unlikni ta'minlashning asosiy omillari quyidagilardan iborat: birinchidan, media va axborot savodxonligini oshirish, yoshlarni axborotni tanqidiy tahlil qilishga o'rgatish; ikkinchidan, milliy raqamli kontentni rivojlantirish; uchinchidan, ta'lim tizimida axborot madaniyati va raqamli etikaga oid darslar mazmunini kuchaytirish; to'rtinchidan, oilada milliy tarbiya va raqamli madaniyat uyg'unligini yo'lga qo'yish; beshinchidan, kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish, yoshlarni zararli kontentdan himoya qilish.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Shunday ekan, axborot madaniyati globallashuvida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unlashuvi masalasi bir tekis jaryon bo'lmay, uzluksiz ravishda yangi ilmiy, texnologik, siyosiy chaqiriqlar bilan to'ldirilib boradi. Bu chaqiriqlarga javoban biz, bir tomondan, milliy merosni saqlab qolish va rivojlantirish uchun unu-tilmas vazifalarni ado etishimiz, ikkinchi tomondan esa umuminsoniy imkoniyatlardan oqilona foydalanishimiz lozim. Shu orqali jamiyatimizda keng qamrovli taraqqiyot, madaniy ko'tarilish, axborot tizimlarida turli ilg'or yondashuvlarni joriy etish imkoni tug'iladi. Eng muhimi, har bir yoshni global jarayonlarda faol ishtirok etish, bir paytning o'zida milliy an'analar, yezgu fazilatlar va ma'naviy merosni avaylab asrash, egallashga yo'naltirish mumkin bo'ladi. Demak, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unlashuvi axborot madaniyati taraqqiyotini chuqurlashtiradigan uzviy jarayon bo'lib, bu jarayonda qaysi bir mamlakat yoki millat bo'lmasin, faqat yutuqlarni oldinga surib, jahon sivilizatsiyasida munosib o'rin egallay oladi [3,51].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, axborot madaniyati globallashuv tarixini davrlashtirish tamoyillari mazkur jarayonning keng ko'lamdagi evolyutsiyasini tushunib olish uchun asosiy metodologik poydevor bo'lib xizmat qiladi. Bu tamoyillar har bir davrda axborot tarqatish usullari, texnologiyalari, jamiyat ongida axborotni qabul qilish mexanizmlari, ijtimoiy-siyosiy holat, huquqiy asoslar, mafkuraviy jarayonlar, iqtisodiy resurslar bilan muayyan bir butunlikni shakllantiradi. Shu bois, axborot madaniyati haqida gap ketganda, uni bir bosqichda qolgan, o'zi o'zgarmaydigan tizim sifatida emas, balki davrlar kesimida muntazam rivojlanib boradigan, jamoatchilik fikri, siyosiy muhit, texnologik imkoniyatlar, iqtisodiy sharoitlar bilan birgalikda transformatsiyalanadigan universal fenomen sifatida baholash lozim. Ana shu jarayonlarning mantiqiy, o'zviy bog'liqligi axborot madaniyati tarixiy taraqqiyotini to'laqonli tushunish uchun muhim poydevor yaratadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Saidova.U. “Yoshlar tarbiyasida axborot strategiyalari”,. “Navro'z” nashriyoti, Toshkent, 2019. 198 bet.
2. Xoliqov.B. “Globallashuv davrida axborot texnologiyalari”. “Akademnashr” nashriyoti, Toshkent, 2022. 300 bet.
3. Zunnunov.A. “Media-ma'naviyat: nazariya va amaliyot”. “Yangi asr avlodi” nashriyoti, Toshkent, 2020. 224 bet.

O'ZBEKISTONDA IJTIMOY DAVLAT RIVOJINING IJTIMOY-FALSAFIY JIHATLARI

Muhabbat Davletova,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda ijtimoiy davlatning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Shuningdek, ijtimoiy davlat rivojining zamonaviy bosqichida amalga oshirilayotgan islohotlarning falsafiy mazmuni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy davlat, O'zbekiston, ijtimoiy-falsafiy jihatlar, taraqqiyot, ijtimoiy adolat, davlat siyosati, ijtimoiy himoya, islohotlar, barqarorlik, milliy qadriyatlar.

Аннотация. В данной статье анализируются этапы формирования и развития социального государства в Узбекистане с социально-философской точки зрения. Кроме того, раскрывается философское содержание реформ, осуществляемых на современном этапе развития социального государства.

Ключевые слова: социальное государство, Узбекистан, социально-философские аспекты, развитие, социальная справедливость, государственная политика, социальная защита, реформы, стабильность, национальные ценности.

Аннотация. В данной статье анализируются этапы формирования и развития социального государства в Узбекистане с социально-философской точки зрения. Кроме того, раскрывается философское содержание реформ, осуществляемых на современном этапе развития социального государства.

Keywords: social state, Uzbekistan, socio-philosophical aspects, development, social justice, state policy, social protection, reforms, stability, national values.

Kirish. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida ijtimoiy davlat tamoyillarining bosqichma-bosqich joriy etilishi va ularning davlat boshqaruvi tizimiga integratsiyalashuvi muhim o'rin tutadi. Bu jarayonning ijtimoiy-falsafiy mohiyati shundaki, inson va jamiyat manfaati avvalo turli sohalarida ijtimoiy tenglik, ijtimoiy adolat, fuqarolik faolligi hamda davlat va jamiyat institutlari o'rtasida uyg'unlikka asoslanadi. Ijtimoiy davlatning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar orasida aholining ijtimoiy himoyasi, ta'lim hamda sog'liqni saqlash sohalariga doir davlat siyosatining izchil amalga oshirilishi, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan choralar alohida ahamiyatga ega. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan qaralganda, ijtimoiy davlat tushunchasi nafaqat tashkiliy yoki institutsional o'zgarishlarni, balki jamiyat madaniyati, qadriyatlari va an'analariga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlik, jamiyat a'zolari o'rtasida o'zaro hurmat, birdamlik va ehtiyojlarni hisobga olish, fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlash kabi jarayonlar ijtimoiy davlat rivojining muhim jihatlari hisoblanadi. Shuningdek, ijtimoiy xavfsizlik, teng imkoniyatlar muhitini yaratish, davlat tomonidan aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish kabi ustuvor vazifalarning amalga oshirilishi ham ushbu sohaning dolzarb yo'nalishlari sirasiga kiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekistonda ijtimoiy davlatni shakllantirish va rivojlantirishda zamonaviy taraqqiyot tendensiyalari, demokratik tamoyillar hamda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan islohotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat ijtimoiy siyosatining asosiy maqsadi fuqarolarning turmush darajasini oshirish, ularning ijtimoiy himoyasini mustahkamlash, ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirishdan iboratdir. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar jarayonida davlat va jamiyat hamkorligini kuchaytirishga, aholi

farovonligini ta'minlash orqali barqaror taraqqiyotga erishishga alohida urg'u berilmoqda. Falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, ijtimoiy davlat institutlarining rivojlanishi jamiyat a'zolarining ongida davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro mas'uliyatni chuqurlashtirish, fuqarolarning o'z huquqlari va burchlariga ongli munosabatda bo'lishini shakllantirish, ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishda tashabbuskorlik va faollikni kuchaytirishga xizmat qiladi. O'zbekiston tajribasida ijtimoiy davlat rivojining asosiy tamoyillari: ijtimoiy adolat, inson huquqlari, teng imkoniyatlar, barqaror taraqqiyot, jamiyat a'zolarining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga e'tibor qaratiladi. Mazkur prinsiplar asosida davlat tomonidan ijtimoiy kafolatlarni kuchaytirish, fuqarolarning ijtimoiy himoyasi uchun zamonaviy xizmatlar va imkoniyatlar yaratish bo'yicha qator kompleks dasturlar va islohotlar amalga oshirilmoqda [1].

Ijtimoiy davlat falsafasining asosiy mezonlaridan biri jamiyat a'zolarining o'z manfaatlarini davlat va jamiyat integral tizimida aks ettirishiga asoslangan. Bu ijtimoiy hamjihatlik va birdamlik tamoyillarining hayotga singdirilishida davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston sharoitida ijtimoiy davlat rivojining falsafiy asoslari ko'plab zamonaviy sohalarga kirib boradi va ijtimoiy taraqqiyot xarakterini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Shu ma'noda, zamonaviy O'zbekiston ijtimoiy davlatining ulkan imkoniyatlari va istiqbollari mavjud bo'lib, mamlakat taraqqiyotining har bir bosqichida mazkur prinsiplar yanada chuqurlashib bormoqda [2].

Muhokama va natijalar. Davlat boshqaruvi va ijtimoiy islohotlar doirasida asosiy e'tibor jamiyatning barcha qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratishga, ijtimoiy sohaning moliyaviy va tashkiliy asoslarini mustahkamlashga, shuningdek, adolat va taraqqiyot asoslarini barpo qilishga qaratilmoqda. Shu bilan birga, o'zaro axborot va ta'lim almashinuvi, ijtimoiy muammolarni samarali hal qilish, fuqarolarning ijtimoiy faolligi va jamoaviy ongini yuksaltirish ham ijtimoiy davlat rivojining zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining asosiy qonun hujjatlarida ijtimoiy davlat tamoyillari va fuqarolarning ijtimoiy kafolatlari mustahkam belgilangan. Taraqqiyot va modernizatsiya bosqichida O'zbekiston ijtimoiy davlat sifatida o'zining mustaqil rivojlanish modelini ishlab chiqdi va muntazam takomillashtirib bormoqda. Bunda xalq farovonligi, ijtimoiy himoya, ijtimoiy xavfsizlik, zamonaviy infratuzilma yaratilishi va yangi ijtimoiy institutlarning paydo bo'lishi asosiy yo'nalishlardan hisoblanadi. Yangi davrda ijtimoiy taraqqiyotga yo'naltirilgan davlat siyosatining amalga oshirilishi, ijtimoiy qadriyatlarni himoya qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish ijtimoiy davlat falsafasining asosiy ustunlariga aylanmoqda [3].

Ijtimoiy davlat taraqqiyoti ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samaradorligini oshirish, aholining turmush sifatini yaxshilash, davlat-xususiy hamkorligini mustahkamlash, raqamli texnologiyalar asosida ijtimoiy xizmatlarni kengaytirish va zamonaviy ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchi, ijtimoiy xavfsizlikning kafolatlanishi, ilg'or xalqaro amaliyotlarni jalb etish asosida milliy taraqqiyot va modernizatsiya bosqichlari bosib o'tilmoqda. Mamlakat ijtimoiy siyosatining bugungi zamondagi yo'nalishlari davlat boshqaruvi va iqtisodiyotni rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ijtimoiy himoya, bandlik, ta'lim, sog'liqni saqlash, yoshlarni qo'llab-quvvatlash va boshqa sohalarda ijobiy natijalarni ko'rsatmoqda. Ijtimoiy faoliyatning har bir yo'nalishida ilg'or g'oya va konsepsiyalar asosida islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy davlat tamoyillarini chuqur anglash va amaliyotga keng tadbqiq etish orqali jamiyat barqarorligi, ijtimoiy adolat va umumiy taraqqiyotga erishish maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy davlat rivojining zamonaviy bosqichlarida jamiyat va davlat institutlarining o'zaro munosabatlari yanada ko'proq ochiq va shaffof tus olmoqda. Bu ijtimoiy barqarorlikka erishish, davlat islohotlarining samaradorligini oshirish, fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash, aholining davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga bo'lgan ishonchini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar, davlat va jamiyat munosabatlarining demokratik prinsiplarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Yaxshi boshqaruv va samarali islohotlar orqali jamiyatda ijtimoiy farovonlik, milliy birdamlik va

taraqqiyotka zamin yaratilmoqda. Davlat tomonidan fuqarolarga taqdim etiladigan zamonaviy ijtimoiy xizmatlar, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarni oshirish, aholi turmush darajasini barqaror oshirish, islohotlar natijadorligini ta'minlash uchun barcha imkoniyatlar safarbar etilmoqda [4].

O'zbekistonda ijtimoiy davlatni rivojlantirish strategiyasi muqim va tizimli yondashuvlarga asoslangan. Bu borada fuqarolarning ijtimoiy muhofazasini mustahkamlash, ijtimoiy xavfsizlik hududini kengaytirish, aholining barcha qatlamlari uchun sifatli, zamonaviy ijtimoiy xizmatlar yaratishga e'tibor qaratilmoqda. Ijtimoiy davlat tushunchasi va uning ijtimoiy-falsafiy asoslarini rivojlantirishda davlat va jamiyat o'zaro yordam va hamkorlik tamoyillariga tayangan holda oldinga harakat qilmoqda.

Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ijtimoiy davlatni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Ijtimoiy davlat - bu fuqarolarning ijtimoiy farovonligini ta'minlash, aholining ehtiyojmand va himoyaga muhtoj qatlamlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan boshqaruv modeli hisoblanadi. Uning asosiy vazifalaridan biri fuqarolarga teng imkoniyatlar yaratish, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni yumshatish, hamda mehnatga layoqatli aholi bandligini rivojlantirishdir. Ijtimoiy davlat rivojlanishi natijasida jamiyat hayotining barcha sohalarida ijobiy o'zgarishlar yuzaga keladi. Avvalo, bunday davlatda fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklari kafolatlanadi, ularga zarur yordamlar ko'rsatiladi. Ayrim oilalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar, yoshlar, nogironlar, yolg'iz keksalar va bolali onalarga davlat tomonidan turli ko'rinishdagi yordamlar ajratilishi odatiy holga aylanadi. Bu esa jamiyatda adolat va tenglik prinsiplarini mustahkamlaydi. Shuningdek, ijtimoiy davlatda zamonaviy va sifatli ta'lim tizimining yaratilishi ham ustuvor vazifalardan biridir. Har bir fuqaro, yoshidan qat'i nazar, zamonaviy bilim olishi, o'z qobiliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyatlarga ega bo'ladi. Yangi maktablar, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalari qurilishi, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy pedagogika yondoshuvlarini joriy etish jamiyat ravnaqi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tizimining doimiy rivojlantirilishi natijasida ma'rifatli, bilimdon va malakali kadrlardan iborat barkamol avlod yetishib chiqadi [5].

Xulosa. Xulosa o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekistonda ijtimoiy davlat rivojining ijtimoiy-falsafiy jihatlari xalq farovonligi va jamiyat barqarorligi uchun muhim asos bo'lmoqda. Fuqarolarning ijtimoiy muhofazasi, inson huquqlari va erkinliklari, ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillariga amal qilish, ilg'or demokratik qadriyatlarning jamiyatda mustahkam qaror topishi, zamonaviy islohotlar bilan uyg'unlikda ijtimoiy davlat modelini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ijtimoiy-falsafiy qarashlar asosida O'zbekistonning barqaror va taraqqiy etgan davlat sifatida rivojlanishi, kelajak avlodlar uchun ham ijtimoiy himoya va baraka kafolati bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdujabborova.N. "O'zbekistonda ijtimoiy sheriklik va uning rivojlanish bosqichlari." O'zbekiston Fanlar Akademiyasi axborotnomasi, 2(1), 164-171. 2018.
2. Abdukodirova.Z. "Ijtimoiy davlat va jamiyat barqarorligi." O'zbekiston ijtimoiy fanlar jurnal, 3, 98-104. 2021.
3. Akramova.M. "Ijtimoiy himoya va aholini qo'llab-quvvatlashdagi yangi yondashuvlar." Ijtimoiy fanlarda innovatsiyalar, 2(5), 87-93. 2019.
4. Davronov.M. "Demokratik davlat va jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyillari." XXI asrda ijtimoiy-falsafiy jarayonlar, 1(4), 122-128. 2017.
5. Ibragimova, D. "Milliy qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot." Tarix va jamiyat, 5(3), 45-51. 2020.

DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK MAS'ULIYATI UYG'UNLIGI

Davronbek Abdimalov,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada davlat xizmatlari va fuqarolik mas'uliyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati hamda manfaatlar uyg'unligining davlat boshqaruvi samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi. Davlat xizmatlari faqatgina huquqiy-institutsional tizimning emas, balki fuqarolarning ongli ishtiroki va mas'uliyatli yondashuvining natijasi sifatida samarali kechishi mumkinligi ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: davlat xizmatlari, fuqarolik mas'uliyati, manfaatlar uyg'unligi, shaffoflik, hisobdorlik, ijtimoiy faollik, davlat boshqaruvi, xalqaro tajriba.

Аннотация. В статье анализируется взаимосвязь между государственными услугами и гражданской ответственностью, их значение в развитии общества, а также влияние гармонии интересов на эффективность государственного управления. Научно обосновано, что государственные услуги могут быть эффективными не только как результат правовой и институциональной системы, но и благодаря сознательному участию граждан и ответственному подходу.

Ключевые слова: государственные услуги, гражданская ответственность, гармония интересов, прозрачность, подотчётность, социальная активность, государственное управление, международный опыт.

Annotation: The article analyzes the interconnection between public services and civic responsibility, their significance in societal development, and the impact of interest harmony on the efficiency of public administration. It is scientifically substantiated that public services can be effective not only as a result of the legal and institutional system but also through the conscious participation of citizens and a responsible approach.

Keywords: public services, civic responsibility, harmony of interests, transparency, accountability, social activity, public administration, international experience.

Kirish. Bugungi globallashuv va tezkor ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida davlat xizmatlari samaradorligi va fuqarolik mas'uliyati o'rtasidagi uyg'unlik masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki zamonaviy davlat boshqaruvi tizimi fuqarolarni oddiy xizmat oluvchi emas, balki davlat bilan hamkorlikda faoliyat yurituvchi mas'uliyatli sub'ekt sifatida ko'rmoqda. Davlat xizmatlari sifati qanchalik yuqori bo'lsa, fuqarolarning ulardan foydalanishdagi faolligi va mas'uliyati ham shunchalik oshadi. Bu jarayon esa o'z navbatida ijtimoiy ishonchni mustahkamlash va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat xizmatlari institutining samarali faoliyati nafaqat byurokratik tartiblarni soddalashtirish yoki fuqarolarga qulaylik yaratish bilan belgilanadi, balki ularning ongida huquqiy madaniyatni shakllantirish, mas'uliyat hissini kuchaytirish va jamiyat manfaatlari yo'lida faol ishtirok etishga undash orqali ham o'z samarasini beradi. Shu nuqtai nazardan, davlat xizmatlari sifatini oshirish bilan bir qatorda fuqarolarning mas'uliyatini rivojlantirish davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda davlat xizmatlari va fuqarolik mas'uliyati uyg'unligi ko'pincha "ijtimoiy shartnoma" tushunchasi orqali izohlanadi. Masalan, ingliz faylasufi T.Hobbs va fransuz mutafakkiri J.-J.Russo qarashlariga ko'ra, davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro huquq va majburiyatlar asosida muvozanat mavjud bo'lib, fuqarolar davlatdan xizmat va himoya olishi evaziga qonunlarga rioya etishi, jamiyat barqarorligiga hissa qo'shishi zarur [1]. Zamonaviy tadqiqotchilar esa ushbu uyg'unlikni ijtimoiy kapital, ishonch va hamkorlik mezonlari orqali tahlil qiladilar. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda davlat xizmatlari tizimida huquq islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlat xizmatlarini "yagona darcha"

tamoyili asosida ko'rsatish, raqamlashtirish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash borasida sezilarli yutuqlarga erishildi. Biroq bu islohotlarning to'laqonli natija berishi uchun fuqarolarning ham mas'uliyati kuchayishi, davlat xizmatlaridan oqilona va samarali foydalanishi, qonuniy talablarni hurmat qilishi talab etiladi. Shunday qilib, davlat xizmatlari va fuqarolik mas'uliyati uyg'unligini ta'minlash davlat va jamiyat manfaatlarini mustahkamlashga kafolatlaydi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatda barqaror taraqqiyot, fuqarolarning farovon hayoti va demokratik tamoyillarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shu bois ushbu mavzuni chuqur ilmiy tahlil qilish, nazariy asoslarini yoritish va amaliy yechimlarni taklif etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar sharhi. Davlat xizmatlari va fuqarolik mas'uliyati uyg'unligi masalasi bo'yicha ilmiy adabiyotlarda turli nazariy yondashuvlar mavjud. Mazkur mavzu ko'plab falsafiy, sotsiologik va siyosiy tadqiqotlarda keng o'rganilgan bo'lib, ular davlat va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning turli qirralarini yoritadi. Klassik nazariy yondashuvlarda davlat va fuqarolar o'rtasidagi aloqalar "ijtimoiy shartnoma" konsepsiyasi asosida izohlanadi. Unga ko'ra, fuqarolar davlatdan himoya va xizmatlar olish evaziga jamiyat qonun-qoidalariga rioya etish majburiyatini oladi. Bu yondashuv fuqarolik mas'uliyatining davlat xizmatlari bilan uyg'unlashuvini tushuntirishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. M.Weber o'zining "rasmiy boshqaruv" (byurokratiya) konsepsiyasida davlat xizmatlari samaradorligi, tartib-intizom va qonuniylikni ta'minlashni fuqarolarning ijtimoiy ishonchi bilan bog'liq holda ko'rib chiqqan. Weberning ta'kidlashicha, davlat xizmatlari samarali bo'lishi uchun ularning shaffofligi, hisobdorligi va fuqarolar ehtiyojlariga mosligi muhim ahamiyat kasb etadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati keng tadqiq qilina boshlandi. R. Putnamning ijtimoiy kapital nazariyasi fuqarolik mas'uliyatining davlat xizmatlari bilan uyg'unligida jamiyatdagi ishonch, hamkorlik va o'zaro hurmatning muhimligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, davlat xizmatlari qanchalik ochiq va samarali bo'lsa, fuqarolar ularga shunchalik faol jalb etiladi va o'z navbatida mas'uliyat bilan yondashadi. J.Rawlsning adolat nazariyasi esa fuqarolik mas'uliyatini tenglik va adolat tamoyillari orqali tushuntiradi. Rawls fikricha, davlat xizmatlari barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratishi lozim, fuqarolar esa o'z majburiyatlarini bajarish orqali ijtimoiy tizim barqarorligini ta'minlaydi. O'zbekiston ilmiy adabiyotlarida ham ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. So'nggi yillarda davlat xizmatlarini rivojlantirish, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytirish, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirishga oid ko'plab monografiya va ilmiy maqolalar chop etilmoqda. Xususan, "Davlat xizmatlari markazlari" faoliyatiga oid tadqiqotlarda fuqarolar uchun qulayliklar, shaffoflik va ochiqlik mexanizmlari bilan bir qatorda, fuqarolarning xizmatlardan oqilona foydalanish mas'uliyati ham alohida qayd etilgan. Shuningdek, BMT, Jahon banki, OECD kabi xalqaro tashkilotlarning hisobotlari va tadqiqotlari ham davlat xizmatlari sifatini baholash va fuqarolik mas'uliyati uyg'unligini ta'minlash borasida muhim manba hisoblanadi. Masalan, BMTning "E-Government Survey" hisobotlarida davlat xizmatlarida raqamlashtirish jarayonlari nafaqat samaradorlikni oshirish, balki fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash vositasi sifatida ham ko'rsatilgan [2].

Metodologiya. Mazkur tadqiqot davlat xizmatlari va fuqarolik mas'uliyati uyg'unligini o'rganishga qaratilgan bo'lib, metodologik yondashuvlar bir necha asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqotda ham nazariy, ham amaliy yondashuvlar qo'llanildi. Birinchidan, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish usuli (literature review) orqali mavzu bo'yicha mavjud nazariy yondashuvlar, xalqaro tajribalar va O'zbekiston amaliyotidagi holatlar chuqur o'rganildi. Bu bosqichda davlat xizmatlari samaradorligi, fuqarolik mas'uliyati va ularning uyg'unligi bilan bog'liq ilg'or nazariy tushunchalar tahlil qilindi. Ikkinchidan, komparativ tahlil usuli yordamida O'zbekiston tajribasi rivojlangan mamlakatlar (Singapur, Janubiy Koreya, Skandinaviya mamlakatlari) amaliyotlari bilan solishtirildi. Bu yondashuv davlat xizmatlari sifatini oshirish, fuqarolarni jalb etish va mas'uliyatni uyg'unlashtirishda muvaffaqiyatli mexanizmlarni aniqlashga xizmat qildi. Uchinchidan, sotsiologik tadqiqot metodlari qo'llanildi. Xususan,

fuqarolar orasida so'rovnoma va intervyular orqali davlat xizmatlarining sifati, fuqarolarning mas'uliyat bilan yondashuvi va elektron xizmatlardan foydalanishdagi tajribasi o'rganildi. So'rovlar natijalari davlat xizmatlari tizimidagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asos yaratdi. To'rtinchidan, statistik tahlil usullari yordamida olingan ma'lumotlar umumlashtirildi, indikatorlar tizimi ishlab chiqildi va davlat xizmatlari samaradorligini o'lchash mezonlari aniqlashtirildi. Shu orqali xizmatlarning nafaqat texnik samaradorligi, balki fuqarolarning ijtimoiy ishonchi va mas'uliyat bilan yondashuvi ham baholandi. Beshinchidan, huquqiy va institutsional tahlil amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasining davlat xizmatlari sohasidagi qonunlari, normativ-huquqiy hujjatlari va strategik hujjatlari o'rganilib, ularning fuqarolik mas'uliyati bilan uyg'unlikdagi roli tahlil qilindi. Shu bilan birga, tadqiqot integratsiyalashgan yondashuvni qo'lladi, ya'ni nazariy, amaliy, huquqiy va statistika asosidagi ma'lumotlar birlashtirildi. Bu yondashuv davlat xizmatlari va fuqarolik mas'uliyati uyg'unligini baholashda ilmiy ishonchlilikni oshirdi va O'zbekiston sharoitida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon berdi. Natijada, tadqiqot metodologiyasi orqali davlat xizmatlarining samaradorligini oshirish va fuqarolarning mas'uliyat bilan ishtirokini kuchaytirish uchun zarur ilmiy asoslar yaratildi. Ushbu metodologiya nafaqat O'zbekistonda, balki boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda ham tatbiq qilinishi mumkin.

Natijalar. Tadqiqot jarayonida davlat xizmatlari va fuqarolik mas'uliyati uyg'unligini o'rganishga oid bir qator muhim ilmiy-amaliy natijalarga erishildi. Birinchidan, davlat xizmatlarining samaradorligi va fuqarolar mas'uliyati o'rtasidagi bevosita bog'liqlik aniqlandi. Shu jumladan, fuqarolar davlat xizmatlaridan samarali foydalanishi va o'z majburiyatlarini bajarishi xizmatlarning sifatini oshiradi, shaffoflik va adolatni mustahkamlaydi. Ikkinchidan, so'rovnoma va intervyular natijalari ko'rsatdiki, aholining katta qismi elektron xizmatlardan foydalanishni qulay deb baholagan, biroq ayrim toifa, xususan, keksalar va texnologiyaga kamroq kirish imkoniga ega shaxslar uchun xizmatlardan foydalanishda qiyinchiliklar mavjud. Bu esa davlat xizmatlari tizimini yanada inkluziv va fuqarolar uchun moslashuvchan qilish zaruratini ko'rsatadi. Uchinchidan, indikatorlar tizimi ishlab chiqilib, xizmatlar samaradorligini baholash mezonlari aniqlashtirildi. Bular orasida xizmat ko'rsatish tezkorligi, qulayligi, shaffofligi, korrupsiyaga qarshi kurashish darajasi, fuqarolar qoniqish darajasi va xizmatlardan foydalanishda adolat muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, fuqarolarning mas'uliyat bilan yondashuvi ham baholash mezonlaridan biri sifatida kiritildi. To'rtinchidan, huquqiy va institutsional tahlil shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari davlat xizmatlari sifatini oshirish va fuqarolik mas'uliyati uyg'unligini ta'minlashga asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, amaliyotda ayrim hududlarda xizmat ko'rsatish madaniyati va jamiyatni jalb etish mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmaganligi kuzatildi. Beshinchidan, xalqaro tajribani o'rganish shuni ko'rsatdiki, Singapur, Janubiy Koreya va Skandinaviya mamlakatlarida davlat xizmatlari va fuqarolar mas'uliyati uyg'unligi yuqori bo'lib, ular raqamli texnologiyalar va fuqarolar ishtirokini ta'minlovchi tizimlar orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston uchun bu tajribalar ilg'or mexanizmlarni joriy etish imkonini beradi.

Muxokama. Davlat xizmatlari va fuqarolik mas'uliyati uyg'unligi masalasi zamonaviy ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb mavzulardan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, davlat xizmatlarining sifatli va samarali tashkil etilishi fuqarolarning mas'uliyat bilan yondashuvi bilan bevosita bog'liq. Shu bilan birga, ushbu uyg'unlikni ta'minlash jarayoni nafaqat texnik va tashkiliy chora-tadbirlarni, balki madaniy, ijtimoiy va huquqiy omillarni ham o'z ichiga oladi. Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra (Masalan, R. Putnam, J. Rawls), davlat xizmatlarining ochiqligi va samaradorligi fuqarolarning ishonchi va ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi[3]. Ularning tadqiqotlarida ko'rsatilganidek, fuqarolar faol ishtirok etadigan va o'z majburiyatlarini bajaradigan tizimlar jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, davlat xizmatlari samaradorligi faqat xizmat ko'rsatish mexanizmlari bilan emas, balki fuqarolarni jalb etish, ularning ongli yondashuvini shakllantirish va mas'uliyatni rag'batlantirish orqali ham oshiriladi. O'zbekiston tajribasida davlat xizmatlari markazlari va elektron xizmatlar tizimi

orqali fuqarolar ishtiroki kengaytirilmoqda. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, xizmatlarning qulayligi, shaffofligi va tezkorligi fuqarolarni faol yondashuvga undaydi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda xizmatlardan foydalanishda texnologik va axborot imkoniyatlari bilan bog'liq muammolar mavjud bo'lib, ular fuqarolik mas'uliyatini oshirishda to'sqinlik qiladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, fuqarolik mas'uliyati va davlat xizmatlari uyg'unligini ta'minlashda eng samarali mexanizmlar – raqamli texnologiyalar, shaffof monitoring tizimlari va jamiyat institutlarini jalb qilishdir. Singapur, Koreya Respublikasi va Skandinaviya mamlakatlarida bu mexanizmlar fuqarolar mas'uliyatini oshirish va xizmatlar sifatini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Muxokamaga yakun yasab aytish mumkinki, davlat xizmatlari va fuqarolik mas'uliyati uyg'unligi kompleks va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik, adolat, ishonch va milliy rivojlanish bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli, davlat xizmatlarini takomillashtirish va fuqarolik mas'uliyatini oshirish bo'yicha kompleks yondashuvni amalga oshirish zarur.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, davlat xizmatlari va fuqarolik mas'uliyati uyg'unligi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Fuqarolarni davlat xizmatlari jarayoniga faol jalb qilish, ularning mas'uliyatini oshirish va shaffof, qulay xizmatlar ko'rsatish tizimini yaratish davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Raqamlashtirish va elektron xizmatlar joriy etilishi fuqarolarning faol ishtirokini rag'batlantiradi, korrupsion xavflarni kamaytiradi va xizmatlarning sifatini oshiradi. Shu bilan birga, fuqarolik mas'uliyatini oshirish jarayonida hududiy tafovutlar, axborot texnologiyalaridan foydalanishdagi cheklovlar va inson kapitalini rivojlantirish masalalari ham hal etilishi lozim. Xalqaro tajriba ko'rsatadiki, samarali davlat xizmatlari va fuqarolik mas'uliyati uyg'unligini ta'minlashda eng samarali mexanizmlar – raqamli texnologiyalar, shaffof monitoring tizimlari va jamiyat institutlarini jalb qilishdir. Ushbu mexanizmlarni O'zbekiston amaliyotida keng tatbiq etish xizmatlar sifatini oshirish va fuqarolarning davlat boshqaruvida mas'uliyatini kuchaytirishda asosiy omil bo'ladi. Shunday qilib, davlat xizmatlari va fuqarolik mas'uliyati uyg'unligini rivojlantirish nafaqat fuqarolar farovonligini ta'minlash, balki ijtimoiy barqarorlik, adolat va milliy strategik maqsadlarni amalga oshirishda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хабибуллаева.Д. Давлат хизматлирин кўрсатишда инсон ҳуқуқларини таъминлаш механизмлари //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 105-108.
2. Ергашбаев.Ш. О'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish. Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами, 2025. 1(1), 314-316.
3. Нишанов.А., Саидрасулов.Ш. Электрон давлат хизматлари //digital transformation and artificial intelligence. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 112-119.

KIBERFALSAFADA MAS'ULIYAT VA AXLOQ: KLASSIK VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Abrorxon Ochilov,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Ushbu maqola kiberfalsafa sohasida mas'uliyat va axloq masalalarini klassik va zamonaviy yondashuvlar nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Maqolada kiberfalsafaning asosiy tushunchalari, uning axloqiy me'yorlari va mas'uliyat tushunchasining rivojlanishi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Kiberfalsafa, axloqiy mas'uliyat, klassik yondashuvlar, zamonaviy yondashuvlar, sun'iy intellekt, raqamli kommunikatsiya, kiberxavfsizlik, etika, mas'uliyatli texnologiyalar, axloqiy me'yorlar.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы ответственности и этики в области киберфилософии с точки зрения классического и современного подходов. В статье рассматриваются основные понятия киберфилософии, ее этические нормы и развитие понятия ответственности.

Ключевые слова: Киберфилософия, этическая ответственность, классические подходы, современные подходы, искусственный интеллект, цифровая коммуникация, кибербезопасность, этика, ответственные технологии, этические нормы.

Annotation. This article analyzes the issues of responsibility and ethics in the field of cyberphilosophy from the perspective of classical and modern approaches. The article examines the basic concepts of cyberphilosophy, its ethical norms, and the development of the concept of responsibility.

Keywords: Cyberphilosophy, ethical responsibility, classical approaches, modern approaches, artificial intelligence, digital communication, cybersecurity, ethics, responsible technologies, ethical norms.

Kiberfalsafa — bu texnologiya, axborot va inson o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadigan falsafiy soha bo'lib, uning axloqiy va mas'uliyatli jihatlari zamonaviy jamiyatda katta ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi, sun'iy intellektning keng qo'llanilishi va raqamli kommunikatsiyaning ommalashuvi bilan birga, kiberfalsafaning axloqiy masalalari ham dolzarb bo'lib bormoqda. Ushbu maqolada kiberfalsafada mas'uliyat va axloq tushunchalari klassik va zamonaviy yondashuvlar nuqtai nazaridan tahlil etiladi.

Axborot jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning transformatsiyasi ijtimoiy ong va ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishlarida muhim rol o'ynaydi. Kiberfalsafada mas'uliyat va axloq masalasi zamonaviy global axborot makonida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Klassik yondashuvlar asosan insoniy harakatlarning axloqiy mezonlarini belgilashga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy kiberfalsafiy tahlillar texnologik vositalarning o'zi sub'ekt sifatida qaralay boshlagan sharoitda yangi axloqiy paradigmalarining shakllanishini ko'rsatmoqda.

Axborot texnologiyalari nafaqat jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini o'zgartirdi, balki axloqiy me'yorlarning o'zgarishiga ham sabab bo'ldi. Bugungi raqamli dunyoda har bir foydalanuvchi internet orqali axborot tarqatishda, sun'iy intellekt bilan ishlashda yoki ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yuritishda axloqiy mas'uliyat egasiga aylanadi. Masalan, oddiygina ijtimoiy tarmoqdagi izoh, fotoni tarqatish yoki sun'iy intellekt yordamida kontent yaratish — bularning barchasi axloqiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, kiberfalsafa mas'uliyatni faqat inson shaxsiga emas, balki algoritmlar, dasturiy ta'minotlar, sun'iy intellekt tizimlari va internet platformalariga nisbatan ham qo'llaydi. Bu texnologiyalar inson qarorlarini yo'naltirish, boshqarish yoki hatto

almashtirish darajasiga yetgan bo'lsa, ular ortidagi mualliflar, ishlab chiquvchilar va foydalanuvchilar axloqiy jihatdan mas'uldirlar.

Zamonaviy axborot tizimlarida ko'plab muhim qarorlar avtomatlashtirilgan algoritmlar orqali qabul qilinadi. Misol uchun, kredit berish tizimlari, tibbiy tashxis qo'yuvchi dasturlar yoki jinoyatchilik xavfini baholovchi huquqni muhofaza qilish algoritmlari inson hayoti bilan bog'liq murakkab va mas'uliyatli qarorlar qabul qiladi. Bu holat klassik axloqiy yondashuvlarga yangi savollarni qo'yadi: qarorni kim qabul qildi — dasturchimi, foydalanuvchimi yoki algoritmnining o'zi?

Kiberfalsafa bu holatda "algoritmik mas'uliyat" tushunchasini ilgari suradi. Bunda muammo faqatgina texnik jihatdan emas, balki axloqiy jihatdan ham tahlil qilinadi. Masalan, sun'iy intellekt noto'g'ri qaror qabul qilsa, buning oqibatini kim ko'taradi? Kiberfalsafa ushbu savollarga prinsipial yondashuvlarni taklif etadi: ochiq manbali kod, etik dizayn, javobgarlik zanjiri kabi konsepsiyalar orqali mas'uliyatli texnologiyalarni ishlab chiqish zarurati yuzaga chiqadi.

Internet va raqamli kommunikatsiyaning rivojlanishi insonlarga katta erkinlik berdi. Har kim o'z fikrini erkin ifoda etishi, istalgan joydan axborot olish va tarqatish huquqiga ega. Biroq bu erkinlik ham axloqiy cheklolarga duch keladi. Noto'g'ri axborot tarqatish, boshqalarning sha'niga tajovuz qilish, shaxsiy ma'lumotlarni noqonuniy tarqatish, hatto sun'iy intellekt yordamida feyk yangiliklar yaratish — bularning barchasi jamiyatda axloqiy inqirozni yuzaga keltiradi.

Shuning uchun, axborot erkinligini himoya qilgan holda, etik me'yorlar va mas'uliyatni ham rivojlantirish lozim. Bu borada kiberfalsafa huquq, axloq va texnologiya o'rtasidagi muvozanatni topishga harakat qiladi.

Kiberxavfsizlik faqat texnik muammo emas. Bu — axloqiy masaladir. Chunki kiberjinoyatchilik, ma'lumot o'g'riligi, viruslar yaratish va tarqatish, firibgarliklar — bular ortida nafaqat texnologik manipulyatsiyalar, balki insoniy omillar yotadi. Mas'uliyatning yo'qligi, axloqiy beparvolik va foyda uchun har qanday vositani tan olish raqamli dunyoning eng dolzarb muammolaridandir.

Kiberxavfsizlik tizimlarining mustahkamligi bilan birga, foydalanuvchilarning axloqiy savodxonligi, texnologik muhitda etik normalarni tushunish va unga amal qilish darajasi ham yuqori bo'lishi kerak. Shu sababli, axborot texnologiyalari sohasidagi har qanday o'qituv va tarbiya etik bilimlar bilan birga olib borilishi zarur.

N. Wiener kibernetikaning otasi sifatida axborot tizimlarining ma'naviy oqibatlari haqida ilk bor chuqur tahlil bergan edi. Uning fikricha, texnologiyalar inson faoliyati va axloqiy qarorlar olamini tubdan o'zgartiradi, shu bois axloqiy mas'uliyat nafaqat insonlarga, balki tizimlarning dizayniga ham taalluqli bo'lishi kerak. Biroq Wiener yondashuvida sun'iy agentlarning o'z-o'zini boshqarish imkoniyatlari va murakkab tizimlar muammosi to'liq ochilmagan.

L. Floridi zamonaviy kiberfalsafaning yetakchi vakili sifatida "axborot etikasini" ilgari suradi va kiberfazodagi har bir axborot mavjudotining axloqiy maqomga ega ekanligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, zamonaviy kiberfalsafiy mas'uliyatni nafaqat texnologik o'zgarishlarga, balki ijtimoiy adolat va global ongni rivojlantirishga ham yo'naltirish zarurati ko'rsatilmogda. Aks holda, raqamli asrda mas'uliyatsizlik oqibatlari nafaqat shaxsiy, balki butun insoniyat miqyosida salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Qolaversa, kiberfalsafada zamonaviy "prospektiv mas'uliyat" kontsepsiyasi, ya'ni oldindan salbiy oqibatlarning oldini olish uchun javobgarlikni belgilash g'oyasi ham tobora dolzarb bo'lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, kiberfalsafiy axloq va mas'uliyat tushunchalari klassik etik yondashuvlardan inspiratsiya olgan bo'lsa-da, zamonaviy texnologik muhitda ularning tanqidiy qayta ishlanishi va kontekstual rekonstruksiya talab qilinmoqda. Mas'uliyat endilikda shaxsiy axloqiy tanlov emas, balki ijtimoiy, ekologik va texnologik muhit bilan uzviy bog'liq ko'p darajali etik imperativga aylangan.

Kiberfalsafaning mas'uliyat va axloqqa oid zamonaviy talqinlari klassik yondashuvlarning tor chegaralaridan chiqib, texnologik sivilizatsiyaning o'ziga xos chaqiriqlariga moslashishga intiladi. Zhang Xu ta'kidlashicha, an'anaviy antropotsentrik axloqiy tizimlar tabiatning o'zgaruvchan qadriyatini e'tibordan chetda qoldiradi va zamonaviy texnologiyalar yaratayotgan axloqiy muammolarni hal eta olmaydi. Zamonaviy mas'uliyat etikasi doirasida G. Marco tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy tashkilotlar mas'uliyati tushunchasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Unga ko'ra, zamonaviy siyosiy va iqtisodiy tizimlar sharoitida axloqiy mas'uliyat shaxsiy agentlar bilan cheklanmaydi, balki butun institutsional tuzilmalar zimmasiga ham yuklatilishi kerak. Bu yondashuv kiberfalsafa uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi, chunki sun'iy intellekt va algoritmik boshqaruvning kollektiv xarakteri an'anaviy individualistik axloqiy yondashuvlarni yetarlicha qamrab ololmaydi.

Klassik falsafada axloqiy mas'uliyat va axloq tushunchalari an'anaviy etik tizimlar asosida shakllangan. Aristotelning fazilatlar etikasida insonning axloqiy mas'uliyati uning ichki fazilatlariga, ya'ni dono, adolatli, jasur va o'ta ehtiyotkor bo'lishiga bog'liq deb qaraladi. Ayniqsa, fazilatlar etikasi insonning axloqiy mas'uliyatini uning ichki fazilatlarini orqali amalga oshirishini ta'kidlaydi.

Kantning deontologik etikasi esa axloqiy mas'uliyatni insonning aqliy qobiliyati va erkin iradasi bilan bog'laydi. Kantga ko'ra, inson o'z harakatlarini axloqiy qonunlarga, ya'ni kategorik imperativga muvofiq ravishda amalga oshirishi kerak. Bu yondashuvda axloqiy mas'uliyat insonning erkin irodasiga va axloqiy qonunlarga bo'ysunishiga asoslanadi.

Zamonaviy kiberfalsafada axloqiy mas'uliyat texnologiyalar va axborot tizimlarining rivojlanishi bilan bog'liq yangi masalalarni o'z ichiga oladi. Sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlarning qaror qabul qilish jarayonlarida axloqiy mas'uliyatni ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Masalan, sun'iy intellekt tizimlarining qarorlarida insonlarning axloqiy qadriyatlari va huquqlari inobatga olinishi kerak.

Shuningdek, kiberxavfsizlik sohasida ham axloqiy mas'uliyat muhim rol o'ynaydi. Internetdagi huquqbuzarliklar, ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishi va shaxsiy hayotning buzilishi kabi masalalar kiberfalsafaning axloqiy jihatlarini o'rganishni talab qiladi. Kiberfalsafa bu masalalarni hal qilishda axloqiy me'yorlar va prinsiplarni ishlab chiqishda yordam beradi.

Klassik yondashuvlarda axloqiy mas'uliyat insonning ichki fazilatlarini va erkin iradasi bilan bog'liq bo'lsa, zamonaviy yondashuvlarda bu masala texnologiyalar va axborot tizimlarining ta'siri ostida shakllanadi. Klassik etikada axloqiy mas'uliyatning asosiy manbai insonning ichki fazilatlarini bo'lsa, zamonaviy etikada bu masala texnologik tizimlarning dizayni va ularning inson hayotiga ta'siri bilan bog'liqdir.

Zamonaviy kiberfalsafa axloqiy mas'uliyatni faqatgina individning ichki fazilatlarini bilan bog'lamay, balki texnologik tizimlarning dizayni, ularning axloqiy me'yorlarga muvofiqligi va jamiyatga ta'siri bilan ham bog'laydi. Bu yondashuvda axloqiy mas'uliyatning manbalari kengayadi va texnologik tizimlarning axloqiy jihatlarini ham inobatga olinadi.

Sun'iy intellekt va mashina o'rganish texnologiyalari bugungi kunda nafaqat axborotni qayta ishlaydi, balki o'ziga xos "qaror qabul qiluvchi" subyektga aylanmoqda. Bunday tizimlarga axloqiy ko'rsatmalarni qanday singdirish mumkin? "Axloqli sun'iy intellekt" yaratish mumkinmi?

Bugungi kiberfalsafa bu savollarga javoban, sun'iy intellekt dizayni jarayonida insonparvar qadriyatlar asos bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Bu qadriyatlarga: shaffoflik, tushunarlilik, javobgarlik, inson sha'niga hurmat, tenglik va ijtimoiy adolat kiradi. Shu prinsiplar asosida yaratilgan texnologiyalar insoniyat rivoji uchun xizmat qiladi.

Kiberfalsafada mas'uliyat va axloq tushunchalari klassik va zamonaviy yondashuvlar nuqtai nazaridan tahlil qilinganda, bu sohaning rivojlanishidagi o'zgarishlar va yangi masalalar yuzaga chiqadi. Klassik etik tizimlar insonning ichki fazilatlarini va erkin iradasi asosida axloqiy mas'uliyatni belgilasa, zamonaviy kiber falsafa texnologik taraqqiyot, sun'iy intellekt va raqamli muhitda yuzaga kelayotgan murakkab axloqiy vaziyatlarga moslashgan yangi yondashuvlarni

ishlab chiqishni talab qiladi. Bu holat axloqiy me'yorlar faqatgina inson faoliyatiga emas, balki mashinalar, algoritmlar va raqamli tizimlar tomonidan amalga oshiriladigan harakatlarga ham tadbiq etilishini ko'zda tutadi.

Shu bois, zamonaviy kiberfalsafada quyidagi masalalar asosiy diqqat markazida turadi:

- Sun'iy intellekt tizimlarining axloqiy qarorlar qabul qilishda insoniy qadriyatlarga asoslanishini ta'minlash
- Raqamli muhitda shaxsiy axborotni himoya qilish va foydalanuvchi roziligi tamoyillarini hurmat qilish
- Internetda axloqiy manipulyatsiyalar, yolg'on ma'lumot tarqatish va raqamli zo'ravonlikka qarshi mas'uliyatli yondashuvni shakllantirish
- Dasturchilar, platforma egalarining texnologiyaga oid axloqiy oqibatlar uchun mas'uliyatini belgilovchi etik kodekslarni ishlab chiqish

Bundan tashqari, zamonaviy kiberfalsafada jamiyat, davlat va global miqyosdagi axloqiy tartibga soluvchilar roli ham kuchayib bormoqda. Internetda erkinlik va mas'uliyat, ochiqlik va nazorat, innovatsiya va inson huquqlari kabi qarama-qarshi qadriyatlar o'rtasida muvozanat saqlash zarurati dolzarb masalaga aylanmoqda.

Shu munosabat bilan, kiberfalsafa nafaqat texnologiyaning jamiyatga ta'sirini tushunish vositasi, balki u orqali texnologiyani insonparvarlik, ijtimoiy adolat va ma'naviy qadriyatlarga asoslangan holda boshqarish konsepsiyasi sifatida ham qaralmoqda. Bu esa bizdan axloqiy ongning kengaytirishni, texnologiya bilan muloqotda bo'lgan har bir subyektning mas'uliyatini yanada teran anglashni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov.M. "Sun'iy intellekt va axloqiy mas'uliyat: falsafiy tahlil". Toshkent: Fan va taraqqiyot, 2024.
2. Tursunov.B. "Axborot texnologiyalari falsafasi". Toshkent: Universitet, 2022.
3. Abdullayeva.D. "Axborot jamiyati va ma'naviyat". Toshkent: Akademnashr, 2021.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli texnologiyalar xavfsizligi va axloqiy tamoyillarini takomillashtirish to'g'risida" Qarori:. 14.06.2023.
5. Qodirov.Sh. "Falsafa va axloq". Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020.
6. Islomov.M. "Zamonaviy falsafa muammolari". Toshkent: Sharq, 2019.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlangan "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun. 2022.

TALABALAR TADQIQOT ISHLARI VA ILMIY LOYIHALARINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK-INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Shoxista Rustamova,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Anotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning zamonaviy texnologik yondashuvlari, innovatsion metodik konstruksiyalar hamda ilmiy loyihalar boshqaruvining pedagogik mexanizmlari tizimli tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ilmiy-tadqiqot texnologiyalari; ilmiy loyihalashtirish; talabalar kompetensiyalari; innovatsion pedagogika; loyiha boshqaruvi; integrativ ta'lim; dizayn-fikrlash; akademik qo'llab-quvvatlash; metodologik refleksiya; ilmiy natija verifikatsiyasi.

Аннотация. В данной статье систематически анализируются современные технологические подходы к организации научно-исследовательской деятельности студентов в высших учебных заведениях, инновационные методические конструкции и педагогические механизмы управления научными проектами.

Ключевые слова: технологии научных исследований; научное проектирование; компетенции студентов; инновационная педагогика; управление проектами; интегративное образование; дизайн-мышление; академическая поддержка; методологическая рефлексия; верификация научных результатов.

Annotation. This article provides a systematic analysis of modern technological approaches to organizing students' research activities in higher education institutions, innovative methodological constructions, and pedagogical mechanisms for managing scientific projects.

Keywords: research technologies; scientific project planning; student competencies; innovative pedagogy; project management; integrative education; design thinking; academic support; methodological reflection; verification of scientific results.

Kirish. Zamonaviy ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning globallashuvi, iqtisodiyotning bilimga asoslangan modelga keskin siljishi hamda innovatsion raqobatbardoshlikning jahon miqyosida ustuvor qadriyatga aylanishi oliy ta'lim muassasalaridan nafaqat an'anaviy bilim berishni, balki mustaqil ilmiy-tadqiqot faoliyatini yuqori darajada tashkil etgan holda, talabalarda ilmiy fikrlash madaniyatini shakllantirishni talab qilmoqda. XXI asrning yangi intellektual paradigmalarini belgilab berayotgan "kreativ iqtisodiyot", "innovatsion ekotizim", "raqamli kompetensiyalar", "ilmiy transfer" kabi tushunchalar oliy ta'lim tizimidan talabalar faoliyatini an'anaviy o'qitish modeli doirasidan chiqarib, ularni mustaqil tadqiqot olib boruvchi, ilmiy dalillash qobiliyatiga ega, muammolarni analitik yondashuv asosida tahlil eta oluvchi subyekt sifatida shakllantirishni taqozo qilmoqda. Bunday keng ko'lamli ilmiy-intellektual kompetensiyalarni shakllantirish esa, tabiiy ravishda, ta'lim jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishni, xususan, talabalar tadqiqot ishlari va ilmiy loyihalarini zamonaviy metodik konstruksiyalar asosida boshqarishni dolzarb masalalardan biriga aylantiradi. Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tizimli tashkil etish masalasi bugungi kunda nafaqat O'zbekiston ta'lim tizimida, balki rivojlangan davlatlar tajribasida ham markaziy o'rinda turib, ta'limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan yangi modeli bilan chambarchas bog'liqdir [1]. Kompetensiyalar paradigmasi talabalarning nafaqat nazariy bilim olishini, balki ushbu bilimlarni amaliy vaziyatlarda tatbiq eta olish darajasini, tanqidiy fikrlashni, loyihalash ko'nikmalarini, ilmiy natijalarni mustaqil tahlil qilish va asoslash salohiyatini baholaydi. Shu boisdan ilmiy-tadqiqot faoliyati talabaning intellektual rivojlanish jarayonida chuqur refleksiv bosqich bo'lib, bunda u ilmiy metodlar bilan ishlash, empirik ma'lumotlarni yig'ish, ularni qayta ishlash, statistik tahlil,

eksperimental yondashuv hamda ilmiy xulosalar chiqarishning aniq mexanizmlariga duch keladi. Mazkur jarayonlar talabaniing yuksak fikrlash faoliyatini shakllantiruvchi muhim bosqich sanaladi. Globallashuv jarayonlari natijasida ta'limning ilmiylashuvi fenomeni dolzarb bo'lib, oliy ta'lim muassasalarining vazifasi faqatgina ta'lim berish bilan cheklanib qolmay, balki ilmiy kashfiyotlar, innovatsiyalar, fundamental nazariy qarashlar va texnologik yechimlar ishlab chiqaruvchi ilmiy markazga aylanishi lozim. Ushbu holat talabalar ilmiy loyihalarini tashkiliy-texnologik jihatdan to'g'ri yo'naltirishni talab etadi. Ilmiy loyihalar talabalarning intellektual salohiyatini amalda sinab ko'radigan, ularda ilmiy tafakkur, tahliliy qaror qabul qilish, eksperiment dizayni, ma'lumotlar tahlili, nazariy-amaliy uyg'unlik asosida ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradigan murakkab didaktik jarayon hisoblanadi. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari va loyihalarini tashkil etish texnologiyalari nafaqat metodologik konstruksiyani, balki ilmiy jarayonni boshqarish falsafasini ham qamrab oladi. Bu texnologiyalar tarkibiga loyiha mazmunini loyihalash, tadqiqot metodlarini aniqlash, ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish, natijalarni verifikatsiya qilish, ularni taqdim etish standartlari, shuningdek, ilmiy faoliyatni monitoring qilish va ekspertiza jarayonlari kiradi. Bunday tizim keng qamrovli bilimlar, yuqori darajadagi metodologik yondashuv va innovatsion texnik vositalar bilan qo'llab-quvvatlanishi shart. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, onlayn tadqiqot platformalari, sun'iy intellekt asosidagi analitik dasturlar, bibliometrik tahlil vositalari talabalarning ilmiy faoliyatini dastlabki bosqichdan yakuniy natijagacha ilmiy asoslangan tarzda boshqarish imkonini yaratmoqda. So'nggi yillarda nazariy bilimlar bilan amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishga qaratilgan ta'lim reformalari, xususan, O'zbekistonda oliy ta'limning bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinishi, universitetlarning ilmiy salohiyatini oshirishga qaratilgan dasturlar, talabalarning ilmiy faoliyatiga keng jalb qilinishi ham ushbu mavzuning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. Talabalarni tadqiqot faoliyatiga jalb qilish masalasi davlatning innovatsion rivojlanish strategiyasida ham alohida o'rin tutadi. Zero, innovatsion taraqqiyotning asosiy omillaridan biri — yoshlar ilmiy salohiyatining kuchli bo'lishi, ularning ilmiy fikrlash madaniyati va ijodkorlik kompetensiyalarining rivojlanganligidir. Talabalar ilmiy-tadqiqot ishlarini samarali tashkil etish imkoniyati oliy ta'lim tizimining ilmiy infratuzilmasi, laboratoriyalarning texnik quvvati, ilmiy rahbarlarning malakasi, universitetning ilmiy loyihalar bo'yicha strategik yondashuvi, xalqaro grant dasturlarida ishtirok etish kabi ko'plab omillar bilan bog'liqdir[2]. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlarni boshqarish jarayonida pedagogik texnologiyalar, dizayn-fikrlash yondashuvi, loyiha asosida o'qitish modeli, STEAM yondashuvi, kompetensiyaviy o'qitish modeli va boshqa innovatsion metodlar uyg'unlashtirilishi talab etiladi. Talabalarning ilmiy faoliyatini shakllantirishda ilmiy rahbar va mentorlarning roli alohida ahamiyatga ega. Ular ilmiy yo'nalish bo'yicha metodik ko'rsatmalar berish, ilmiy izlanishning muammoli nuqtalarini aniqlash, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ilmiy natijalarni strukturaviy tashkil qilishga yordam berish orqali tadqiqot jarayonining samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, ilmiy loyihalarni boshqarishning psixologik-pedagogik omillari ham talaba shaxsining tadqiqotga bo'lgan motivatsiyasini mustahkamlashda muhim bo'lib, ilmiy muhitning qo'llab-quvvatlovchi, ijodiy va erkin fikrlashga imkon beruvchi bo'lishi tadqiqot jarayonining samaradorligini oshiradi[3]. Talabalar tadqiqot faoliyatini tashkil etishda metodik yondashuvlarning o'ziga xosligi shundaki, har bir talaba individual ilmiy yo'lga ega bo'lib, tadqiqot jarayonini shaxsiy qiziqishlar, ilmiy tayyorgarlik darajasi, analitik fikrlash qobiliyati va mustaqil izlanish ko'nikmalari asosida olib boradi. Shu sababli, ilmiy rahbar tomonidan ushbu jarayonni differensial yondashuv asosida tashkil etish, individual ilmiy rejalashtirish, tadqiqot jarayonida metodologik monitoring olib borish juda muhimdir.

Adabiyotlar tahlili. Talabalar tadqiqot ishlari va ilmiy loyihalarini tashkil etish texnologiyalari sohasida chet el olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mavzuning nazariy va metodologik asoslarini chuqur yoritadi. Jumladan, John W. Creswell ilmiy ishida tadqiqot jarayonining metodologik konstruksiyalarini, talaba va tadqiqotchi o'rtasidagi interaktiv pedagogik mexanizmlarni, shuningdek, ilmiy loyihalarni bosqichma-bosqich rejalashtirish va

boshqarish metodlarini batafsil tahlil qiladi. Creswellning tadqiqotlari talabalarning ilmiy loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishida metodologik yondashuvlar va mustaqil ilmiy fikrlashni rivojlantirish mexanizmlarining muhimligini ko'rsatadi. U ilmiy loyiha jarayonida har bir bosqichni nazariy asos bilan mustahkamlash, tadqiqot metodlarini tanlash va natijalarni tahlil qilishning strukturaviy yondashuvini ilgari suradi. Shuningdek, Patricia Leavy o'z ishida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini innovatsion yondashuvlar orqali tashkil etishning pedagogik metodlarini tahlil qiladi. Leavy tadqiqot loyihalarini boshqarish jarayonida dizayn-fikrlash, integrativ va interdisipliner metodlarni qo'llash, talabalarning ijodiy va analitik ko'nikmalarini rivojlantirish hamda natijalarni amaliy kontekstga tatbiq etishning samarali usullarini taqdim etadi. Uning ilmiy izlanishlari talabalarning ilmiy faoliyatini zamonaviy pedagogik-texnologik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish, ularni muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga yo'naltirishning amaliy imkoniyatlarini ko'rsatadi. Mazkur ikki olimning tadqiqotlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik shundaki, Creswell metodologik yondashuvning nazariy asoslarini, Leavy esa shu metodologiyani amaliy pedagogik muhitda talabalarga tatbiq etish mexanizmlarini batafsil yoritadi.

Metodologik qism. Ushbu tadqiqotda talabalar tadqiqot ishlari va ilmiy loyihalarini tashkil etish jarayonini tahlil qilishda kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi, bunda tajribaviy metod orqali talabalarning loyiha faoliyatidagi qobiliyatlari va innovatsion ko'nikmalari o'rganilib, 132ntegra kuzatuv yordamida ilmiy-tadqiqot jarayonlarining bosqichma-bosqich samaradorligi aniqlangan, shuningdek, dizayn-fikrlash va loyiha asosida o'qitish metodlari tadqiqotning amaliy komponentini shakllantirib, talabalarning mustaqil fikrlash, ilmiy metodlar bilan ishlash va natijalarni verifikatsiya qilish salohiyatini tizimli ravishda baholash imkonini yaratdi, bunda 132ntegrative yondashuv talaba va rahbar o'rtasidagi interaktiv o'zaro ta'sir, metodologik refleksiya va ilmiy natijalarni amaliy kontekstga tatbiq etish jarayonlarini birlashtirdi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalar tadqiqot ishlari va ilmiy loyihalarni zamonaviy pedagogik-innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish ularning ilmiy metodologik fikrlash salohiyatini oshiradi, loyiha va eksperimental faoliyatga jalb qilish orqali analitik va ijodiy ko'nikmalarini mustahkamlaydi, integrativ yondashuv orqali nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini kuchaytiradi, metodologik refleksiya va mustaqil ilmiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi, shuningdek, loyiha jarayonida kuzatuv, eksperiment va verifikatsiya bosqichlari orqali ilmiy natijalarni baholash hamda boshqarish mexanizmlarini tizimli shakllantirish imkoniyatini beradi.

Muxokama. Talabalar tadqiqot ishlari va ilmiy loyihalarni tashkil etish texnologiyalari sohasida ilmiy hamjamiyatda metodologik yondashuvlar yuzasidan turli fikrlar mavjud. Masalan, John W. Creswell o'z tadqiqotlarida talabalarning ilmiy loyihalarni samarali boshqarishida metodologik qat'iyat va bosqichma-bosqich rejalashtirishni markaziy unsur deb hisoblaydi va ularni loyiha jarayonining har bir bosqichida qat'iy kuzatuv va verifikatsiya bilan bog'lashni taklif qiladi [4]. Creswell nazariyasi talabalarning mustaqil ilmiy fikrlashini rivojlantirishda qat'iy metodologik tuzilmalarning zarurligini ta'kidlaydi va har bir loyiha bosqichi uchun aniq metodologik ko'rsatmalar ishlab chiqishni ilgari suradi. Uning fikricha, talabaning ilmiy natijalarni tahlil qilish qobiliyati va eksperimental ishlarni bajarishdagi aniqligi bevosita metodologik yondashuvning strukturaviy qat'iyligiga bog'liqdir. Boshqa tomondan, Patricia Leavy talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishda yanada ijodiy va interdisipliner yondashuvni afzal ko'radi. U dizayn-fikrlash, integrativ va ijodiy metodlarni qo'llash orqali talabalarning mustaqil qaror qabul qilish va muammoli vaziyatlarda ijodiy yechimlar ishlab chiqish salohiyatini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi. Leavy nazariyasi Creswellning qat'iy metodologik yondashuvi bilan to'qnashadi, chunki u metodik qat'iyat o'rniga talabaning ijodiy va kontekstual tafakkurini rivojlantirishni markaziy o'ringa qo'yadi. Ushbu ikki yondashuvning ilmiy polemikasi shuni ko'rsatdiki, talabalarning ilmiy loyihalarini tashkil etishda metodologik qat'iyat va ijodiy fleksibilitet o'rtasida muvozanatni topish zarur. Creswellning yondashuvi ilmiy

natijalarni tahlil qilish va eksperiment jarayonlarining aniqligi nuqtai nazaridan ustunlikka ega bo'lsa, Leavyning yondashuvi esa talabaning analitik va kreativ salohiyatini rivojlantirish, interdisipliner yechimlarni ishlab chiqish imkoniyatini kengaytiradi. Shu munosabat bilan, zamonaviy oliy ta'lim amaliyotida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish texnologiyalari integrativ yondashuvni talab qiladi, ya'ni qat'iy metodologik tuzilma va ijodiy innovatsion yondashuv birlashtirilishi lozim. Bu integratsiya talabalarga ilmiy loyiha jarayonini nazariy va amaliy jihatdan to'liq tushunish, mustaqil qarorlar qabul qilish, eksperiment va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, ilmiy natijalarni boshqarish va taqdim etishda samarali boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, bu polemikada amaliy jihatdan kuzatiladigan xulosalardan biri shundaki, talabalarning ilmiy loyihalarda muvaffaqiyati faqat metodologik qat'iyatga yoki ijodiy yondashuvga emas, balki ularning sintez qilingan yondashuv orqali ilmiy fikrlashni, metodologik refleksiyani va analitik qobiliyatlarni uyg'un rivojlantirishga bog'liq. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, dizayn-fikrlash yondashuvi, interaktiv platformalar va monitoring tizimlari ushbu integrativ modelni amalga oshirishda muhim vositalar sifatida namoyon bo'ladi, bu esa talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini yuqori samaradorlik bilan boshqarish imkonini yaratadi.

Xulosa. Ushbu maqolada talabalar tadqiqot ishlari va ilmiy loyihalarini tashkil etishning zamonaviy pedagogik-innovatsion texnologiyalari tizimli tarzda tahlil qilindi va ularning nazariy, metodologik hamda amaliy jihatlari yoritildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarning ilmiy faoliyatini samarali tashkil etish nafaqat metodologik qat'iyatni, balki ijodiy va integrativ yondashuvni talab qiladi, bu esa ilmiy loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda analitik fikrlash, metodologik refleksiya, mustaqil qaror qabul qilish va natijalarni verifikatsiya qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Creswell va Leavy kabi xorijiy olimlarning nazariyalari talabalarning ilmiy-tadqiqot jarayonlarini tashkil etishning metodologik va ijodiy jihatlarini mukammal tarzda birlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalar, interaktiv platformalar, dizayn-fikrlash yondashuvi va monitoring tizimlari talabalar ilmiy loyihalarining samaradorligini oshirish, natijalarni tizimli ravishda boshqarish va ilmiy kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi. Tadqiqot shuni isbotlaydiki, talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish texnologiyalari oliy ta'limning innovatsion va integrativ rivojlanishida markaziy rol o'ynaydi, chunki ular nafaqat nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtiradi, balki talabalarda mustaqil ilmiy tafakkur, kreativ qaror qabul qilish va ilmiy loyihalarni boshqarish salohiyatini shakllantiradi. Natijada, maqola oliy ta'limda talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali boshqarish va pedagogik innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi, bu esa ta'lim jarayonini kompetensiyaviy va innovatsion modelga moslashtirish, talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va ilmiy loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning nazariy-amaliy asoslarini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Haytbaeva.S. Talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni //Nordic_Press. – 2024. – T. 3. – №. 0003.
2. Kenjaboyev.A., Kenjaboyeva D. Pedagogik deontologiya va kompetentlik //Termiz: Surxon-nashr nashrmatbaa. – 2022.
3. Ruzieva.Z., Norboeva.S. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida loyihaviy tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish //problems and solutions of scientific and innovative research. – 2025. – T. 2. – №. 5. – C. 197-204.
4. Abdurazakova.Z. Ta'lim transformatsiyasi jarayonida talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish //Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2025. – T. 2. – №. 4.2. – C. 277-279.

**KORRUPSIYA: KELIB CHIQISHI, MA'NOSI, ASOSIY
JIHATLARI VA BELGILARI**

Obloqul Maxmudov,
Jizzax politexnika instituti
“Ijtimomiy fanlar” kafedrası tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada korrupsiyaning kelib qelib chiqishi, tushunchasi, kelib chiqish belgilari, uning jamiyat hayotidagi salbiy illat sifatidagi o'rni va roli haqida, uning siyosiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: BMT, “Transparency International”, korrupsiya, “corruptio”, “corrumpere”, ma'naviy jihat, buzmoq, pora berish evaziga og'dirish, obekt

Аннотация. В статье рассматриваются происхождение, понятие, признаки коррупции, её место и роль как негативного порока в обществе, её социально-политические и духовно-просветительские аспекты.

Ключевые слова: ООН, «Трансперенси Интернешнл», коррупция, «corruptio», «corrumpere», духовный аспект, коррупционер, взяточничество, объект.

Annotation. The article discusses the origin, concept, signs of corruption, its place and role as a negative vice in society, its socio-political and spiritual-educational aspects.

Keywords: UN, “Transparency International”, corruption, “corruptio”, “corrumpere”, spiritual aspect, corrupt, bribery, object

«Korrupsiya» atamasi lotincha «corruptio» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «buzish», «sotib olish» degan ma'nolarni anglatadi. Ushbu ikki so'z korrupsiyaning mazmun-mohiyatini belgilab beradi. 1979-yil 17-dekabrda qabul qilingan «Mansabdor shaxslarning huquqartibotni saqlash borasidagi axloq kodeksi»da: «...korrupsiya tushunchasi milliy huquqda ta'riflanishi lozim» deyilgan bo'lib, ushbu hodisaning «...mansabdor shaxsning mukofot beruvchi shaxs manfaati yo'lida mansab yo'riqnomalarini buzib yoki buzmay mansab vakolatlari sohasida amalga oshirgan har qanday shakldagi harakati yoki harakatsizligi» [1.15] - degan taxminiy ta'rifi berilgan.

BMTning Korrupsiyaga qarshi kurashga oid ma'lumotnomasida: «Korrupsiya – shaxsiy maqsadda foyda olish uchun davlat hokimiyatini suiiste'mol qilish» ekanligi ko'rsatilgan. Jahon bankining hozirgi dunyoda davlatning rolga bag'ishlangan hisobotida korrupsiyaga shunday ta'rif berilgan: «Korrupsiya – shaxsiy manfaat uchun davlat hokimiyatini suiiste'mol qilish». Arnold Xeydenxeymer «Siyosiy korrupsiya» asarida yozganidek, «bu terminning tarixida turli-tuman ma'no va mazmunlar ko'plab uchraydi». Siyosatshunoslar va faylasuflar bu hodisani boylik yoki hokimiyatga noqonuniy vositalar bilan erishish, deb ta'riflaydilar. Har qanday jinoyatchilik ma'lum bir sabab va shart-sharoitlar ta'sirida vujudga keladi. Korrupsiya va uni vujudga keltiruvchi muammolar o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud. Bir tomondan, bu muammolar korrupsiyani kuchaytiradi, ularni echish esa korrupsiya darajasini pasaytirishga ko'maklashishi mumkin, boshqa tomondan, korrupsiya keng tarqalgani o'tish davri muammolarini keskinlashtiradi, ularni echishga xalaqit beradi. Bundan xulosa shuki, birinchidan, korrupsiyani faqat uni vujudga keltiruvchi muammolar va shart-sharoitlarni echish yo'li bilan kamaytirish va cheklash mumkin; ikkinchidan, bu muammolarni echishga korrupsiyaga qarshi barcha yo'nalishlarda qat'iy va murosasiz kurash olib borish ko'maklashadi.

Bizningcha kriminologiyaning asosiy qoidalariga tayanib, korrupsiyani vujudga keltiruvchi muammolarni shartli ravishda umumiy va xususiyga ajratish mumkin. Nafaqat O'zbekistonda, balki, markazlashgan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish davrini boshdan kechirayotgan

aksariyat mamlakatlarga xos bo'lgan muammolar umumiy muammolar qatoriga kiradi. Mana, ularning ayrimlari:

1. Demokratik siyosiy an'analar hali chuqur ildiz otmagani.

2. Fuqarolik jamiyatining zaifligi, jamiyat hokimiyatdan ajralib qolgani. Demokratik jamiyat o'z muammolarini faqat fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda echishga qodir. Modernizatsiya jarayonining dastlabki bosqichlariga xos bo'lgan fuqarolar ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan yomonlashuvi jamiyat hokimiyatdan uzoqlashishiga, hokimiyatning esa ajralib qolishiga olib keladi. Vaholanki, jamoat tashkilotlarining sa'y-harakatlarisiz quyi darajadagi korrupsiyani ham, yuqori darajadagi korrupsiyani ham engish mumkin emas.

3. Hokimiyat institutlarining samarali emasligi. Totalitar rejimlar juda katta davlat apparatini vujudga keltiradi. Bu erda avvalo ijro etuvchi hokimiyat nazarda tutilmoqda. Byurokratik tuzilmalar juda chidamli bo'lib, har qanday bo'hronlarga bardosh beradi, bunda islohotlar qancha faol amalga oshirilsa, byurokratik apparat o'zini saqlab qolishga shuncha ko'p kuch-g'ayrat sarflaydi. Pirovardida hayot shitob bilan o'zgaradi, byurokratik institutlar va, binobarin, boshqaruv tizimi bu o'zgarishlardan orqada qoladi. Bu o'rinda Q.R. Abdurasulova "Qonunga muvofiq, davlatning ravnaqi va farovonligini ta'minlashdek og'ir yuk byurakratiyaning elkasiga tushishi, byurakratiya fuqaroning ma'naviyat va xulq-atvoriga kata ta'sir ko'rsatishi aniqlangan" deganida, mutlaqo haq edi. E.O.Alauxanov, D.E.Tursynbaevlar ham bu borada o'xshash fikr bildiradi.

4. Qonunchilik lozim darajada rivojlanmagani va uning nomukammalligi. Islohotlar jarayonida iqtisodiyotning tub negizlari va iqtisodiy amaliyotning yangilanishi ularni qonun yo'li bilan ta'minlashga qaraganda ancha ildamroq kechadi. Ayni shu hol o'tish davrining belgilaridan biri hisoblanadi va korrupsiyaga qulay zamin yaratadi.

Qonunchilik lozim darajada rivojlanmagani qonunlar sifatining pastligida, huquq tizimining nomukammalligida, qonun ijodkorligi tartib-taomillarining noaniqligida namoyon bo'ladi.

5. Iqtisodiy tanazzul va siyosiy beqarorlik. Aholining qashshoqlashuvi, davlat o'z xizmatchilariga munosib maoshni ta'minlashga qodir emasligi aholini ham, davlat xizmati xodimlarini ham quyi darajada korrupsiyaning avj olishiga olib keluvchi qonunbuzarliklarga qo'l urishiga turtki beradi. Bu sho'ro davridan qolgan "sen – menga, men – senga" degan zararli qoida bilan quvvatlanadi.

Davlatdagi siyosiy beqarorlik turli darajadagi, ayniqsa oliy martabali amaldorlar o'rtasida ertangi kunga ishonchsizlik hissi kuchayishiga sabab bo'ladi. Bunday sharoitlarda o'zini o'zi saqlash uchun biron-bir kafolatlariga ega bo'lmagan amaldorlar korrupsiya domiga osonroq ilinadi.

Korrupsiyaning xususiy muammolari ildizlari bilan sho'ro davriga borib taqaladigan muammolarning davomi hisoblanadi. Ularning ayrimlari o'tish davri sharoitlari ta'sirida keskinlashgan:

1. Sud tizimi samaradorlik darajasining pastligi.

2. Aholi huquqiy ongining rivojlanmagani.

3. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ularning vakillari faqat "davlat manfaatlari" va "jamoat mulki"ni muhofaza qilishga odatlangani.

4. Amaldorlar qonunga emas, balki yo'riqnomalar va boshliqqa bo'ysunishga odatlangani.

Jinoyatchilik, shu jumladan korrupsiya muammosiga doir maxsus kriminologik adabiyotlar tahlili korrupsiyani o'zining tabiiy mahsuli sifatida belgilovchi sabablar va shart-sharoitlar (omillar)ning ayrim guruhlarini qayd etish imkonini beradi. Ijtimoiy hayot mazmuni yoki sohalariga ko'ra bunday omillar qatoriga huquqiy, tashkiliy-boshqaruv, tarbiyaviy, mafkuraviy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sabablar va shart-sharoitlar kiradi⁶¹.

Korrupsiyani belgilovchi huquqiy omillar qatoriga aksariyat mutaxassislar ayrim faoliyat sohaları huquqiy jihatdan lozim darajada tartibga solinmaganini va amaldagi qonun hujjatlarida

mavjud kamchiliklarni kiritadilar. Ularning orasida quyidagi kamchiliklar ayniqsa ko'p qayd etiladi:

- davlat hokimiyati va boshqaruv organlari mansabdor shaxslarining xizmat vakolatlari lozim darajada tartibga solinmagani;
- korrupsiyaning muayyan ko'rinishlari uchun javobgarlik to'g'risidagi amaldagi qonun hujjatlari lozim darajada samarali emasligi;
- korrupsiyaga, shu jumladan siyosiy tushdagi korrupsiyaga qarshi kurashga qaratilgan kompleks huquqiy bazaning mavjud emasligi;
- muayyan siyosat sub'ektlari – davlat hokimiyati vakillari va bu lavozimlarga nomzodlarga jinoiy ta'qibdan immunitet huquqi berilganligi, zero javobgarlikdan har qanday tarzda ozod qilish mavjud xulq-atvor normalari buzilishiga sabab bo'ladi va korrupsiya jinoyatchiligiga qarshi kurashning maqsadi – har bir jinoyat uchun va har qanday shaxsga, uning siyosiy maqomidan qat'i nazar, jinoyat qonuni qo'llanilishining muqarrarligiga ziddir.

Korrupsiyani belgilovchi tashkiliy-boshqaruv omillari guruhi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- vakant oliy davlat lavozimlarini band etishga tanlovlar soni ko'p emasligi, professional xizmatchilar va siyosiy belgiga ko'ra tayinlanadigan amaldorlar tizimining mavjudligi;
- siyosat sub'ektlari ustidan samarali moliyaviy va o'zga nazorat mavjud emasligi;
- davlat xizmatining beqarorligi;
- davlat hokimiyati organlarida tegishli lavozimni band etish uchun saylov yoki tanlov o'tkazish jarayonida moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi maxsus mustaqil xizmatlar mavjud emasligi;
- korrupsiyaga qarshi kurashda davlat organlari faoliyatining samarali emasligi;
- davlat hokimiyati organlarining vakillari va bu lavozimlarga nomzodlarning faoliyati va siyosiy munosabatlar sohasi ustidan davlat va jamiyat tomonidan ijtimoiy nazorat shakllari mavjud emasligi.

Korrupsiyani belgilovchi mafkuraviy va tarbiyaviy omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- korrupsiyaga qarshi qisqa muddatli kampaniyalarning o'tkazilishi, zero ular aksariyat hollarda siyosiy maqsadlarni ko'zlab o'tkaziladi va bu maqsadlarga erishish usullaridan biri hisoblanadi, chunki o'z oldiga qo'yilgan siyosiy maqsadlarga (tegishli lavozimni egallash yoki uni o'zida saqlab qolish) erishgan shaxslar shundan keyin ko'pincha mazkur ijtimoiy hodisaga qarshi kurashning samaradorligini oshirish xususida bergan va'dalarini unutadilar;
- fuqarolik jamiyati siyosiy madaniyatining shakllanmaganligi. Bu avvalo saylov jarayonida aks etadi: saylovchilarning bir qismi o'z ovozlari oz miqdordagi pul summaları yoki moddiy qimmatliklar evaziga beradilar;
- ta'lim tizimida yosh avlodni korrupsiyaga qarshi ruhda tarbiyalash mavjud emasligi yoki yaxshi yo'lga qo'yilmagani;
- ommaviy axborot vositalari aholini korrupsiyaga qarshi ruhda tarbiyalash borasida lozim darajada ish olib bormayotgani.

Korrupsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: davlat mulkini xususiylashtirish hamma joyda korrupsiyaning muhim manbai bo'lib xizmat qiladi; byudjet mablag'larini taqsimlash sohasi – korrupsionerlar uchun yana bir qulay zamin; eksklyuziv huquqlar berish (imtiyozlar, shu jumladan eksport va import, soliqlar bo'yicha imtiyozlar berish, litsenziyalash va sh.k.) ham korrupsiyaga keng yo'l ochadi; amaldorlarning tijorat banklari bilan hamkorligi; huquqni muhofaza qiluvchi organlar va iqtisodiy jinoyatchilikning birikishi va korrupsiyaga qarshi kurashga jiddiy to'sqinlik qiluvchi muhitni yaratishi.

Quyi darajadagi korrupsiya uchun shart-sharoitlar. Quyi darajadagi korrupsiya undan pora oluvchigina emas, balki pora beruvchi ham foyda ko'rishi bilan ajralib turadi. Pora muayyan

maishiy muammolarni hal qilishga ko'maklashadi, shuningdek u ayrim mayda qonunbuzarliklar, ko'rsatmalarni buzish imkoniyati uchun to'lanadigan haq bo'lib xizmat qiladi.

Quyi darajadagi korrupsiya oddiy fuqaro davlatga murojaat etish zaruriyati bilan to'qnash keluvchi yoki aksincha, davlat fuqaroni tashvishga solish lozim deb hisoblovchi barcha sohalarga kirib boradi. Bular: turar joy-kommunal xo'jalik sohasi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, avvalo ichki ishlar organlari, soliq va boj yig'implari, harbiy xizmatga chaqiruv va h.k.

Korrupsiyaning ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari. Jamiyatdagi kriminallashtirish jarayonlari kishilar ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ularning huquqiy ongi buzilishiga sabab bo'ladi. U bir-birini istisno etuvchi ikki jihat – huquqqa ijobiy va salbiy munosabatlarning chatishuvi bilan tavsiflanadi. Ayni bir sub'ektlar ongida bunday tendensiyalarning mavjudligi aholining turli guruhlari qadriyatlarga munosabatda to'g'ri mo'ljallarni yo'qotganidan dalolat beradi. Huquqiy nihilizm – huquqqa salbiy munosabat, uning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning samarali vositasi bo'lib xizmat qilish imkoniyatiga ishonchsizlik kuchayib boradi.

Korrupsiya domiga ilingan shaxslar orasida xizmatni o'tash bilan bog'liq zarar uchun o'ziga xos "tovon" olish motivi ayniqsa keng tarqalgan. Umuman olganda, korrupsiyaga xos bo'lgan belgilar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: sub'ektlar jamiyatda yuksak martaba va mavqega ega ekanligi; maqsadlarga erishishning puxta o'ylangan intellektual usullari va vositalari; jamiyatga etkaziladigan ulkan moddiy va ma'naviy zarar; o'ta yashirinlik va o'zaro kelishuvga asoslanganlik. [2. 37-40].

Axloqiy immunitetning yo'qolishiga asosan quyidagi omillar turtki beradi: yuqorida zikr etilgan beqarorlik hissi; xodimning malakasi va ishning mas'uliyat darajasiga mos kelmaydigan oz maosh (Jahon banki tomonidan o'tkazilgan tadqiqot korrupsiyaning asosiy sababi amaldorlar maoshining ozligi ekanligini ko'rsatdi); xizmat pillapoyalari bo'ylab ko'tarilishda adolatsizlik; boshliqlarning dag'alligi yoki nokompetentligi; korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari mavjud emasligi yoki ularning nomukammalligi; "yirik" korrupsionerlarning jazosizligi. Bularning barchasiga qarshi davlat xizmati tizimini tegishli tarzda o'zgartirish va korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlarini qabul qilish yo'li bilan kurashish mumkin. Mutaxassislar o'tish davrlarida korrupsion qarorlar ba'zan amaldor tomonidan yangi tizimga qarshi o'ziga xos "diversiya" - qo'poruvchilik sifatida qaralishini qayd etadilar. Bunda oddiy poraxo'r o'zini "jinoiy tuzum"ga qarshi kurashchi sifatida tasavvur qiladi. Amaldor korrupsion qaror qabul qilganidan keyingina emas, balki "chegaraviy" xususiyatga ega bo'lgan harakatlardan asta-sekin jinoiy harakatlarga o'tish natijasida ham korrupsiyachiga aylanishi mumkin. Boshqaruvning, qarorlar qabul qilishning izchil texnologiyalari qat'iy yo'lga qo'yilmagani, vakolatlar doirasi va sohalari aniq emasligi, shuningdek davlat xizmati xodimining Kasb odobi kodeksi yo'qligi amaldorlar korrupsiya domiga ilinishini ayniqsa osonlashtiradi.

O'tish davri an'analar va madaniy andozalarning chatishuvi, kapitalning ayrim shakllari o'zga shakllarga deyarli moneliksiz o'tishi bilan tavsiflanadi. Buning natijasida mansabdor shaxslar o'z xizmatiga bozorning davomi sifatida qaraydilar, demokratiyani esa normal bozorni korrupsiya xizmatlari bozoriga aylantirish erkinligi sifatida talqin qiladilar. Shunday qilib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin: birinchi – korrupsiyani faqat uni vujudga keltiruvchi muammolar va shart-sharoitlarni echish yo'li bilan kamaytirish va cheklash mumkin; ikkinchi – bu muammolarni echishga korrupsiyaga qarshi barcha yo'nalishlarda qat'iy kurash olib borish ko'maklashadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Xakimov.R.T. Korrupsiya – globalnaya problema. –T.: Falsafa va huquq nashriyoti, 2006. – s. 15.
2. Botir.U., & Ibodullaevich.K.K. (2022). Causes of Corruption, Socio-Political Consequences. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 8, 37-40.

OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIIY MUHIT VA TALABALAR SALOMATLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

Zafarbek Xaqiqatbekov,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalaridagi ijtimoiy muhitning talabalar salomatligiga ta'siri kompleks tarzda tahlil qilinadi. Ijtimoiy muhitning psixologik, pedagogik va madaniy komponentlari talabalar ruhiy va jismoniy salomatligiga qanday ta'sir ko'rsatishi, shuningdek, salomatlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va profilaktik strategiyalar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, talabalar salomatligi, ijtimoiy muhit, psixologik salomatlik, pedagogik omillar, stress, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, akademik muhit.

Аннотация. В данной статье комплексно анализируется влияние социальной среды в высших учебных заведениях на здоровье студентов. Рассматривается, как психологические, педагогические и культурные компоненты социальной среды воздействуют на психическое и физическое здоровье студентов, а также обсуждаются механизмы поддержки здоровья и профилактические стратегии.

Ключевые слова: высшее образование, здоровье студентов, социальная среда, психологическое здоровье, педагогические факторы, стресс, социальная поддержка, академическая среда.

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the influence of the social environment in higher education institutions on students' health. It examines how the psychological, pal, and cultural components of the social environment affect students' mental and physical health, and discusses mechanisms for health support and preventive strategies.

Keywords: higher education, students' health, social environment, psychological health, pal factors, stress, social support, academic environment.

Kirish. Oliy ta'lim muassasalari — bu nafaqat bilim olish va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish maydoni, balki talabalarining ijtimoiy va psixologik rivojlanishi, shuningdek, ularning jismoniy va ruhiy salomatligi shakllanadigan muhim ijtimoiy muhit hisoblanadi. Hozirgi kunda talabalar salomatligi va ularning akademik muvaffaqiyati o'rtasidagi bog'liqlik nafaqat pedagogika, balki psixologiya, sotsiologiya, hamda tibbiyot fanlari nuqtai nazaridan ham o'rganilmoqda. Salomatlik kontsepsiyasi keng ko'lamli bo'lib, faqat kasallikning yo'qligini emas, balki jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlikni o'z ichiga oladi. Shu boisdan, oliy ta'lim muassasalaridagi ijtimoiy muhitning talabalarga ko'rsatadigan ta'siri kompleks tarzda baholanishi zarur. Ijtimoiy muhit kontsepsiyasi, bir tomondan, talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, guruh dinamikasi, do'stona va qo'llab-quvvatlovchi hamda raqobatbardosh pedagogik sharoitlar bilan belgilanadi. Boshqa tomondan, bu muhit professor-o'qituvchilar, ma'muriy xodimlar va ota-onalar bilan o'zaro aloqalarni, shuningdek, talabalar jamiyatidagi normativ va madaniy qadriyatlarni ham o'z ichiga oladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy muhitning stress manbalari, ijtimoiy izolyatsiya va pedagogik qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi talabalarda ruhiy tushkunlik, tashvish, uyqu buzilishi, charchoq va boshqa jismoniy muammolarni keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, guruh faoliyati va motivatsion pedagogik yondashuvlar talabalarining sog'lom hayot tarzini saqlash va akademik muvaffaqiyatini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida talabalar salomatligiga qaratilgan e'tibor ortgan bo'lsa-da, ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy-pedagogik omillarning salomatlikka ta'sirini sistematik tahlil qilish zaruratini ko'rsatmoqda. Masalan, akademik yuklama va vaqt cheklavlari,

imtihonlar bosimi, ijtimoiy raqobat va guruhdagi o'zaro munosabatlar talabalarning stress darajasini oshiradi. Shuningdek, kampusdagi ijtimoiy faoliyatlar, sport va madaniy tadbirlar, mentorlik va psixologik xizmatlar talabalarning ruhiy salomatligini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi [1]. Shu ma'noda, ijtimoiy muhitning salbiy va ijobiy komponentlarini aniqlash, talabalarning jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilash uchun zarur bo'lgan strategiyalarni ishlab chiqish oliy ta'lim tizimining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy muhitning talabalar salomatligiga ta'siri turli omillar orqali yuzaga keladi. Birinchi navbatda, guruh dinamikasi va talabalarning bir-biriga bo'lgan munosabati ruhiy salomatlikning asosiy determinantidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qo'llab-quvvatlovchi va ijobiy muhit talabalarda o'z-o'zini baholashni oshiradi, stressga chidamlilikni kuchaytiradi va akademik motivatsiyani yaxshilaydi [2]. Aksincha, raqobatbardosh, tushkunlik va ijtimoiy izolyatsiya muhitlari ruhiy tushkunlik, tashvish va boshqa salomatlik muammolarini kuchaytiradi. Ikkinchi omil — bu pedagogik yondashuvning sifati va talabalar bilan o'qituvchilar o'rtasidagi muloqotning samaradorligi. Masalan, konstruktiv feedback, moslashuvchan o'qitish metodlari va talaba markazli pedagogik strategiyalar talabalarning psixologik barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Uchinchi omil — kampusdagi jismoniy faoliyat va sog'lom hayot tarzini rag'batlantiruvchi infratuzilma: sport majmualari, dam olish zonolari, sog'lom ovqatlanish sharoitlari talabalar salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalaridagi ijtimoiy muhitning talabalar salomatligiga ta'sirini o'rganishda metodologik jihatlar muhim o'rin tutadi[3].

So'nggi ilmiy izlanishlar ko'rsatadiki, ijtimoiy muhitni baholashda anketalar, intervyular, psixologik testlar, stress indikatorlarini o'lchash va kuzatuvlar birgalikda qo'llanilganda samarali natijalar beradi. Shu orqali talabalarning ruhiy va jismoniy salomatligi holati va uni shakllantiruvchi ijtimoiy-pedagogik omillar haqida kompleks ma'lumot olish mumkin. Bundan tashqari, ijtimoiy muhit va salomatlik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish oliy ta'lim muassasalari siyosatini rivojlantirishda, profilaktik choralarini aniqlashda va talabalar farovonligini oshirish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy muhit va talabalar salomatligi o'rtasidagi bog'liqlik — bu nafaqat ilmiy tadqiqotning, balki amaliy faoliyatning ham markaziy obyekti hisoblanadi. Talabalar salomatligi va ijtimoiy muhitni yaxshilashga qaratilgan strategiyalar orqali oliy ta'lim muassasalari talabalarning ruhiy barqarorligini oshirish, akademik muvaffaqiyatini ta'minlash va kelajak avlodning sog'lom, barkamol rivojlanishini rag'batlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi [4]. Shu nuqtai nazardan, maqolaning maqsadi oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy muhit va talabalar salomatligi o'rtasidagi kompleks bog'liqlikni aniqlash va unga ta'sir etuvchi, psixologik va ijtimoiy omillarni ilmiy asosda tahlil qilishdir.

Adabiyotlar tahlili. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar salomatligi va ijtimoiy muhit o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishda, chet el olimlarining ishlari muhim nazariy va empirik baza yaratadi. Ikki olim – Li Ruihua va Norlizah Che Hassan va Dost va hamkasblari – bu mavzuda har xil jihatlariga e'tibor qaratgan va ularning yondoshuvlari mazkur tadqiqotda tahlil uchun ishonchli poydevor hisoblanadi. Birinchi navbatda, Li Ruihua, Norlizah Che Hassan, Zhu Qiuxia va Ouyang Sha tomonidan amalga oshirilgan tizimli adabiyot ko'rib chiqish (systematic review) ijtimoiy qo'llab-quvvatlash (social support) va talabalar ruhiy salomatligi o'rtasidagi murakkab munosabatni chuqur tahlil qiladi. Ularning PLoS One jurnalida chop etilgan tadqiqoti 2010–2024-yillar oralig'ida o'tkazilgan 51 empirik ishni o'z ichiga oladi. Ushbu ko'rib chiqish to'g'ridan-to'g'ri (direct) va bilvosita (indirect) ta'sirlarni aniqlaydi: masalan, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ruhiy va emotsional barqarorlikni oshirish, stress darajasini kamaytirish va sog'lom hayot tarzini rag'batlantirishga yordam beradi. Indirekt yo'llar orqali esa qo'llab-quvvatlash, o'z navbatida, o'z-o'zini baholash, hayotdan mamnunlik va moslashuvchanlik (resilience) kabi omillarni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, ularning ko'rib chiqishi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash universitet siyosatida va talaba qo'llab-quvvatlash tizimlarida strategik o'rin olishi kerakligini ko'rsatadi — chunki bu talabalar salomatligi va farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchi

jihatdan, G.Dost va hamkasblari (recent meta-ethnographic va empirik izlanishlar orqali) “sense of belonging” – ya’ni “tushuncha bo’yicha tegishlilik hissi” (to’liq universitet yoki kampus kontekstida) va talabalar psixologik salomatligi o’rtasidagi bog’liqlikni tadqiq qilgan. Masalan, Dost va boshqalarining sifatli meta-etnografik tahlilida talabalarning universitetda o’zlarini “qabul qilingan”, “tegishli” his qilish hissi ularning ruhiy holati, motivatsiyasi va ijtimoiy integratsiyasiga sezilarli ta’sir qiladi. Shuningdek, so’nggi tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, sense of belonging darajasi psixologik salomatlik va talabalar qoniqish hissi bilan bevosita bog’liq; ya’ni, universitet muhitining qo’llab-quvvatlovchi tabiati va ijtimoiy muloqot talabalarda depressiya yoki tashvish simptomlarini kamaytirishi mumkin.

Metodologik qism. Ushbu tadqiqotda oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy muhit va talabalar salomatligi o’rtasidagi bog’liqlikni aniqlash uchun 140tatistic140e metodologik yondashuv qo’llanildi. Tadqiqot psixologik, 140tatistic va sotsiologik yondashuvlarni birlashtirib, talabalar salomatligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-pedagogik omillarni kompleks tarzda o’rganishga imkon berdi. Shu maqsadda, birinchi bosqichda anketa va so’rovnomalar yordamida talabalar orasida ijtimoiy qo’llab-quvvatlash darajasi, guruh dinamikasi, kampusdagi ijtimoiy integratsiya va ruhiy salomatlik ko’rsatkichlari aniqlangan. Ikkinchi bosqichda, strukturaviy intervyular va stati guruhlar orqali talabalar va o’qituvchilar o’rtasidagi muloqot sifatini, ijtimoiy muhitning statistic komponentlarini chuqur tahlil qilish amalga oshirilgan. Shu bilan birga, talabalarning psixologik testlar va stress indikatorlari (masalan, Perceived Stress Scale va General Health Questionnaire) orqali ruhiy holati va psixofiziologik barqarorligi baholangan. Tadqiqotda korrelyatsion va regressiya tahlillari qo’llanilib, ijtimoiy muhitning turli komponentlari (ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, sense of belonging, guruh integratsiyasi) va talabalar salomatligi o’rtasidagi bog’liqlik aniqlangan. Shu tariqa, metodologik yondashuv anketalar, intervyular, psixologik testlar va 140tatistic tahlil vositalarini uyg’unlashtirib, talabalarning ijtimoiy-pedagogik kontekstda salomatlik holatini tizimli va ilmiy asosda o’rganishga imkon yaratdi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy muhit va talabalar salomatligi o’rtasidagi bog’liqlikni aniq ko’rsatdi. Anketa va psixologik testlar natijasida ijtimoiy qo’llab-quvvatlashning yuqori darajasi talabalarda stress darajasining sezilarli darajada pastligi, ruhiy barqarorlik va umumiy farovonlik ko’rsatkichlarining oshishi bilan bog’liqligi aniqlangan. Fokus guruhlar va intervyular orqali aniqlanishicha, sense of belonging — talabalar o’rtasida o’zlarini universitetga tegishli his qilish hissi — ruhiy salomatlik va akademik motivatsiyani oshirishda muhim rol o’ynaydi, ayniqsa, yangi kirgan talabalarda moslashuv jarayonini tezlashtiradi.

Statistik tahlil natijalari guruh integratsiyasi va ijtimoiy faoliyatlar darajasi bilan talabalar salomatligi o’rtasida sezilarli musbat korrelyatsiyani ko’rsatdi, shuningdek, 140 qo’llab-quvvatlash va konstruktiv muloqot ruhiy barqarorlikni oshirishda asosiy determinant sifatida namoyon bo’ldi. Shu bilan birga, 140edagog natijalar ijtimoiy izolyatsiya, 140 qo’llab-quvvatlashning yetishmasligi va ortiqcha akademik yuklama talabalarda tashvish, charchoq va ruhiy tushkunlik simptomlarini kuchaytirishi mumkinligini tasdiqladi. Umuman olganda, natijalar oliy ta’lim muassasalaridagi ijtimoiy muhit komponentlarining talabalarning ruhiy va jismoniy salomatligiga bevosita va bilvosita ta’sirini tizimli tarzda ochib berdi va sog’lom ijtimoiy muhitni yaratish zaruratini tasdiqladi.

Muxokama. Oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy muhit va talabalar salomatligi masalasi so’nggi yillarda ilmiy jamoatchilikda keng muhokama qilinmoqda. Bu borada ikki xorijiy olim – Li Ruihua va Norlizah Che Hassan bilan G.Dost va hamkasblari – turlicha nuqtai nazarni ilgari surgan. Li Ruihua va Norlizah Che Hassanning tadqiqotlari ijtimoiy qo’llab-quvvatlashning talabalar ruhiy salomatligiga bevosita himoyalovchi rolini ta’kidlaydi, ular ijtimoiy qo’llab-quvvatlash talabalarda stressni kamaytirish, ruhiy barqarorlikni oshirish va moslashuvchanlikni kuchaytirishga xizmat qilishini ko’rsatadi. Ularning yondashuvi psixologik indikatorlar va empirik tadqiqotlar asosida ijtimoiy muhitning talabalarga salbiy ta’sirini

kamaytirish va profilaktik strategiyalar ishlab chiqishga urg'u beradi. Boshqa tomondan, G.Dost va hamkasblari "sense of belonging" — talabalarning universitetga tegishli bo'lish hissi — kontseptsiyasini markaziy o'ringa qo'yadi. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash faqatgina stressni kamaytirish bilan cheklanmaydi; talabani universitet muhitiga integratsiyasi, ijtimoiy munosabatlarda o'zini qabul qilingan va tegishli his qilishi ruhiy farovonlik va akademik muvaffaqiyat uchun asosiy shartdir. Bu yondashuv ijtimoiy muhitning sifat jihatiga, ya'ni guruh integratsiyasi, do'stona va pedagogik qo'llab-quvvatlashning mavjudligiga e'tibor qaratadi. Bu ikki yondashuv o'rtasida ilmiy bahs mavjud. Li va Norlizah Che Hassanning nazariyasi ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning kvantitativ va strukturaviy ko'rsatkichlariga urg'u beradi, ya'ni u qanchalik ko'p bo'lsa, talabalar ruhiy salomatligi shunchalik yaxshilanadi, deb ta'kidlaydi. Dost va hamkasblari esa buni sifat jihatidan kengaytiradi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash faqat seziladigan yoki formal yordam emas, balki talabani muhitga tegishlilik hissi bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, ikki yondashuv bir-birini to'ldiradi: biri empirik va kvantitativ asosda, ikkinchisi sifatli va psixologik nuqtai nazardan talabani salomatligini tahlil qiladi. Muxokamaning natijasi shundan iboratki, oliy ta'lim muassasalarida talabalar salomatligini yaxshilashga qaratilgan strategiyalar ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va sense of belongingni birgalikda hisobga olishi kerak. Bu esa universitet siyosati, yondashuvlar va kampus ijtimoiy infratuzilmasini shakllantirishda kompleks va ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Shu bilan birga, bu ilmiy diskussiyalar ijtimoiy muhitni nafaqat stressni kamaytiruvchi, balki talabalarni ruhiy, psixologik va akademik jihatdan barqaror qilish vositasi sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi.

Xulosa: Ushbu tadqiqot oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy muhit va talabalar salomatligi o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni tizimli tarzda o'rgandi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, sense of belonging, guruh integratsiyasi va pedagogik qo'llab-quvvatlash kabi ijtimoiy-pedagogik omillar talabalarning ruhiy va jismoniy salomatligiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Empirik ma'lumotlar, shuningdek, ijtimoiy izolyatsiya va ortiqcha akademik yuklamaning talabalarda stress va ruhiy tushkunlik simptomlarini kuchaytirishini tasdiqladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turg'unboyev K., Tolipov M., Oxunov I. Ijtimoiy pedagogika asoslari //O 'quv qo 'llanma. Toshkent "Fan va texnologiya. – 2008.
2. Axmedov A. A. Ijtimoiy pedagogika //Maktabgacha ta'lim yo 'nalishi talabalari uchun o 'quv qo 'llanma. – 2023.
3. Abdullajonov A. Axborotlashgan jamiyatda bo 'lajak o 'qituvchining kompetentligini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik muammolari //Nordic_Press. – 2024. – T. 5. – №. 0005.
4. Xakimov X., Farmonova M. Pedagogika universitetining nomutaxassislik ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy mahoratni shakllanishida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B4. – C. 206-212.

USTRUSHONADA KULLOLLIK TARIXINING O'RGANILISHI

Gulchexra Muminova,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kulollik sohasi eng qadimiy va keng tarqalgan hunarmandchilik turlaridan biri bo'lganligi hamda uning texnologiyasi tarixi ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish tarixi bilan chambarchas ekanligi ta'kidlangan. Sopol idish turlarini ularning xizmati, aholining kundalik turmushdagi qo'llanishi jihatlaridan kelib chiqqan holda o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Ustrushona, kulollik, sopol idishlar, xum, xumcha, ko'za, kosa, Jizzax, Zomin, Qaliyatepa, Qo'rg'ontepadan (G'allaorol), Ko'rpasoy.

Аннотация. В данной статье утверждается, что гончарное производство является одним из древнейших и наиболее распространенных видов ремесел, а его технология-история-тесно связана с историей развития производства и социально-экономических отношений. Изучались виды керамики, исходя из аспектов их службы, применения в быту населения.

Ключевые слова: Уструшана, керамика, керамические посуды, хум, кувшин, чаша, Джизак, Заамин, Калиятепа, Кургантепа (Галлярал), Курпасой.

Annotation. This article argues that pottery is one of the oldest and most widespread types of craft, and its technology and history are closely linked to the development of production and socio-economic relations. The article examines different types of ceramics based on their functionality and use in everyday life.

Key words: Ustrushana, ceramics, pottery, jug, bowl, Jizak, Zaamin, Kaliyatepa, Kurgantepa (Gallaral), Kurpasoy.

Moddiy-madaniy boyliklar faqat o'tmish kishilari tomonidan yaratilgan boyliklar bo'lib qolmasdan, balki inson aql-zakovati, hayoti to'g'risidagi tasavvurlarni o'zida aks ettirib beruvchi ko'zgu hamdir. Inson tafakkurining mahsuli bo'lgan hunarmandchilik juda qadim zamonlardagi mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'lgan, shu jumladan ushbu sohaning bir bo'lagi bo'lgan kulollik ham.

Kulollik qora loydan mo'jizakor go'zallik namunalarini yaratuvchi Sharqning eng qadimiy va navqiron san'ati hisoblanadi. Paydo bo'lishi va tarkibi turlicha bo'lgan tuproqdan kulollik mahsulotlari tayyorlanadi. Ushbu hunarmandchilik san'ati bilan jahondagi barcha xalqlar shug'ullanadi, biroq ular bir-biridan o'ziga xos jihatlari bilan farqlanadi.

Kulolchilik g'ildiragining paydo bo'lishi va takomillashishi, kulolchilikka ishlov berishning turli usullarining tug'ilishi va rivojlanishi, nihoyat, sirlash va bo'yash texnikasining yaratilishi – bu nafaqat texnika tarixi, balki kulollik iqtisodiyoti, jamiyatda ishlab chiqarishining o'sishi va rivojlanishi tarixi deyishimiz mumkin.

Sopolsozlik hunarmandchiligiga oid ashyolar ham loydan tayyorlangan xumdonda yuqori darajada pishirilgan kulollik idishlari hisoblanib, ular arxeologik qazishmalar eng ko'p tarzda topiladigan ommaviy moddiy madaniyat namunalaridir. Sopol idish turlarini ularning xizmati, aholining kundalik turmushdagi qo'llanishi jihatlaridan kelib chiqqan holda nomlash mumkin.

O'rganilayotgan davrlarda tarqalgan ommaviy yirik sopol idish turlari sifatida xumlarni qayd etish mumkin. Markaziy shaharlarning omborlarida, katta-kichik qishloq makonlari (kent, qal'a, rabot...)ning xo'jalik xonalarida qish mavsumi va mamlakatdagi siyosiy holat barqaror, harbiy harakatlar kutilayotgan yoki sodir bo'layotgan davrlarda O'rta Osiyoning barcha madaniy vohalarida bo'lgani kabi Ustrushona rustoqlarida ham mumkin qadar ko'p hajmda kundalik va

mavsumiy oziq – ovqat zahiralari saqlashga e'tibor qaratilgan xumlarda asosan ichimlik suvi, musallas, don, un va quruq mevalar saqlangan. Jizzax yodgorliklari xususan Pardaqlutepa ham bundan istisno emas, qalada qayd etilgan xumlar asosan har uyni tomi sathidan topilgan. Ular ba'zan ko'milgan holda uchraydi [1. B. 142-148].

Qozonlar issiq ovqat tayyorlash (qaynatish, qovurish, dimlash) bilan bog'liq idishlardir. Ushbu faoliyat idishlarning asosan "xamiri" va shakliga ta'sir etgan. Chunki sifat va shakl xususiyatlari orqali qozonlarning o'tga chidamliligi, o'choqda o'rnatilishdagi qulayligi, olovning idish tagi va yon sirtiga bir maromda urilishi hamda ularni o'choqdan oson olinishi kafolatlangan. Qozonlarning ikkita xususiyati, ya'ni olovga bardoshliligi va olov darajasi keskin o'zgarganda ham ta'sirsizligi ularning sifat darajasini belgilagan.

Xumlar o'z tashqi ko'rinishlari jihatidan ayrim hollarda ko'zalarga o'xshash shaklda bo'lib, ularning gardish aylanasi kengligidan bu turdagi sopol idishlarni ajratish mumkin, Ular kundalik hayotda asosan sut mahsulotlarini saqlashda qo'llanilgan. Y.M.Peshereva bergan etnografik ma'lumotlarga ko'ra, sut sog'ish, qatiq ivitish kabi bir qancha jarayonlardan tashkil topgan "sut xo'jaligi" xurmalarining bir necha xillarini vujudga kelishi uchun asosiy sabab bo'lgan [2.B.395].

Ilk o'rta asrlarda chorvador xalqlarning nufuzining oshishi, bu orqali chorva mahsulotlari, xususan, sut ishlab chiqarish va iste'molining nechog'li oshganligini xum va xumchalarning ko'p tarqalganligi hamda ularning nisbatan boy turlari mavjudligidan ham bilsa bo'ladi.

O'rta Osiyo iqlim sharoitida ichimlik suvga bo'lgan talab va uni ijobiy hal qilish turmushning dolzarb muammolaridan biri bo'lgan, Ichimlik suvining tanqisligi, buning ustiga ko'p iste'mol qilinishi suv ta'minotini bir me'yorda, uzilishsiz ravishda bo'lishidek vazifani yuzaga chiqargan. Suvni tejab, undan unumli foydalanish maqsadida suv tashish, saqlash, foydalanish ishlari uchun turli xildagi maxsus ko'zalar usta kulollar tomonidan yasalgan. Suv saqlashda ehtimol ko'p va katta hajmli ko'zalarda, uni tashishda o'rtacha hajmli ko'zalardan (obdasta), ishlatishda kichik o'lchamli ko'zalardan (oftoba), qaynatishda bir dastali ko'zalardan foydalanilgan. Ko'zalar o'z shakl tuzilishi, o'lchamlari va kundalik hayotda foydalanish xususiyatlariga qarab toifalarga bo'lingan.

Y.Yakubovning etnografik ma'lumotlarga ko'ra "ob ko'za", "suvko'za" deb nomlangan ko'zalar ham urf bo'lgan [3.B 395].

Suv ko'zalarining bo'g'zi tor, gardani uzun, buyni va gavda qismi bir-biridan keskin ajralgan, gardishi to'g'ri, tashqariga qayrilgan, gardish uchi tumtoq dumaloq ko'rinishdadir. Ko'rib chiqilayotgan barcha toifa ko'zalar ichida soddagina, yani 9 nusxa kulollik charxida yasalgan ko'zalar uchraydi. Kosalar to'g'ridan to'g'ri oshxona idishlari bo'lib, oilaning umumiy ovqatlanish faoliyati bilan bog'liqdir. Kosalar o'z foydalanish xususiyatiga shakl va o'lchamlariga qarab 4 toifaga bo'linganligini kuzatishimiz mumkin.

Kundalik hayot uchun zarur bo'lgan buyumlardan biri piyolalar bo'lib, kelib chiqishi va rivojlanish evolyusiyasi albatta kosalar bilan uzviy bog'liqdir. Chunki piyolalarning shakli ko'pgina hollarda kosalarining aynan o'zi yoki ularning mo'jaz nusxasi bo'lib qaytariladi. Tadqiqotchi I.Isamiddinov ta'kidlaganidek, yunon kosasi fialadan keyinchalik o'zbekcha piyola nomi kelib chiqqan, demak mazkur shakldagi idishlarni ishlab chiqarish yunon kulolchilik mahsulotlari tasirida vujudga kelgan[4.B 34].

Kundalik hayot uchun zarur mahsulotlardan yana biri likobcha idishi faqat yagona nusxada qayd etilgan bo'lib, shakl jihatdan u hozirgi tarekka, deb ataladigan chinni idishlarning aynan o'zidir. Likobcha o'rtacha sifatli sarg'ish tuproq loyidan qo'lda tayyorlangan, loy tarkibida qum va maydalangan tosh, sopol parchalari qo'shilgan.

Inson ehtiyoji uchun ishlatiladigan tovalar past bo'yli gardish va tagdon diametri deyarli bir xil o'lchamga ega bo'lgan idish hisoblangan. Ularning shakli likobchaga biroz o'xshab ketsada o'lchamlari, tik ko'tarilgan yon devori, to'g'ri uchli gardishi va yon devordan ajralib turgan tagdoni bilan ulardan keskin farq qiladi, ushbu idishlar qo'lda yasalgandan so'ng qizg'ish malla angob bilan bo'yalgan.

Tog'aralar keng tarqalmagan, tarixiy - etnografik ma'lumotlarga asoslanib xulosa chiqaradigan bo'lsak, tog'oralardan kir yuvishda, bosh yuvishda foydalanilgan [2.B.395]. Bundan tashqari tog'oralar xamir qorishda ham ishlatilgan.

Kundalik turmush tarzda chirog'donlar uy xonalarini yoritish uchun xizmat qilgan. Qo'lda yasalgan bu idishlar 5 nusxada qayd qilingan va ular 2 toifaga bo'lingan.

Isirig'donlar toat-ibodat marosimlarida ishlatilgan, Isirig'donlar quvursimon, ichi g'ovak tanadan, gavdani tutib turganda yason, tarvaqaylagan tagdondan, tana boshiga o'rnatilgan "kosacha"dan iborat.

Binobarin, o'rta asr hunarmandlarining sopol buyumlari qadimgi va o'rta asrlar davlatlarining tarixi, xo'jaligi va madaniyatini o'rganish uchun qimmatli material bo'lib xizmat qiladi va kulolchilik buyumlarini ishlab chiqarish xususiyatlariga ko'ra tasniflash ushbu tadqiqotning muhim elementi sifatida qaraladi. Xronologik tasnif yanada muhimroq, chunki sopol ba'zan u yoki bu arxeologik majmuaning yagona tanishish materialidir. Shuning uchun ishlab chiqarish texnologiyasini, uning rivojlanishining turli bosqichlarida kulolchilikning texnologik xususiyatlarini o'rganish juda zarur.

O'rta Osiyoning neolit davri jamoalari tomonidan kulollik hunarmandchiligining kashf etilganiga qariyb 7-8 ming yil bo'ldi. Dastlab nihoyatda sodda, primitiv ko'rinishda bo'lgan, qo'lda yasalgan sopol idishlar Janubiy Turkmanistonning Joytun madaniyatiga oid o'troq dehqon jamoalari qarorgohlari (Nayzatepa, Bali, Cho'pontepa)dan topilgan. Guvaladan yasalgan, bir xonali uylarning devorlari somonli loy bilan suvalgan, xonalarning to'rt tomonidan devorga taqab ko'tarilgan supa mavjud bo'lib, u dam olish, yotib uxlash uchun xizmat qilgan. Ba'zi xonalar markazida sandal tanchasi, devorga tirob o'choq qurilgan. Ish qurollarining aksariyati hanuz toshdan yasalgan holda uy – ro'zg'ori uchun sopol idishlardan foydalanishni boshlanishi katta ijtimoiy – iqtisodiy hodisa hisoblangan [5.B 46-47].

Aynan shu davrda O'rta Osiyoning markaziy va shimoliy mintaqalarida iqtisodiy xo'jaligi ovchilik, termachilik va chorvachilikka ixtisoslashgan neolit asri jamoalari tarqalgan edilar. Ushbu jamoalarga taalluqli moddiy madaniyat namunalari ilk bora S.P.Tolstov tomonidan qadimgi Xorazm yerlarida, Amudaryoning quyi havzasi yerlaridan topib o'rganilgan va muallif mazkur yodgorliklarni "Kaltaminor madaniyati" bilan fanga kirgizgan. Ma'lum bo'lishicha, Kaltaminor madaniyati sohiblari Joytunliklar bilan bir davrda hayotiy faoliyat ko'rsatishgan.

Ustrushonaning shimoliy – g'arbiy hududlari Xaydarko'l- Tuzkon ko'llari tarmog'ining qirg'oqlaridan, Mirzacho'l hududlaridan 1960-yillar boshida Y.G'ulomov rahbarligidagi Mohandaryo ekspeditsiyasi xodimlari Kaltaminor madaniyati sohiblariga tegishli yodgorliklarni o'rgangan. Qayd etilgan moddiy madaniyat namunalari orasida archaning ignasimon barglariga o'xshash naqshlar solingan sopol idishlar parchalari ham topilgan bo'lib, ular neolit davrining V-IV ming yilliklari bilan davrlangan.

Demak, O'rta Osiyoning ibtidoiy jamoalar davri tarixiga oid ixtiro – sopolsozlik madaniyatini paydo bo'lishi va uni urug' – jamoalar kundalik hayotida qo'llanilishi bugungi Jizzax vohasi hamda uni atrof – tevaragidagi chorvadorlar turmush tarzidan o'rin olgan.

Rasmiy tarixdan ma'lumki, O'rta Osiyo qadimiy xalqlari tarixida bir necha yuz ming yillar davom etgan tosh davri – paleolit bosqichlari tugab, uning o'rnini mil.er.avv IV-III ming yilliklarda ilk metallar davri eneolit (mis - tosh) va bronza asri egallaydi. Mutaxassislar e'tirof etganidek, eneolit davri dunyoning barcha mintaqalarida bir davrda boshlanmagan, balki har bir mintaqaning tabiiy resurslari va ekologik sharoitidan kelib chiqib turli davrlarda boshlangan xususan, Afrika va Osiyoning qadimgi dehqonchilik mintaqalarida avvalroq boshqa geografik kengliklarda, xususan O'rta Osiyoda nisbatan kechroq urug' – jamoalar hayotiga joriy qilingan.

Eneolit davri yodgorliklari O'rta Osiyoning janubiy qismi, xususan Turkmaniston hududida nisbatan yaxshi o'rganilgan hamda, mintaqaning markaziy qismida Samarqand Sug'dining ilk dehqonchilik mavzalaridan sanalgan Zarafshonning yuqori oqimidagi Sarazm yodgorlik kompleksi misolida o'rganilgan. Tojikiston respublikasi Panjikent tumani Sarazm qishlog'i hududidan topilgan ushbu yodgorlikning umumiy maydoni 90 gektar atrofida bo'lib,

undagi hayot davomiyligi 4 ta qurilish bosqichi bilan ifodalangan. Qadimgi Ustrushonaning janubiy qismi sarhadlariga yaqin joyda faoliyat ko'rsatgan ushbu yodgorlik ko'hna Sug'dning ilk dehqonchilik markazlaridan bo'lib, uning me'moriy qurilishlari shaharga o'xshash, shaharmonand xususiyatli bo'lgan. Umumiy holatda Sarazm yodgorligi eneolit, bronza asri (mil.er.avv IV -III ming yilliklar) bilan davrlanib, undagi topilmalar majmuasida tosh munchoqlar shodasi, mis munchoqlar donasi, tosh qurollar bilan birga qo'lda yasalgan bo'lsa-da, shakli deyarli simmetrik bo'lgan, qizil, jigarrang bo'yoqlar bilan bo'yalgan rangdor sopol idishlar namunalari topilgan [5.B 66-67].

Dastlab yarim qimmatbaho rangdor mis metall bilan tanishgan qadimgi davr metallurlari eneolit davrining so'nggi boqichida tarkibi misga qalayni qorishtirib bronza – jez olishni kashf qilganlar. Qadimgi Ustrushonaning sharqiy hududlaridan Qayroqqum madaniyatiga oid, shimoliy – g'arbiy hududlaridan Andronova madaniyatiga oid bronza davri yodgorliklari qayd etilgan. Zominning Laylak uya, Jizzax shahrining Sharilloq, Jilli g'ulli tog' va tog' oldi hududlaridan topilgan bronza bilakuzuklar, sopol xurma va ko'zalar topilgan. Laylak uya topilmalari radiokarbon analizlari asosida mil er.avv III ming yillikning boshlari bilan, qolgan topilmalar mil.er.avv ikkinchi ming yilligi o'rtalari bilan davrlangan. Ta'kidlash lozimki, Jizzax shahri atrofidan topilgan sopol idishlar qutisimon tosh qabrlardan va yerdan qazilgan o'ra qabrlarda qayd etilgan.

Qadimgi Ustrushonadagi dastlabki shaharmonand, atrofi mudofaa devorlari bilan o'ralingan yirik turar – joy maskani Nurtepa (18 ga) hisoblanib, u mamlakatning markaziy qismida Nijonisoyning yuqori qismida, O'ratepadan 12 km g'arbda, O'zbekiston bilan Tojikistonning chegara hududida joylashgan. Asosiy izlanishlar o'tgan asrning 80- yillarida o'tkazilgan va bu Sirdaryobo'yi sak qabilalarining ilk temir davrida mil er. Avv VIII -VII asrlarda o'troqlashuvi oqibatida bunyod etilgani ta'kidlangan. Keyinchalik Nurtepa madaniyati sohiblarining bir qismi Nijonisoyning quyi oqimi havzasiga ko'chgan va Savat qishlog'i yaqinidagi qir – adirlar ustida Xontepa, Sag'anaqtepa I,II manzilgohlariga asos solingan.

Ushbu manzilgohlardan topilgan sopol idish namunalari o'ziga xos bo'lib, ba'zi ko'zalarning jumraklari tanadan keskin yuqoriga ko'tarilib idish gardishi bilan tutashib ketgan, qozonlarning "qulog'i" g'urrasimon shaklda bo'lib, tashqi ko'rinishida go'yo ushbu dastaklar idish tanasini o'zidan chiqarilgan tasavvurni beradi. Aslida ular alohida yasalgan va xumdonda pishirish oldidan mohirlik bilan qozonlarning "yelka" qismiga o'rnatilgan. Nurtepa, Sag'anaqtepa I yodgorliklaridan topilgan bunday sopol idishlar Erondan Ahamoniylar davri manzilgohlarida ko'plab topilgan. Shunga qaraganda, Qadimgi Ustrushona mamlakati ham o'z vaqtida Eron ahamoniylari tomonidan istilo qilingan va uning tarkibida bo'lgan. Demak, bu davrda Ustrushona kulollik hunarmandchiligi asosan Nurtepa madaniyatiga oid mahalliy an'anana va xususiyatlarga ega usullar orqali rivojlanishda davom etgan. Shuningdek, Qadimgi Farg'onaning Eylaton madaniyati Ustrushonaning sharqiy mavzulariga, Markaziy Sug'd madaniyatining g'arbiy muzofotlariga Jizzax shahrigacha ta'siri sezilgan.

Demak, Qadimgi Ustrushonaning kulollik hunarmandchiligi qo'shni viloyatlar (Sug'd, Farg'ona, Shosh - Iloq)da bo'lgani kabi o'z tarixiy rivojlanish bosqichlariga ega bo'lib, o'rganilayotgan antik va ilk o'rta asrlar alohida ahamiyatga ega bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pardaeв M.H. Shimoliy g'arbiy Ustrushona qishloq qurilish me'morchiligining ilk o'rta asrlardagi ayrim xususiyatlari\\ O'MMT, 28-nashri. Samarqand, 1997. 142-148B
2. Пещерева Е. М. Гончарное производство Средней Азии. М.-Л., 1959. С 395.
3. Якубов.Ю. Раннесредневековые сельские поселения горного Согда. Душанбе, 1988
4. Isomiddinov M. Sopotga bitilgan tarix.-T.1993 34 b
5. Asqarov A.A. O'zbekiston tarixi (eng qadimgi davrlardan eramizning V asrigacha) Toshkent, 1994. 46-47 b.

**MAKTAB O'QUVCHILARINING IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA
TARIX FANI O'QITUVCHISINING ROLI VA KASBIY KOMPETENSIYALARI**

**Sevarxon Tursunova,
Namangan davlat pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim paradigmasida tarix fani o'qituvchisining an'anaviy "ma'lumot uzatuvchi" rolining transformatsiyasi tahlil qilingan. O'quvchilarning ijodiy (kreativ) tafakkurini rivojlantirish jarayonida o'qituvchining zimmasiga yuklanadigan yangi vazifalar va buning uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetensiyalar tizimi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: kreativ tafakkur, tarix o'qituvchisi, kasbiy kompetensiya, fasilitator, pedagogik mahorat, interfaol metodlar, XXI asr ko'nikmalari, o'qituvchi roli, loyihaviy ta'lim, ta'lim paradigmasi.

Аннотация. В данной статье проанализирована трансформация традиционной роли учителя истории как «передатчика информации» в условиях современной образовательной парадигмы. Рассмотрены новые задачи, возлагаемые на учителя в процессе развития творческого (креативного) мышления учащихся, а также система профессиональных компетенций, необходимых для их выполнения.

Ключевые слова: креативное мышление, учитель истории, профессиональная компетенция, фасилитатор, педагогическое мастерство, интерактивные методы, навыки XXI века, роль учителя, проектное обучение, образовательная парадигма.

Annotation. This article analyzes the transformation of the history teacher's traditional role as a "knowledge transmitter" within the modern educational paradigm. It examines the new responsibilities placed on the teacher in the process of developing students' creative thinking and the system of professional competencies required for this.

Keywords: creative thinking, history teacher, professional competence, facilitator, pedagogical mastery, interactive methods, 21st-century skills, teacher's role, project-based learning, educational paradigm.

Kirish. XXI asr – axborot texnologiyalari, globallashuv va sun'iy intellekt davri ta'lim tizimi oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo'yimoqda. Bugungi kunda yosh avlodni faqat tayyor bilimlar bilan qurollantirish yetarli emas; ularni axborotni mustaqil izlab topishga, tanqidiy tahlil qilishga, nostandart yechimlar qabul qilishga va yangi g'oyalar yaratishga o'rgatish – ya'ni, kreativ tafakkurni shakllantirish birlamchi ahamiyat kasb etmoqda "O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning strategik maqsadi ham o'quvchilarda zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan, xususan, ijodkorlik, kommunikatsiya, kollaboratsiya va tanqidiy fikrlash kabi fundamental kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat". Aynan shu sababli, an'anaviy yodlashga asoslangan darslardan voz kechib, o'quvchi shaxsini va uning ijodiy salohiyatini birinchi o'ringa qo'yadigan yondashuvlarga o'tish har qachongidan ham dolzarbdir.

Bu jarayonda tarix fani alohida o'rin tutadi. Tarix – bu shunchaki o'tmish faktlari to'plami emas, balki insoniyat tajribasini tahlil qilish orqali bugungi kunni tushunish va kelajakni modellashtirish imkonini beruvchi tafakkur laboratoriyasidir. Biroq bu laboratoriyaning samarali ishlashi bevosita uning "rahbari" – o'qituvchiga bog'liq. Afsuski, ko'p hollarda an'anaviy ta'lim tizimi o'qituvchini faqat darslikdagi ma'lumotni o'quvchi xotirasiga "joylashtiruvchi" passiv transmitter roliga tushirib qo'yadi. Bunday yondashuv o'quvchining ijodiy salohiyatini "bo'g'adi" va fanga bo'lgan qiziqishini so'ndiradi. Shu sababli, o'quvchida kreativlikni shakllantirish uchun avvalo o'qituvchining o'zi qanday bo'lishi kerak, degan savolni o'rta

tashlash maqsadga muvofiq. Ushbu tadqiqotning maqsadi – tarix darslarida o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun zamonaviy tarix o'qituvchisining rolini qayta ko'rib chiqish va unda bo'lishi zarur bo'lgan kasbiy kompetensiyalar majmuini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'qituvchining kasbiy kompetensiyalari muammosi jahon va milliy pedagogika fanida keng o'rganilgan. L.S.Vigotskiyning ijtimoiy-konstruktivistik nazariyasi ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchining "yaqin rivojlanish zonasi"ni yaratuvchi asosiy figura ekanligini ta'kidlaydi [2]. Amerikalik psixolog va pedagog K. Robinson esa o'z asarlarida zamonaviy maktab kreativlikni qanday qilib yo'qqa chiqarayotganini tahlil qilar ekan, o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchining ichki qobiliyatlarini "uyg'otish" ekanligini uqtiradi. O'zbekistonlik olimlardan N.N. Azizxo'jayeva [1], B. Ziyomuhammadov [4] kabi olimlar o'z tadqiqotlarida o'qituvchining pedagogik mahorati va ilg'or texnologiyalarni egallashining ahamiyatini chuqur tahlil qilganlar. Biroq tarix fanining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, o'quvchi kreativligini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qituvchi kompetensiyalari tizimli ravishda alohida o'rganilmagan. Ushbu maqola ana shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, pedagogik modellashtirish hamda ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida o'qituvchining an'anaviy va innovatsion ta'limdagi rollari qiyoslandi, ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi metodlar tahlil qilindi va bu metodlarni samarali qo'llash uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar tizimi modellashtirildi.

Natijalar va muhokama. O'tkazilgan nazariy tahlillar o'quvchining ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim jarayonida tarix o'qituvchisining an'anaviy rolining o'zgarishi nafaqat mumkinligi, balki zaruriyat ekanligini ko'rsatadi. Zamonaviy ta'lim paradigmasida o'qituvchi endi shunchaki yagona bilim manbai va nazoratchi emas, balki ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini rivojlanishga yo'naltiruvchi, murakkab va ko'p qirrali vazifalarni bajaruvchi shaxsga aylanadi. Bu transformatsiyani o'qituvchining yangi kasbiy rollari va ularga mos kompetensiyalarni tahlil qilish orqali chuqurroq anglash mumkin.

Ijodiy ta'lim muhitida o'qituvchi, eng avvalo, bilim dizayneri sifatida namoyon bo'ladi. Agar an'anaviy o'qituvchi darslik va tasdiqlangan ishlanmaga qat'iy rioya qilib, bilimni tayyor holda uzatish bilan cheklansa, innovatsion o'qituvchi o'quvchilarning qiziqishi, yosh xususiyatlari va o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, har bir darsni noyob "o'quv tajribasi" sifatida o'zi mustaqil loyihalashtiradi. U tarixiy mavzuni quruq bayon qilishdan voz kechib, uni o'quvchi uchun qiziqarli va tushunarli sarguzashtga aylantiradi. Masalan, "Amir Temur harbiy yurishlari" mavzusini o'tishda shunchaki xaritada yo'nalishlarni ko'rsatish o'rniga, sinfni kichik guruhlariga bo'lib, strategik rolli o'yin tashkil qilishi mumkin. Bunda har bir guruhga ma'lum bir vazifa (qo'shinni ta'minlash, raqibning zaif tomonini aniqlash, diplomatik muzokaralar olib borish) yuklanadi. Bunday darsni rejalashtirish o'qituvchidan yuksak metodologik kompetensiyani talab qiladi. Bu, o'z navbatida, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlar (muammoli ta'lim, loyihaviy ta'lim, "ag'darilgan sinf", keys-stadi va hokazo) arsenalini shunchaki bilish emas, balki ularni mavzuning maqsadiga, o'quvchilarning salohiyatiga mos ravishda tanlay olish va ijodiy moslashtira olish qobiliyatidir [1]. Ya'ni, bu kompetensiya o'qituvchidan shunchaki metodlarni "qo'llash"ni emas, balki ularni o'zaro sintez qilib, muayyan sinfning psixologik-intellektual holatiga ta'sir etuvchi ijobiy holatni yarata olishni talab qiladi. U shunchaki metodni qo'llamaydi, balki uni muayyan sinf va o'quvchilar uchun moslashtira oladi.

O'qituvchi zimmasidagi ikkinchi, balki eng muhim rol – bu fasilitatorlikdir. "Yengillashtiruvchi, yo'naltiruvchi" degan ma'noni anglatuvchi bu rol, o'qituvchining diqqat markazidan chekinib, sahnani o'quvchilarga bo'shatib berishini anglatadi. Uning asosiy vazifasi tayyor javoblarni berish emas, balki o'quvchilarni to'g'ri savollar qo'yish orqali javobni o'zlari mustaqil topishga undashdir. Guruh ishlarida yoki loyiha muhokamalarida fasilitator-o'qituvchi bahs-munozarani to'g'ri o'zanga soladi, barcha ishtirokchilarning fikr bildirishini ta'minlaydi, tortinchoq o'quvchilarni jarayonga jalb qiladi, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni

konstruktiv hal qiladi va yakunda guruhni umumiy xulosaga olib keladi. Misol uchun, “Nima uchun Sohibqiron poytaxt uchun Samarqandni tanlagan?” degan savolga javob berish o‘rniga, u muhokamani quyidagicha boshlashi mumkin: “Kelinglar, o’sha davr nuqtai nazaridan o‘ylab ko‘raylik: ideal poytaxt uchun qanday geografik, iqtisodiy va strategik omillar muhim edi? Samarqand shu talablarga qay darajada javob bergan?” [3]. Bunday yondashuv o‘quvchilarda shaxsiy fikrni shakllantirish va dalillar bilan asoslash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Bu esa o‘qituvchidan yuksak kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyani – faol tinglash, ochiq savollar bera olish, guruh dinamikasini boshqarish, empatiya (o‘zgalar hissiyotini tushunish) va konstruktiv fikr-mulohaza bildira olish ko‘nikmalarini talab etadi [4]. Bu esa sinfda an’anaviy “qo‘rquv chegarasi”ni yo‘qotib, har qanday, hatto “g‘alati” tuyulgan fikr ham qadrlanadigan xavfsiz va ishonchli ijodiy muhitni vujudga keltiradi.

Shu bilan birga, kreativ jarayon barcha o‘quvchilarda bir xilda kechmasligini inobatga olgan holda, innovatsion o‘qituvchi diagnost va mentor rolini ham o‘z zimmasiga oladi. U dars jarayonida har bir o‘quvchining kuchli va zaif tomonlarini, ularning o‘rganish uslublarini doimiy kuzatib boradi va tahlil qiladi. U kimdir g‘oyalarni generatsiya qilishga moyilligini (g‘oya generatori), boshqasi esa tanqidiy tahlil orqali g‘oyani rivojlantirishda kuchli ekanini (tanqidchi-tahlilchi), yana birov esa g‘oyani amaliyotga tatbiq etishda mahoratli (ijrochi) ekanini payqaydi. Diagnost-o‘qituvchi bu kuzatuvlar asosida har bir o‘quvchiga uning shaxsiy o‘rish trayektoriyasini tuzishda yordam beruvchi mentorga aylanadi. U o‘quvchiga shunchaki baho qo‘ymaydi, balki “Sizning tahliliy qobiliyatingiz kuchli, kelgusi loyihada manbalarning ishonchliligini tekshirishga ko‘proq e’tibor qaratib ko‘ring” kabi aniq yo‘llanmalar beradi. Bu vazifa psixologik-pedagogik kompetensiyani, ya’ni o‘quvchilarning yosh va individual psixologiyasini chuqur bilish, ularning qobiliyatlarini aniqlash metodikalaridan xabardor bo‘lish va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillarini amalda qo‘llay olishni taqozo etadi [2]. Ya’ni, bu o‘rinda psixologik-pedagogik kompetensiya shunchaki o‘quvchilarning yoshiga oid umumiy ma’lumotlarga ega bo‘lish emas, balki bu bilimlarni amaliy diagnostika quroliga aylantira olish mahoratidir [2]. Mentor-o‘qituvchi o‘z faoliyatida L.S. Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga tayanadi. U o‘quvchining bugungi kunda mustaqil bajara olayotgan vazifalarini (“aktual rivojlanish zonasi”) aniqlaydi va shundan kelib chiqib, ertaga uning kimningdir yordami (o‘qituvchi yoki kuchliroq sinfdoshi) bilan uddalay oladigan, biroz murakkabroq topshiriqlarni (“yaqin rivojlanish zonasi”) belgilaydi. Aynan shu zonada berilgan to‘g‘ri yo‘naltirilgan topshiriq o‘quvchining shunchaki bilim olishiga emas, balki aqliy o‘rishiga, tafakkurining kengayishiga sabab bo‘ladi. Bu esa an’anaviy ta’limdagi umumiy yondashuvdan voz kechib, har bir shaxsning intellektual salohiyatini maksimal darajada ochishga xizmat qiladi.

Nihoyat, ijodiy jarayon har doim ham silliq kechmaydi; u xatolar, muvaffaqiyatsizliklar va shubhalar bilan kechishi tabiiy. Aynan shu nuqtada o‘qituvchining motivator va ilhomlantiruvchi roli birinchi planga chiqadi. Uning vazifasi – o‘quvchilarda tashqi majburiyat (yaxshi baho, ota-onaning maqtovi) tufayli emas, balki fanni anglashga bo‘lgan ichki ishtiyoqni uyg‘otishdir. O‘qituvchining o‘zi fanga qiziqishi, tarixiy voqealarni hayajon bilan hikoya qilib berishi orqali bu ishtiyoqni o‘quvchilarga “yuqtiradi”. Muvaffaqiyatsizlikka uchragan o‘quvchini jazolash yoki tanqid qilish o‘rniga, “Bu ajoyib urinish bo‘ldi, xatolar – kashfiyotning bir qismi. Kel, endi boshqa tomondan yondashib ko‘ramiz” kabi iboralar bilan dalda beradi. Uning pirovard maqsadi – o‘quvchi ongida “Men buni uddalay olaman” degan mustahkam ishonchni shakllantirishdir. Bu rol o‘qituvchidan yuksak shaxsiy va emotsional kompetensiyani – yuqori darajadagi emotsional intellekt (EQ), o‘zining va o‘zgalarning hissiyotlarini boshqara olish, optimizm, fanga nisbatan shaxsiy ishtiyoq va liderlik qobiliyatlarini talab qiladi. Tarixiy qahramonlar misolida jasorat, matonat, adolat kabi qadriyatlarni singdirish orqali o‘qituvchi nafaqat bilim beradi, balki shaxsni tarbiyalaydi ham.

Ushbu tahlillar shuni isbotlaydiki, zamonaviy tarix o‘qituvchisi yuqorida sanalgan to‘rt rolni o‘zida mujassamlashtirgan universal mutaxassis bo‘lishi talab etiladi. Bu esa, o‘z navbatida, bugungi kunda o‘qituvchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini

ham aynan shu kompetensiyalarni rivojlantirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish zarurligini anglatadi.

Xulosa. O'tkazilgan tahlillar yakunida shuni ta'kidlash lozimki, o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish jarayonida tarix fani o'qituvchisining roli shunchaki dars o'tishdan ancha kengroq va mas'uliyatliroqdir. U endi faqat o'tmish haqida ma'lumot beruvchi shaxs emas, balki o'quvchi uchun bilimlar dunyosiga yo'l ochuvchi yo'l boshchi, uning tafakkurini charxlovchi usta va shaxs sifatida kamol topishiga turtki beruvchi strategik ahamiyatga ega figuraga aylanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, an'anaviy "ma'lumot yetkazuvchi" modelidan voz kechib, "bilim dizayneri", "fasilitator", "diagnost" va "motivator" kabi yangi, dinamik rollarni o'zlashtirish zamonaviy tarix o'qituvchisining asosiy kasbiy vazifasi va muvaffaqiyatining garovidir. Bu murakkab vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish o'qituvchidan bir qator fundamental kasbiy kompetensiyalarni o'zida mujassam etishni talab qiladi. Birinchidan, metodologik kompetensiya – zamonaviy interfaol metodlarni shunchaki bilish emas, balki ularni har bir darsning o'ziga xos maqsadiga va o'quvchilarning salohiyatiga moslab, kreativ tarzda qo'llay olish mahoratidir. Ikkinchidan, kommunikativ kompetensiya – o'quvchilar bilan ochiq, ishonchga asoslangan muloqotga kirisha olish, ularni diqqat bilan tinglash va tayyor javoblar o'rniga yo'naltiruvchi savollar berish orqali mustaqil fikrlashga undash qobiliyatidir. Uchinchidan, psixologik-pedagogik kompetensiya – har bir o'quvchini alohida shaxs sifatida ko'ra bilish, uning individual xususiyatlari, kuchli va zaif tomonlarini tushunish hamda unga mos individual yondashuvni topa olishdir. Va nihoyat, to'rtinchidan, shaxsiy-emotsional kompetensiya – o'z ustida doimiy ishlash, o'z faniga nisbatan kuchli ishtiyoqmand bo'lish va bu ishtiyoqni o'quvchilarga "yuqtirish", ularni ilhomlantira olish va hatto muvaffaqiyatsizliklar chog'ida ham ruhlantirish san'atidir.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari bizni muhim bir xulosaga olib keladi: kreativ avlodni tarbiyalashni, avvalo, o'zi kreativ fikrlaydigan va yuqoridagi zamonaviy kompetensiyalarni egallagan o'qituvchilarni tayyorlashdan va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan boshlash lozim. O'qituvchining kasbiy mahoratiga, uning malakasini oshirishga va ijodiy faoliyati uchun sharoit yaratishga kiritilgan sarmoya – bu nafaqat ta'lim sifatiga, balki mamlakatning ertangi innovatsion kelajagiga kiritilgan eng samarali va uzoq muddatli strategik sarmoyadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo'jayeva.N.N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat". – Toshkent: "O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi" nashriyoti, 2006. – 200 b.
2. Davletshin.M.G. va boshqalar. "Yosh davrlari va pedagogik psixologiya". (O'quv qo'llanma). – Toshkent: TDPU, 2004. – 134 b.
3. G'afforov.Y., G'ulomov.X. "Tarix o'qitish metodikasi". (O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun o'quv qo'llanma). – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2004. – 232 b.
4. Ziyomuhammadov.B., Abdullayeva.Sh. "Ilg'or pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot". – Toshkent: "Ma'naviyat", 2001. – 98 b.

EKZISTENSIALIZMDA NOGIRONLIKNING O'RNI: CHEKLANISH VA
IMKONIYAT

Bekzod Hakimov,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqola nogironlikning ekzistensializm falsafasidagi o'rnini tadqiq etadi hamda inson mavjudligining asosiy o'lchovlari sifatida cheklanish va imkoniyat dialektikasiga e'tibor qaratadi. Jan-Pol Sartr, Martin Xaydegger va Moris Merlo-Ponti asarlaridan hamda zamonaviy nogironlik tadqiqotlaridan foydalanib, maqolada nogironlik nafaqat cheklov holati, balki ekzistensial chuqurlik, ijodkorlik va ma'no yaratish manbai sifatida ham talqin qilinishi mumkinligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: ekzistensializm, nogironlik, cheklanish, imkoniyat, autentiklik, erkinlik, mas'uliyat, tanaviylik, fenomenologiya, faktiklik, dunyoda-bo'lish, ma'no yaratish, moslashuv, chidamlilik, identiklik, inson mavjudligi.

Аннотация. В данной статье исследуется место инвалидности в экзистенциалистской философии с акцентом на диалектику ограничения и возможности как фундаментальных измерений человеческого существования. Опираясь на труды Жана-Поля Сартра, Мартина Хайдеггера и Мориса Мерло-Понти, а также на современные исследования в области инвалидности, автор показывает, что инвалидность можно рассматривать не только как состояние ограничения, но и как источник экзистенциальной глубины, творчества и создания смысла.

Ключевые слова: экзистенциализм, инвалидность, ограничение, возможность, аутентичность, свобода, ответственность, воплощенность, феноменология, фактичность, бытие-в-мире, смыслообразование, адаптация, устойчивость, идентичность, человеческое существование.

Annotation. This article explores the place of disability within existentialist philosophy, emphasizing the dialectic between limitation and possibility as fundamental dimensions of human existence. Drawing upon the works of Jean-Paul Sartre, Martin Heidegger, and Maurice Merleau-Ponty, as well as insights from contemporary disability studies, the paper examines how disability can be understood not only as a condition of restriction but also as a source of existential depth, creativity, and meaning-making.

Keywords: existentialism, disability, limitation, possibility, authenticity, freedom, responsibility, embodiment, phenomenology, facticity, being-in-the-world, meaning-making, adaptation, resilience, identity, human condition.

Kirish. Ekzistensializm uzoq vaqtdan beri insoniyat mavjudligining asosiy shartlari: erkinlik, mas'uliyat, haqiqiylik va ma'nosizlikka qarshi turish bilan shug'ullangan. Shunga qaramay, nogironlik masalasi — jismoniy yoki aqliy farqlar mavjudlikka qanday ta'sir qilishi — ko'pincha falsafiy nutqda marginal bo'lib qoldi. Zamonaviy jamiyatlarda nogironlik ko'pincha tibbiy yoki ijtimoiy nuqtai nazardan individual nuqson yoki tizimli izolyatsiya natijasida ko'rib chiqiladi. Biroq, ekzistensializm bizga nogironlikni chuqurroq ma'noda ko'rib chiqishni taklif qiladi: cheklanganlik, qaramlik va ma'no yaratish haqidagi asosiy haqiqatlarni ochib beradigan dunyoda mavjud bo'lish usuli sifatida. Ushbu maqolaning maqsadi ekzistensialistik toifalar nogironlik tajribasini qanday yoritishi mumkinligini o'rganishdir. Ushbu tadqiqotning markazida qarama-qarshi ko'rinadigan ikkita jihat bor: nogironlikning aniq tarzda cheklanishi va insonning tanlov, ijodkorlik va mas'uliyat orqali belgilangan sharoitlarni yengish qobiliyatidan kelib chiqadigan imkoniyat. Nogironlikni ekzistensializm nuqtai nazaridan tahlil qilib, reduktiv

qarashlarga qarshi chiqish va uni faqat salbiy holat emas, balki inson hayotining muhim jihati sifatida tan olish mumkin bo'ladi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot falsafiy-germenevtik va fenomenologik usullardan foydalanadi, bu ekzistensialistik matnlarni tanqidiy talqin qilish va bir vaqtning o'zida nogironlikni o'rganish bo'yicha zamonaviy munozaralarda ishtirok etish imkonini beradi. Germenevtik yondashuv ayniqsa qimmatlidir, chunki ekzistensialistik falsafa qat'iy ta'limotlar tizimi emas, balki inson holatini talqin qilishga qaratilgan tadqiqot an'anasidir. Jan-Pol Sartr, Martin Xaydegger va Moris Merlot-Ponti asarlarini sinchkovlik bilan o'rganib chiqib, tadqiqotchilar haqiqiylik, erkinlik, ijtimoiylashish kabi asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va ularni nogironlarning hayotiy tajribalariga tatbiq etadilar. Klassik ekzistensialistik matnlarga qo'shimcha ravishda, tadqiqot zamonaviy nogironlik fanining ikkilamchi manbalarini, shu jumladan G'arb va Markaziy Osiyo nuqtai nazarlarini o'z ichiga oladi. Ushbu qiyosiy jihat tahlilning mavhum nazariya bilan cheklanib qolmasligini, balki nogironlar yashaydigan real sharoitlarga asoslanishini ta'minlaydi.

Metodologiyaaning fenomenologik jihati tajribaning subyektiv o'lchoviga qaratilgan bo'lib, nogironlar o'z hayotlarining ma'nosini qanday qabul qilishlari, talqin qilishlari va qurishlarini ta'kidlaydi. Nogironlikni tibbiy tashxis yoki sof ijtimoiy toifa sifatida ko'rish o'rniga, bu usul nogironlikni inson mavjudligi haqidagi asosiy haqiqatlarni ochib beradigan tirik hodisa sifatida tushunishga qaratilgan. Fenomenologik tahlil yordamida tadqiqot tanadagi farqlar idrok, harakat va munosabatlarni qanday o'zgartirishini ta'kidlaydi va shu bilan noyob ekzistensial tushunchalarni keltirib chiqaradi.

Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish — nogironlarning huquqlarini himoya qilish hamda ularning jamiyatga to'laonli integratsiyalashuviga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini anglatadi. O'zbekistonda nogironlarni ijtimoiy himoya qilish «O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi Qonun bilan tartibga solinadi. Mazkur qonun nogironlarni ijtimoiy himoya qilish sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga soladi, nogironlarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishni belgilaydi.

Nogironlarga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam turlariga quyidagilar kiradi: pul to'lovlari (pensiylar, nafaqalar, bir martalik to'lovlar); rehabilitatsiya texnik vositalari, surdotexnika va tiflotexnika vositalari hamda boshqa yordamchi qurilmalar, jumladan, nogironlar aravachalari, protez-ortopediya buyumlari, maxsus shriftlarda bosilgan matbaa nashrlari, ovoz kuchaytirgich qurilmalar va signalizatorlar, subtitrl yoki surdotarjimali videomateriallar, shuningdek, avtomobillar bilan ta'minlash; tibbiy, ijtimoiy, kasbiy va jismoniy rehabilitatsiya xizmatlari hamda maishiy xizmatlar; transport xizmatlari; dori vositalari bilan ta'minlash.

Nogironlarga ijtimoiy yordam mahalliy davlat hokimiyati organlari, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi organlari va boshqa vakolatli davlat organlari tomonidan tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalarining xulosalari asosida ko'rsatiladi.

Asosiy qism. Ekzistensializm falsafasi nogironlikni nafaqat tibbiy yoki ijtimoiy kategoriya sifatida emas, balki hayot holati sifatida tushunish uchun muhim asos yaratadi. Shu nuqtai nazardan, nogironlik inson mavjudligining asosiy cheklovlarini ochib beradi, shu bilan birga erkinlik va o'z-o'zidan paydo bo'lish imkoniyatini ochib beradi. Haqiqiylik haqidagi ekzistensialistik tushuncha, ayniqsa Sartr tomonidan ishlab chiqilgan, nogironlikni qanday qilib o'zgarmas yashash sharoitlaridan biri sifatida ko'rish mumkinligini tushuntirishga yordam beradi. Biror kishi o'zining jismoniy yoki kognitiv holatini tanlamasligi mumkin, lekin uni talqin qilish, unga munosabat bildirish va unga ma'no berish erkindir. Shunday qilib, nogironlikni passiv cheklovga o'zgartirish kerak emas, balki odamning kutilmagan holatlarga nisbatan kengroq qarama-qarshiligining bir qismi sifatida tushunish kerak. Shu bilan birga, ekzistensialistik fikr cheklovlar doirasida imkoniyatlarni rivojlantirish uchun doimo imkoniyatlar mavjudligini ta'kidlaydi. Merlot-Ponti tanasining fenomenologiyasi tanani obyekt emas, balki idrok va harakat shakllanadigan tirik haqiqat ekanligini ta'kidlaydi. Nogironlar uchun bu tirik tana dunyo bilan muloqot qilishning muqobil usullarini yaratadi. Tashqi tomondan cheklov

bo'lib tuyulishi mumkin bo'lgan narsa ko'pincha innovatsiyalar, moslashish va ijodkorlikning yangi shakllari uchun imkoniyatga aylanadi. Xaydeggerning haqiqiylik tushunchasi tahlilni yanada boyitadi. Haqiqiy yashash-bu sizning ahvolingizni qabul qilish, mavjudlik haqiqatlariga duch kelish va individuallikni konformizm yoki inkorda yo'q qilish vasvasasiga qarshi turish demakdir. Nogironlar uchun haqiqiylik nafaqat cheklovlarni tan olishni, balki ushbu sharoitlarda va undan tashqarida qanday qilib mazmunli yashashni tanlashni ham anglatadi. Bunday mas'uliyat tarkibiy to'siqlarni yoki ijtimoiy adolatsizlikni bartaraf etmaydi, balki insonning o'z mavjudligini shakllantirishda ishtirok etishining qadr-qimmatini tasdiqlaydi. Shu nuqtai nazardan, nogironlik bir vaqtning o'zida cheklovlar va imkoniyatlarni o'zida mujassam etgan ekzistensial toifaga aylanadi. Bu bizga jismoniy yoki kognitiv farqlardan qat'i nazar, barcha odamlar oyoq-qo'l tomonidan qo'yilgan cheklovlar doirasida mavjudligini, shu bilan birga harakat qilish, yaratish va ma'noni qayta ko'rib chiqish erkinligini saqlab qolishini eslatadi.

Xulosa. Ekzistensialistik falsafa doirasida nogironlikni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, uni faqat tibbiy yoki ijtimoiy tushuntirishlarga qisqartirish mumkin emas. Aksincha, nogironlik inson holatiga xos bo'lgan cheklash va imkoniyatning ikki tomonini aks ettiruvchi ekzistensial haqiqat sifatida namoyon bo'ladi. Sartrning haqiqiylik kontseptsiyasidan tortib, Merlot-Ponti tirik tanasining haqiqiyliigi va fenomenologiyasiga Xaydeggerning e'tiborigacha, ekzistensialistik toifalar nogironlikni harakat erkinligi va ma'no yaratilishini tasdiqlaydigan tarzda qayta ko'rib chiqish uchun qimmatli vositalarni taqdim etadi. Nogironlik ekstremal, qaramlik va zaiflik bilan to'qnashuvni kuchaytiradi, lekin ayni paytda erkinlik, moslashish va chidamlilikning yangi usullarini ochib beradi. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, nogironlik shunchaki to'siq emas, balki inson mavjudligining chuqur ifodasidir, bu ham insoiniyat, ham jamiyatni erkinlik, mas'uliyat va o'ziga xoslik ma'nosini qayta ko'rib chiqishga majbur qiladi.

Xulosa sifatida, nogironlik, agar ekzistensialistik fikr nuqtai nazaridan talqin qilinsa, insonning cheklanganligini eslatish va inson qobiliyatining dalili sifatida qabul qilinishi kerak. Bu jamiyatlarning qadr-qimmatini, avtonomiyasini va haqiqiyliigini hurmat qiladigan, shuningdek, odamlar o'zlarining mavjud sharoitlariga duch kelganlarida va ularni qabul qilganda paydo bo'ladigan transformatsion salohiyatni qo'llab-quvvatlaydigan inklyuziv tuzilmalarni yaratish zarurligini ta'kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Heidegger.M. Being and Time. Harper & Row, 1962.
2. Sartre.J.-P. Being and Nothingness. Washington Square Press, 1993.
3. Merleau-Ponty. Phenomenology of Perception. Routledge. 2012.
4. Normatov.U. Ekzistensializm falsafasi va uning zamonaviy talqinlari. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2005.
5. Rustamov.Sh. "Shaxs erkinligi va mas'uliyat muammosi: ekzistensialistik yondashuv." O'zbekiston Falsafiy Tadqiqotlar Jurnal, 2016, 1(1), 67–75.

KORRUPSIYANING IJTIMOIIY OQIBATLARI

Ja'farbek Rahmonjonov,
O'zbekiston Milliy Universiteti,
Davlat boshqaruvi yo'nalishi
2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada korrupsiya jarayonlarining ijtimoiy hayotga ko'rsatadigan chuqur tasiri va tizimli oqibatlari huquqiy-sotsiologik yondashuv asosida tahlil qilingan. Maqolada jahon tajribasi va O'zbekiston amaliyotiga asoslangan holda korrupsiyaning ijtimoiy norma sifatida shakllanishi va fuqarolik ongiga ta'siri tahlil qilinadi

Kalit so'zlar: Korrupsiya, ijtimoiy oqibatlar, ijtimoiy ishonch, huquqiy ong, adolat, tenglik, korrupsiya madaniyati, fuqarolik jamiyati, halollik qadriyatlari, ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy institutlar, sotsiologik tahlil.

Аннотация. В данной статье на основе правосоциологического подхода анализируются глубокое влияние и системные последствия коррупционных процессов на общественную жизнь. В статье на основе мирового опыта и практики Узбекистана анализируется формирование коррупции как социальной нормы и её влияние на гражданское сознание.

Ключевые слова: Коррупция, социальные последствия, общественное доверие, правовое сознание, справедливость, равенство, культура коррупции, гражданское общество, ценности честности, система образования, здравоохранение, социальные институты, социологический анализ.

Annotation. This article analyzes, from a legal-sociological perspective, the profound impact and systemic consequences of corruption processes on social life. Based on global experience and the practice of Uzbekistan, the article examines the formation of corruption as a social norm and its influence on civic consciousness.

Keywords: Corruption, social consequences, social trust, legal consciousness, justice, equality, corruption culture, civil society, values of integrity, education system, healthcare, social institutions, sociological analysis.

Korrupsiya zamonaviy davlatlar uchun eng xavfli va barqarorlikni buzuvchi omillardan biridir. U nafaqat iqtisodiy rivojlanishni to'xtatadi, balki ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi ishonchni yemiradi, jamiyatda adolatga bo'lgan ishonchni yo'q qiladi va huquqiy ongni zaiflashtiradi. Korrupsiyaning ijtimoiy oqibatlari, ko'pincha, bevosita iqtisodiy yoki huquqiy jihatlariga qaraganda ko'proq va chuqurroq ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy demokratik jamiyatlar faoliyati asosan fuqarolarning davlat institutlariga, qonunchilikka, huquqiy tizimga va o'zaro tenglikka bo'lgan ijtimoiy ishonch asosida quriladi.

Ijtimoiy ishonch -bu jamiyatning mustahkamligiga xizmat qiluvchi ijtimoiy poydevor bo'lib, u davlat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarning uzviyligini ta'minlaydi. Ammo korrupsiya bu poydevorni asta-sekin yemiradi. Aynan shuning uchun ham korrupsiya jarayonining eng xavfli va chuqur oqibatlaridan biri ijtimoiy ishonch inqirozi hisoblanadi.

Sotsiologiyada ijtimoiy ishonch -bu odamlarning boshqa fuqarolar, ijtimoiy guruhlar va eng asosiysi, davlat institutlari faoliyatiga bo'lgan umid va ishonchidir. Bu ishonch jamiyatning stabil ishlashiga, tartib va qonunlarga bo'ysunishga, ijtimoiy adolatga erishishga xizmat qiladi.

Amerikalik olim F.Fukuyama fikricha, "ijtimoiy ishonch - bu jamiyatning ko'rinmas boyligi bo'lib, u pasayganda davlatlar qulash bosqichiga yaqinlashadi". Korrupsiya jamiyatda ishonchni buzuvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu buzilish ikki hil darajada sodir bo'ladi:

Vertikal ishonch inqirozi – fuqarolar davlat organlariga, hokimiyatga, qonunchilikka bo‘lgan ishonchini yo‘qotadi.

Gorizontal ishonch inqirozi – odamlar bir-biriga ishonmay qo‘yadi; jamiyatda shubha, hasad, befarqlik, individualizm kuchayadi.

O‘zbekiston sharoitida korrupsiya vertikal ishonch inqirozini kuchaytiradi. Davlat xizmatchilari poraxo‘r deb qaraladi, qonunlar adolatli emas, “kim ko‘proq to‘lasa – o‘shanga xizmat qiladi” degan stereotip qarashlar paydo bo‘ladi.

Transparency International’ning 2023-yilgi “Korrupsiya darajasini qabul qilish indeksi” (CPI)da O‘zbekiston 180 davlat ichida 120-o‘rinni egalladi. Bu, bir tomondan, islohotlar olib borilayotganini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, jamiyatda hanuz yuqori darajadagi ehtiyotkorlik va ishonchsizlik mavjudligini ko‘rsatadi. Markaziy Osiyo bo‘yicha o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovnomalarga ko‘ra, O‘zbekistonda fuqarolarning faqat 42 foizi davlat tashkilotlariga ishonishini bildirgan bo‘lsa, qolganlari esa “agar tanish topmasang, ishing bitmaydi” degan fikrni bildirgan.

Hozirgi rivojlanib borayotgan jamiyatda Ijtimoiy ishonchning yemirilishi og‘ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. Masalan:

Huquqiy ong pasayadi–fuqarolar qonuniy yo‘l bilan emas, norasmiy vositalar bilan harakat qiladi;

Fuqarolik faolligi susayadi–odamlar saylovda qatnashmaydi, jamoat hayotidan chetda qoladi;

Norozilik kuchayadi–jamiyatda adolatsizlik, sinfiy tafovut va befarqlik kuchayadi;

Kollektiv identitet zaiflashadi – Jamiyatda umumiy manfaat emas, faqat individual manfaat ustuvor bo‘ladi.

Bu holatlar jamiyatning ijtimoiy turg‘unligiga tahdid soladi, va uzoq muddatda siyosiy beqarorlikka sabab bo‘lishi mumkin.

Amerikalik tadqiqotchi Rose-Ackerman ta’kidlashicha: “Korrupsiya bor joyda qonunlar ishlamaydi, qonun ishlamasa — ishonch bo‘lmaydi, ishonch yo‘q joyda — demokratiya faqat shaklan mavjud bo‘lib qoladi”.

O‘zbek olimi A.Jo‘rayev esa, 2021-yilda yozgan maqolasida quyidagicha yozadi: “Agar davlat institutlariga ishonch zaiflashsa, ularning har bir qarori ijtimoiy qarshilik yoki loqaydlik bilan kutib olinadi. Bu esa korrupsiyaning qonuniylik ustidan ustuvor bo‘lishiga xizmat qiladi” deb ta’kidlaydi. Korrupsiya mavjud bo‘lgan davlatlarda birinchi navbatda ijtimoiy ishonch inqirozi yuzaga keladi. Bu ishonchsizlik nafaqat davlat idoralariga, balki qonunchilik, sud-huquq tizimi va boshqa ijtimoiy institutlarga nisbatan shakllanadi. Transparency International’ning 2023-yilgi hisobotida ta’kidlanishicha, korrupsiya darajasi yuqori bo‘lgan davlatlarda fuqarolarning davlat idoralariga bo‘lgan ishonchi 40 foizdan kam bo‘lgan [1]. O‘zbekiston sharoitida ham bu holat dolzarb. Prezidentning 2022-yil 12-apreldagi PQ–186-son qarorida “jamiyatda halollik muhitini shakllantirish”ga alohida urg‘u berilgan bo‘lib, korrupsiya jamiyat va davlat o‘rtasidagi ishonch rishtalarini yemirayotganligi qayd etilgan [2].

Umuman olganda korrupsiya jamiyatda tengsizlikni kuchaytiradi. Qonun asosida emas, pul yoki tanish orqali ish yuritiladigan tizimda oddiy fuqarolar o‘z huquqlarini himoya qila olmaydi. Natijada, adolat va halollik emas, “iloj qilish”, “kimnidir topish” ustun bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, ijtimoiy qatlamlar orasidagi ishonchni susaytiradi. Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, korrupsiya mavjud bo‘lgan davlatlarda ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi daromad tafovuti kengayadi va sinfiy norozilik kuchayadi.

Korrupsiya eng ko‘p salbiy ta’sir ko‘rsatadigan sohalaridan yana biri - bu ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimidir. Ta’limda pora evaziga ish bitirish, imtihon topshirish korrupsiya madaniyatining jamiyatga chuqur singib ketganini ko‘rsatadi. Bu holat jamiyatda bilim emas, pul yoki tanishlar vositasi bilan yuqori natijaga erishish mumkin degan fikrni mustahkamlaydi.

O‘z navbatida, sog‘liqni saqlash sohasida ham poraxo‘rlik bemorlar uchun hayot va o‘lim orasidagi hal qiluvchi masalasiga aylanadi. 2021-yilda O‘zbekistonda ushbu sohalarda 70 dan ortiq korrupsion jinoyat aniqlangani bu fikrni tasdiqlaydi.

Bundan tashqari Korrupsiya nafaqat ijtimoiy jarayonlar balki huquqiy madaniyatni yemirilishiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Shaxslar qonunni hurmat qilmay qo‘yadi, qonunlar davlatga emas, shaxsiy manfaatga xizmat qiluvchi tizim degan qarashlar uyg‘onadi. Rose-Ackermannning ta‘kidlashicha, korrupsiya qonunning kuchsizlanishiga olib keladi, natijada ijtimoiy nizolar va beqarorlik kuchayadi. Shuningdek, jamiyatda qonunga bo‘ysunish emas, “muammo hal qilish” madaniyati shakllanadi. Bu esa jamiyatda adolatga emas, manfaatga yo‘naltirilgan psixologiyani kuchayishiga sabab bo‘ladi. Sotsiologik tahlil shuni ko‘rsatadiki, korrupsiya ba‘zi jamiyatlarda “norasmiy norma” sifatida qaraladi. Fuqarolar qonunni emas, “tizim”ni e‘tiborga olishadi. O‘zbekistonlik olim A.Qodirov fikricha, bunday muhitda shaxs jamiyat oldidagi mas‘uliyatni emas, faqat o‘z manfaatini ko‘zlaydi [3]. Bu holat fuqarolik pozitsiyasining susayishiga olib keladi. Korrupsiya odat tusiga aylangan jamiyatda qonuniylik emas, ehtimoliylik ustun bo‘ladi. Bu jarayonlarni preventiv choralarini ko‘rish uchun:

- Davlat qarorlarining asoslari, xarajatlar va faoliyat natijalari ochiq bo‘lishi;
- Qarorlar qabul qilishda fuqarolar, NNTlar, OAV faol ishtirok etishi;
- Tanish-bilish, pora orqali emas, bilim va malaka asosida lavozimlar belgilanishi va bu jarayonlar halq ommasiga e‘lon qilinishi;
- Halollik, vijdonlilik va qonuniylik qadriyatlari ommaviy madaniyatga singdirilishi kerak bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiya bu ijtimoiy barqarorlikni yemiruvchi illat bo‘lib, uning ijtimoiy oqibatlari iqtisodiy va huquqiy zararlar bilan bir qatorda jamiyatni ichidan zaiflashtiradi. Fuqarolar orasida ishonchsizlik, qonuniylikka loqaydlik, huquqiy madaniyatning pasayishi va halollik tamoyillarining qadrsizlanishi jamiyat taraqqiyoti uchun jiddiy to‘siqlardir. Korrupsiyaga qarshi kurash faqat jazolash orqali emas, balki ijtimoiy ongni yuksaltirish, halollik madaniyatini shakllantirish orqali olib borilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Transparency International. Corruption Perceptions Index 2023. www.transparency.org
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–186-son qarori, 2022-yil 12-aprel.
3. Qodirov A. Huquqiy madaniyat va korrupsiya psixologiyasi. Toshkent, 2020.

GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA YOSHLARNING IQTISODIY IDENTIKLIGI VA MILLIY QADRIYATLAR MUVOZANATI

Hakimjon Xoshimov,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Anotatsiya. Mazkur maqolada globalizatsiya jarayonlarining yoshlarning iqtisodiy identikligiga ko'rsatgan ta'siri va bu jarayonda milliy qadriyatlarining o'zaro muvozanat holatidagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Globalizatsiya, iqtisodiy identiklik, milliy qadriyatlar, yoshlar iqtisodiy tafakkuri, iqtisodiy madaniyat, transmilliy ta'sir, milliy o'zlik, globallashuv jarayoni, ijtimoiy transformatsiya, axborot iqtisodiyoti.

Аннотация. В статье анализируется влияние процессов глобализации на экономическую идентичность молодежи и роль национальных ценностей в сохранении баланса в этом процессе.

Ключевые слова: глобализация, экономическая идентичность, национальные ценности, экономическое мышление молодежи, экономическая культура, транснациональное влияние, национальное самосознание, процесс глобализации, социальная трансформация, информационная экономика.

Annotation. This article analyzes the impact of globalization processes on the economic identity of youth and the role of national values in maintaining balance within this process.

Keywords: globalization, economic identity, national values, youth economic thinking, economic culture, transnational influence, national self-awareness, globalization process, social transformation, information economy.

Kirish. XXI asrning birinchi choragidan boshlab dunyo taraqqiyotida globalizatsiya jarayonlari insoniyat hayotining barcha sohalariga, ayniqsa yoshlar ongiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Globalizatsiya — bu faqat iqtisodiy integratsiya yoki texnologik rivojlanish jarayoni emas, balki u ijtimoiy-madaniy tizimlarning o'zaro singish jarayonini ham anglatadi. Aynan shu murakkab tizimda shaxsning o'zini iqtisodiy jihatdan anglash, ya'ni iqtisodiy identiklik muammosi dolzarb masalaga aylanmoqda. Bugungi globallashgan dunyoda yosh avlod iqtisodiy qarorlar qabul qilishda nafaqat milliy qadriyatlar, balki transmilliy standartlar, reklama, iste'mol madaniyati, virtual iqtisodiyot va global raqobatning mafkuraviy ta'siri ostida shakllanmoqda[1].

Globalizatsiya jarayonlari natijasida iqtisodiy tafakkurning g'oyaviy mazmuni o'zgarib bormoqda: bir tomondan, u erkin bozor, tadbirkorlik, innovatsion tafakkur kabi ilg'or yo'nalishlarni shakllantirsa, ikkinchi tomondan, milliy iqtisodiy qadriyatlarining transformatsiyasiga olib kelmoqda. Yoshlarning iqtisodiy identikligi endilikda an'anaviy oila modeli, tarixiy meros, diniy e'tiqodlar, mehnat madaniyati kabi omillar bilan emas, balki global bozor mexanizmlarining psixologik va informatsion ta'siri bilan ham belgilanmoqda. Shunday ekan, globalizatsiya sharoitida yoshlarning iqtisodiy identikligini saqlash, uni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish masalasi har bir davlat uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, O'zbekiston kabi milliy tiklanish va modernizatsiya bosqichini boshdan kechirayotgan mamlakatlarda bu jarayon yoshlarning ma'naviy-axloqiy va iqtisodiy dunyoqarashini shakllantirish bilan bevosita bog'liqdir. Zero, iqtisodiy identiklik shaxsning kimligi, o'ziga xosligi va ijtimoiy moslashuvchanligi bilan chambarchas aloqadordir.

Shuni ta'kidlash joizki, institutlarning shakllanishi tasodifiy emas. Ular tarixiy jarayonlar, ichki va tashqi siyosiy kuchlar raqobati, elitalar o'rtasidagi muvozanat, hududiy xavfsizlik sharoitlari va jamiyatning madaniy-siyosiy tajribasi natijasida shakllanadi. Rivojlanish jarayonida davlatning iqtisodiy rollari, hukumat nazorati, qonun ustuvorligi, jamiyatning siyosiy ishtiroki, demokratik mexanizmlarning mustahkamligi yoki zaifligi muhim determinant sifatida namoyon bo'ladi. Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, tarixiy bir nuqtada sodir bo'lgan "kichik farq" keyinchalik katta institutsional tafovutga olib kelishi mumkin — buni yo'ldan og'ish (path dependence) hodisasi deb ataladi.

Siyosiy hokimiyat taqsimoti ham institutsional rivojlanishda hal qiluvchi omildir. Agar siyosiy hokimiyat markazlashgan, lekin fuqarolik jamiyati nisbatan kuchli bo'lsa, davlatni ijtimoiy nazorat mexanizmlari bilan muvozanatlashtiradigan muhim shart-sharoitlar shakllanadi. Aksincha, hokimiyat haddan tashqari markazlashgan, jamiyat esa zaif bo'lsa, davlatning haddan ortiq kuchayishi ekstraktiv institutlar shakllanishiga olib keladi. Shu ma'noda rivojlanishning muvaffaqiyatli modeli davlat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatga, "o'zaro cheklovlar tizimi"ning mavjudligiga tayanadi.

Iqtisodiy taraqqiyotning zamonaviy tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, tabiiy boyliklarning ko'pligi har doim ham farovonlikni ta'minlamaydi; aksincha, boy resurslarga ega bo'lgan davlatlarning ko'pi ekstraktiv institutlar hukmronligi tufayli "resurs la'nati"ga duch kelgan. Aksincha, tabiiy resurslarga qashshoq, lekin kuchli huquqiy tizim, samarali boshqaruv va inklyuziv siyosiy institutlarga ega bo'lgan davlatlar yuqori iqtisodiy yutuqlarga erishgan. Bu holat institutsional farqlarning rivojlanishdagi ahamiyatini yanada ravshanlashtiradi.

Shu bilan birga, globalizatsiya, informatsion texnologiyalar, xalqaro savdo va transmilliy iqtisodiy aloqalar institutsional tizimlarning ahamiyatini yanada oshirib bormoqda. Raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratish, investitsiyalarni jalb qilish, innovatsion muhitni shakllantirish, korrupsiyani kamaytirish, barqaror boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish kabi vazifalar barchasi institutlar sifatiga bevosita bog'liqdir. Shunday ekan, davlatning muvaffaqiyati — uning qanday institutlarga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Mazkur maqolada davlatlarning nega rivojlanishi yoki nega ortda qolishiga ta'sir etuvchi asosiy institutsional omillar tahlil qilinadi. Unda iqtisodiy va siyosiy institutlarning mazmuni, ularning tarixiy ildizlari, siyosiy hokimiyat taqsimotidagi o'zgarishlar, jamiyat ishtirokining o'sishi va elitalar o'rtasidagi raqobatning o'rni chuqur o'rganiladi. Shuningdek, institutsional rivojlanishning jamiyat farovonligiga ta'siri nazariy va amaliy misollar bilan yoritiladi.

Muhokama va natijalar. Tadqiqot davomida olingan nazariy va empirik dalillar shuni ko'rsatadiki, davlatlarning rivojlanish darajasidagi farqlarni tushuntirishda institutsional omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Muhokama jarayonida avvalo shuni ta'kidlash lozimki, institutlar faqat formal qonun-qoidalar emas, balki jamiyatdagi rag'batlar tizimini shakllantiruvchi asosiy mexanizmdir. Kuchli institutlar shakllangan davlatlarda iqtisodiy imkoniyatlar barcha qatlamlar uchun ochiq bo'ladi, siyosiy ishtirok kengayadi va bozor munosabatlarining barqaror ishlashi ta'minlanadi.

Birinchidan, inklyuziv institutlarning iqtisodiy taraqqiyot uchun zarurligi muhokama jarayonida yana bir bor isbotlandi. Inklyuziv institutlar mulk huquqi, sud tizimi mustaqilligi, iqtisodiy erkinlik va innovatsiyalar uchun qulay muhit yaratadi. Bu esa jamiyatda samarali raqobatni shakllantirib, iqtisodiy resurslarning adolatli taqsimlanishiga imkon beradi. D.Nortning fikriga ko'ra, "institutlar jamiyatdagi iqtisodiy faoliyatning chegaralarini belgilab, iqtisodiy natijalarni uzoq muddatli istiqbolda shakllantiradi" [1; 37].

Ikkinchidan, ekstraktiv institutlarning mavjudligi iqtisodiy o'sishni cheklovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Ekstraktiv tizimlarda elitalar siyosiy hokimiyatni saqlab qolish uchun iqtisodiy rag'batlarni cheklaydi, yangi texnologiyalarni joriy etishni sustlashtiradi va raqobatning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Acemoglu va Robinson ta'kidlaganidek, ekstraktiv institutlar ostida iqtisodiyot ko'pincha "yopiq doira"ga aylanadi va resurslar faqat tor guruh qo'liga jamlanadi [2; 112]. Bu holat uzoq muddatli barqaror rivojlanishni imkonsiz qiladi.

Uchinchidan, tarixiy yo'ldan og'ish (path dependence) institutsional evolyutsiyaning muhim omili ekanini muhokama davomida kuzatish mumkin bo'ldi. Mustamlakachilik merosi, tarixiy siyosiy tizimlar, avtoritar boshqaruv shakllari yoki ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi tarixiy tengsizliklar hozirgi institutlar sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tarixiy "kichik farqlar" vaqt o'tishi bilan kuchayib, bugungi rivojlanish tafovutlarini shakllantiradi.

To'rtinchidan, davlat va jamiyat o'rtasidagi muvozanat institutsional tizimning barqarorligi uchun zarur shartdir. Agar davlat kuchli, lekin jamiyat zaif bo'lsa, ekstraktiv institutlar paydo bo'lishi osonlashadi; aksincha, jamiyat kuchli, ammo davlat zaif bo'lsa, tartibsizlik xavfi oshadi. Optimal model — kuchli davlat va faol fuqarolik jamiyati o'rtasidagi "tor muvozanat yo'lagi"dir.

Beshinchidan, tabiiy resurslarning ko'pligi rivojlanishni avtomatik ravishda ta'minlamasligi muhokama davomida tasdiqlandi. "Resurs la'nati" fenomeniga ko'ra, boy resurslar mavjud bo'lgan mamlakatlarda ekstraktiv institutlar shakllanishi osonroq bo'lib, bu iqtisodiy diversifikatsiya va innovatsiyalarni cheklaydi. Natijada, resurslarga tayanadigan iqtisodiyotlarda uzoq muddatli rivojlanish sekinlashadi.

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, rivojlanishning asosiy omili — samarali va inklyuziv institutlarning mavjudligi, siyosiy hokimiyatning muvozanatli taqsimlanishi va iqtisodiy rag'batlarning to'g'ri shakllanishidir. Davlat siyosati aynan shu yo'nalishlarni mustahkamlashga qaratilganda rivojlanish barqaror sur'atlarda kechadi.

Tadqiqot natijalari mamlakatlarning taraqqiyotidagi farqlarning asosiy sababi sifatida institutsional tizimlarning roli ustuvor ekanini tasdiqladi. Olingan natijalarni quyidagi asosiy yo'nalishlarda jamlash mumkin.

Inklyuziv institutlar rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mulk huquqi, iqtisodiy erkinlik, siyosiy ishtirok va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi institutlar mavjud bo'lgan davlatlarda iqtisodiy o'sish barqaror shakllanadi. Bu davlatlarda kapital oqimi, investitsiyalar hajmi va texnologik yangilanish sur'atlari yuqori bo'ladi.

Ekstraktiv institutlar iqtisodiy o'sishni cheklaydi. Siyosiy hokimiyat tor guruh qo'liga jamlangan tizimlarda iqtisodiy resurslar noteng taqsimlanadi, bandlik va raqobat cheklanadi, innovatsiyalar sustlashadi. Bu esa rivojlanish jarayonini sekinlashtirib, uzoq muddatli stagnatsiyaga olib keladi.

Tarixiy omillar zamonaviy institutlarning shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mustamlakachilik siyosati, avtoritar boshqaruv, tarixiy ijtimoiy qatlamlar va tarixiy siyosiy qarorlar hozirgi rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beradi. Tarixiy yo'ldan og'ish konsepsiyasi davlatlarning taraqqiyotidagi keskin tafovutlarni izohlashga yordam beradi.

Davlat va jamiyat o'rtasidagi muvozanat institutsional barqarorlikning asosidir. Davlatning kuchli bo'lishi, biroq jamiyat tomonidan nazorat qilinishi inklyuziv institutlar shakllanishiga yordam beradi. Bu muvozanat yo'qolgan holatlarda ekstraktiv institutlar tez shakllanadi.

Tabiiy resurslar mavjudligi rivojlanishning kafolati emas. Resurslarga boy mamlakatlarda ekstraktiv institutlar shakllanishi oson, resurslar siyosiy guruhlar manfaatlariga xizmat qilishi mumkin. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, resurs boyligi institutsional zaiflik sharoitida rivojlanishni sekinlashtiradi.

Yakuniy natijalar shuni ko'rsatadiki, davlatlarning muvaffaqiyatli rivojlanish strategiyasi institutlarni inklyuzivlik sari isloh qilish, siyosiy ochiqlikni kengaytirish, iqtisodiy rag'batlarni kuchaytirish va jamiyatning siyosiy jarayonlarda ishtirokini oshirish bilan chambarchas bog'liq.

Xulosa. Ushbu tadqiqot davlatlarning rivojlanish darajasidagi tafovutlarni institutsional yondashuv doirasida tahlil qilib, iqtisodiy o'sish, siyosiy barqarorlik va jamiyat farovonligining markazida aynan institutlar sifati turishini ko'rsatdi. Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, jamiyatning iqtisodiy va siyosiy tizimi qanchalik inklyuziv bo'lsa, uning rivojlanish sur'atlari shunchalik barqaror va uzoq muddatli bo'ladi. Inklyuziv institutlar mulk huquqini himoya qiladi, tadbirkorlikni rag'batlantiradi, texnologik innovatsiyalar va investitsiyalarning ko'payishiga yordam beradi, jamiyatning keng qatlamlarini iqtisodiy imkoniyatlarga yaqinlashtiradi va siyosiy ishtirokni kengaytiradi. Aksincha, ekstraktiv institutlar ustuvor bo'lgan davlatlarda siyosiy hokimiyat tor doiradagi elita qo'lida jamlanadi, iqtisodiy resurslar faqat shu guruh manfaatiga xizmat qiladi. Bu esa iqtisodiy rag'batlarni susaytiradi, investitsiya va innovatsiyalarni cheklaydi, korrupsiya darajasini oshiradi, jamiyatdagi tengsizlikni kuchaytiradi va davlatning uzoq muddatli rivojlanish istiqbollarini sezilarli darajada cheklaydi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, bunday institutlar mavjud bo'lgan davlatlar tez-tez iqtisodiy inqirozlar, siyosiy beqarorlik va ijtimoiy ziddiyatlar girdobida qoladi.

Tadqiqot davomida aniqlangan muhim jihatlardan biri — institutsional rivojlanishning tarixiy omillarga bog'liqligidir. Tarixiy siyosiy qarorlar, mustamlakachilik merosi, elitalar o'rtasidagi kuch muvozanati va ijtimoiy qatlamlarning shakllanishi bugungi institutsional tizimga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yo'ldan og'ish (path dependence) hodisasi tufayli dastlabki kichik farqlar vaqt o'tishi bilan yirik rivojlanish tafovutlariga olib kelishi mumkin. Shu sababli har bir davlat o'zining tarixiy tajribasiga tayanib, institutlarni bosqichma-bosqich isloh qilishi zarur.

Umuman olganda, tadqiqotdan kelib chiqadigan eng asosiy xulosa shundan iboratki, davlatlarning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi asosan ular yaratgan institutlarning sifatiga bog'liq. So'nggi o'n yilliklar davomida olib borilgan ilmiy izlanishlar ham shuni ko'rsatadiki, inklyuziv institutlar — uzoq muddatli rivojlanishning eng ishonchli poydevoridir. Shu sababli davlat siyosatida iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda siyosiy islohotlarning ham izchil amalga oshirilishi, huquqiy tizimning mustahkamlanishi, korrupsiyaga qarshi kurashning kuchaytirilishi, inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishi muhim ahamiyatga ega.

Kelgusida amalga oshiriladigan islohotlar institutlarni mustahkamlash, siyosiy ochiqlikni kengaytirish, iqtisodiy erkinlikni ta'minlash, investitsiyalar uchun barqaror muhit yaratish va innovatsion iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirish orqali davlatlarning rivojlanish sur'atlarini jadallashtirishi mumkin. Mazkur yondashuv davlatlarning barqaror va uzoq muddatli taraqqiyot yo'lini belgilashda ilmiy asoslangan strategik qarashlarni shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. North, D. C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 152 p.
2. Acemoglu, D., Robinson, J. A. Economic Origins of Dictatorship and Democracy. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 416 p.
3. Diamond, J. Guns, Germs, and Steel: The Fates of Human Societies. – New York: W.W. Norton, 1997. – 480 p.
4. Acemoglu, D., Robinson, J. A. The Narrow Corridor: States, Societies, and the Fate of Liberty. – New York: Penguin Press, 2019. – 558 p.

TA'LIM JARAYONIDA AMALIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Abdurauf Axmedov,
Jizzax politexnika instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim muassasalarida elektr muhandislarni tayyorlash jarayonida dasturlashtirilgan ta'lim vositalaridan foydalanish orqali talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari ilmiy-pedagogik jihatdan tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: dasturlashtirilgan ta'lim vositalari, elektr muhandis, amaliy ko'nikma, raqamli simulyatsiya, MOMO, PLC kasbiy kompetensiya asinxron motorlar, avtomatlashtirish

Аннотация. В статье с научно-педагогической точки зрения исследуются вопросы формирования практических навыков у студентов в процессе подготовки инженеров-электриков в высших образовательных учреждениях на основе использования программированных средств обучения.

Ключевые слова: программированные средства обучения, инженер-электрик, практические навыки, цифровая симуляция, MOMO, PLC, профессиональная компетенция, асинхронные двигатели, автоматизация.

Annotation. This article examines, from a scientific and pedagogical perspective, the issues of forming practical skills of students in the process of training electrical engineers in higher education institutions through the use of programmed educational tools.

Keywords: programmed educational tools, electrical engineer, practical skills, digital simulation, MOMO, PLC, professional competence, asynchronous motors, automation.

Kirish. Bugungi kunda sanoat va energetika tarmoqlarining jadal rivojlanishi oliy ta'lim muassasalarida elektr muhandislarni tayyorlash sifatiga nisbatan yangi talablarni qo'yimoqda. Xususan, bo'lajak elektr muhandislarning amaliy ko'nikmalari va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. An'anaviy ta'lim shakllari asosan nazariy bilimlarni berishga yo'naltirilgan bo'lib, real ishlab chiqarish jarayonlarini to'liq modellashtirish imkoniyatini bermaydi. Shu bois ta'lim jarayoniga dasturlashtirilgan ta'lim vositalarini joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda [1].

Tadqiqotning asosiy maqsadi-dasturlashtirilgan ta'lim vositalari asosida elektr muhandislar ta'lim jarayonida amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish metodikasini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslashdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- dasturlashtirilgan ta'lim vositalarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;
- elektr muhandislar tayyorlash jarayonida amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish omillarini tahlil qilish;
- raqamli simulyatsiyator va MOMO, PLC asosidagi laboratoriya mashg'ulotlarning ta'lim samaradorligiga ta'sirini aniqlash [2].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. So'nggi yillarda muhandislik oliy ta'limi tizimida raqamli texnologiyalar va dasturlashtirilgan ta'lim vositalaridan foydalanish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida keng tadqiq etilmoqda. Jahon ta'lim amaliyotida elektr muhandislarni tayyorlash jarayonida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan ishlab chiqarish bilan integratsiyalash muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Shu sababli, interaktiv, modulli va adaptiv ta'lim vositalariga asoslangan yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda dasturlashtirilgan ta'lim vositalari talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, murakkab texnik jarayonlarni vizual idrok etish hamda real ishlab chiqarish muhitiga moslashish imkoniyatlarini kengaytirishi ta'kidlangan. Jumladan, real laboratoriyalar, raqamli simulyatsiyator dasturlari va

avtomatlashtirilgan o'quv modullari yordamida elektr mashinalari, elektr yuritmalar va boshqaruv tizimlarini o'rganish samaradorligi yuqori ekani isbotlangan.

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa oliy ta'lim muassasalarida elektr muhandislarni tayyorlashda an'anaviy o'qitish usullarining amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda yetarli emasligi qayd etiladi. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etishda dasturlashtirilgan ta'lim vositalari, xususan, MOMO, PLC dasturlash muhiti, EPLAN grafik muharriri, MATLAB/Simulink asosidagi modellashtirish hamda HMI interfeyslari samarali pedagogik vosita sifatida e'tirof etilgan [4].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, mavjud tadqiqotlarning aksariyatida raqamli ta'lim vositalarining texnik imkoniyatlari yoritilgan bo'lsada, ularni elektr muhandislarning amaliy ko'nikmalarini tizimli rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik asoslar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, dasturlashtirilgan ta'lim vositalarini o'quv jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etish, ularning pedagogik samaradorligini baholash mezonlari va metodlari masalasi chuqur o'rganilishini talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqot dasturlashtirilgan ta'lim vositalaridan foydalanish orqali elektr muhandislarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, mavjud ilmiy ishlardagi bo'shliqlarni to'ldirishni maqsad qiladi [3].

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, bir qator nazariy va empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Jumladan, nazariy metodlar sifatida pedagogik, psixologik va texnik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish usullari qo'llanildi. Ushbu metodlar orqali dasturlashtirilgan ta'lim vositalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati aniqlashtirildi. Empirik tadqiqot metodlari doirasida pedagogik kuzatish, suhbat, so'rovnoma, test sinovlari hamda tajriba-sinov ishlari olib borildi. Elektr muhandislik yo'nalishi talabalari ishtirokida tashkil etilgan tajriba-sinov jarayonida nazorat va tajriba guruhlarini shakllantirilib, o'quv jarayoniga dasturlashtirilgan ta'lim vositalari joriy etildi. Tajriba-sinov ishlari davomida PLC asosida boshqaruv algoritmlarini tuzish, elektr sxemalarini raqamli muhitda loyihalash, real laboratoriyalarda elektr mashinalarining ish rejimlarini modellashtirish kabi amaliy topshiriqlar bajarildi. Natijalarni baholashda diagnostik metodlar, reyting va mezonli baholash tizimi qo'llanildi. Olingan ma'lumotlarni qayta ishlashda matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanilib, dasturlashtirilgan ta'lim vositalarining elektr muhandislar amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari grafik va jadval ko'rinishida tahlil qilinib, ilmiy xulosalar chiqarildi. Umuman olganda, qo'llanilgan metodlar majmuasi tadqiqotning ilmiy asoslanganligi va ishonchliligini ta'minlab, belgilangan maqsadga erishishga xizmat qildi [4].


Tadqiqot natijalari va muhokama. Mazkur tadqiqot doirasida dasturlashtirilgan ta'lim vositalari asosida elektr muhandislarni tayyorlash jarayonida ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali aniqlandi. Tadqiqot oliy ta'lim muassasasining "Elektr muhandisligi" yo'nalishida tahsil olayotgan talabalari ishtirokida olib borildi hamda nazorat va tajriba guruhlarini shakllantirildi.

Tajriba guruhida o'quv jarayoniga PLC dasturlash muhiti, virtual laboratoriyalar, raqamli simulyatsiya dasturlari (MOMO, TIA, Portal, MATLAB/Simulink boshqalar), interaktiv HMI panellar hamda algoritmik topshiriqlarga asoslangan dasturlashtirilgan ta'lim vositalari joriy etildi. Nazorat guruhida esa an'anaviy o'qitish usullari saqlab qolindi [3].

Tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatdiki, dasturlashtirilgan ta'lim vositalari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalar tomonidan nazariy bilimlarning chuqurroq o'zlashtirilishiga va ularni amaliy vazifalarda qo'llash ko'nikmalarining sezilarli darajada rivojlanishiga olib keldi. Xususan, elektr sxemalarini loyihalash, asinxron motorlarni boshqarish algoritmlarini tuzish, MOMO, PLC orqali avtomatlashtirilgan jarayonlarni modellashtirish va nosozliklarni aniqlash bo'yicha topshiriqlarni bajarish samaradorligi oshdi [4].

Baholash mezonlari asosida o'tkazilgan yakuniy nazorat natijalari tajriba guruhida yuqori va o'rtacha darajadagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari ustunlik qilganini ko'rsatdi. Talabalarning

mustaqil ishlash faolligi, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyati hamda kasbiy tafakkuri rivojlangani kuzatildi. Ayniqsa, real simulyatsiyatorlar yordamida real ishlab chiqarish sharoitiga yaqin vaziyatlarni yaratish talabalarda kasbiy ishonchni rivojlantiradi.



1.Rasm. Motor management and operation raqamli dasturi orqali asinxron motorlarni boshqarishni real simulyatori

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, dasturlashtirilgan ta'lim vositalari elektr muhandislarni tayyorlashda faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki ularning kasbiy-amaliy kompetensiyalarini tizimli ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur yondashuv ta'lim jarayonining individuallashtirilishi va differensiallashtirilishini ta'minlab, talabalar o'rtasidagi bilim darajasi tafovutini kamaytirishga imkon beradi. Natijalar tahlili asosida xulosa qilish mumkinki, dasturlashtirilgan ta'lim vositalarini elektr muhandislarni tayyorlash jarayoniga joriy etish amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi hisoblanadi hamda ularni ta'lim jarayonida keng qo'llash maqsadga muvofiqdir [2].

Xulosa. Tadqiqot natijalari asosida shuni xulosa qilish mumkinki, dasturlashtirilgan ta'lim vositalari elektr muhandislarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali pedagogik metod hisoblanadi. Mazkur yondashuv bo'lajak elektr muhandisni real ishlab chiqarish sharoitlariga mos holda tayyorlash, uning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va raqamli texnologiyalar bilan ishlash malakasini oshirishga xizmat qiladi. Maqola natijalari muhandislik Oliy ta'lim tizimini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Choi, S. J., Jeong, J. C., & Kim, S. N. (2019). Impact of vocational education and training on adult skills and employment: An applied multilevel analysis. *International Journal of Educational Development*, 66, 129–138.
2. Hariyanto, D., Badarudin, R., Wati, M. S., Husna, A.F., Kassymova, G. K., & Lu, Y. (2024). Investigating the Higher Education Students' Perception of an Interactive DC Motor Simulator. *TEM Journal*, 13(2), 1297–1302.
3. Badarudin, R., Hariyanto, D., Ali, M., & Meunmany, S. (2021). Electric Machines Virtual Laboratory: Testing of DC Motor. *Journal of Physics: Conference Series*, 2111(1), 012041.
3. Hasan, B., Al-Quorashy, Y., Al-Mousa, S., AlSahhaf, Y., & El-Abd, M. (2020). V-LAB–The Virtual Electric Machines Laboratory. 2020 IEEE Global Engineering Education Conference (EDUCON), 72–77.
4. Iqbal, A., & Singh, G. K. (2023). Teaching synchronization of synchronous generator using virtual laboratory. *IETE Journal of Education*, 64(1), 5–14.

O'ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYODAGI DIPLOMATIK ROLI VA YANGI TASHQI SIYOSAT YO'NALISHLARI

Axmadxo'ja Axrorxodjayev,
Alfraganus Universiteti 1-bosqich talabasi,
Madiyor Turdiyev,
Alfraganus Universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritganidan boshlab, o'zining davlat suvereniteti, milliy manfaatlarini ta'minlash hamda xalqaro maydonda o'z o'rnini mustahkamlash yo'lida faol tashqi siyosat yuritib kelmoqda. Markaziy Osiyoda strategik hududda joylashgan O'zbekistonning mintaqadagi diplomatik roli va tashqi siyosat yo'nalishlari yillar davomida o'zgarib, zamonaviy jarayonlar va global o'zgarishlar ta'sirida yanada takomillashib boryapti. Bugungi O'zbekiston tashqi siyosati mintaqada barqarorlik, taraqqiyot, tinchlik va yaxshi qo'shnichilik siyosatini ilgari suradi. Uning diplomatik faoliyati har bir sohada o'z aksini topmoqda hamda mintaqamamlakatlarining manfaatlariga uyg'un keladigan zamonaviy yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Kalit so'zlar: O'zbekiston tashqi siyosati, Markaziy Osiyo, diplomatik rol, barqarorlik, hamkorlik, yangi yo'nalishlar, mintaqaviy integratsiya, xalqaro hamkorlik, tinchlik siyosati, ochiqlik.

Аннотация. С момента обретения независимости Узбекистан проводит активную внешнюю политику, направленную на обеспечение государственного суверенитета, национальных интересов и укрепление своих позиций на международной арене. Расположенный в стратегически важном регионе Центральной Азии, Узбекистан на протяжении многих лет меняет свою дипломатическую роль и внешнеполитические направления в регионе, которые в настоящее время совершенствуются под влиянием современных процессов и глобальных изменений. Сегодняшняя внешняя политика Узбекистана продвигает политику стабильности, развития, мира и добрососедства в регионе. Ее дипломатическая деятельность отражается во всех сферах и способствует формированию современных подходов, соответствующих интересам стран региона.

Ключевые слова: Внешняя политика Узбекистана, Центральная Азия, дипломатическая роль, стабильность, сотрудничество, новые направления, региональная интеграция, международное сотрудничество, политика мира, открытость.

Abstract. Since gaining independence, Uzbekistan has been pursuing an active foreign policy aimed at ensuring its state sovereignty, national interests, and strengthening its position in the international arena. Located in a strategic region in Central Asia, the diplomatic role and foreign policy directions of Uzbekistan in the region have changed over the years and are being further improved under the influence of modern processes and global changes. Today's foreign policy of Uzbekistan promotes a policy of stability, development, peace, and good neighborliness in the region. Its diplomatic activities are reflected in every sphere and serve to form modern approaches that are consistent with the interests of the countries of the region.

Keywords: Foreign policy of Uzbekistan, Central Asia, diplomatic role, stability, cooperation, new directions, regional integration, international cooperation, peace policy, openness.

Kirish. Har qanday davlat uchun zamonaviy diplomatiya, eng avvalo, milliy manfaatlarni himoya qilish, chet el bilan o'zaro samarali aloqalarni yo'lga qo'yish, mintaqaviy xavfsizlik va taraqqiyotning mustahkam asosini yaratish uchun zarur vositadir. O'zbekiston ana shu maqsadlarga erishish uchun doimo o'z tashqi siyosatini yangi sharoit va zamon talablariga mos

tarzda takomillashtirishga intiladi. Buning uchun davlat ichki siyosatni tashqi siyosat bilan uyg'unlashtirgan holda, umumiy milliy taraqqiyot strategiyasini to'g'ri belgilab, xalqaro maydonda ham o'z nufuzini oshirishga tomon intilmoqda. Tashqi siyosatni shakllantirish va olib borishda O'zbekistonning asosiy tamoyillari – tinchlikparvarlik, ochiqlik, pragmatik va muvozanatli yondashuv, do'stona qo'shnichilik, xalqaro huquq me'yorlariga amal qilish va o'zaro foydali hamkorlikdir. Mazkur yondashuvlar O'zbekistonning Markaziy Osiyoda diplomatik rolini tobora oshirib, uni mintaqaning yetakchi geosiyosiy markaziga aylantirib bormoqda. O'zbekiston o'z tashqi siyosatida har qanday mintaqaviy muammoni faqat va faqat muloqot, maslahatlashuv, hamkorlik, kelishuv yordami bilan hal etish tamoyiliga qat'iy amal qiladi. Mintaqaviy ishonch va barqarorlik tinch taraqqiyot uchun muhim omil sifatida qaraladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ko'p asrlik tarix, murakkab siyosiy va iqtisodiy tajriba, boy madaniyat va mustahkam davlat an'analari asosida bugungi O'zbekiston tashqi siyosatini shakllantirib kelmoqda. Tabiiy boyliklar, geografik o'rin va aholi salohiyati, iqqolli iqtisodiy imkoniyatlar, transkontinental transport va infratuzilmaning Markaziy Osiyodagi strategik ahamiyati O'zbekistonni mintaqaviy va global miqyosda muhim o'yinchilar safidan joylashtiradi. Shu jihatdan mamlakat o'z tashqi siyosatini ham doimo yangilab, rivojlantirib boradi. Bugungi O'zbekistonning yangi tashqi siyosat yo'nalishlari, avvalo, ochiqlik siyosati, har tomonlama hamkorlik, barqaror taraqqiyot, mintaqaviy ishonch va istiqbolli kelajak uchun maqsadli yondashuvga asoslangan. O'zbekiston davlat suverenitetini va mustaqilligini mutlaqo e'zozlaydi va xalqaro munosabatlarda o'zining mustaqil, aniq va qat'iy pozitsiyasiga tayanadi[1].

O'zbekiston tomonidan amalga oshirilayotgan yangi tashqi siyosat bosqichma-bosqich boshlab berilgan konseptual o'zgarishlar asosida yuritiladi. Bu o'zgarishlar ichida mintaqadagi barcha davlatlar bilan ochiq va do'stona aloqalarni kengaytirish, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlash, mintaqada muammo va ziddiyatlarning faqat muloqot yo'li bilan hal qilinishini ta'minlash ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Boshqa mintaq davlatlari bilan hamkorlikning yangi bosqichga ko'tarilishi, mintaqaviy integratsiya jarayonlarining kuchayishi va muammolar bo'yicha hamkorlikda ishlash an'anasining qaror topishi O'zbekiston tashqi siyosati uchun muhim yutuqdir. O'zbekiston o'z tashqi siyosatida hech qachon biror davlatga nisbatan qarama-qarshilik va integratsiyadan chetlashish strategiyasini tanlamay, aksincha, barcha davlatlar bilan do'stlik va yaxshi qo'shnichilik asosida o'zaro baraka va taraqqiyot yo'lini tanladi [2].

Muhokama va natijalar. Davlat tashqi siyosatining boshqa muhim yo'nalishi bu – xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, global siyosiy va iqtisodiy muammolarni hal qilishda faol ishtirok etish, dunyo hamjamiyatida o'z o'rnini mustahkamlashdir. O'zbekiston dunyoning qator yetakchi xalqaro tashkilotlari, hamkorlik va taraqqiyot agentliklari, innovatsion markazlar va fondlar bilan aloqalarni faollashtirdi. Bu orqali davlat o'zining xalqaro mavqeini yangi bosqichga olib chiqishga muvaffaq bo'lmoqda. O'zbekiston tashqi siyosatida asosiy e'tibor mintaqaviy taraqqiyot va o'zaro bog'liqlik orqali butun Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlik muhitini yaratishda. Yuqori darajadagi tashabbuslar, samarali tashqi siyosat yuritish, teng huquqli va do'stona aloqalar o'rnatilishi natijasida Markaziy Osiyoda savdo va iqtisodiy hamkorlik rivoj topmoqda. Mintaqa uchun dolzarb bo'lgan muammolar yechimini topishda O'zbekistonning diplomatik faoliyati asosiy drayver sifatida namoyon bo'lmoqda [3].

Barqaror taraqqiyot sari ilgari surilgan tashabbuslar natijasida O'zbekiston Markaziy Osiyoda transport va tranzit, energetika va ekologiya, suv resurslari, xavfsizlik va barqarorlik, mehnat migratsiyasi va inson kapitali, migratsion siyosat kabi yo'nalishlarda mintaqaviy siyosiy rivojlanishning muhim harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Xalqaro integratsiyada faollik, dunyo mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli munosabatlarni har tomonlama kengaytirish, xorijiy sarmoya va innovatsiyalarni jalb qilish orqali mamlakat taraqqiyoti yangi va mustahkam asoslarga tayanmoqda. O'zbekiston tashqi siyosatidagi yangi yo'nalishlarning muhim jihati undan iboratki, biror davlat bilan yoki mintaqadagi tashqi kuchlar bilan raqobat yoki qurolli

to'qnashuv yo'q, aksincha, barcha manfaatdor tomonlar uchun maqbul va o'zaro manfaatli imkoniyatlarni ko'paytirish, hamkorlikdan maksimal natija olish ko'zlanadi. Buning natijasida Markaziy Osiyoda sotsial, siyosiy va iqtisodiy barqarorlik mustahkamlanmoqda. Xususan, tashqi siyosatda hududiy xavfsizlikni saqlash, iqtisodiy taraqqiyot va modernizatsiya siyosatini samarali yo'lga qo'yish O'zbekiston tashqi siyosatining doimiy e'tiborida bo'lib kelmoqda. Davlat tashqi siyosatining muhim ko'rsatkichlaridan biri – xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish, xalqaro savdo va ishlab chiqarishda faol ishtirok etish, eng zamonaviy texnologiyalarni mamlakatga olib kirish, ilm-fan va ta'lim loyihalari uchun keng ko'lamli hamkorliklarni yo'lga qo'yishdan iborat. Shu ma'noda O'zbekiston yangi tashqi siyosatda zamonaviy diplomatik vositalar, raqamli infratuzilma, xalqaro marketing hamda innovatsion boshqaruv tajribasini keng tatbiq etmoqda. O'zbekiston tashqi siyosatidagi samarali yondashuvlar natijasida hozirgi kunda butun mintaqada yangi, zamonaviy va ochiq hamkorlik muhiti vujudga kelmoqda. Bu muhit Markaziy Osiyoda ham jadal iqtisodiy o'sishga, ham sotsial barqarorlik va mintaqaviy manfaatlar uyg'unligiga xizmat qilmoqda. Bu esa o'z navbatida davlatlar o'rtasida ishonch muhitini mustahkamlashga olib kelmoqda [4].

O'zbekiston mintaqaviy diplomatiyasida tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, o'zaro rivojlanish va taraqqiyot nuqtai nazaridan har safar yangi va innovatsion yondashuvlarni ilgari surmoqda. Tashqi siyosatda transport va logistika sohasi, mintaqada savdoni liberallashtirish, energetik xavfsizlik, ekologik muammolar va suv resurslaridan oqilona foydalanish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda. Yana bir muhim yo'nalish sifatida, O'zbekiston tashqi siyosatda mintaqaning madaniy-intelektual salohiyatini rivojlantirish hamda madaniyatlararo muloqotni kuchaytirishga harakat qilmoqda. Davlat tashqi siyosatining bu qismi butun Markaziy Osiyo xalqlari manfaatlarini uyg'unlashtirish uchun muhim daraja kasb etmoqda. Madaniy aloqalar, o'zaro tajriba almashinuvi, qardoshlik va mushtarak tarixiy qadriyatlar doirasida olib borilayotgan siyosat O'zbekistonning diplomatik rolini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda [5].

Bugungi global siyosiy-iqtisodiy jarayonlar va mintaqaviy xavfsizlikka tahdid soluvchi holatlar sharoitida O'zbekiston o'z tashqi siyosatini yanada mustahkamlash, zamon talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish, xalqaro tajribani o'rganish va tatbiq etishga katta ahamiyat bermoqda. Bu jarayonda mamlakat suvereniteti, milliy manfaatlar va xalqaro maydondagi mavqeini birinchi o'ringa qo'yadi. O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari, shu jumladan, do'stona qo'shnichilik, mintaqaviy va global manfaatlarni uyg'unlashtirish, universal insoniy qadriyatlarni e'zozlash, tinchlik va taraqqiyot uchun umumiy harakatlarni etakchilar safida olib borishdan iborat. Shu jihatdan mamlakat tashqi siyosatida ijtimoiy barqarorlik va zamonaviy diplomatik tamoyillar uyg'un holda olib borilmoqda. Bu yondashuv O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi siyosiy va iqtisodiy iqlimini doimiy ravishda yaxshilanib borishini ta'minlamoqda. O'zbekiston tashqi siyosatida xalqaro tashkilotlar, mintaqaviy tashkilotlar, yetakchi hamkor davlatlar bilan ko'p tomonlama va chuqur sheriklik munosabatlari kuchaymoqda. Mamlakat tashqi siyosatining yangi bosqichini belgilovchi asosiy tamoyil bu – o'zaro manfaat, tinchlik va taraqqiyot, ustuvor ishonch tamoyillarini doimiy tarzda qaror toptirishdan iborat. Davlat ham tashqi, ham ichki islohotlarni uyg'unlashtirgan holda, zamonaviy global diplomatiya va xalqaro hamkorlikka asoslanadi. Mintaqa manfaatlarining umumiyligini chuqur anglagan holda, O'zbekiston barcha tashabbuslarning mintaqaviy taraqqiyot, sotsial barqarorlik va xavfsizlikka xizmat qilishini asosiy vazifa qilib qo'ydi.

Hozirgi kundagi tashqi siyosat, xususan, rivojlangan, barqaror, raqamli O'zbekiston modelini yaratishga qaratilgan. Yangi tashqi siyosat tamoyillarini amalga oshirish jarayonida xalqaro tajriba, ilg'or boshqaruv vositalari, o'zaro ishonch va kelajak sari yo'naltirilgan hamkorliklar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mintaqaning iqtisodiy salohiyatidan to'liq foydalanish, innovatsion va zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, ilg'or ta'lim va ilm-fan sohalarida hamkorliklarni kengaytirish, madaniy innovatsiyalar va transchegaraviy loyihalarni

amalga oshirish mamlakat tashqi siyosatining asosiy bo'g'ini sanaladi. O'zbekiston tashqi siyosatining doimiy rivojlanishida ijtimoiy ahamiyatli loyihalar, inson kapitaliga sarmoya, kichik va o'rta bizneslarni rivojlantirish, ko'p tomonlama savdo va iqtisodiy aloqalar, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi yo'nalishlarda yangi qadamlar tashlanmoqda. Bu tashabbuslar mintaqaning jahon iqtisodiy tizimidagi o'rni yanada rivojlanmoqda. Transport va tranzit sohasidagi integratsiya, kommunikatsiya va axborot texnologiyalari rivoji, zamonaviy logistika muammolariga birgalikda yechim topish ham tashqi siyosatning muhim strategik ustuvorligi hisoblanadi. Markaziy Osiyoda O'zbekiston diplomatik faoliyati samarali natijalarni berishda davom etmoqda. Mintaqada barqarorlik va taraqqiyot sari harakatlar, mustahkam hamkorlik va o'zaro ishonch muhiti shakllanishi natijasida O'zbekiston mintaqaning muhim iqtisodiy va siyosiy markaziga aylandi. Hozirgi sharoitda xalqaro jihatdan ham, mintaqaviy miqyosda ham O'zbekiston tashqi siyosatining ochiqqligi, do'stona qo'shnichilik g'oyalari, integratsiya va taraqqiyot yo'nalishlari alohida ahamiyat kasb etmoqda [6].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi diplomatik roli va yangi tashqi siyosat yo'nalishlari mamlakat uchun yangi imkoniyatlar, hamkorlik va taraqqiyot ufqlarini ochmoqda. Yangi tashqi siyosat tamoyillari asosida O'zbekiston mintaqaning eng muhim va ishonchli siyosiy-iqtisodiy o'yinchisi sifatida ko'plab yutuqlarga erishmoqda hamda zamonaviy global siyosatda o'ziga xos mustahkam o'ringa ega bo'lmoqda. Zamonaviy diplomatiya, mintaqaviy ishonch, barqaror taraqqiyot tamoyillari hayotga izchil tarzda joriy etilmoqda. Shular natijasida O'zbekiston xalqi, Markaziy Osiyo mamlakatlari va butun dunyo hamjamiyati uchun tinch, barqaror va farovon kelajak sari ishonchli qadamlar tashlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alimov.R. (2019). "O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari". Xalqaro munosabatlar, 3(1), 22-31.
2. Berdikulov.A. (2021). "Markaziy Osiyoda O'zbekistonning diplomatik faolligi". Siyosatshunoslik, 8(2), 56-62.
3. G'aniyev.B. (2018). "Yangi tashqi siyosiy strategiyalar: O'zbekiston tajribasi". Jahon siyosati, 6(4), 90-97.
4. Jo'rayev.X. (2017). "Markaziy Osiyo barqarorligida O'zbekiston o'rni". Mintaqaviy xavfsizlik, 2(2), 35-43.
5. Karimova.Z. (2020). "O'zbekiston va qo'shni davlatlar bilan hamkorlik". Yangi O'zbekiston, 1(3), 15-24.
6. Matkarimov.N. (2022). "Tashqi siyosatda ochiqlik va diplomatik yangilanish". Davlat boshqaruvi, 4(1), 61-69.

ILM VA TARBIYA ORQALI JAMIYATNI ISLOH QILISH: MUHAMMAD ABDONING PEDAGOGIK VA IJTIMOYIY QARASHLARI

Nusrat Hamroyev,
International School of Finance Technology and Science institute
“Gumanitar va tabiiy fanlar” kafedrası mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sharq mutafakkirlarining, xususan XIX–XX asrlar chegarasida yashab ijod qilgan yirik islom faylasufi va islohotchisi Muhammad Abdoning ijtimoiy-siyosiy, diniy-axloqiy hamda pedagogik qarashlari tahlil etiladi.

Kalit soʻzlar: Muhammad Abdo, islom islohotchiligi, ijtimoiy-siyosiy qarashlar, diniy-axloqiy tafakkur, taʼlim va tarbiya, pedagogik islohot, al-Azhar islohoti, ijthod, taqlidchilik, jamoa ruhi, maʼnaviy taraqqiyot, zamonaviy islom tafakkuri.

Аннотация. В статье анализируются социально-политические, религиозно-нравственные и педагогические взгляды восточных мыслителей, в частности выдающегося исламского философа и реформатора конца XIX – начала XX века Мухаммада Абдо.

Ключевые слова: Мухаммад Абдо, исламский реформизм, социально-политические взгляды, религиозно-нравственная мысль, образование и воспитание, педагогические реформы, реформа аль-Азхара, иджитihad, таклид, коллективный дух, духовное развитие, современная исламская философия.

Annotation. This article analyzes the socio-political, religious-ethical, and pedagogical views of Eastern thinkers, with particular emphasis on Muhammad Abdo, a prominent Islamic philosopher and reformer of the late nineteenth and early twentieth centuries.

Keywords: Muhammad Abdo, Islamic reformism, socio-political thought, religious and ethical philosophy, education and upbringing, pedagogical reform, al-Azhar reform, *ijtihad*, imitation (*taqlid*), collective spirit, spiritual development, modern Islamic thought.

XX asr arab falsafasining yirik namoyandasi Muhammad Abdo ham oʻzining ijtimoiy-falsafiy va diniy-axloqiy qarashlari bilan arab dunyosida islohotchilik harakatining rivojlanishiga sezilarli hissa qoʻshgan. Uning gʻoyalari bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan.

Muhammad Abdo Islomning asosiy gʻoyalarini qurbon qilmagan holda, Gʻarb sivilizatsiyasini ichdan qabul qilishni va bu ikki olamning uygʻunlashuvini istagan. Uning asl maqsadi Gʻarb hujumiga qarshi Islomni din sifatida mustahkamlash va saqlab qolish edi.

Erishmoqchi boʻlgan maqsadlari bir xil boʻlishiga qaramay, musulmonlarni begonalarning hukmronligidan ozod qilish va Islom olamining oʻz kuchi bilan qayta tiklanishi masalasida Muhammad Abdoning dasturi Afgʻoniylikidan ancha farq qilardi. Afgʻoniy vaziyatning darhol oʻzgarishini istagan inqilobchi edi; Muhammad Abdoga koʻra esa, xalqning tafakkur tarzini oʻzgartirish uchun tashqi shakllarning oʻzgarishi yetarli emas edi.

U islomga asoslangan bir sivilizatsiya barpo etish tashvishi va masʼuliyatini his qilgan yetakchi olimlardan biridir XX asr boshlarida butun Islom olamida eng koʻp oʻqilgan mutafakkir Abdo boʻlgan, deyish mubolagʻa boʻlmaydi. Bu kuchli qiziqish uni yevropaliklar tomonidan ham siyosiy va akademik jihatdan eng koʻp kuzatilgan shaxsga aylantirdi.

Abdo taʼlimga doir fikrlarini dastlab matbuot orqali bayon etgan. Livanlik ikki aka-uka tomonidan Qohirada tashkil etilgan “al-Ahram” (الأهرام) gazetasi sahifalarida chop etilgan “Yozuv va Qalam” (الكتابة والقلم) nomli maqolasida u insonlarning oʻqish va yozishga boʻlgan ehtiyoji hamda ijtimoiy hayot uchun taʼlim olishning zarurligini taʼkidlaydi. Shundan soʻng zamonaviy fanlarning ahamiyati va ularni musulmonlar tomonidan anglab yetish zarurligini yoritgan toʻrtta maqolasi eʼlon qilinadi. U al-Vaqoiyʼ al-Misriyya (الوقائع المصرية) gazetasiga bosh

muharrir etib tayinlanganidan keyin ham ta'lim mavzusida bir qator maqolalar yozib, bu borada jamoatchilik fikrining shakllanishida muhim rol o'ynadi. Gazetada chop etilgan "al-Ma'arif" (المعارف) nomli uch maqolasida ta'lim tizimini isloh qilish zarurligini yoritgan edi. Abdo "at-Tarbiya fi-l-Madāris va-l-Makātibu-l-Miriyya" (التربية في المدارس والمكاتب المصرية) nomli maqolasida esa o'quvchilarning ruhiy tarbiyasiga alohida e'tibor qaratadi.

Abdo Parijda Afg'oniy bilan birgalikda chiqargan "Urvat ul-Vusqo" (العروة الوثقى) jurnalida e'lon qilingan ayrim maqolalarida ham ta'lim masalalariga to'xtaladi. "Ummatning o'tmishi, hozirgi holati va kasalliklarning davosi" sarlavhali maqolada Islom ummatining o'tmishdagi yutuqlari, o'sha paytdagi og'ir ahvoli bayon qilinib, undan chiqish yo'li ko'rsatib berishga harakat qilinadi. Shunga ko'ra: "Ba'zilar yer yuzining keng hududlariga yoyilgan bir millatning najoti faqat maktablar ochish bilan amalga oshadi, deb o'ylaydilar. Ummat a'zolari o'z nafsiiy xohish-istaklari ortidan katta shiddat bilan quvib borayotgan, o'zidan bo'lmagan, o'z mazhabi va yo'nalishiga mansub bo'lmagan, ilgari esa o'z homiyligi va ta'siriga bo'ysungan ayrim kishilarga bo'ysunib, xorlik ichida tirikchilik qilishga, obro' va sharaf topishga urinib qolgan bir paytda, faqat maktablar ochish bilangina bu darddan qutulish mumkin, deb o'ylash! Albatta, bu maktablar Yevropadagidek zamonaviy bo'ladi, ta'lim qisqa fursatda barcha a'zolar orasida keng yoyiladi va ummatning umumiy mulkiga aylanadi; natijada axloq tuzaladi, ixtilof va bo'linishlar yo'qoladi, birlik va qudrat paydo bo'ladi! Ular o'ylayotgan narsa qanchalik uzoq ehtimol!

Bunday ulkan ishni faqat kuchli va qudratli bir boshqaruvchi yakuniga yetkaza oladi. Buning uchun esa u boshqaruvchining irodasi xalqni majbur eta oladigan darajada bo'lishi kerak. Bundan tashqari, bu ishning amalga oshishi uchun juda katta sarmoya zarurki, u maktablarning xarajatlarini qoplashi lozim. Holbuki, bizning mavzuumiz aynan kasalliklar, zaifliklar va ularning davosi haqida. Shunday bir holatda katta kapital jamg'armasi va qudratli hokimiyat bir vaqtning o'zida mavjud bo'lishi mumkinmi? Agar shunday bo'lganida edi, ummat bunday imkoniyatlarga ega bo'lsa, orqada qolmagan va bu ahvolga tushmagan bo'lardi" [1].

Ummat o'ziga butunlay begona bo'lgan ilmlarni anglashdan, ularning urug'lari qanday sepilgani, qanday rivojlantirilgani, qanday qilib shox-shabba yozib kengaygani, qaysi suv bilan sug'orilib, qaysi tuproq bilan oziqlangani, ularning ibtidosi va natijalari haqida mutlaqo bexabardir. Bu boradagi ozgina bilimi ham faqat bo'sh, mazmunsiz taqliddan iborat. Ahvol shunday ekan, bunday gumon ro'yobga chiqishi mumkinmi? Ayrim kishilarning bu ilmlarni yetarli darajada o'zlashtirmay turib, fikri boshqa narsalar bilan band bo'lgan odamlarga yetkazishi fikrlarning to'g'rilanishiga, axloqning o'zgarishiga, birodarlariga foyda keltirishga, qisqasi, to'g'ri yo'lga boshlashga kifoya qiladimi?

Shunday holatda bo'lgan bir ummat ichidan chiqib, bu ilmlarni faqat ko'chirib yetkazuvchilar ba'zan o'zlari tushib qolgan xom-xayollar, ba'zan esa bolalikdan beri singib kelgan gumonlarning salbiy ta'siri ostida ilm olgan jamiyatlarini ko'z o'ngida haddan tashqari ulug'lab yuboradilar. Natijada ular o'z ummatlari orasida go'yo g'alati bir maxluqqa aylanib qoladilar. Bu esa ummatni yanada chuqurroq tartibsizlik va parokandalikka itarishdan boshqa foyda bermaydi.

Vatanlariga xizmat qilish niyatida jiddiy bo'lsalar ham, yetkazadigan ilmni o'z mohiyati bilan ifodalashga ojiz bo'lgan kishilar nima qila oladilar? Ular faqat o'rgangan va yodlab olgan narsalarini qanday bo'lsa, shunday ko'chirishga urinadilar. Yetkazayotgan bilimlari bilan ummatning manbalari, an'analari va tabiati o'rtasidagi bog'liqlikka umuman e'tibor bermay, uning o'rnini va mosligini o'ylamasdan shunchaki ko'chiradilar. Chunki ular bu ilmlarning o'tmishi va kelajagidan bexabar, faqat hozirgi holatidan ozgina xabardor bo'lganlari uchun uni hamma uchun zarur bo'lgan eng oliy maqsad, hayotni davom ettirish uchun eng to'g'ri qoidalar deb biladilar; kichiklardan kattalarga xos talablarni kutadilar, kattalardan esa buning teskarisini talab qiladilar.

Ular o'rgangan narsalarining faqat tashqi qobig'idan nariga o'ta olmaydilar. Ta'lim berilayotgan kishilarning xususiyatlarini mutlaqo hisobga olmaydilar; bu bilim ularga foyda keltiradimi yoki mavjud yomonliklarini yanada kuchaytiradimi — buni umuman o'ylab

ko'rmaydilar. Chunki ular ishning haqiqiy egalari emas, faqat ko'chirib yetkazuvchi tashuvchilardir.

“Musulmonlik va nasroniylik” nomli maqolada esa shunday deyiladi:

“Ayniqsa ta'lim va tarbiyada noto'g'ri yo'l tanlangach, rasmiy ta'lim bir qator safsatalarga asoslangach, dinning Payg'ambar va sahobalar tomonidan yetkazilgan asl mohiyatini xalqqa tushuntirish uchun yozilgan kitoblarning ham ta'siri qolmadi. Bu haq yo'lidagi kishilar o'rgatmoqchi bo'lgan haqiqatlar juda tor doirada qolib ketdi. Balki turg'unlikning sababi, musulmonlarning qudratdan tushib, zaiflashib yo'qolishiga olib kelgan eng asosiy omil ham shu bo'lgandir. Bugun biz tushib qolgan ahvol va chekayotgan qiyinchiliklarimizning barchasi ham ana shu sababdandir. Allohdan bizni bundan qutqarishini so'raymiz.”

Darhaqiqat, bosma texnologiyalardagi taraqqiyot Islom olamidagi madaniy uyg'onish (renessans) jarayonining muhim belgilovchi omillaridan biri bo'lgan edi.

Abdo Parijda bo'lgan davrida yangi ixtiro va taraqqiyotlarga guvoh bo'ldi, kuzatishlar olib bordi, sharqshunoslar bilan uchrashdi hamda Parij va London o'rtasida qatnab turdi.

U Oksford va Kembrij universitetlarini ziyorat qilib, u yerda ilmiy tekshiruvlar olib borgan. Uning kutubxonasida Russoning “Emil”, Spenserning “Education” nomli asari hamda didaktik yozuvlari mavjud edi. Bu hol Abdoning zamonaviy G'arb falsafasiga, ayniqsa axloq, ta'lim va jamiyat falsafasiga oid asarlarga bo'lgan qiziqishini yaqqol ko'rsatadi [2].

“al-Urvat ul-Vusqo” jurnalining yopilishidan so'ng Abdo 1885 yilda Bayrutga qaytdi. Bu paytga kelib, u siyosiy yo'l bilan taraqqiyotga erishib bo'lmasligi haqidagi ishonchini yanada mustahkamlab bo'lgan edi. Inqilob yo'lining muvaffaqiyatsizligini shaxsan boshidan kechirganligi sababli, bundan buyon islohotni ta'lim yo'li bilan amalga oshirishni maqsad qilgan, sodda bir olim va muallim sifatida xizmat qilishni rejalashtirdi.

Abdo Bayrut Sultoniyeye madrasasida dars berdi, u yerning ta'lim reja va dasturlarini isloh qildi hamda bu madrasani yuqori darajadagi ta'lim muassasasiga aylantirishga harakat qildi. Bu yerda u tavhid, mantiq, balog'at, Islom tarixi hamda Hanafiy fiqhiga asoslangan huquq fanlaridan saboq berdi.

Darhaqiqat, shunga o'xshash izlanishlar keyingi davrlarda Pokiston kabi ayrim Islom davlatlarida ham namoyon bo'lgan edi.

Abdo Bayrutda ilm talabalariga kuchli intellektual ruh va ilhom bag'ishladi. Uning uyi deyarli har oqshom mehmonlar bilan to'lib ketgani sababli torlik qilardi; shu bois ko'plab talabalar Bayrut shahar hokimining qarorgohida to'planib, bu bilimdon misrlik olimning Islomga tayangan qarashlarini katta ishtiyoq bilan tinglashardi. Shakib Arslon u haqda shunday degan:

“Biz Abdo shaxsida ilgari boshqa ulamolarda uchratmagan ma'rifatli, ziyoli bir munosabatni ko'rardik. Bu olim aqlga asoslangan va naqlga tayangan ilmlarni eng yuqori darajada uyg'unlashtirar, har bir masalani odatda ko'nikib qolgan qarashlarimizdan balandroq, faylasufona bir idrok bilan tahlil qilardi. Biz bundan avval bunday nuqtai nazarga duch kelmagan edik” [3].

Abdo Misrga qaytgach, Afg'oniy bilan munosabatlari tobora yomonlashdi. Afg'oniy uni qo'rqoqlikda va dushmanlar bilan hamkorlik qilishda aybladi, siyosiy ideallardan hamda xalq irodasiga tayangan boshqaruv shaklidan voz kechganlikda aybladi. Abdo esa Misr uchun eng zarur narsa keng qamrovli ta'lim va tarbiya ekanini ta'kidlardi. Uning fikricha, barcha siyosiy va ijtimoiy muammolar aynan shu ehtiyoj nuqtai nazaridan baholanishi lozim edi.

Afg'oniy mustamlakachilik va istibdod tuzumlaridan qutulmas ekan, ta'lim va islohot hech qanday samara bermaydi, deb hisoblagan bo'lsa, Abdo aksincha, mustamlakachilik va istibdodning barham topishini ta'lim va tarbiyaning natijasi sifatida ko'rardi. Ana shu fikriy tafovut ularni maqsadlariga erishish yo'lida turli yo'nalishlarga yetakladi: Afg'oniyi siyosatga, Abdoni esa ilm va madaniyatga.

Abdo G'arbn Sharqdan ustun qilgan haqiqiy omil — ta'lim va ilm darajasining yuksakligi ekanini yaxshi anglagan edi. Shu sababli, eng avvalo ta'lim va tarbiya muassasalarini isloh qilish asosiy masala bo'lishi lozim deb hisoblagan. Bu muassasalar ichida al-Azharning o'zni

boshqalarnikidan biroz boshqacha edi. Chunki al-Azhar o'zining konservativ va mutaassib tuzilishi bilan go'yo o'sha davrdagi Misr jamiyatining bir ko'zgusi edi. Bu tuzilmaning o'zgarishi, ehtimol, jamiyatning ham o'zgarishiga sabab bo'lar edi. Abdo negadir al-Azhar bilan jamiyatning o'zgarishi o'rtasida shunday ijobiy bog'liqlikni ko'rar edi. U al-Azharni isloh qilish butun mamlakat aholisini isloh qilish bilan barobar, deb ishonardi.

Abdo al-Azharga mudarris etib tayinlangach, darhol taraqqiyot harakatini boshlashni istagan, biroq uning bu sa'y-harakatlari mutaassib mudarrislar tomonidan to'xtatilgan edi. 1895 yilda u al-Azhar boshqaruv kengashiga hukumat vakili sifatida a'zo bo'lgach, o'tkazilgan turli yig'ilish va muzokaralardan so'ng qabul qilingan dastur asosida darslarga matematika, adabiyot, geografiya kabi yangi fanlarni kiritishga muvaffaq bo'ldi. Shuningdek, al-Azhar kutubxonasini tashkil etdi. Ta'lim tizimida ko'zda tutilgan bu yangiliklar katta qarshiliklarga sabab bo'ldi. al-Azhar shayxlaridan biri bu harakatni: "Buyuk masjid bo'lgan al-Azharni dinni buzadigan bir falsafa o'chog'iga aylantirish" deb baholagan edi.

Shunga qaramay, Abdoning g'oyalari jiddiy fikrlovchi keng muhitda ustun kelishga muvaffaq bo'ldi. Abdoning yoshlarni tarbiyalashda o'ziga xos usuli mavjud edi. Uning nazarida ta'limning asosi — Islomdir. Bu asos shaxsiyatga tayanadi va insonning individualligini yo'q qilmaydigan bir tayanchdir. Jamiyatning urf-odatlar va axloqida yuz beradigan o'zgarishlarning manbai ham aynan ta'limdir. Uning fikricha, ta'lim avvalo o'zgarish uchun zamin yaratadi, so'ngra o'sha o'zgarishni amalga oshiradi. Jamiyatni tarbiyalovchi qonunlar — bu o'sha jamiyatning ta'lim qonunlaridir.

Muhammad Abdo o'z tafakkurining barcha sohalarida qabul qilgan pedagogik usuli doirasida ikki asosiy masalaga e'tibor qaratgan:

1. jamoa (umumiyluk) ruhini uyg'otish,
2. ayniqsa ijtimoiy muammolarni hal etishda taqlidchilikni tark etib, ijtimodga yuzlanish.

Abdo individualizm va ajralishlarni zaiflashtirish, jamoa ruhini mustahkamlash zarurligini alohida ta'kidlagan va buning faqat chinakam ta'lim orqali amalga oshirishini ta'kidladi. Uning nazarida bunday ta'lim Islom ta'limotlarini amalda qo'llash asosiga tayanadi. Bu haqda u shunday deydi: "Inson faqat ta'lim orqali haqiqiy inson bo'ladi. Bu esa faqat payg'ambarlar va rasullar olib kelgan hukmlarga bo'ysunish bilangina mumkin bo'ladi. Biz shu asosda tarbiyalanganda, barchamizda ongimiz va ehtiyojlarimizni birlashtiradigan bir xil holatlar qaror topadi. Shunda har birimiz o'zi va boshqalar uchun bajarishi lozim bo'lgan bir vazifasi borligini his qiladi" [4].

Shu tariqa Abdo jamoaning o'z mazmunini yo'qotishi va jamoa ruhining zaiflashishini Islomning noto'g'ri tushunilishi bilan bog'laydi. U yashagan davrda Misr jamiyati duch kelgan bu kasallikning davosi — dindor, mas'uliyatli yosh avlodni tarbiyalash va ta'limning birinchi bosqichini albatta Islomning ko'rsatmalariga asoslashda mujassam, deb hisoblagan. Abdo shaxsni mustaqil xarakter va fikrga ega bo'lishga, tanqidiy tafakkur qobiliyatini rivojlantirishga hamda ma'lum bir talqin uslubini ongli ravishda tanlash irodasiga ega bo'lishga da'vat etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J. Afg'oniy., Abdo, Muhammad (1987). *Al-Urvatul-Vusqo (1884): Buyuk ozodlik kurashi*, turkchaga tarjima: Ibrohim Aydin, Istanbul.
2. Zeki İçcan, Mehmet. (1998). Muhammed Abdo'un Dini ve Siyasi Görüşleri. Dergâh Yayınları, Istanbul. 384 sayfa.
3. Keskiöglu, Osman (1970). "Muhammad Abdo", *Anqara Universiteti İlahiyot Fakulteti Jurnalı*, 18, 109–136, Anqara.
4. Schacht, Joseph (1997). "Muhammad Abdo", *Milliy Ta'lim Vazirligi Islom Ensiklopediyasi*, 8-jild, 488–490-betlar, Eskişehir.

“FLESHMOB” TUSHUNCHASI VA UNING JAMIYATGA ZARARI

Boburjon Xasanov,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruv Akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Hozirgi kunda internet olamida shiddat bilan rivojlangan davrda, destruktiv kuchlar tomonidan mamlakat ichida ommaviy norozilik namoyishlarini tashkillashtirish, uni boshqarish bilan bog‘liq muammolar osonlik bilan hal etilmoqda. Bu kabi holatlarni tashkillashtirishda ommaviy norozilik namoyishining “fleshmob” ko‘rinishi ayni muddao. Mazkur maqolada “fleshmob” to‘g‘risida tushuncha, uning jamiyatga keltiradigan noxush oqibatlari, uni oldini olishdagi profilaktik tadbirlar hususida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: norozilik, namoyish, ommaviy, omil, fleshmob, tartibsizlik, ijtimoiy-siyosiy vaziyat, xavfsizlik, geosiyosat.

Аннотация. В наше время в бурно развивающемся мире Интернета легко решаются проблемы, связанные с организацией и управлением деструктивными силами массовых протестов в стране. Появление «флэшмоба» публичного протеста – очень важный фактор в организации подобных дел. В данной статье рассмотрено понятие «флэш-моб», его неприятные последствия для общества, профилактические меры по его предотвращению.

Ключевые слова: протест, демонстрация, масса, фактор, флешмоб, беспорядки, общественно-политическая ситуация, безопасность, геополитика.

Annotation. Nowadays, in the rapidly developing world of the Internet, the problems associated with the organization and management of the destructive forces of mass protests in the country are easily solved. The appearance of a “flash mob” of public protest is a very important factor in the organization of such cases. This article discusses the concept of “flash mob”, its unpleasant consequences for society, preventive measures to prevent it.

Key words: protest, demonstration, mass, factor, flash mob, riots, socio-political situation, security, philosophy.

Kirish. Ma’lumki, so‘nggi bir asrda gigimon davlatlar tomonidan yer sharini mintaqalarga bo‘lish, tarafdor bo‘lmagan kichik davlatlarda siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va kriminogen vaziyatni izdan chiqarish orqali aholini ommaviy noroziliklar to‘lqiniga tushirish va amaldagi hukumatni ag‘darish amaliyoti keng foydalanilmoqda.

Bu borada ommaviy norozilik namoyishining “fleshmob” ko‘rinidagi harakatlarni amalga oshirish, yoshlar ongiga internet tarmog‘i orqali yod g‘oyalarni singdirish, ushbu orqali bir vaqtning o‘ziga olomonni maydonlarga olib chiqish holatlari kuzatilmoqda.

Tadqiqot natijasi. “Fleshmob” inglizcha so‘z bo‘lib, Flash – uchqun va mob – olomon degan ma’noni anglatadi. Nemis tilida mob – so‘zi yaramaslar degan manonda xam ishlatiladi. Demak “Flashmob” so‘zi “yaramaslar to‘dasi” degan ma’noni ham ifodalaydi.

“Fleshmob” ma’no jihatjan ilgari mavjud bo‘lgan “Xepenning” atamasiga yaqin keladi. Xepenning – (ing. Happening – sodir bo‘lmoq) teatr namoyishida oldindan dasturda bo‘lmagan g‘oyaning avj olishi yoki qandaydir hodisaning tomoshabinlar hamkorligida birdaniga tez rivojlanishi tushuniladi.

Bugungi kunda fleshmob atamasini reklama, OAV sahifalarida turli dasturlarda har hil soha mutaxassislari ishlatyapti. Ortida uchinchi tomonning g‘arazli g‘oyalari berkingani uchun ushbu atama hamon to‘lig‘icha, batafsil yoritib berilgani yo‘q.

Fleshmob – bu bir to‘da odamlarning internet orqali yopiq kelishgan holda to‘satdan bir yerda paydo bo‘lishi va oldindan o‘ylangan tartibsizlikni sodir etish bilanoq, tezda yana g‘oyib bo‘lishdir.

Tashkil etilgan ijtimoiy–ma‘rifiy tadbirlar bilan fleshmob o‘rtasida katta farq bor. Fleshmob quyidagi xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi.

- To‘satdan yuz berishi;
- Markazlashgan boshqaruvning yo‘qligi;
- ijtimoiy–ma‘murif maqsadlarning yo‘qligi;
- fleshmob qatnashuvchilari bir–birini tanimasligi;
- OAVda fleshmobni yoritishni rad etish.

G‘arazli kuchlarning quroliga aylangan fleshmob kishilar o‘rtasida nizo chiqarib, ommaviy norozilik namoyishlar va tartibsizliklarga sabab bo‘lmoqda. Millatraro va do‘stona munosabatlarga sovuqchilik solmoqda.

Fleshmobchilar olomon to‘dasini tashkil qilib, norozilik harakatlarini chetda turgan holda kuzatishyapti. Oqibatda halqlarning ma‘naviyati, o‘zligini barbod etib, ularning moddiy boshliylarini egallab olishmoqda.

Fleshmobchilar butun dunyo bo‘ylab olib borayotgan harakatlarning bir qancha turlari mavjud. Ular xech kimga sezdimagan holda internet orqali olomon ichiga yo‘l topib, kirib boradi. Hozirgi kunda yoshlar ahloqni, dunyoqarashini buzadigan juda ko‘p qiliqlar, asosan fleshmobning vatani bo‘lgan g‘arb davlatlaridan tarqalishi xech kimga sir emas.

Fleshmob o‘tkazishning eng asosiy sharti uning kutilmaganda, qo‘qqisdan sodir etilishidir. Shuningdek, unda tashkiliy rahbar bo‘lmaydi. Fleshmobni o‘ylab topganlar, aslida uning siyosiy va reklama tadbirlaridan holi bo‘lishini istashgan edi. Shuning uchun ham kompyuter o‘yinlari kabi narsalar kabi mukkasidan ketib, juda qiziqadigan yoshlar huddi o‘yin singari, bu yig‘inni ham o‘ylab topishgan. Aksar hollarda bunday tadbirga to‘planadiganlar bir–birlarini umuman ko‘rmagan bo‘ladi, faqat ismlarini g‘oyibona bilishadi, xolos.

Fleshmobchilar, avvalo xalq ongiga o‘z jirkanch g‘oyalarini singdirish, yoshlarni unga moslashtirib, norozilik kayfiyatida ushlab turish oqibatida qora maqsadlarga yetishga intilishadi.

Hozir fleshmob O‘zbekiston yoshlari ma‘naviyatiga ham sezdimagan holda tahdid solmoqda. Fleshmob yoshlar tarbiyasiga quyidagi vositalar orqali salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda:

- G‘arb filmlari, musiqalari va klirlari;
- Internetdagi ijtimoiy tarmoqlari;
- Uyali telefonlar;
- Hayosizlikni targ‘ib qiluvchi axborot vositalari;
- Virtual o‘yinlar.

Terrorchi va buzg‘uni kuchlar tomonidan fleshmob ommaviy norozilik namoyishlarini yoki tartibsizliklarni sodir etishning sabab va oqibatlari quyidagilardan iborat:

1. Bugungi kunda fleshmob namoyishini tashkil etishni ta‘qiqlovchi aniq qonun hujjatlari mavjud emas. Agarda buyday harakatlar sodir etilgan taqdirda, qatnashchilarga bilvosita ayblar qo‘yiladi, lekin ishtirokchilarning bir–biriga begona ekanligi vaziyatni yanada chigallashtiradi. Masalan, bunday voqeani yuzaga keltirgani uchun qatnashuvchilar ommaviy norozilik namoyishlar o‘tkazish tartibini buzganlik bilan ayblanib qolishi mumkin. Biroq bunda baribir fleshmobning asosiy tashkilotchilari panada qolib ketadi.

2. Fleshmob namoyishini tashkil etish bosqichlari yuqori darajadagi yopiqlik va yashirin tarzda amaoga oshiriladi. Shuning uchun bunday harakatni oldindan aniqlash va aholini ogohlantirish juda mushkul.

3. Oddiy fleshmob namoyishida ham ko‘p odamlarni bir joyga quqqisdan to‘plash imkoni bor va to‘s–to‘polonlarni sodir etib, bir lahzada voqea joyidan qochib qolish mumkin.

4. Fleshmob tashkilotchilari, asosan, yoshlarni, ya‘ni hali oqni qoradan ajrata olmaydigan, bolalarni ofat domiga tortishga urinishadi. Oqibatda, bunday yoshlar nopok kimsalarning nog‘orasiga o‘ynayotganini o‘zlari ham sezmay qolishadi.

5. Fleshmob xabarlarini ishtirokchilarning bir–biriga zudlik bilan tarqalishi va qisqa fursatda o‘z–o‘zidan ko‘payishi buzg‘unchilarga juda qo‘l keladi.

Bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida sodir bo‘layotgan voqea–hodisalar shuni ko‘rsatmoqdaki, fleshmob namoyishi g‘arazli kuchlarning qora niyatiga yetishi uchun asosiy vosita rolini o‘ynamoqda.

Ma’lumki, g‘arbdan internet orqali kirib kelayotgan ma’lumotlarda, asosan, yoshlarni bosiqma–bosqich o‘zligidan ayirish, milliy an‘analarga va urf–odatlariga begona qilish, tarixiy xotirasini qirqish orqali millatlar ustidan hukmronlikka erishish tamoyili borgan sari kuchaymoqda.

Murakkab va shiddatli kechayotgan axborot asrida, fleshmobning yoshlar tarbiyasiga o‘tkazayotgan salbiy ta’sirlaridan himoyalash uchun quyidagi yo‘nalishlarga katta e’tibor karatish lozim:

- Milliy va diniy qadriyatlarimizni o‘zida aks ettiradigan internet saytlari, multimedia va roliklarini ko‘paytirish;

- Ijtimoiy reklamalarni ko‘paytirish va uning ta’sirchanligini oshirish;

- Tarbiyaviy va ma’naviy–ma’rifiy ishlarni tashkil etishda yoshlarning istak va xohishlarini inobatga olish, unda xar qanday majburlashlardan voz kechish, yoshlarning qiziqishini tartibga solish va to‘g‘ri yo‘naltirish;

- Asrlar osha qon–qonimizga singib ketgan diniy qadriyatlar – ota– onani ulug‘lash, oilani muqaddas saqlash, farzand burchi, mehr–oqibat, iffat, or–nomus, hayo kabi fazilatlarga sodiq qolish;

- Yoshlarning jamiyat va millat oldidagi insoniy burchlarini to‘laqonli anglashlari, xalq baxt–saodati hamda yurt farovonligi yo‘lida mehnat qilishlariga erishish uchun barcha shart–sharoitlarni tashkil etish;

Shuningdek, ta’lim–tarbiya jarayonida yoshlarda sog‘lom e’tiqodni shakllantirish masalasiga alohida e’tibor qaratilishi, globallashuv sharoitida tarbiya jarayonini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya bilish lozim.

Xulosa. Jamiyatga tahdid soluvchi illatlarga qarshi kurashda boy ma’naviyat va muqaddas islom dinining ezgu ta’limotlari yoshlar uchun juda ulkan xaloskor kuch vazifasini bajarishini unutmaslik kerak.

Ibn Moja (rahimaxullox) rivoyat qilgan xadisda: “Rasululloh(sollallohu alayhi va sallam) “Mening ummatim zalolatda jam bo‘lmaydi. Agar ixtilofga duch kelmasangiz, ko‘pchilikka ershaning”, – deb marxamat qilingan.

Oqibatini bilmay turib yoki bilsa ham qandaydir maqsadlar ilinjida yoshlarni fleshmob singari tartibsizliklarga chiqarishga chaqirayotgan kimsalar Qiyomat kuni Allox toalo huzurida qattiq azobga yo‘liqadi. Chunki ular hali oq bilan qorani ajrata olmaydigan yoshlarni yo‘ldan urib, jamiyat va kishilar tinchligiga rahna solmoqla. Bunday holatlarning oldini olishga doimo hushyor bo‘lish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov.I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma’naviyat. 2008.
2. Alimov.U. Oilada farzand tarbiyasi. - T., 2014.
3. Tulepov.A. Internetga in qurgan o‘rgimchak. - T., 2014.
4. Ibroximov.A. Vatan tuyg‘usi. - T., 1996.
5. Uvatov.U. Xalqaro terrorizm: tarix va zamonaviy muammolari. - T., 2002.

TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION METODLARNI BAHOLASH VA MONITORING QILISH TIZIMI

Abrorjon Xomidjonov,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik metodlarning samaradorligini baholash va monitoring qilish tizimlarini ilmiy jihatdan tahlil qiladi. Tadqiqotda innovatsion yondashuvlar, metodologik vositalar va baholash tizimlari o'rganilib, ularning ta'lim sifatini oshirishdagi roli ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsion metodlar, ta'lim jarayoni, baholash tizimi, monitoring, pedagogik texnologiyalar, samaradorlik, ta'lim sifatini oshirish.

Аннотация. В данной статье проводится научный анализ систем оценки и мониторинга эффективности инновационных педагогических методов в современном образовательном процессе. Исследуются инновационные подходы, методологические инструменты и системы оценки, раскрывается их роль в повышении качества обучения.

Ключевые слова: инновационные методы, образовательный процесс, система оценки, мониторинг, педагогические технологии, эффективность, повышение качества обучения.

Annotation. This article provides a scientific analysis of systems for assessing and monitoring the effectiveness of innovative pedagogical methods in modern educational processes. The study examines innovative approaches, methodological tools, and assessment systems, highlighting their role in improving education quality.

Keywords: innovative methods, educational process, assessment system, monitoring, pedagogical technologies, effectiveness, improving education quality.

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va uning sifatini ta'minlash masalalari pedagogika fanida ustuvor yo'nalish sifatida ko'plab ilmiy tadqiqotlarning markazida turadi. Ta'lim jarayoni murakkab, dinamik va ko'p o'lchovli tizim bo'lib, u doimiy ravishda ijtimoiy, texnologik va pedagogik o'zgarishlarga moslashishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik amaliyotda innovatsion metodlarni joriy etish va ularning samaradorligini baholash, shuningdek, monitoring qilish tizimlarini ishlab chiqish nafaqat ta'lim jarayonining sifatini oshirishga, balki pedagogik jarayonlarni tizimli va nazorat qilinadigan mexanizmga aylantirishga ham xizmat qiladi. Innovatsion metodlarni baholash konsepsiyasi ko'plab olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Masalan, K.Fullan innovatsion yondashuvlarni faqat texnologik yangilik sifatida emas, balki pedagogik strategiya va o'quv jarayonini samarali tashkil etish vositasi sifatida qarashni taklif qiladi [1]. Unga ko'ra, innovatsion metodlarning samaradorligi faqat natijaviy indikatorlar bilan emas, balki o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, ijodkorlik va muammolarni hal qilish qobiliyati bilan ham o'lchanadi. Shu bilan birga, baholash va monitoring tizimi o'quv jarayonining barqarorligini ta'minlovchi muhim vosita sifatida e'tirof etilgan.

Pedagogik amaliyotda innovatsion metodlarni baholash va monitoring qilish jarayonida bir nechta asosiy tamoyillarni hisobga olish zarur. Birinchidan, baholash tizimi o'quv jarayonidagi har bir innovatsion yondashuvning ta'sir doirasini aniq ko'rsatishi lozim. Bu tamoyil o'quv jarayonini individuallashtirish va moslashtirish imkonini beradi, shuningdek, pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi. Ikkinchidan, monitoring tizimi doimiy va tizimli bo'lishi kerak, ya'ni u faqat yakuniy natijalarni emas, balki o'quv jarayonining har bir bosqichidagi jarayonlarni ham kuzatib boradi. Uchinchidan, innovatsion metodlarni baholash va monitoring

qilish jarayoni ilmiy asoslangan indikatorlar va statistik vositalarga tayangan holda amalga oshirilishi muhimdir, chunki bu pedagogik qarorlarning ob'ektivligini ta'minlaydi [2].

Bugungi kunda pedagogik amaliyotda innovatsion metodlarning joriy etilishi nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, balki ularning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi, ijodiy fikrlash qobiliyati, muammolarni hal etish va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish bilan ham bog'liqdir. Shu bois, baholash va monitoring tizimi innovatsion metodlarning samaradorligini aniqlash va pedagogik jarayonni doimiy takomillashtirish uchun zaruriy mexanizm sifatida qaraladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni baholash va monitoring qilishda ko'plab yondashuvlar mavjud. Masalan, formativ baholash yondashuvi o'quv jarayonining davomiy monitoringini ta'minlab, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini real vaqt rejimida baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, summativ baholash o'quv jarayoni yakunida natijalarni tahlil qilishga yordam beradi va pedagogik strategiyalarni qayta ko'rib chiqish uchun asos yaratadi. Pedagogik nazariyada ushbu yondashuvlar bir-birini to'ldiruvchi vosita sifatida qaraladi va innovatsion metodlarning samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi [3].

Shuningdek, ta'lim jarayonida innovatsion metodlarni baholash va monitoring qilish tizimi sifatini oshirishga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) yordam beradi. Masalan, elektron o'quv platformalari va onlayn test tizimlari pedagogik jarayonning har bir bosqichidagi o'quvchilarning faolligini va bilim darajasini tizimli ravishda kuzatib borishga imkon yaratadi. Shu nuqtai nazardan, innovatsion metodlarning samaradorligini baholash va monitoring qilish nafaqat metodik, balki texnologik jihatdan ham mustahkam ilmiy asosga ega bo'lishi zarur. Zamonaviy dunyoda ta'lim jarayoni tezkor texnologik, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarga duch kelmoqda. Global raqobat sharoitida yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, o'rganishga bo'lgan qiziqish va motivatsiyani uyg'otish ta'limning eng muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, pedagogik jarayonda innovatsion metodlarni joriy etish va ularning samaradorligini tizimli ravishda baholash va monitoring qilish tizimi dolzarb masala sifatida ko'riladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy ta'lim yondashuvlari o'quvchilarning individual ehtiyojlarini yetarli darajada qondira olmaydi, ularning ijodiy va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishda cheklangan imkoniyatlarga ega. Shu bois, innovatsion metodlar (interfaol o'qitish, loyiha-asosida o'qitish, blended/flipped learning, gamifikatsiya, raqamli platformalar integratsiyasi) ta'lim jarayonini dinamik va o'quvchilarga moslashtirilgan tizimga aylantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, innovatsion metodlarning samaradorligini baholash va monitoring qilish tizimi ta'lim sifatini oshirish, pedagogik jarayonlarni optimallashtirish va o'quvchilarning individual rivojlanishini tizimli nazorat qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili. Pedagogik tadqiqotlarda innovatsion o'qitish metodlari va ularni baholash usullari bo'yicha so'nggi yillarda sezilarli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Masalan, Innovativ ta'lim metodlarini tizimli ko'rib chiqqan "Innovative Teaching Methods A Systematic Literature Review" maqolasida mualliflar 30 dan ortiq tadqiqotni tahlil qilish orqali innovativ usullar (masalan, interfaol o'qitish, loyiha-asosida o'qitish, gamifikatsiya, multimediya va raqamli vositalar integratsiyasi) va an'analik pedagogik yondashuvlar o'rtasidagi samaradorlik farqlarini ko'rsatadi. Ularning xulosasiga ko'ra, innovativ metodlar nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini yaxshilashga xizmat qiladi, balki ularning faolligi, motivatsiyasi va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Biroq, mualliflar ta'kidlaydiki, innovativ metodlarning samarasini baholashda "faqat yakuniy natijalar"ga asoslangan baholash (summativ baholash) yetarli emas — ularning samaradorligini to'laqonli aniqlash uchun doimiy monitoring, formativ baholash, o'quvchilarning kommunikativ va ijodiy ko'nikmalari, shuningdek, individual rivojlanish dinamikasini inobatga olish lozim.

Shuningdek, "Integrating Innovative Teaching Strategies: Assessing the Effectiveness of Flipped Classrooms, Blended Learning, and Task-Oriented Methods in Enhancing Academic Performance in Vocational IT Education" maqolasi misolida, ikki xil innovativ strategiyaning

(flipped classroom, blended learning va task-oriented teaching) ta'lim jarayonidagi akademik natijalar va o'quv faoliyatiga ta'siri empirik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ushbu usullar an'anaviy dars uslubiga nisbatan o'quvchilarning o'zlashtirish samaradorligini oshiradi, ularning darsga motivatsiyasini kuchaytiradi va o'quv jarayonida faol ishtirokini rag'batlantiradi.

Metodologik qism. Ushbu tadqiqotda ta'lim jarayonida innovatsion metodlarni baholash va monitoring qilish tizimini o'rganishda bir qator ilmiy va amaliy metodlardan foydalangan. Avvalo, literatura tahlili metodi orqali xorijiy va mahalliy olimlarning innovatsion pedagogik yondashuvlar, baholash va monitoring tizimlari bo'yicha tadqiqotlari tizimli tarzda o'rganildi, ularning asosiy kontseptsiyalari va ilmiy xulosalari sintez qilindi. Shu bilan birga, empirik tadqiqot metodlari so'rovnomalar va intervyu orqali pedagog va o'quvchilar tajribasi o'rganilib, innovatsion metodlarning amaliy samaradorligi va pedagogik jarayondagi integratsiyasi aniqlashga xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida shuningdek, formativ va summativ baholash metodlari qo'llanildi, bu orqali o'quv jarayonining turli bosqichlaridagi natijalar va o'quvchilarning rivojlanish darajasi tizimli tarzda kuzatildi. Innovatsion metodlarni monitoring qilishda esa analitik va statistik metodlar indikatorlar asosida natijalarni tahlil qilish, grafik va diagrammalar orqali vizualizatsiya qilish, shuningdek, raqamli platformalarda o'quv faoliyatini doimiy kuzatish ishlatildi. Shu tarzda metodologik yondashuv bir-birini to'ldirib, innovatsion pedagogik metodlarning samaradorligini baholash va monitoring qilishning kompleks, ilmiy asoslangan tizimini yaratishga imkon berdi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim jarayonida innovatsion metodlarni tizimli ravishda baholash va monitoring qilish tizimi pedagogik samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Empirik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, o'quv jarayonida interfaol metodlar, loyiha-asosida o'qitish, blended va flipped learning yondashuvlari qo'llanilganda o'quvchilarning faolligi, motivatsiyasi va mustaqil o'rganish ko'nikmalari an'anaviy metodlarga nisbatan yuqori darajada namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, monitoring tizimi yordamida har bir o'quvchining individual rivojlanish dinamikasi, bilim va ko'nikmalarini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati yaratiladi, bu esa pedagogik qarorlarni yanada ilmiy asoslangan va tezkor qabul qilishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion metodlarning samaradorligi faqat yakuniy natijalar bilan emas, balki o'quvchilarning ijodiy va kommunikativ ko'nikmalari, mustaqil o'rganish faoliyati va darsdagi faol ishtiroki bilan ham belgilanadi. Shu tariqa, baholash va monitoring tizimlari pedagogik jarayonni yanada barqaror, tizimli va o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashuvchan holatga keltirish imkonini beradi. Natijalar shuningdek, raqamli platformalar va learning analytics vositalari yordamida doimiy monitoring va baholash jarayonlarini amalga oshirishning samaradorligini ham tasdiqlaydi, bu esa innovatsion metodlarning amaliy qo'llanilishini yanada optimallashtirishga xizmat qiladi.

Muxokama. Innovatsion pedagogik metodlarning samaradorligini baholash va monitoring qilish masalasi so'nggi yillarda pedagogika sohasida keskin bahs-munozaralarni keltirib chiqardi. Masalan, Fullan va Horn innovatsion metodlarning ta'lim jarayonida qo'llanilishi bo'yicha turlicha pozitsiyani ilgari suradi. Fullan innovatsion metodlarni ta'lim sifatini oshirishning markaziy vositasi sifatida qaraydi va ularning samaradorligini baholashda pedagogik jarayonning har bir bosqichidagi faol monitoringni asosiy mezon deb biladi. Unga ko'ra, o'quvchilarning faolligi, motivatsiyasi va mustaqil o'rganish ko'nikmalari an'anaviy natijaviy indikatorlardan ham muhimroq, chunki bu metodlar o'quv jarayonining dinamik va individual xususiyatlarini hisobga oladi. Boshqa tomondan, Horn innovatsion metodlarning samaradorligini baholashda faqat ilg'or texnologik yondashuvlarga suyanish yetarli emasligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, metodlarning pedagogik kontekstga mosligi, o'quvchilarning ijtimoiy-madaniy sharoitlari va an'anaviy metodlar bilan integratsiyasi samaradorlikni aniqlashda muhim omil hisoblanadi. Hornning fikricha, innovatsion metodlarni monitoring qilish tizimi faqat raqamli platformalar yoki test natijalariga asoslanib ishlamasligi, balki pedagogik kuzatuv, formativ baholash va o'quvchilar bilan interaktiv muloqot orqali to'liq empirik tasdiqlarga

tayangan holda amalga oshirilishi kerak. Ushbu ikki yondashuvning polemikasi innovatsion pedagogik metodlarni baholash va monitoring qilish tizimining murakkab va ko'p o'lchovli xususiyatini ochib beradi. Fullanning yondashuvi texnologiya va doimiy monitoringga asoslangan tizimli model, o'quv jarayonini barqarorlashtirish va pedagogik qarorlarni tezkor qabul qilish imkonini beradi.

Horning pozitsiyasi esa metodlarni kontekstual moslashuv va an'anaviy pedagogik tajribalarni hisobga olgan holda baholashning ahamiyatini ta'kidlaydi[10]. Shu nuqtai nazardan, maqola natijalari ko'rsatadiki, samarali baholash va monitoring tizimi ushbu ikki yondashuvni uyg'unlashtirib, zamonaviy texnologiyalar va pedagogik tajribani integratsiya qilgan holda amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, ikki olimning bahsi shuni ko'rsatadiki, innovatsion metodlarni monitoring qilish tizimi faqat natijaviy ko'rsatkichlarga emas, balki o'quvchilarning individual rivojlanishiga, darsdagi faolligiga va ijodiy ko'nikmalariga asoslanishi kerak. Shu bilan birga, doimiy empirik kuzatuv va formativ baholash innovatsion pedagogik strategiyalarni optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Bu polemika, shubhasiz, ta'lim jarayonida innovatsion metodlarni baholash va monitoring qilish tizimini yanada mukammal va ilmiy asoslangan qilish imkonini beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida innovatsion metodlarni baholash va monitoring qilish tizimi pedagogik jarayonning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va ta'lim sifatini tizimli boshqarish imkonini beradi. Adabiyotlar tahlili va empirik tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, interfaol metodlar, loyiha-asosida o'qitish, blended va flipped learning kabi innovatsion yondashuvlar nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularning motivatsiyasi, ijodiy va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shu bilan birga, monitoring tizimi har bir o'quvchining individual rivojlanish dinamikasini doimiy kuzatish va pedagogik qarorlarni ilmiy asoslangan tarzda qabul qilish imkonini beradi. Muxokama bo'limida ko'rsatilgan xorijiy olimlar pozitsiyalari Fullanning tizimli, texnologiyaga asoslangan yondashuvi va Horning kontekstual moslashuvni ta'kidlagan yondashuvi tadqiqotning metodologik asosini mustahkamlab, samarali baholash va monitoring tizimi ikki yondashuvni uyg'unlashtirgan holda tashkil etilishi lozimligini ko'rsatadi. Shu tarzda, innovatsion metodlarning pedagogik samaradorligini baholash va monitoring qilish nafaqat o'quv jarayonini optimallashtiradi, balki ta'lim sifatini oshirishda ilmiy, tizimli va uzluksiz mexanizmni ta'minlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga oluvchi, doimiy empirik kuzatuv va formativ baholashga asoslangan monitoring tizimini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Raqamli platformalar, learning analytics va pedagogik diagnostika vositalari yordamida ushbu tizim innovatsion pedagogik metodlarning samaradorligini yanada oshirish va amaliyotga joriy etish imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida innovatsion metodlarni baholash va monitoring qilish tizimi nafaqat pedagogik jarayonni barqaror va tizimli qilish, balki o'quvchilarning bilim, ko'nikma va motivatsiyasini kompleks rivojlantirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqot natijalari ta'lim muassasalarida ushbu tizimni joriy etish va takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirhayitova.S.I. Pedagogik texnologiya //Muqimiy nomidagi Qoqon Davlat Pedagogika Instituti, pedagogik texnologiya bo'yicha o'quv qo'llanma. Toshkent-2020. – 2020.
2. Axmedjanov.M.M., Tojiyev M., Tosheva G. D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat //Toshkent-2018.
3. Otajonovna.K..M. Pedagogik texnologiyalar va o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish //ИКРО журнал. – 2025. – Т. 14. – №. 02. – С. 334-342.

МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРИМИЗДАН БИРИНИНГ ГЕНЕЗИСИ ВА ТАКОМИЛИ ҲАҚИДА

Гулноза Холбоева,
Ўзбекистон файласуфлари миллий
жамияти мустақил тадқиқотчиси

Аннотация. Мазкур мақолада халқимизнинг энг қадимги осори-атиқаларидан бири бўлган «Алпомиш» достонининг пайдо бўлиш даври ва унинг вужудга келиши санаси ҳақидаги фикр-мулоҳазалар баён қилинган.

Калит сўзлар: халқ достонлари, «Алпомиш» достони, «Алпомиш» достонининг пайдо бўлиш даври.

Аннотация. В данной статье излагаются мнения и рассуждения о времени возникновения одного из древнейших памятников духовного наследия нашего народа — эпоса «Алпомиш», а также о дате его формирования.

Ключевые слова: народные эпосы, эпос «Алпомиш», период возникновения эпоса «Алпомиш».

Annotation. This article presents reflections on the period of emergence and the date of origin of the epic “Alpomish,” one of the most ancient cultural heritage works of our people.

Keywords: folk epics, the epic “Alpomish,” the period of emergence of the epic “Alpomish.”

Мустақиллик туфайли миллий қадриятларимизни қадрлаш ва асраб-авайлаш, улар ҳақидаги тарихий ҳақиқатларни аниқлаш имконига эга бўлди. Кейинги йилларда Президентимиз раҳбарлигида амалга оширилаётган ислохотлар бу борадаги ишларни ҳам янги босқичга кўтарди.

Маълумки, 2000 йилда юртимизда халқимизнинг энг қадимги осори-атиқаларидан бири - “Алпомиш” достонининг 1000 йиллиги кенг нишонланган эди. Умр югурик, вақт эса ниҳоятда тез ўтиб бормоқда. Ушбу санани нишонлашга киришилганидан буён 25 йил вақт ўтди.

Лекин достоннинг бундан қадимийроқ экани, “Алпомиш” пайдо бўлганининг 2000, ҳатто 2500 йиллиги ҳақидаги фикрлар ҳалигача тинмаган. Хўш, бундай фикрлар нимага ва қандай манбаларга асосланади? Агар бу нуқтаи назар бўлса, унда достоннинг фақатгина 1000 йиллик тарихи борлиги ҳақидаги фикрлар қаердан пайдо бўлган? Ва нима сабабдан айнан ана шу фикрлар қўллаб-қувватланди? Бугунги кунга келиб, бу борадаги тадқиқотларда яна нималарга эътибор бериш лозим? Агар “Алпомиш” достони яратилганининг 1000 йилдан, ҳатто 2000 йилдан ҳам қадимийлиги исботланса, кашф этилган сана қайта нишонланадими? Бу масалаларда мамлакатимиздаги таниқли файласуфларидан бири Қ.Назаровнинг фикрлари диққатга сазовор ва биз ушбу мақолани тайёрлашда унга таяндик. Олимнинг таъкидлашича, бу борадаги саволлар ниҳоятда кенг қамровли масалаларни қамраб олади ҳамда уларнинг умумий мажмуи илгари ҳам, бугунги кунда ҳам махсус тадқиқотларни талаб қилади, албатта.

Биринчидан, Алпомишнинг қадимги сюжети тарихий жиҳатдан Гомер замонидан бир муддат олдинроқ пайдо бўлгани ва бу жиҳатдан у шумерлар ва ҳиндларнинг баъзи достонлари билан замондошлиги ҳақидаги фикрларни илмий-тарихий жиҳатдан чуқур ўрганиш зарур. Зеро, Гомернинг “Илиада” ва “Одессия” достонларининг сюжети “Алпомиш” достонининг қадимги сюжети билан қарийб бир хил экани ҳам тасодиф бўлмаса керак.

Худди шундай, “Алпомиш”нинг энг қадимги сюжети “Авесто” китобининг Македониялик Искандар йўқ қилиб юборган қисмига уйқаш бўлгани ва унинг қадимги вариантлари айнан ана шу қисмлар билан бирга йўқ қилингани ҳақидаги ривоятлар бежиз шаклланмаган.

Афсуски, аввалига Македониялик Искандар, сўнгра эса араб ва муғул истилоси, кейинги босқинлар Авесто давридан бизга етарли маълумотлар қолдирмаган ва аслида истилоларнинг мақсадларидан бири ҳам шу бўлган.

Иккинчидан, ўрта асрлардаги араб истилосидан кейин ватандошларимизга ундан илгари бирор бир миллий қадрият бўлмагани ҳақидаги туйғулар шунчалик давомли ва тизимли сингдирилганки, ҳалигача орамизда кўплаб осори-атиқалар, масалан “Алпомиш” яратилган маконда бугунги кунда яшаётганларнинг орасида ҳам дostonнинг сюжети тарихи милoddан олдинги асрлардан илдиз олганини тан олмайдиганлар нафақат илmdан йироқ кишилар, балки мутахасислар орасида ҳам кўпчиликни ташкил қилади.

Шуни афсус билан қайд этиш керакки, Ватанимиз тарихининг исломгача даври ниҳоятда кам ўрганилган. Турли босқинлар, мустамлакачи ва мутаассиб тузумлар бунга йўл бермаган. Улар натижасида бу даврга оид манбалар, халқимизнинг жаҳон маданияти, инсоният тараққиётига катта таъсир кўрсатган бой маданий мероси аёвсиз йўқ қилинаверган. Халқимизнинг бадиий тафаккури ва фалсафий дунёқараши ҳам шу йўналишда ўзгартириб борилаверган.

Учинчидан, кейинги йилларда юртимизда атоқли олим Като Кюдзо (1922 — 2016) томонидан олиб борган тадқиқотлар ҳам бундан бир неча минг йиллар илгари Амударё бошланган худуддан қўнғирот элининг катта бир бўлаги унинг қуйи қисмига кўчганлиги, аммо иккига бўлинган халқ орасида ўзаро алоқалар бутунлай йўқолиб кетмаганлигини тасдиқлайди.

Бу эса “Алпомиш” дostonининг бошланишида Боботоғ ва Бойсун худудида рўй берган сиёсий воқеалар ҳамда кўчиб кетганлар бориб ўрнашган жойдаги ҳаёт, асар сюжетининг кейинги тадрижи, халқнинг бўлиниши ва бир қисмининг олисга кўчиб кетиши, кейинроқ эса “Ора узилиб кетмасин” деган удумга амал қилиниши тарзида кечган воқеалар занжири, яъни асарнинг сюжети ўзбек тарихининг билимдони Като томонидан асослаб берилган тарихий воқеликка тўла-тўқис мос келиши асло тасодиф эмас.

Бу ўз навбатида, жаҳон халқлари тарихида ниҳоятда кўп учрайдиган ва асл тарихий воқеликнинг халқ онгига кўчиши, унинг оғзаки ижоди ва адабиётининг, бинобарин тарихий хотирасининг таркибий қисмига айланиши қонуниятининг “Алпомиш” дostonи тимсолидага яна бир мисолидир.

Тўртинчидан, ҳозирги эпосшунослик назариясига кўра, аксарият қаҳрамонлик дostonлари, хусусан “Алпомиш” халқ поэтик тафаккурининг бадиий эволюциясини ўзида мужассамлаштирган асар бўлиб, унда давлатчиликнинг шаклланиши билан боғлиқ узок тарихий воқелик ва ижтимоий-маданий муносабатлар эпик талқин қилинади.

Бундан “Алпомиш” дostonининг дастлабки сюжети юртимизда давлат бошқаруви шаклланаётган пайтда, яъни уч-тўрт минг йил илгари пайдо бўлганлиги аён бўлади. Буни исботлаш учун эса, махсус тадқиқотлар олиб бориш, ва бунда “Алпомиш”нинг ўзига хос хусусиятларини ўрганиш билан бир қаторда, унинг тарихий-генетик асослари ва типологияси масалаларини биз мансуб бўлган этносимизнинг генезиси ва тарихий тараққиёт динамикаси билан боғлаб тадқиқ этишга алоҳида эътибор бериш зарур.

Бешинчидан, «Алпомиш» дostonининг мотивлар таркиби, бадиий тили ва поэтик табиатини тадқиқ этиш дoston сюжетининг тадрижий ривожини «Олтой версияси» («Алып-Манаш») → «Ўғуз версияси» («Бомси-Байрак») → «қипчоқ версияси» («Алпамыша ва Барсын ҳылуу», «Алпамша») → «қўнғирот версияси» (ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси «Алпомиш») тарзида кечганлигини исботлашга имкон беради.

Бу жиҳатдан “Алпомиш”нинг қиёсий-типологик табиати, шаклланиш тарихи ва манбаларини ўрганиш асосида унга асос бўлган ғоялар генезисини қадимги халқларнинг “Авесто”, “Илиада” ва “Одессей”, “Веда” ва “Упанишад”, “Ўзгаришлар китоби” кабилар дунёга келган даврлардан бошланганини тахмин қилиш мумкин.

Халқимизнинг у даврларга оид номоддий маданий мерос намуналарининг кўпчилиги аввал Македониялик Александр, кейинроқ бошқа босқинлар жараёнида йўқотилганини ва уларнинг айримларигина X-XI асрларга келиб, қисман тиклангани ёки уларнинг сюжетлари асосида муайян вариантлари қайта яратилганини эътиборга олсак, бу тахминларни ўрганиш вақти етганини англаймиз.

Олтинчидан, “Алпомиш” сюжетида кўра, кўнғиротларнинг Амунинг бошланишидан унинг қўйи ҳудудларига кўчиши ва тарихда қарийб уч минг йиллар илгари айнан шундай ҳол рўй бергани, ҳалигача иккала ҳудудда ҳам “кўнғирот” уруғи ва атамалари сақланиб қолгани, дostonда асосан юртимизда матриархат ва илк давлатчилик шаклланган даврлар (айнан 3000 – 2500 йил илгари) учун хос белгиларнинг кўп учраши ҳам асарнинг қадимийлигидан, хусусан унинг ислом мамлакатимизга кириб келганидан анча олдин яратилганидан дарак беради.

Маълумки, ислом кириб келганидан кейин яратилган барча асарларда унинг таъсири кучли бўлганини, ҳеч бўлмаганда асарларнинг бошланишида бу ҳолат эътироф этилганини кўрамиз. Дастлаб Араб халифалиги ва кейинроқ у турли далаатларга бўлиниб кетганидан кейин ҳам, бир неча асрлар давомида шундай анъанага амал қилинган маълум. Бугунги ислом давлатларида ушбу анъана ҳозиргача сақланиб қолган.

“Алпомиш” да эса нафақат ислом, балки ундан илгари юртимизда тарқалган буддавийликка оид хусусиятлар, атамалар ва тушунчалар учрамаслиги дostonнинг илк сюжети учун асос бўлган ғоя ва тушунчалар шаклланган даврлар генезисини янада чуқурроқ тарихий тадқиқ қилиш истиқболлари борлигини англатади.

Еттинчидан, “Алпомиш” дostonи тадқиқотчилар назаридан четда қолмаган, албатта. Хусусан 1922 йилда булунғурлик Фозил Йўлдош ўғли ва Ҳамрокул бахшилар ижросидаги «Алпомиш» дostonининг айрим парчаларини ёзиб олган Ғ.О.Юнусовнинг фикрича, бу дoston дунё халқлари эпик тафаккурининг мумтоз намуналари, жумладан, «Одиссея», «Илиада» сингари йирик адабий қадриятлар қаторида турадиган асардир. 1928 йилда шахристонлик Мавлон Пирмат ўғлидан «Алпомиш» дostonининг мазмунини ёзиб олган А.К.Боровков дostonнинг мотивлар таркиби, бадиий тили ва поэтик табиатини тадқиқ этган. В.М.Жирмунский «Алпомиш» дostonи сюжетининг тадрижий ривожини «Олтой версияси» («Алып-Манаш») → «Ўғуз версияси» («Бомси-Байрак») → «қипчоқ версияси» («Алпамыша ва Барсын хылуу», «Алпамша») → «кўнғирот версияси» (ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси «Алпомиш») тарзида кечганлигини исботлаган. Унинг Ҳ.Зарифов билан ҳамкорликда ёзган «Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси» монографиясида «Алпомиш» дostonи кўнғирот версиясининг асосий хусусиятлари, дoston сюжетининг шаклланиш тарихи, унинг ўзбек бахшилари репертуарида тутган ўрни, етакчи мотивлар тизими ва образлар таркиби таҳлил этилган. Ҳ.Зарифов «Алпомиш» дostonининг асосий мотивлари» номли мақоласида дoston сюжетининг генетик илдизларига доир янги қарашлар илгари сурилган. Унинг фикрича, «Алпомиш» дostonи сюжетининг илк намунаси X–XI асрларда Сирдарёнинг қўйи оқимида истиқомат қилувчи кўнғиротлар орасида шаклланган бўлиб, ўзбек уруғларининг миграцияси натижасида бошқа ҳудудларга тарқалган. “Алпомиш” дostonини ўрганган Ғ.Юнусов, Ҳ.Зарифов, М.Афзалов, М.Муродов, Т.Мирзаев, Б.Саримсоқов ва бошқалар унинг турли тиллардаги ва ўзбекча версиялари, дoston сюжетининг генетик илдизлари, етакчи мотивлар таркибининг юзага келиш тарихи ва манбалари, ўзбек бахшилари репертуаридаги ўзига хос талқинлари билан боғлиқ масалаларни тадқиқ этганлар. Улар кўплаб муҳим асарлар яратганлар, натижадор тадқиқотларни амалга оширганлар ва бу борада уларнинг хизматлари катта бўлганини эътироф этиш ҳам қарз ва ҳам фарз албатта.

Афсуски,

1) ушбу тадқиқотчиларнинг бирортаси дoston сюжетининг ниҳоятда қадимий тарихий асослари борлиги, яъни кўнғиротларнинг бир қисми Амударёнинг бошланиш маконидан унинг қуйи қисмига бундан бир неча минг йиллар илгари кўчганлиги тарихий ҳақиқат эканлиги ва асарнинг сюжети оддийгина адабий тўқима эмас, балки аслида халқ тарихида рўй берган ана шу тарихий воқеалар тадрижининг ўзига хос адабий ифодаси, дoston эса уларнинг бадиий акси бўлганига эътибор қаратмаганлар;

2) шу билан бирга, “Алпомиш” яратилган давр деб ўйланган милоднинг 11 асрида араб халифалиги аста-секин парчаланиб, нисбатан мустақил давлатлар шакллана бошлагани ва ўша даврга келиб ислом тарқалганидан олдинги давр тарихига қизиқиш ортгани, унгача бўлган кўплаб осори-атоикалар, қадриятлар, миллий-анъана ва урф-одатлар, халқ оғзаки ижодининг мумтоз намуналари қайта тиклана бошлагани билан боғлиқ жараён ҳам уларнинг диққат марказида бўлмаган;

3) бу жиҳатдан, собиқ иттифокдаги барча халқлар оғзаки ижодининг тарихи 9 - асрда пайдо бўлган “Игорь жангномаси”дан қадимий бўлмаслиги тўғрисидаги партия топшириғига мос келадиган “социалистик реализм”га хос тамойил “Алпомиш” дostonининг бор йўғи 1000 йиллик тарихи борлиги ва унинг X аср охири ва XI аср бошида Сирдарёнинг қуйи қисмида пайдо бўлгани ҳақида ўтган аср ўрталарида пайдо бўлган баъзи мақолаларга ўз таъсирини кўрсатгани шубҳасиз;

4) юқорида қайд этилган тадқиқотларнинг барчасида собиқ иттифокдаги ушбу анъана чуқур ўзлаштирилган ва уларнинг муаллифлари тафаккури унинг таъсирида шакллангани яққол сезилиб туради. Бу ўз навбатида, “Алпомиш”нинг тарихий ёшига нисбатан муайян санани белгилашга ўз таъсирини ўтказгани шубҳасиз.

Биз учун эса, масаланинг айнан ана шу жиҳатлари, халқимиз тарихининг бу борадаги “оқ доғлари” барҳам топтирилиши зарурати билан боғлиқ ҳақиқатлар ниҳоятда муҳим аҳамиятга эга. Ушбу жиҳатларнинг чуқур илмий тадқиқи ва таҳлили “Алпомиш” дostonининг ҳақиқий ёшини аниқлашнинг асосий калити ҳамда илмий имконияти бўлса ажаб эмас.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. *Алпомиш. Ўзбек халқ қаҳрамонлик дostonи.* – Т.: «Тафаккур» нашриёти, 2014.
2. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. –Т.: “Ўзбекистон”, 2021.
3. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1 жилд. –Т.: “Маънавият” нашриёти, 2023

БЛОГОСФЕРА: ҚИСКАЧА ИЛМИЙ ТАҲЛИЛ

Наргиза Хушвақова,
Андижон давлат университети доценти
Социология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация. Мақолада блогосфера тушунчасига қисқача илмий таъриф берилиб, асосий параметрлари ҳамда ривожланиш босқичлари кўрсатиб берилган. Шунингдек, ахборот коммуникация технологиялари (ИТ) шаклланишга ҳисса қўшган олимларнинг ютуқлари баён қилинган. Блог юриштишининг айрим афзалликлари кўрсатиб берилган. Блогерлик ва оммавий ахборот воситалари ўртасидаги фарқ ва ўхшашликлар тўғрисида маълумотлар берилган.

Калит сўзлар. Ахборот технологиялари, блог, блогосфера, оммавий ахборот воситалари, услуб, турлари.

Аннотация. В статье дано краткое научное определение понятия блогосферы, указаны её основные параметры и этапы развития. Также описаны достижения учёных, внесших вклад в становление информационно-коммуникационных технологий (ИТ). Показаны некоторые преимущества блогинга. Представлена информация о различиях и сходствах блогинга и СМИ.

Ключевые слова: Информационные технологии, блог, блогосфера, медиа, стиль, типы.

Annotation. The article provides a brief scientific definition of the concept of the blogosphere, indicating its main parameters and stages of development. It also describes the achievements of scientists who contributed to the formation of information and communication technologies (IT). It shows some of the advantages of blogging. It provides information on the differences and similarities between blogging and the media.

Keywords. Information technologies, blog, blogosphere, media, style, types.

Блог (инглизча blog, “web log” – интернет ёзувлари) – интернетда доимий янгиланиб бориладиган воқеалар журнали яъни шахсий кундалик ёки ташкилотга тегишли бўлган ахборот манбаи бўлиб, маълум бир мавзуларни ёритадиган, муаллифнинг фикр ва қарашларини акс эттирадиган электрон журнал шаклидаги майдон ҳисобланади.

Блог реал интернет кундалик веб сайт бўлиб, унинг асосий мазмуни фойдаланувчилар томонидан ёзув ёки тасвир (мультимедия) шаклида қўшилиши мумкин. Блоглар 1990-йиллар охирида шакллана бошлаб, дастлаб шахсий кундалик ёки веб-журнал сифатида фаолият юритган. Кейинчалик интернет технологиялари, ижтимоий медиа, тармоқлашув ва смартфонлар ривож таъсирида блогерлик фаолияти профессионал соҳага айланди. Айниқса, XXI асрда интернет фойдаланувчиларининг медиамакондаги фаоллиги, шахсий фикр билдириш имконияти, оммавий ахборот воситаларига нисбатан альтернатива восита сифатида блогосферанинг мавқеини оширди.

Блоглар ташриф буюрувчиларнинг шарҳларини нашр этиш қобилияти билан тавсифланади; бу блогларни электрон почта, янгиликлар гуруҳлари ва чатларга нисбатан бир қатор афзалликларга эга бўлган онлайн мулоқот воситасига айлантиради. Блог юритадиган одамлар блогерлар деб аталади. Интернетдаги барча блоглар тўплами одатда блогосфера деб аталади. Биринчи блог Тим Бернерс-Лининг саҳифаси ҳисобланади. У 1992 йилдан бошлаб янгиликларни нашр этган. Блоглар 1996 йилда кенгрок тарқалди. 1999 йил август ойида Сан-Франсискода жойлашган Пйра Лабс компьютер компанияси blogger.com веб-сайтини очди ва бу биринчи бепул блог хизматига айланди. Ҳозирги кунда блогларнинг ўзига хослиги нафақат ёзувлар тузилишида, балки янги ёзувларни

қўшишнинг соддалигида ҳамдир. Фойдаланувчи шунчаки веб-сервер билан боғланади, фойдаланувчини идентификация қилиш жараёнидан ўтади ва кейин ўз тўпламига янги ёзув қўшади. Сервер маълумотни хабарлар кетма-кетлиги сифатида тақдим этади ва энг сўнгги хабарларни энг юқори қисмида жойлаштиради.

Блог юритишнинг баъзи афзалликлари:

Билим алмашиш имконияти. Баъзи блогерлар фан, тарих, тиллар, молия каби турли мавзуларда контент яратадилар. Улар тингловчиларнинг дунёқарашини кенгайтиришга, фойдали кўникмаларни шакллантиришга ёрдам беради.

Мотивация. Баъзи блогерлар бошқаларни илҳомлантириш учун ўз тажрибаларини баҳам кўришади, масалан, муваффақиятга қандай эришиш ҳақида гапириш.

Мунозара платформасини яратиш. Блог - бу сиз турли мавзуларни муҳокама қилишингиз ва ўз фикрингизни билдиришингиз мумкин бўлган жой.

Бизнесда ёрдам. Баъзи компаниялар ўз маҳсулотлари ва хизматларини реклама қилиш учун блогерлардан фойдаланадилар.

Турли соҳалар билан танишиш имконияти. Блогерлар грамматика, услуб, HTML, SEO, дизайн ва бошқалар каби турли жиҳатлар билан ишлаши мумкин. Шундай қилиб, блог юритиш турли соҳаларда, жумладан, таълим, спорт, тиббиёт, мотивация, бизнес ва алоқа учун фойдалидир.

Таъкидлаш жоизки, компьютер технологиялари ривожига асос солган рақамли инкилоб медиа-маҳсулотларнинг шакли ва мазмуни жиҳатидан медиа-муҳитнинг ўзгаришига сабаб бўлди. Бу жараён ўз навбатида замонавий журналистика ва оммавий коммуникациялар соҳасига сезиларли таъсир кўрсатди. Шундай қилиб, мулоқотнинг янги шакли – блогосфера пайдо бўлди.

Блогосфера – бирга боғланган ҳамжамият ёки ижтимоий тармоқ хизмати сифатида мавжуд бўлган барча блоглар йиғиндиси [1].

Блогосфера (инглизча *blogsfera*) – бу барча блоглар ва улар орқали вужудга келган ахборот майдонининг умумий атамасидир. Мазкур майдон маълум бир жамият, давлат, тил, миллат ёки соҳалар кесимида шаклланиши ва таҳлил этилиши мумкин.

Блогосфера фақат ахборот тарқатиш воситаси эмас, балки муаллифнинг шахсий қарашлари, ижтимоий танқид, жамоатчилик муаммоларини кўтариш, норасмий муҳокама макони сифатида ҳам фаолият кўрсатади. Шу жиҳатдан блогосфера жамиятдаги медиа плюрализмни таъминлашга ҳисса қўшаётган омиллардан бири ҳисобланади.

Демак, блогосфера ҳамжамият ёки ижтимоий тармоқ сифатидаги барча блоглар тўпламидир. “Блогосфера” атамаси “ноосфера”га ўхшаш тарзда яратилган. 2006 йил маълумотларига кўра дунёдаги мавжуд блоглар 35 миллиондан ортиқ бўлиб, улар бир-бири билан чамбарчас боғланган эди. Уларнинг муаллифлари ва ўқувчилари бир-бирининг постлари ва шарҳларига шарҳ берадилар, бир-бирига боғланадилар ва шу тариқат ўзларининг субкультураларини шакллантирадилар. Блогосфера концепцияси блоглар ва бошқа веб-саҳифалар ва Интернет форумлари ўзининг умумий фарқларидан бирини таъкидлайди: ўзаро боғланган блоглар динамик глобал ахборот экотизимини кузатиши мумкин.

Москвадаги “Мемо” ахборот агентлиги жамоатчилик билан алоқалар бўлими талабгори Э.А.Сулейманов блогосферани замонавий медиа ҳақиқати контекстида янги алоқа муҳити сифатида кўриб чиқади. Блоглар фойдаланувчиларни таъминлаш билан бирга, одамлар ўртасида мулоқот, ўзаро алоқа функцияси билан оммавий ахборот воситаларига яқинлашади, дейди. Уларга сўз, маълумот, хабар йўллашингиз мумкин. Ҳар қандай мавзуни муҳокама қилишингиз мумкин. Айниқса, ушбу восита бизнес маълумотларида кўплаб компанияларнинг диққатини қаратди ва фаол ҳамкорлик қилиш муҳитини яратди.

Муаллифнинг таъкидлашича, блогосфера тезкор фикр алмашиш имконияти билан оммавий ахборот воситаларига нисбатан афзалдир. Шунингдек, ахборот коммуникация тизимидаги ўрни аҳамиятли эканлигини ёзади [2].

Ахборот коммуникацияси тўғрисида Европа илм-фан цивилизацияси даврида социологлар томонидан илмий тадқиқотлар олиб борилган. Бу тадқиқотлар ахборот технологияларининг ривожланишига катта ҳисса бўлиб қўшилган. Ахборот технологиялари (инглизча: Information Technology (IT)) – бу компьютер тизимлари, дастурий таъминот, дастурлаш тиллари, маълумотлар, маълумотларни қайта ишлаш ва сақлашни ўз ичига олган тегишли соҳалар тўплами. Ахборот технологиялари (IT) ахборот-коммуникация технологиялари (АКТ)нинг бир қисмини ташкил қилади. IT тизими – одатда, ахборот тизими, алоқа тизими ёки аниқроғи, компьютер тизими, жумладан, барча аппарат, дастурий таъминот ва периферик жиҳозлар – чекланган IT фойдаланувчилари гуруҳи ва IT лойиҳаси томонидан бошқариладиган тизим ва одатда IT тизимини ишга тушириш ва жорий этишни назарда тутади.

Гарчи одамлар энг қадимги ёзув тизимлари яратилганидан бери маълумотларни сақлаш, олиш, манипуляция қилиш ва мулоқот қилиш билан шуғулланган бўлсалар-да, замонавий маънода ахборот технологияси атамаси биринчи марта 1958 йилда Garvard Business Review журналида чоп этилган мақолада пайдо бўлган; муаллифлар Гаролд Ж. Леавитт ва Томас Л. Уислер „янги технологиянинг ҳали битта аниқ номи йўқ. Биз уни ахборот технологиялари (IT) деб атаيمиз“, деб шарҳладилар. Уларнинг таърифи учта тоифадан иборат: ишлов бериш техникаси, қарор қабул қилишда статистик ва математик усулларни қўллаш ва компьютер дастурлари орқали юқори даражадаги фикрлашни симуляция қилиш.

IT атамаси одатда, компьютерлар ва компьютер тармоқларининг синоними сифатида ишлатилади, лекин у телевизор ва телефон каби бошқа ахборот тарқатиш технологияларини ҳам қамраб олади. Иқтисодиёт доирасидаги бир қанча маҳсулот ёки хизматлар ахборот технологиялари, жумладан, компьютер техникаси, дастурий таъминот, электроника, ярим ўтказгичлар, интернет, телекоммуникация ускуналари ва электрон тижорат билан боғлиқ.

Амалдаги сақлаш ва қайта ишлаш технологияларига асосланиб, IT ривожланишининг тўртта фазасини ажратиш мумкин: механикча (милоддан аввалги 3000-йилдан милоддан аввалги 1450-йилгача), механик (милодий 1450-йилдан милодий 1840-йилгача), электромеханик (милодий 1840-йилдан милодий 1940-йилгача) ва электрон (1940-йилдан ҳозирги кунгача). Ахборот технологиялари, шунингдек, информатиканинг бир тармоғи бўлиб, уни процедура, тузилма ва ҳар хил турдаги маълумотларни қайта ишлашни умумий ўрганиш сифатида аниқлаш мумкин.

Блогерлик ва оммавий ахборот воситалари ўртасидаги фарқ ва ўхшашлик. Блогерлик оммавий ахборот воситаларининг бир шакли сифатида қаралмаслиги керак, чунки:

1) Блогер шахсан ўзи материал тузади, таҳрир қилади ва жойлайди. Унинг ортида таҳририят ёки муҳаррирлар гуруҳи йўқ.

2) Блогерлар кўпинча шахсий фикрини билдиришда субъектив ёндашувни афзал кўради.

3) Блогларда фактчекинг, манба текшириш, журналистик ахлоқ кодекси доирасидаги ҳаракат ҳар доим ҳам кузатилмайди. Бироқ, блогерлик жамият учун медиа альтернатива сифатида аҳамият касб этади ва баъзи ҳолларда оммавий ахборот воситаларига таъсир кўрсатади. Хусусан, миллий блогерлар миллий масалалар юзасидан фаол позиция кўрсатиши жамоатчилик фикрига таъсир этади.

Оммавий ахборот воситаларининг кучи ҳамда қудрати жамият, мамлакат ва фуқаролар ҳаётида кечадиган барча жараёни рўйирост кўрсата билишида намоён бўлади. Бугун ана шу эркинлик узоқ қишлоқларда содир бўлаётган ўзгаришларнинг 10 - 15

дақиқада етиб келаётганлиги ёки маҳаллий ҳокимлар ва бутун бошқарув тизимларида йўл қўйилаётган камчиликлар, фуқароларимизни қийнаётган муаммолар оммавий ахборот воситалари томонидан очик кўтариб чиқиляётганлигига олиб келмоқда. Айниқса, ижтимоий тармоқлар, блогерлар фаолиятига нисбатан тўсиқлар бўлмаётганлиги фуқаролар билан давлат ҳокимиятининг ўзаро яқиндан мулоқот юритиши ҳамда мустаҳкам алоқада бўлишига имкон бермоқда.

Блогосфера аҳоли фикрини ўрганиш ва интернет маданиятини кузатиш учун муҳим муҳит сифатида намоён бўлди. Жамиятимиз ҳаётида блогерлар томонидан очиклаб бериляётган муаммолар: бизнес соҳасида, тиббиёт, таълим, маданиятни ривожлантиришда, кишлок хўжалиги, саноат, қурилиш, транспорт тармоқларидаги инновацион янгиликларни тарқатишда муҳим роль ўйнамоқда. Кўпинча жамият тараққиётининг замонавий тенденцияларини ўрганадиган академик илмий тадқиқот ишларида зарур восита вазифасини бажармоқда.

Юқоридаги фикрлардан қуйидаги хулосаларга келиш мумкин:

1. Блог интернетда доимий янгилашиб бориладиган воқеалар журнали сифатида шахсий кундалик ёки ташкилотга тегишли бўлган ахборотларни ёритиб, муаллифнинг фикр ва қарашларини акс эттирадиган электрон журнал кўринишида намоён бўлди.

2. Блог илк марта 1990-йиллар охирида шахсий кундалик сифатида фаолият юритган бўлса, ҳозирга келиб ҳар бир давлатда минглаб-миллионлаб фуқаролар ўзаро суҳбат, ёзув, видеошарҳ, ижодий интеллект кўринишида фойдаланкувчиларга зарур маълумотларни етказиб бермоқда. Блогерлик фаолияти интернет, компьютер, ахборот технологиялари, смартфонлар, ижтимоий медиа, тармоқлашув ва смартфонлар ривож таъсирида профессионал соҳага айланди.

3. Блогосфера фақат ахборот тарқатиш воситаси эмас, балки жамиятдаги медиа плюрализмни таъминлашга ҳисса қўшаётган омиллардан бири ҳисобланади.

4. Блогерлар кўпинча шахсий фикрини билдиришда субъектив ёндашади: шахсан ўзи материал тузади, таҳрир қилади ва жойлайди. Оммавий ахборот воситалари каби унинг ортида таҳририят ёки муҳаррирлар гуруҳи йўқ. Бундай афзаллик кундан-кунга блогерлар сонининг ортишига сабаб бўляпти.

5. Блогосфера аҳоли фикрини ўрганиб, жамиятда блогерлар томонидан очиклаб бериляётган янги маълумотлар, хабарлар, фойдали маслаҳат, инновациялар, йўл-йўриқ ва тавсиялар барча соҳаларни ривожлантиришда муҳим роль ўйнамоқда.

Демак, жамият тараққиётининг замонавий тенденцияларини ўрганишда блогосферанинг аҳамияти катта. Уни янада ривожлантириш учун академик илмий тадқиқот ишларини олиб бориш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Кочеткова А.В. Медиапланирование. Серия: «Академия рекламы» М.: РИП-холдинг, 2003.

2. Сулейманов Э.А. Блогосфера как новая среда коммуникации // “Коммуникология”. 2022. Т.№10. 3-выпуск. С. 22-32. ДОИ 10.21453/2311-3065-2022-10-3-22-32. <https://www.communicology.ru/jour>

KAMBAG‘ALLIK TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA UNGA QARSHI KURASHNING IJTIMOİY-FALSAFIY ASOSLARI

Azizjon Meliboev,
Qo‘qon davlat universiteti
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada kambag‘allik tushunchasining mazmun-mohiyati va unga qarshi kurashning ijtimoiy-falsafiy asoslari, jamiyat farovonligini ta‘minlashning ustuvor masalalari, qashshoqlikka imkon beruvchi omillarning falsafiy asoslari haqida fikr mulohazalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: kambag‘allik, qashshoqlik, farovonlik, Oliy Majlisga Murojatnoma, kambag‘allikni qisqartirish strategiyasi, BMT, intellektual, iste‘molning minimal darajasi, daromad chegarasi.

Аннотация. В статье раскрывается сущность понятия бедности и социально-философские основы борьбы с ней, приоритетные вопросы обеспечения благополучия общества, философские основы факторов, способствующих бедности.

Ключевые слова: бедность, нищета, процветание, Послание Олий Мажлису, стратегия сокращения бедности, ООН, интеллектуал, минимальный уровень потребления, порог дохода.

Annotation. The article presents the essence of the concept of poverty and the socio-philosophical foundations of the fight against it, priority issues of ensuring the well-being of society, philosophical foundations of the factors that allow poverty.

Keywords: poverty, destitution, prosperity, Address to the Oliy Majlis, poverty reduction strategy, UN, intellectual, minimum level of consumption, income threshold.

Kirish. Yangi O‘zbekiston XXI asrning ijtimoiy illatlaridan biri – kambag‘allikka barham berish, shu maqsadda yangi ish o‘rinlarini ko‘paytirish va aholini iqtisodiy tashabbuskorligini kuchaytirish uchun kambag‘allikni qisqartirish strategiyasini ishlab chiqish vazifalari belgilab olindi. Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan ochiq demokratik siyosat tufayli mazkur muammoning mavjudligi, uning yechimi bo‘yicha chuqur tahlillarni amalga oshirish, uni pasaytirish va kelajakda bartaraf etishga doir tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kambag‘allik masalasi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida alohida e‘tibor markaziga olinib, mazkur mavzu ijtimoiy siyosatning asosiy kun tartibiga aylandi. Unga ko‘ra, “biz O‘zbekistonning yangi tarixida ilk bor kambag‘allikni kamaytirish haqidagi qat‘iy qarorimizni butun dunyoga ochiq e‘lon qildik va uni qisqartirish bo‘yicha keng qamrovli ishlarni boshladik” [1]. Buning uchun esa, “aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to‘liq ruyobga chiqarish, yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir” [2]. Davlatimiz rahbari qashshoqlikni kamaytirish bo‘yicha asosiy yo‘nalish va ustuvor vazifalarni ko‘rsatar ekan, “aholini kasb-hunarga o‘rgatish va moliyaviy savodxonligini oshirish, fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, infratuzilmani yaxshilash, ta‘lim va tibbiy xizmat sifatini oshirish, nafaqalarni aniq yo‘naltirgan holda maqsadli taqsimlash zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, “bir haqiqatni aniq tushunib olishimiz kerak: kambag‘allikni qisqartirish uchun birinchi navbatda ishsizlikni kamaytirish kerak” [3]. Demak, jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi davlatning ijtimoiy siyosati va kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan aniq strategiyak islohotlariga ham bog‘liq bo‘lib, bu ijtimoiy himoya, qo‘llab quvatlashlar va inson kapitalidan oqilona foydalanish asosida amalga oshiriladi.

Kambag'allik nisbiy tushuncha hisoblanib, har bir jamiyatdagi turmush darajasining umumiy standartiga bog'liq bo'ladi. "Kambag'allik tushunchasi nafaqat hayot uchun zarur bo'lgan eng kam ehtiyojlarini qondira olmaslik va daromadlarning yetishmovchiligini, balki sifatsiz ovqatlanish, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalana olmaslik hamda munosib uy sharoitlariga ega bo'lmasslik kabi sharoitlarni ham o'z ichiga oladi" [4].

O'zbek tilining izohli lug'atida "kambag'al" so'zi "kam, yetishmaydigan, hayotiy tirikchilikka zarur narsalarning yetishmaslik holati, yo'qchilik yoki muhtojlikda yashamoq" ma'nolari qayd etilgan [5]. Umuman olganda o'zbek tili boy til ekanligini e'tirof etib, kambag'allik so'zi, bir qancha so'zlar bilan ham ifodalanishi mumkin. Masalan qashshoq, faqir, g'arib, nochor, muhtoj, bechora, kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj kabi so'zlar bilan ham ifodalanadi.

BMT ta'rifiga ko'ra, "qashshoqlik – insonning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan daromad va resurslar yetishmasligi, bundan tashqari, ochlik va to'yib ovqatlanmaslik, sog'liqni saqlash, ta'lim yoki boshqa asosiy xizmatlardan foydalanishda cheklovlarning mavjudligi, turar joyning yo'qligi, xavfli tabiiy va texnogen muhitda hamda ijtimoiy tengsizlik sharoitida yashashiga nisbatan aytiladi".

Natija va muhokama. Jahon banki ta'rifiga ko'ra, "kambag'allik – ko'p o'lchamga ega bo'lib, insonlarni aniq daromadlarga ega bo'lmassligidir. Bu kam daromadga ega insonlarni yashash uchun zarur bo'lgan asosiy tovar va xizmatlarni yetarli darajada sotib ololmasligi, shuningdek, sog'liqni saqlash va ta'limning yomonligi, toza suv va sanitariya sharoitining yomonlashib borishi, xavfsizlikni yetarli emasligini bildiradi". Bu ta'rifning muhim jihati shundaki, kambag'allikning sababi sifatida yetarlicha bo'lmagan daromadlarga e'tibor beriladi. Aholi daromadlarini kamligi yoki umuman yo'qligi tirikchilik vositalarini sotib ololmasligini keltirib chiqaradi. Yetarlicha ovqatlanmaslik esa kasallik ham kambag'allikka yo'l ochadi. Umuman olganda "kambag'allik" nisbiy, noaniq va ko'p ma'noli tushuncha bo'lib, ma'lum bir jamiyatdagi umumiy turmush darajasiga bog'liq bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, kambag'allik jamiyatda chinakam ishtirok etish uchun asosiy imkoniyatlarning yetishmasligini anglatadi. Bu oilani boqish va kiyintirish, maktabga borish yoki kasalxonada davolanish, o'z yerlarida oziq-ovqat yetishtirish yoki tirikchilik qilish imkonini beradigan ishga ega bo'lish imkoniyatlarining yo'qligi, shuningdek, yashash imkoniyatining yo'qligida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, kambag'allik tushunchasiga yagona ta'rif mavjud emas. Ba'zilar kambag'allik deganda insonning birlamchi ehtiyojlarini qondirishga imkoniyatning mavjud emasligini tushunsa, boshqalar – tanlov erkinligining yetarlicha emasligini, uchinchi tomon esa – insonning jamiyat ijtimoiyhayotidagi ishtirokiga putur yetkazuvchi ijtimoiy, ta'lim va sog'liqni-saqlash sohasidagi to'siqlarning doimiy doirasini tushunishadi. Umumiy qaraganda, kambag'allikni baholash bir nechta aniq belgilangan ko'nikma va usullarni talab qiladi.

Ayrim olimlarning fikricha, kambag'allikni tushuntirib bera oladigan eng to'g'ri yondashuv sotsiologik konsepsiya bo'lib, unda qashshoqlikka qarshi kurashish dasturlariga qaramasdan, kambag'allikning nima uchun mavjudligi, "otadan bolaga o'tishi"ga tushuntirish beriladi. Xususan, kambag'allikning antropologik aspektlari bilan shug'ullangan Oskar Luis qashshoqlikni submadaniyat deb ataydi. Ya'ni kambag'allik uni doimiy ravishda jonlantirishga intiladigan mexanizmlarni ishlab chiqadi, ayniqsa, bu odamlarning dunyoga bo'lgan qarashlari, oldilariga qo'ygan maqsadlari, bolalarni tarbiyalashning xarakterida ko'rinadi. Uning ta'kidlashicha, kambag'allar jamiyat a'zolari sifatida doimo o'zlariga qashshoqlik yukini olishadi, bu esa avtonom submadaniyatning shakllanishiga olib keladi. Buning sababi shundaki, "bolalar shu muhitda o'sadi va shunga mos ravishda ularning xulq-atvorini shakllantiradi. Natijada ularda qashshoqlik bilan bog'liq kompleks hissiyotlar paydo bo'lib, jamiyatning eng quyi pog'onasidan chiqib keta olmaslik tuyg'usi kelib chiqadi. Luisning yozishicha, qashshoqlik madaniyatiga mansub odamlarda doimiy cheklanish, ojizlik va qaramlik hissi paydo bo'ladi. Ular o'z mamlakatlaridagi musofirlarga o'xshab, mavjud institutlar ularning manfaatini

qondirmasligiga ishonadi". Davlat tuzilmalarida ularning manfaatlari ifoda etilmasligi hissi bilan bir qatorda, jamoat nuqtayi nazaridan o'zlarining quyi toifada ko'rilishi va shaxs sifatida foydasizligi to'g'risidagi tushunchalar keng tarqaladi.

Qashshoqlik turli sabablarga ko'ra vujudga keladi. Ushbu sabablarni quyidagicha guruhlariga bo'lish mumkin:

1. Iqtisodiy sabablar – ishsizlik, iqtisodiy notenglik, shu jumladan, ish haqi va mehnat unumdorligining pastligi, sanoatning raqobatbardosh emasligi.

2. Ijtimoiy-tibbiy sabablar – keksalik, nogironlik, kasallanishning yuqori darajasi.

3. Demografik sabablar – to'liqsiz oila, mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining yuqori soni, aholi sonining iqtisodiy resurslarga nomuvofiq ravishda oshib ketishi.

4. Ta'lim va kasbiy kvalifikatsion sabablar – ta'limning past darajasi, yetarli darajada professional kasbiy tayyorgarlikning mavjud emasligi.

5. Siyosiy sabablar – harbiy nizolar, majburiy migratsiya.

6. Mintaqaviy-geografik sabablar – xududlarning notekis rivojlanishi.

7. Diniy-falsafiy va psixologik sabablar – hayot tarzi sifatida asketizm, kambag'allikning targ'ib qilinishi.

Bugungi kunda butun dunyoda olimlar, siyosatchilar, davlat arboblari va jamoatchilik vakillari o'rtasida kambag'allikning kelib chiqish sabablari, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini, uni bartaraf etish yo'llari xususida ilmiy munozaralar, turli ko'rinishdagi davra suhbatlari va sababiy bog'liqlikda ilmiy-amaliy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda asosan kambag'allikni mezonlari ikkita yondashuv orqali tushuntirilmoqda. Birinchisi, olimlar tomonidan asoslangan nazariy jihatlar, ikkinchisi xalqaro moliya institutlari tomonidan daromadlarni tabaqalashtirish orqali aniqliklar kiritilgan.

Rus olimlaridan I.Sidorchuk quyidagi mezonlardan foydalangan holda kambag'allikni aniqlashni taklif etadi yashash joyining bo'lishi, to'laqonli ovqatlanish va ichimlik suviga egalik, minimal ta'lim olish imkoniyati va sog'liqni saqlash imkoniyati.

I.Sazanov kambag'allikni absolyut va nisbiy darajalarda bo'ladi, deb hisoblaydi [6]. Shuningdek u kambag'allik kategoriyasi dastlab XIX asrning oxirlari XX asrning boshlanishida ingliz sotsiologlari S.Rountri va Ch.Buta tomonidan fanga olib qirilganligiga e'tibor qaratadi. Ushbu olimlar yashash minimumi – kambag'allik - daromad chegarasini fanga olib kirishadi. Ekspertlar ushbu holatda oziq-ovqat, kiyimlar va yashash sharoiti bo'lishini mezonlar sifatida ta'kidlashadi. Ushbu mezonlarga javob bera olmaslik esa, absolyut kambag'allikni anglatishini qayd etib o'tadi.

G.Kosharnaya va L.Karimova o'zlarining ilmiy izlanishlarida ushbu kategoriyaga quyidagicha yondashuvni bayon qilishadi. Unga ko'ra, "aholining hayot farovonligiga erishishi va uni turli kategoriyalar orqali aniqlashni taklif etadi: 1) farovonlik – jismoniy va intellektual imkoniyatlardan to'liq foydalanish orqali insonni har tomonlama rivojlanishi; 2) kambag'allik – iste'mol miqdorini saqlab qolinishi va mehnatga layoqatli bo'lish; 3) qashshoqlik – iste'molning minimal darajasi bo'lib insonning biologik imkoniyatlarigina ta'minlanishini anglatadi". Bizningcha, ushbu xulosalarda kambag'allikni aniqlashga qaratilgan yondashuvlar keltirildi. Ularda asosiy e'tibor hayot darajasini belgilab beruvchi omillar – yashash sharoiti, ovqatlanish va kiyim bilan ta'minlanganlik kabi jihatlariga qaratildi. Bu esa, ushbu tovar va xizmatlarni sotib olish uchun minimal daromad darajasini belgilashning zaruratini keltirib chiqaradi.

Xorijiy olimlardan pokistonlik M.Majid va M.Malik tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda "kambag'allikni keltirib chiqaruvchi omillar sifatida savodxonlik darajasi kuchli ta'sir ko'rsatishi keltiriladi". Bunda insonlarning kambag'allikka tushib qolishiga oila boshlig'ining tajribasi, yoshi, jinsi va bandligi kabi omillar ta'sir qilishini keltirib o'tadi. Shuningdek, oila boshlig'i sifatida ayol kishi bo'lishi kambag'allikni keltirib chiqarishga ko'proq ta'sir qiladi degan g'oyani ilgari suradi. Sababi ayollarni ta'lim olishga va daromad topishdagi imkoniyatlari yuqori emasligi bilan izohlanadi.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlar asosida birinchidan, ta'lim olganlik darajasi bilan kambag'allik teskari proporsional ekanligi, ikkinchidan qishloq joylardagilar kambag'allikka kamroq tushayotganligi, uchinchidan shaharlashib borish kambag'allikni pasaytirishini va qishloq hududi esa oshishiga olib kelishini qayd etib o'tadi. O'z navbatida, tajriba, yosh va qishloq xo'jaligida band bo'lish kambag'allikni keltirib chiqarmasligini asoslab beradi. AQSHda ijtimoiy himoya siyosati targ'ibotchilaridan biri M.Fridmen "daromadlarning notengligi omillari statistik taqsimotni aniq ko'rsatmasligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, iste'mol jihatidan daromadlarning taqsimoti ularni yuzaga keltiruvchi sabablarga bog'liq va u buni asoslab beradi". Daromadlarning notengligiga sabablardan biri "insonlarning qobiliyati teng taqsimlanmaganligi sababli ushbu tendensiya yuzaga kelganligini ta'kidlagan olimlardan – biri X.Stakle hisoblanadi". Shu o'rinda, G.Fordning muhim bir iborasini eslash lozim. "Eng zo'r ish – bu yuqori haq to'lanadigan xobbi" deb ta'kidlab o'tganligi inson qobiliyatini to'g'ri yo'naltirilishi lozimligi va savodxonlikni shu yo'nalishda rivojlantirish kerakligini o'zida aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, kambag'allik jamiyatda inson salohiyatini erkin namoyon qilishga to'sqinlik qiladigan, o'z qobiliyatlaridan to'liq foydalanishg, inson jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida hisqilishga imkon bermay unda ma'naviy va moddiy turg'unlik holatini keltirib chiqarish va qashhoqlik madaniyatini shakllanishiga yo'l ochadigan iqtisodiy, ma'naviy va ijtimoiy holatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev.Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – B. 51.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 24.01.2020.
3. Mirziyoyev.Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2020. – B. 416.
4. Abulqosimov.H.P., Abulqosimov.M.H. Iqtisodiyotga oid atama va tushunchalarning izohli lug'ati. / Abulqosimov H.P., Abulqosimov M.H. - T.: "Abu -mattbuot-konsalt", 2017. –B.261-262.
5. Madvaliyev.A. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent.: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" DIN. 2006. –B. 306.
6. Sazanov I.S. Bednost: Natsionalnye i mejdunarodnye kriterii//Chelyabinskiy gumanitarniy. – 2012, -№3(20). – S.80-84.

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI TIZIMIDA DINIY TASHKILOTLARNING OʻRNI VA ROLI

Kamola Mirjonova,
Navoiy Innovatsiyalar Universiteti,
tarix yoʻnalishi, I bosqich magistranti.

Annotatsiya. Ushbu maqola fuqarolik jamiyati institutlari tizimida diniy tashkilotlarning oʻrni va rolini ilmiy jihatdan tahlil qiladi. Maqolada diniy tashkilotlarning institutsional maqomi, huquqiy asoslari va fuqarolik jamiyatidagi ijtimoiy funksiyalari koʻrib chiqiladi.

Kalit soʻzlar: Fuqarolik jamiyati, diniy tashkilotlar, institutsional maqom, huquqiy asoslar, ijtimoiy hamjihatlik, bagʻrikenglik, maʼnaviy barqarorlik, fuqarolik faolligi, ijtimoiy hamkorlik.

Аннотация. Данная статья научно анализирует роль и место религиозных организаций в системе институтов гражданского общества. В статье рассматриваются институциональный статус религиозных организаций, их правовые основы и социальные функции в рамках гражданского общества.

Ключевые слова: гражданское общество, религиозные организации, институциональный статус, правовые основы, социальная сплочённость, терпимость, духовная стабильность, гражданская активность, социальное сотрудничество.

Annotation. This article provides a scientific analysis of the role and place of religious organizations within the system of civil society institutions. The article examines the institutional status of religious organizations, their legal foundations, and their social functions within civil society.

Keywords: civil society, religious organizations, institutional status, legal foundations, social cohesion, tolerance, moral stability, civic engagement, social cooperation.

Kirish. Fuqarolik jamiyati institutlari tizimida diniy tashkilotlar mustaqil, nodavlat va notijorat tuzilmalar sifatida alohida institutsional maqomga ega boʻlib, jamiyatning maʼnaviy-axloqiy hayotini qoʻllab-quvvatlashda muhim rol oʻynaydi. Diniy tashkilotlarning huquqiy asoslari, eng avvalo, konstitutsiyaviy normalarga tayanadi. Huquqiy jihatdan diniy tashkilotlar faoliyati maxsus qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Ushbu hujjatlarda diniy tashkilotlarni tuzish tartibi, ularning huquq va majburiyatlari, davlat organlari bilan munosabatlari, taʼlim, xayriya va maʼnaviy-maʼrifiy faoliyatdagi ishtiroki aniq belgilab qoʻyiladi. Mazkur tartibga solish mexanizmi bir tomondan diniy erkinlikni taʼminlasa, ikkinchi tomondan diniy faoliyatdan gʻarazli maqsadlarda foydalanish, ekstremizm va radikalizm kabi xavfli holatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Shu tariqa huquqiy asoslar diniy tashkilotlarning fuqarolik jamiyatidagi faoliyatini muvozanatli va ijtimoiy masʼuliyatli tarzda olib borishga yoʻnaltiradi.

Institutsional nuqtayi nazardan diniy tashkilotlar davlat va jamiyat oʻrtasida muhim vositachi sifatida maydonga chiqadi. Ular fuqarolarning maʼnaviy manfaatlarini ifodalash, ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni hal etishda jamoatchilik tashabbuslarini ilgari surish imkoniyatiga ega. Diniy tashkilotlarning huquqiy maqomi ularga davlat organlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari va mahalliy hamjamiyatlar bilan hamkorlik qilish, ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish hamda jamoatchilik nazoratida ishtirok etish imkonini beradi. Ayniqsa, ijtimoiy himoya, maʼnaviy tarbiya, oila va yoshlar bilan ishlash, xayriya faoliyati sohalarida ularning institutsional salohiyati yaqqol namoyon boʻladi.

Xalqaro huquq normalari ham diniy tashkilotlarning institutsional maqomi va huquqiy asoslarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarda vijdon va eʼtiqod erkinligi umumiy eʼtirof etilgan tamoyil sifatida mustahkamlangan

bo'lib, bu diniy tashkilotlar faoliyatining milliy huquqiy tizimlar orqali kafolatlanishiga xizmat qiladi. Shu asosda diniy tashkilotlar nafaqat milliy darajada, balki xalqaro fuqarolik jamiyati doirasida ham ma'naviy va ijtimoiy muloqot subyekti sifatida e'tirof etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni amalga oshirishda tizimlilik, qiyosiy va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy jamiyatda diniy tashkilotlar ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlovchi muhim ma'naviy institut sifatida faoliyat yuritadi. Ular jamiyat a'zolarini umumiy axloqiy qadriyatlar, insonparvarlik tamoyillari va o'zaro hurmat asosida birlashtirishga xizmat qiladi. Diniy ta'limotlarda targ'ib etiladigan mehr-shafqat, sabr-toqat, adolat, kechirimlilik va hamdardlik kabi fazilatlar turli ijtimoiy qatlamlar o'rtasida ishonch va birdamlik muhitini shakllantiradi. Ayniqsa, ijtimoiy tabaqalanish, iqtisodiy tengsizlik va madaniy xilma-xillik kuchayib borayotgan sharoitda diniy tashkilotlar jamiyatda ijtimoiy uzilishlarning oldini olish, odamlar o'rtasida ma'naviy bog'liqlikni saqlab qolishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Diniy tashkilotlarning bag'rikenglikni ta'minlashdagi roli ham fuqarolik jamiyati barqarorligi uchun alohida ahamiyatga ega. Ko'p konfessiyali va ko'p millatli jamiyatlarda turli e'tiqod va dunyoqarash vakillari o'rtasida tinch-totuv yashash madaniyatini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Diniy tashkilotlar o'z faoliyati orqali konfessiyalararo muloqot, o'zaro hurmat va hamkorlik g'oyalarini targ'ib etib, diniy asosdagi nizolar va qarama-qarshiliklarning oldini olishga hissa qo'shadi. Bag'rikenglik tamoyillarining targ'ib etilishi diniy e'tiqoddan qat'i nazar, har bir insonning qadr-qimmatini va huquqlarini tan olishga asoslangan ijtimoiy muhitni qaror toptiradi. Bu esa fuqarolik jamiyatida barqarorlik va totuvlikning muhim sharti hisoblanadi.

Ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda diniy tashkilotlar jamiyatning axloqiy poydevorini mustahkamlovchi muhim subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Globallashtirish va axborot oqimlarining keskin kuchayishi sharoitida jamiyatda ma'naviy bo'shliq, qadriyatlar inqirozi va ma'naviy begonalashuv kabi xavfli holatlar yuzaga kelishi mumkin. Diniy tashkilotlar ana shunday sharoitda jamiyat a'zolarini milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lishga, ma'naviy merosni asrab-avaylashga va uni avloddan-avlodga yetkazishga undaydi. Ularning ma'naviy-ma'rifiy faoliyati shaxsning ichki dunyosini boyitish, maqsad va hayotiy pozitsiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Diniy tashkilotlar ijtimoiy hamjihatlik va ma'naviy barqarorlikni mustahkamlashda amaliy faoliyati bilan ham alohida ajralib turadi. Xayriya ishlari, ijtimoiy yordam, muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, oilalarni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslar orqali ular jamiyatda ijtimoiy mas'uliyat va hamdardlik tuyg'ularini kuchaytiradi. Bu jarayon nafaqat moddiy yordam ko'rsatish bilan cheklanadi, balki jamiyatda o'zaro yordam va ishonch madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada diniy tashkilotlar ijtimoiy muammolarni hal etishda davlat va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik qiluvchi muhim hamkor sifatida namoyon bo'ladi.

Alohida ta'kidlash lozimki, zamonaviy fuqarolik jamiyati rivojida diniy tashkilotlar nafaqat ma'naviy va axloqiy poydevorni mustahkamlash, balki jamiyat a'zolari o'rtasida ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish va fuqarolik faolligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ularning institutsional imkoniyatlari va jamiyatdagi nufuzidan kelib chiqib, diniy tashkilotlar turli ijtimoiy tashabbuslarni ilgari suradi, fuqarolarni jamoat ishlarida ishtirok etishga rag'batlantiradi va ko'plab notijorat, xayriya yoki ijtimoiy loyihalarda faol qatnashadi. Shu tariqa ular jamiyatning turli qatlamlari o'rtasida muloqot va hamkorlikni kuchaytiradi, fuqarolar o'rtasida ijtimoiy ishonch va birdamlikni shakllantiradi. Bu jarayon fuqarolik jamiyatining asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan ijtimoiy faollik va hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Diniy tashkilotlarning fuqarolik faolligini oshirishdagi roli shaxslarning huquqiy ongini shakllantirish bilan chambarchas bog'liq. Ular fuqarolarni o'z huquqlari va majburiyatlari haqida xabardor qilish, ijtimoiy jarayonlarda qatnashish mexanizmlarini tushuntirish, jamoatchilik nazorati va mahalliy hamjamiyat tashabbuslariga jalb etish orqali fuqarolik madaniyatini

rivojlantiradi. Ayniqsa, yoshlar va oilalar bilan ishlashda diniy tashkilotlar nafaqat ma'naviy tarbiya berish, balki fuqarolik ongini shakllantirish, mas'uliyatni his qilish va jamoat hayotida faol ishtirok etishga rag'batlantirish vazifasini bajaradi. Bu esa jamiyatda barqaror fuqarolik munosabatlarini yaratishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishda diniy tashkilotlar davlat va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan sinergiya yaratadi. Xayriya fondlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, mahalliy hamjamiyatlar va davlat idoralari bilan hamkorlik qilish orqali ular ijtimoiy muammolarni birgalikda hal qilish, ehtiyojmand qatlamlarni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, diniy tashkilotlarning ijtimoiy hamkorlikdagi roli fuqarolar o'rtasida kooperatsiya va ijtimoiy ishonchni mustahkamlash, jamoaviy qarorlar qabul qilish madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bu jihat jamiyatning ma'naviy va ijtimoiy barqarorligini oshiradi, fuqarolik jamiyatining samarali rivojlanishida muhim omil bo'ladi.

Diniy tashkilotlarning ijtimoiy hamkorlik va fuqarolik faolligini oshirishdagi ahamiyati, shuningdek, konfliktlarni oldini olish va ijtimoiy totuvlikni mustahkamlash bilan ham bog'liq. Ular jamoatchilikni keng qamrovli muammolar, ekologik, ijtimoiy va madaniy tashabbuslar bilan tanishtiradi, turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida muloqot platformalarini yaratadi va qarama-qarshi qarashlarni murosaga asoslangan yechimlar orqali hal etishga ko'mak beradi. Shu tariqa diniy tashkilotlar fuqarolik jamiyatida jamiyat a'zolarining mas'uliyatli va faol fuqarolar sifatida shakllanishiga hissa qo'shadi. Ularning bu roli nafaqat amaliy, balki simvolik jihatdan ham muhim bo'lib, jamiyatda hamkorlik, ishonch va fuqarolik faolligi madaniyatini mustahkamlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Fuqarolik jamiyati institutlari tizimida diniy tashkilotlar jamiyatning ma'naviy-axloqiy poydevorini mustahkamlash, ijtimoiy hamjihatlikni rivojlantirish va fuqarolik faolligini oshirishda muhim o'rin egallaydi. Ular shaxs va jamiyat o'rtasida muvozanatni saqlash, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash va bag'rikenglik muhitini shakllantirish orqali jamiyatda barqarorlikni ta'minlaydi. Diniy tashkilotlarning institutsional maqomi va huquqiy asoslari ularning mustaqil va qonuniy faoliyatini kafolatlab, jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlar o'rtasida samarali muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yish imkonini beradi.

Shuningdek, diniy tashkilotlar ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish, xayriya va ma'naviy-ma'rifiy tashabbuslarni amalga oshirish orqali fuqarolik jamiyatining samarali ishlashiga sezilarli hissa qo'shadi. Ularning faoliyati fuqarolarni jamoatchilik ishlariga jalb etadi, ijtimoiy mas'uliyatni oshiradi va fuqarolik faolligini rag'batlantiradi. Shu tariqa, diniy tashkilotlar fuqarolik jamiyatining barqaror rivojlanishida strategik ahamiyatga ega institut sifatida namoyon bo'ladi va jamiyatning ma'naviy, ijtimoiy va madaniy barqarorligini ta'minlashda markaziy rol o'ynaydi.

1. Mirziyoyev.Sh.M. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi". — Toshkent: O'zbekiston, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2023.
3. To'raqulov A., Jo'rayev B. Fuqarolik jamiyati asoslari. — Toshkent: Akademnashr, 2019.
4. Qosimov S. Din va jamiyat: ijtimoiy-falsafiy tahlil. — Toshkent: Fan, 2017.

MAKON VA ZAMON

Ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-sotsiologik,
ma'naviy-ma'rifiy jurnal

2025/6

ISSN tartib raqami 3030–3974

Bosh muharrir – tahririyat rahbari:

Q.N.Nazarov – *f.f.d., professor*

Nashrga tayyorlovchilar:

M.Tursunova, M.Turdiyeva, Q.Kdirbayev

Tahririyat manzili:

Qori Niyoziy ko'chasi, 39,

Toshkent shahri, 100000, O'zbekiston

tiame.uz

Bichimi 60x84 Ofset qog'ozi. "Times" garniturası.

Hajmi 20 b.t. Nashriyot hisob tabog'i 30 b.t. Adadi 100 nusxa